Ta`limning elektron resurslari

- 1.<http://www.istedod.uz>
- 2.<http://www.siyosat.uz>
- 3.<http://www.ziynet.uz>
- 4.<http://www.tdpu.uz>

2. SILLABUS

Fanning qisqacha tavsifi		
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Toshkent farmatsevtika instituti Oybek ko‘chasi, 45	
Kafedra:	Ijtimoiy fanlar kafedrasi	Sanoat farmatsiyasi fakulteti tarkibida
Ta'lim sohasi va yo‘nalishi:	510000 – “sog‘liqni	Farmatsiya, kasbiy ta’lim, canoat farmatsiyasi,

	saqlash” ta’lim sohasi		biotexnologiya		
Fanni (kursni) olib boradigan o’qituvchi to’g’risida ma’lumot:	Katta o’qituvchi f.a.abdullaeva		E-mail:		Farihon72@mail.ru
Dars vaqti va joyi:	2-bino 24,23, 8, 2...- auditoriyalar		Kursning davomiyligi		02.09.2014-20.01.2015
Individual grafik asosida ishlash vaqti:	Juma kunlari 12.00 dan 13.20 gacha				
Fanga ajratilgan	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta’lim:	28
Soatlar	Ma’ruza:	18	Amaliyot		
Fanning boshqa fanlar bilan bog’liqligi (prerekvizitlari):	“psixologiya”, “falsafa”, “madaniyatshunoslik”, “ma’naviyat asoslari” “siyosatshunoslik”.				
Fanning mazmuni					
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	Fanni o’qitishdan maqsad - o’zbekistonda adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamda demokratik huquqiy davlat barpo etishda bosh huquqiy omil hisoblangan o’zbekiston respublikasi konstitutsiyasining jamiyatdagi o’rni va huquq sohaslarining asosi sifatidagi ahamiyatini, davlat va huquq nazariyasiga oid asosiy tushuncha va qonuniyatlari va boshqa huquq tizimi sohaslarining asoslari yuzasidan talabalarining bilimlarini shakllantirishdan iboratdir. Fanning vazifasi - talabalarda davlat va huquqning vujudga kelishi va rivojlanishi hamda o’zbekiston milliy huquq tizimining asosiy sohalari borasidagi umumnazariy bilimlarni shaxs va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqqan holda normativ-huquqiy hujjatlarni qo’llash mahoratini, o’rgatishdan iborat.				
Talabalar uchun talablar	“Huquqshunoslik” o’quv fanini o’zlashtirish jarayonida o’rganiladigan masalalar doirasida bakalavr: - davlat va huquq hodisalari, xususan, davlat va huquqning paydo bo’lishi, rivojlanishi, amal qilishi va istiqboli, demokratik huquqiy davlat barpo qilish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlovchi huquqiy tizim hamda asosiy qonun <i>haqida tasavvurga ega bo’lishi;</i> - o’zbekiston respublikasi konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonunlar, huquqiy tizim va qonunchilik asoslarini, huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatini, o’zbekiston respublikasining ma’muriy xududiy tuzilishi, davlat hokimiyati idoralari tuzilishi va faoliyati <i>haqida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo’lishi;</i> - ixtisosligi bilan bog’liq mehnat faoliyati davomida sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlardan to’g’ri foydalanish va o’ziga tegishli huquq hamda erkinliklari, majburiyatlarini qonunchilik doirasida qo’llash <i>ko’nikmasiga ega bo’lishi lozim.</i>				
Elektron pochta orqali	Professor-o’qituvchi va talaba o’rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham				

munosabatlar tartibi	amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochta ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha
----------------------	--

Fan mavzulari va unga ajratilgan soatlar taqsimoti:

№	Mavzular	Ma'ruza	Amaliy (seminar)	Mustaqil ish
1	Davlat va huquq nazariyasining kelib chiqishi va rivojlanishi. Ma'muriy huquq asoslari.	2	2	4
2	Fuqarolik huquqi asoslari.	2	2	3
3	iste'molchilarning asosiy huquqlari va ularning himoya qilinishining maqsad va vazifalari.	2	2	3
4	Mexnat huquqi asoslari. Oila huquqi.	2	2	3
5	Jinoiy huquq asoslari	2	2	3
6	Tabiatni muxofaza qilish huquqi.	2	2	3
7	Xalqaro huquq asoslari	2	2	3
8	Oliy majlis–o'zbekiston respublikasining parlamenti O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining konstitutsiyaviy-huquqiy holati	2	2	3
9	Vazirlar mahkamasi – o'zbekiston respublikasining hukumati.	2	2	3
		18	18	28

Talabalar bilimni baholash tizimi:

T/r	Nazorat turidagi topshiriqlarning nomlanishi	Maksimal yig'ish mumkin bo'lgan ball	Jn va on ballar taqsimoti
I. Joriy nazoratdagi ballar taqsimoti		60 ball	
Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda		Maksimal ball	Jn
1.	Talabaning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardagi faolligi va o'zlashtirish darajasi, daftarlarning yuritilishi va holati	55	0-6

2.	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi (keys-stadilar, esse, referat, taqdimot va boshqa turdagi mustaqil ta'lim topshiriqlari)	5	0-5
Ii. Oraliq nazorat		10 ball	
1.	Birinchi oraliq nazorat (amaliy mashg'ulot o'qituvchisi tomonidan qabul qilinadi)	5	Semestrning 7-haftasi
Iii. Yakuniy nazorat		30 ball	Semestrning oxirgi ikki haftasida
Jami:		100 ball	
Asosiy adabiyotlar:		O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini O'rganish. Bakalavriatning noyuridik yo'nalishlari 1. Uchun. O'quv qo'llanma jamoa--t.: o'zbekiston, 2001. --463 b. Jalilov sh.i., g.yu.ganieva konstitutsiyaviy huquq. 2. O'quv qo'llanma --t.: o'zmu, 2005. O'zbekiston respublikasining konstitutsiyaviy 3. Huquqi. Mualliflar jamoasi. Darslik.t.: tdyui.- 2005 545 b. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini O'rganish: (lotin yozuvidagi darslik) 4. Mualliflar jamoasi, bakalavriatning noyuridik yo'nalishlari uchun. --t.: yangi asr avlodi, 2005. O'zbekiston respublikasining konstitutsiyaviy Huquqi faniga sxemali o'quv-metodik qo'llanma 5. / so'z boshi a.a.azizxo'jaev; tuzuvchilar: o.xusanov, x.azizov va boshq. --t.: sharq, 2001. --128 b. Jalilov sh.i., g.yu.ganieva konstitutsiyaviy huquq. 6. O'quv qo'llanma --t.: o'zmu, 2008. Tuxtasheva u., abdurahmonxo'jaeva j "o'zbekiston Respublikasida sudyalalar maqomi". T. Tdyui.	


	2010 yil.
Qo'shimcha adabiyotlar:	1. Atajanova d. Mehnat qilish huquqi: Bozor munosabatlari sharoitida amalga Oshirish va himoyalash muammolari. tdyui. 2010 yil. 2. Boltaev a.r. Ispolnitelnaya vlast v respublike uezbekistan. monografiya. –tashkent.: tdyui, 2006.-268 s. 3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va o'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi. t. o'zbekiston. 2010. 4. Rustamboev m.h. saidov a.x “yashash huquqi va o'zbekistonda o'zbekistonda o'lim jazosining bekor qilinishi”. t. tdyui. 2009 yil. 5. Saidov a. h. “O'zbekistonda ayollar huquqlari”. t. inson huquqlari bo'yicha o'zbekiston respublikasi milliy markazi. 2010 yil.

II. FANNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.

“Aqliy Hujum” Metodi

Aqliy hujum metodi – dars mavzusiga oid qo'yilgan muammoni echish yoki savolga javob topish maqsadida g'oyalarni jamlash va saralash usuli bo'lib hisoblanadi. Talabalar birgalashib echimi noma'lum muammoni echishga yoki savolga javob topishga harakat qilishadi. Eng qulay va ma'qul echimni yoki javobni topish bo'yicha shaxsiy fikrlarini bildiradilar.

Bu usulda bajarish bosqichlari quyidagilar:



Aqliy hujum metodi ushbu mavzu doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlashga, ayni vaqtda ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlashga sharoit yaratib beradi.

Dars jarayonida "aqliy hujum" metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:


- Talabalarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash;
- Talabalarning kutilmagan mantiqiy fikrlarni bildirishlariga erishish;
- Talabalar tomonidan bildirilgan fikr va g'oyalarni rag'batlantirib borish;
- Talaba o'zining shaxsiy fikr va g'oyalarga asoslanishi yoki aksincha o'z fikrini o'zgartirishi mumkin ekanligini tushuntirish;
- Boshqalar tomonidan bildirilgan fikr yoki g'oyalar ustidan kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik;
- Yangi fikr va g'oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammoning yagona to'g'ri echimini e'lon qilishga shoshilmaslik;
- Dars jarayonida talabalarning har qanday faoliyatlari, ular bildirayotgan fikr va g'oyalarni iloji boricha rag'batlantirib borish.

Mashg'ulot jarayonida talabalar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholash, darajalarga ajratish mumkin emas. Agarda fikrlar baholansa, darajalarga ajratilsa, talabani diqqat e'tibori faqat o'zini fikrini olg'a surish, qolganlarni fikriga tanqidiy qarash, hurmatsizlik bildirib, oqibatda yangi fikrlar ilgari surilmaydi.

Ushbu metodni qo'llashdan asosiy maqsad talabalarni muammo bo'yicha keng fikr yuritishga, bir – birini fikriga hurmat bilan qarashga, eshitishga, fikr bildirishga va umumiy xulosa chiqarishga o'rgatishdir.

"swot-tahlil" metodi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, baxs –munozaralar o'tkazishda yoki o'quv seminari yakunida, yoki o'quv rejasi asosida biron bir bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin. Bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshkalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga



“keys-stadi” metodi



Keys-stadi interaktiv ta’lim metodi sifatida tinglovchilar tomonidan eng afzal ko‘riladigan metodlar qatoriga kirmoqda. Ushbu texnologiya asosan farmatsevtika fanlaridan dars beruvchi o‘qituvchi va tinglovchilarning umumiy intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Buning sababi sifatida ushbu metod tinglovchilarga tashabbus bildirish, nazariy holatni o‘zlashtirishda hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda mustaqillikka ega bo‘lish imkoniyatini berishda ko‘rish mumkin. O‘z navbatida vaziyatlarning analizi (tahlili) tinglovchilarning kasbiy shakllanish jarayoniga kuchli ta’sir o‘tkaza olishi, ularning kasbiy jixatdan “ulg‘ayishiga” xizmat qilishi, ta’lim olishga nisbatan qiziqish va ijobiy motivatsiyaning shakllantirishi alohida ahamiyatga ega. Keyslar metodi o‘qituvchining tafakkur turi sifatida, alohida paradigma ko‘rinishida gavdalanib, ijodiy salohiyatni rivojlantirish, noan’anaviy tarzda fikrlash imkoniyatini beradi.

“keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	• Yakka tartibdagi audio-vizual ish; • Keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); • Axborotni umumlashtirish; • Axborot tahlili;

	• Muammolarni aniqlash
2-bosqich:keysni aniqlash-tirish va o'quv topshirig'ni belgilash	• Individual va guruhda ishlash; • Muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; • Asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	• Individual va guruhda ishlash; • Muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; • Har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; • Muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	• Yakka va guruhda ishlash; • Muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; • Ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; • Yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Laboratoriyaga yangi yuqori samarali xromatografi o'rnatildi. Ammo ishga tushirishning imkoni bo'lmadi.

“Assesment” Metodi

Ushbu “assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.



Metod : og'zaki bayon qilish, suhbat munozara. “fsmu» texnologiyasi elementlari.

Ф – Фикрингизни баён этинг

С- кўрсатинг;

М – мисол келтиринг

У – умумлаштиринг

Tezkor fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. Yakka xolda guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. O'z tafakkuriga ko'ra fikr bayon eta olish, bayon etgan fikriga sabab ko'rsata olish, ko'rsatgan sabablariga isbotlovchi misol keltira olish va fikrini umumlashtirish kabi qobiliyatlarini shakllantiradi. Nutqi rivojlanadi, eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O'zini fikrini isbotlay olish, fikrini himoya qila olishni o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.

III.NAZARIY MATERIALLAR


Mavzu: davlat va huquq nazariyasining kelib chiqishi

Reja

1. Davlatning kelib chiqishiga doir nazariyalar.
2. Davlatning belgilari, shakllari va uning funksiyalari.
3. Huquq va uning tushunchasi.

1. Davlatning kelib chiqishiga doir nazariyalar. Davlat jamiyat rivojining muayyan bosqichida yuzaga kelgan. U o'zining shakllanishida va rivojlanishida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tgan. Jamiyat rivojining dastlabki bosqichlarida davlat yetarlicha rivojlanmagan siyosiy hodisa bo'lgan. Bunday davlat, zorlik va majburlashga asoslangan.

Davlat va huquqning kelib chiqishi to'g'risidagi masala ko'p asrlar davomida ko'plab mutafakkir faylasuflar, huquqshunoslar, iqtisodchilar va tarixchilarni o'ylantirib kelgan. Davlat va huquqning kelib chiqishida o'ndan ortiq nazariyalar bor. Shularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.



1. *teologik nazariya* - bunda davlatning xudo tomonidan yaratilganligini uqtiradilar davlat va "butun hokimiyat xudoniki" degan qoidani ilgari suradilar.

Bu nazariya qadimda paydo bo'lgan va o'rta asrlarda keng tarqalib hozirgi kunda ham teologik nazariya islom davlatlarida qo'llaniladi.

2. *Patriarxal nazariya* tarafdorlari davlat kattalashib ketgan oiladan bevosita kelib chiqqan, monarx hokimiyati esa oilaning barcha a'zolariga rahbarlik qiladigan otadan meros bo'lib o'tgan deb hisoblaydilar. Bu nazariya yunonistonda (qadimgi rim davlatida paydo bo'lgan) aristotel asarlarida asoslab berilgan. Bu nazariyani ingliz sotsiologi, tarixchisi va huquqshunos genri men sistemaga solib ishlab chiqqan. Patriarxal nazariyada "ota rozi - xudo rozi" zaylida ish tutadi. Xvii asrda ingliz olimi filmerning "patriarx" asarida injilga asoslanib, odam ato xudodan hokimiyatni olib, o'zining katta o'g'li patriarxga, u esa o'zining avlodlari - qirollarga berganligini isbotlashga urinilgan.

3. *Shartnoma nazariyasi*. Bu nazariya xvii-xviii asrlarda paydo bo'lgan. Gollandiyada ushbu nazariyani gugo grotsiy va spinoza, angliyada - lokk va gobbs, fransiyada - russo, rossiyada - radishchev rivojlantirgan. Shartnomani nazariyasiga ko'ra, dlat - ongli ijod maxsuli, odamlar kelishgan ahd natijasi. "shartnoma nazariyasi"ga muvofiq davlat hokimiyati kishilarning o'zaro birlashib ixtiyoriy shartlashganligining ifodasidir. Davlat - o'zaro kelishuv asosida va ongli tarzda birlashgan kishilar tashkiloti bo'lib, ana shu shartnoma asosida ular o'zlarining erkinliklari va hokimiyatning bir qismini davlatga beradilar. Agar monarx hokimiyatni su'iste'mol qilsa, xalq qo'zg'olon ko'tarishga va monarxni taxtdan og'darishga haqli bo'lgan.

4. *Zo'ravonlik (bosqinchilik) nazariyasi* (k. Kautskiy, I. Gumplovich, ch. Dyuring)ga ko'ra, davlatning kelib chiqishi asosan zo'rlik harakati, bir xalqning boshqa xalqni bosib olishi natijasida vujudga keladi. Davlat g'olibning hokimiyatini mustahkamlash uchun tuziladi.

5. *Psixologik nazariyasi*. Bunda davlat kelib chiqishida, insonlar o'z tabiatiga, biologik instinkt xususiyatlariga ko'ra boshqarilish, itoat etishga intilar emishlar. Ulardagi bu ehtiyoj faqat davlat mavjud bo'lgan taqdirdagina qondirilarmish.

6. *Irrigatsiya nazariyasiga* ko'ra, davlatlarning kelib chiqishi, ularning shakllari sharqda ulkan irrigatsiya inshootlarini qurish va ulardan foydalanish bilan bog'liq.

7. *Sinfy nazariya* namoyandalari (k. Marks, f. Engels, v.i. Lenin) fikricha, davlat iqtisodiy sabablar – ijtimoiy mehnat taqsimoti, qo'shimcha mahsulot va xususiy mulkning paydo bo'lishi, jamiyatning qarama-qarshi sinflarga ajrilishi tufayli kelib chiqqan. V.i.Lenin "davlat va revolyusiya" asarida davlatni sinflarni keltirish organi emas, balki sinfiy hukmronlik organi, bir sinfning boshqa sinfni bostirish quroli, bir sinfning boshqa sinf ustidan hukmronlikni ta'minlash mashinasi deb hisoblagan. Bu nazariyaning natijasida sinfiy hukmronlik o'rnatish maqsadida repressiyalar bo'lib, ziyolilarni yo'q qilingan.

Abu nasr farobiy davlatning paydo bo'lishini odamlarning birlashib yashashga bo'lgan intilishi deb aytadi. Ular birlashgach, tashkilotga zarurat seziladi. Bu esa davlatdir.

Yana bir olim Ahmad Donish davlatni xalq bilan podsho o'rtasida xalqni talon-tarojdan himoya qilish maqsadida tuzilgan shartnoma natijasida paydo bo'ladi deydi.

2. Davlatning belgilari, shakllari va uning funksiyalari.

Davlat keng ma'noli tushuncha bo'lib, uning mohiyatini tushunishda 3 asosiy nazariy yondoshuv mavjud:

1) ijtimoiy – bunda umumiy muammolar va ishlarni hal etish vositasi, u hukmdorlar va xalqning o'zaro munosabatini tartibga soladi;

2) sinfiy – bunda davlat sinflarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan va sinfiy kurash bir sinfning boshqasini bostirish quroli;

3) siyosiy-huquqiy – bunda davlat jamiyatning va davlatning hayotini tashkil etuvchi huquq manbaidir.

Davlatning mohiyatida uchala yondoshuvda ham muayyan asos bor. Lekin, bir nazariy qarashni, ikkinchisidan ustun qo'yilganda yangilashuv (hukmronlik) bo'ladi.

Yurtboshimiz i.A.Karimov ta'biri bilan aytganda, har bir davlat betakror ijtimoiy hodisadir. U har qaysi xalq tarixiy va ma'naviy taraqqiyotning hosilasidir, uning o'ziga xos, o'ziga mos madaniyati rivojining natijasidir. O'zbekiston uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlarini, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi.

Davlat – butun mamalakati miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va o'z suverenitetligiga ega bo'lgan tashkilot.

Davlat – bu butun jamiyatni birlashtirib turuvchi, boshqaruvning hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo'lgan, shuningdek huquq normalarini yaratishga qodir bo'lgan hokimiyatning hududiy tashkilot.

Davlat – bu butun jamiyatni birlashtirib turuvchi, uning bir me'yorda ishlashini ta'minlaydigan, jamiyat nomidan ish ko'radigan maxsus boshqaruv, majburlov apparatiga ega bo'lgan tashkilot.

Davlatning asosiy belgilarini quyidagilardan iborat.

O'ziga xos ommaviy hokimiyat – davlat hokimiyatining mavjudligi, ya'ni hokimiyat va

boshqaruv apparatining, majburlash apparatining borligi;

Aholining hududlar bo'yicha uyushganligi (fuqarolarning davlat chegaralari doirasida, muayyan ma'muriy-hududiy birliklarda yashashi);

Suverenitet (mustaqil bo'lishi);


Huquqning mavjudligi;

Soliqlarning mavjudligi;

Umuminsoniy funksiyalarni bajarish (mudofaa, jinoyatchilikka qarshi kurash, umumiy faravonlik).

Davlat shaklidan uch tarkibiy qism – *boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy idora usuli* birligida olingan siyosiy hokimiyat tashkiloti tushuniladi.

Davlatning shakllari



1) Boshqarish shakli:

➤ *Respublika* – *parlamentar* va *prezidentlik* bo'lishi mumkin (*aralash* bo'lishi ham mumkin. Masalana, fransiyada prezident saylanadi, u katta vakolatlarga ega, lekin u hukumatni boshqarmaydi);

➤ *Monarxiya* (yakka hokimlik) – *cheklangan*, ya'ni konstitutsiyaviy (dualistik va parlament (angliya, belgiya, norvegiya, shvetsiya) monarxiya va *cheklanmagan* (mutloq) monarxiya bo'lishi mumkin.

2) Tuzilish shakli:

Oddiy – unitar (markaziy hokimiyat mahalliy idoralari ustidan nazoratning qay turini amalga oshirishiga karab unitar davlatlar markazlashgan va markazlashmagan turlarga bo'linadi). Unitar davlatning federativdan farqi unda yakka konstitutsiya, oliy davlat organi va h.k. Bo'ladi;

➤ *Murakkab* – federativ (federatsiyalarning ikki turi ittifoq va avtonomiya mavjud) va konfederativ (konfederativ davlatlarning muayyan ittifoqi bo'lib, iqtisodiy, siyosiy, harbiy maqsadlar uchun shartnoma va bitim asosida tuziladi) bo'lishi mumkin.

3) Siyosiy idora usuli:

➤ *Demoqratik*;

➤ *G'ayridemokratik* bo'lishi mumkin.

Davlat funksiyalari deganda, uning faoliyat yo'nalishlari tushuniladi.

Davlat funksiyalari:

- Faoliyat sohalari bo'yicha (tashqi va ichki);
- Amal qilish davomiyligi bo'yicha (doimiy va muvaqqat);
- Ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra (umumiy va alohida);
- Amalga oshirishning huquqiy shakllari bo'yicha (huquq ijodkorligi, boshqaruv, sudlov) bo'ladi.
- Ichki-regulyativ (tartibga solish, boshqarish) va qo'riqlash (tabiat, mulk)
- Tashqi-xalqaro hamkorlik va mudofaa, xafvsizlik

Hozirda davlatlarining quyidagi turlari mavjud:

1. *Totalitar davlat* – bunda “davlat – hamma narsa, inson esa, hech narsa” degan g'oya hukmronlik qiladi. Barcha hokimiyat hukmron elita qo'lida bo'lib, boshqalar davlatni boshqarishdan chetlatiladi.

2. *Avtoritar davlat* – bunda haqiqiy davlat elita qo'lida bo'ladi, shaxsning manfaatlari davlat manfaatlariga qurbon qilinadi. Siyosiy sohada ijozat etilganidan tashqari, barcha narsa taqiqlanadi.

3. *Liberal davlat* – bunda jamiyat hayotining barcha sohalarida fuqarolarning huquq va erkinliklari rasman tengligi amal qiladi, fuqarolarning davlat ishlarida rasman qatnashuvlariga yo'l qo'yiladi.

4. *Demokratik davlat* – bunda fuqarolarning davlat va jamoat ishlarini boshqarishda qatnashishi huquqlarini ta'minlaydi, shunday ishtirokka yordam beradi. Shaxs huquq va erkinliklarining doirasi keng bo'lib, ularni amalga oshirish ham ta'minlanadi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonunda bevosita taqiqlanmagan harakatlarni amalga oshirishga yo'l qo'yiladi.

Huquqiy davlat – jamiyatning irodasini ifoda etuvchi va uni aks ettiruvchi, qonunning ustuvorligiga asoslangan umumiy tashkilotdir.

Insonparvar huquqiy davlatning belgilari:

1. Konstitutsiya va qonunning ustuvorligi;
2. Davlat hokimiyati tizimining taqsimlanish prinsipi;
3. Insonning huquq va erkinliklariga rioya etish va ularni himoyalash;
4. Oliy qadriyat sifatida inson huquq va erkinliklarini joriy etish shart-sharoitlarning yaratilishi;
5. Demokratilik;
6. Siyosiy va huquqiy madaniyat darajasini yuksalishi;
7. Adolatli fuqarolik jamiyatining yaratilishi;
8. Sud-huquqiy islohotlarining o'tkazilishi;
9. Sudning mustaqilligi;
10. hokimiyat vakolatlarini taqsimlash va huquqiy davlat tizimini yaratish maqsadida qonunlarni chiqarish va takomillashtirish.

Islom karimov ta'biri bilan aytganda huquqiy davlatning asosiy belgisi barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, konstitutsiya va qonunlarning ustunligini ta'minlashidir.

Huquqiy davlat nazariyasi bilan uni amalga oshirish o'rtasida katta farq bor. Hozirgi paytda huquqiy davlat nazariyasi dunyodagi ko'pgina davlatlarning konstitutsiyalarida o'z aksini topgan. Masalan, 1978 yilda qabul qilingan ispaniya konstitutsiyasining 1-moddasi 1-bandida bu mustahkamlab qo'yilgan. Huquqiy davlat to'g'risidagi g'oyalar avstriya, gretsiya, italiya, fransiya, shvetsiya, shveytsariya va boshqa bir qator yuqori darajada rivojlangan davlatlarning konstitutsiyalarida belgilab qo'yilgan.

1993 yilgi rossiya konstitutsiyasida huquqiy davlat to'g'risidagi g'oya to'g'ridan-to'g'ri o'z aksini topgan. Uning birinchi moddasida «rossiya federatsiyasi – rossiya respublika boshqaruv shaklidagi demokratik, federativ, huquqiy davlatdir», – deb yozib qo'yilgan.

1992 yilda qabul qilingan o'zr ning konstitutsiyasini muqaddimasida ham huquqiy demokratik davlat to'g'risidagi g'oya o'z ifodasini topgan.

Jamiyat – muayyan eptiyoj va manfaatlariga ko‘ra birlashgan kishilarning ma'lum tarzda tashkil topgan majmuasidir. Jamiyat birlashishga moyil bo‘lgan birliklar, ya'ni guruhlar, sinflar, qatlamlardan iboratdir. Jamiyat tushunchasi davlat tushunchasidan kengdir.

Fuqarolik jamiyati – haqiqiy fuqarolardan, ya'ni uzviy bog‘liqlikda bo‘lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir. Fuqarolik jamiyatiga davlatning kuchli ta'siri bo‘lmaydi. Bunday jamiyat o‘zini-o‘zi yuksak darajada tashkil etishi bilan airtali.

Huquq – davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalarining tizimi.

Hozirgi kunda huquq quyidagi ma'nolarda ko‘llaniladi:

Birinchidan, muayyan jismoniy yoki yuridik shaxsning huquqi.

Ikkinchidan, huquq hamma uchun majburiy bo‘lgan, davlat tomonidan o‘rnatiladigan va bajarilishi ta'minlanadigan, muhofaza qilinadigan qoidalar, me'yorlar majmuidir.

Uchinchidan, huquq ijtimoiy fan sohalaridan birining nomi bo‘lib, davlat va huquq haqidagi ilmlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Huquq belgilari:

1. Barcha uchun majburiyligi.

2. Davlat tomonidan ta'minlanganligi (rasmiy belgilangan)

3. Huquq normalarida aks etishi.

Huquq haqida yuridik adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan:

«huquq – bu davlat tomonidan o‘rnatiladigan yoki ma'qullanadigan va ko'riklanadigan, hamma uchun majburiy bo'lgan yashash qoidalaridir. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi reguliyatordir»¹.

«huquq – davlat tomonidan belgilangan yoki ruxsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalari tizimi»²dir.

O‘zbekiston respublikasi prezidenti islom karimov huquqqa shunday ta'rif bergan: «huquq ijtimoiy hamjixatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi»³dir.

Huquq – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarda o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi norma. Huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizm sifatida insoniyat jamiyati taraqqiyoti qonunlariga muvofiq rivojlanib, takomillashib boradi.

Huquq jamiyat a'zolari xatti-harakatlarini me'yoriga soluvchi vositalar sifatida davlat hokimiyat va boshqaruv organlari tomonidan chiqariladigan omillar va boshqa huquqiy hujjatlarda ifodalanadi.

Mustaqil tayorlash uchun savollar:

1. «davlat va huquq asoslari» fani xakida tushuncha?
2. Davlatning kelib chiqishiga doir qanday nazariyalar mavjud?
3. Davlatning jamoat birlashmalaridan farqi qanday?
4. Davlatning tushunchasi, belgilari, shakllari, vazifalari nimalardan iborat?
5. Hozirgi davrda jahon davlatlarining tiplari kanday?
6. O‘zbekiston respublikasining davlat shakllarini aytib bering.

¹ «Davlat va huquq nazariyasi» A A'zamxujayev va Sh.Urayayev tahriri ostida / –T., 255-bet.

² Tojixanov U., Saidov A. «Davlat va huquq asoslari». O'quv qo'llanma. – T., 1999. 40-bet.

³ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. –T., «O'zbekiston», 26-bet.

7. Huquq, uning belgilari va vazifalari qaysilar?
8. Huquq normasi va huquqiy munosabatlar nima?
9. Huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik haqida tushuncha bering?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. –t.: «o'zbekiston», 2016.
2. Karimov i. “mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”, o'zbekiston respublikasi oliy majlisi qonunchilik palatasi va senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi, “xalq so'zi”, 28 yanvar 2010 yil.
3. Saidov a., tojixonov u., odilqoriev x. “davlat va huquq asoslari”. Darslik. – t.: sharq, 2002. 168-b; 203-b.
4. Saidov a., tojixonov u. “davlat va huquq nazariyasi”. – t.: adolat, 2001. 97-100-b; 154-b; 255-b.

MAVZU: MA'MURIY HUQUQ ASOSLARI

Reja

1. Ma'muriy huquq, uning normalari va manbalari.
2. Boshqaruv organlari tushunchasi, turlari, tizimi, shakllari va usullari.
3. Fuqarolarning ma'muriy-huquqiy holati va ma'muriy javobgarlik.

Ma'muriy huquq, uning normalari va manbalari. Ma'muriy huquq davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayonida kelib chiqadigan turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ma'muriy huquqning predmeti, uning normalari bilan tartibga solinadigan ana shu ijtimoiy munosabatlardir. Bu munosabatlar ma'muriy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Demak, ma'muriy huquq ma'muriy-huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Bu tartibga solish ma'muriy huquqning normalari orqali amalga oshiriladi.

Ma'muriy huquq normalari avvalo davlat boshqaruvining prinsiplarini belgilab beradi. Shuningdek, bu normalar davlat boshqaruv organlarini tashkil etish, tugatish masalalarini, vakolatlari doirasini belgilab beradi. Ma'muriy huquq normalari jamoat tashkilotlari va fuqarolarning boshqaruv sohasidagi huquq hamda burchlarini, davlat apparatiga xizmatga kirish qoidalarini, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun ma'muriy javobgarlik masalalarini, yo'l harakati, savdo, ov qilish, oliy o'quv yurtlariga kirish va u yerda ta'lim olish qoidalarini belgilab beradi. Ma'muriy huquq normalari ma'muriy huquqbuzarlik xatti-harakatlar doirasini belgilab beradi va unday harakatlarni sodir etganlik uchun *ma'muriy javobgarlik* choralarini belgilaydi.

Quyidagilar *ma'muriy huquqning manbalaridir*: o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi, oliy majlis qarorlari; prezident farmonlari; mahalliy hokimiyat organlarining normativ aktlari, hukumat qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning qarorlari.

Huquqning boshqa tarmoqlari kabi ma'muriy huquq ham o'z normalarining oddiy arifmetik yig'indisi emas, balki sistema, ya'ni ma'lum qoidalar asosida, bir tartibda belgilangan normalar yig'indisidir.

Ma'muriy huquqiy munosabatlar davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayonida kelib chiqadigan va ma'muriy huquq normalari boshqaruvi tartibga solinadigan munosabatlardir. Bu munosabatlar davlat boshqaruv organli o'rtasida, davlat boshqaruv organlari boshqa jamoat tashkilotlari o'rtasida, davlat boshqaruv organlari boshqa fuqarolar o'rtasida bo'lishi mumkin. Bu munosabatlarning hammasida ishtirok etayotgan tomonlardan biri davlat boshqaruv organi ekanligi ko'rinib turibdi. Bu holat ma'muriy-huquqiy munosabatlarga xos xususiyatdir.

Shunday qilib, **ma'muriy huquq** davlat boshqaruv organlarining ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ma'muriy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir.

2. Boshqaruv organlari tushunchasi, turlari, tizimi, shakllari va usullari. Davlat boshqaruv organlari ma'muriy huquqning asosiy sub'ektidir. Ularning huquqiy holati quyidagi asosiy xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

1. Davlat boshqaruvi qonun asosida amalga oshiriladi va uning faoliyati qonunlarni bajarishga qaratilgan bo'ladi.

2. Bevosita yoki o'z yuqori organlari orqali davlat hokimiyati organlari nazorati ostida ishlaydilar va ularga hisob berib turadilar.

3. O'zbekiston respublikasi faoliyatlarini amalda oshirish jarayonida ma'lum hukmronlik vakolatiga ega bo'ladilar va bu vakolatni belgilangan doirada mustaqil amalga oshiradilar.

Ba'zi boshqaruv organlari bir vaqtning o'zida ham o'zidan yuqori boshqaruv organiga, ham davlat hokimiyati organiga bo'ysinadi.

Davlat boshqaruv organi – davlat apparatining bir qismi bo'lib, o'ziga yuklatilgan vakolatlar doirasida ijro etish va farmoyish berish faoliyatini davlat nomidan xalq xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy hayot va ma'muriy-siyosiy faoliyat sohalarida amalga oshiruvchi tashkilotdir.

Davlat boshqaruv organlari o'zaro bog'liq bo'lib, yagona murakkab tizimni tashkil etadi. Ular mazkur tizimda to'tgan o'rniga, faoliyati qaysi hududda olib borishlariga ko'ra davlat boshqaruvining oliy, markaziy va mahalliy organlariga bo'linadi.

O'zbekiston va qoraqalpog'iston respublikalarining vazirlar mahkamalari *davlat boshqaruvining oliy organlari* hisoblanadi.

Davlat boshqaruvining *markaziy organlari* guruhini vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari tashkil etadi.

Vazirliklar davlat boshqaruvining markaziy tarmoq organlari hisoblanadi va o'zlariga topshirilgan tarmoqqa o'zbekiston respublikasi yoki qorakolpagiston respublikasi territoriyasida rahbarlik qiladi va shu tarmoq ahvoli va rivojlanishi, davlat topshiriqlarining bajarilishi uchun javobgardir.

Davlat qo'mitalari boshqaruvning markaziy tarmoqlararo organlari hisoblanadi va o'zlariga topshirilgan boshqaruv sohasiga respublika hududida rahbarlik qiladi va bu soha ahvoli va rivojlanishi uchun javobgardir.

O'zbekiston va qoraqalpog'iston respublikalari konstitutsiyalariga ko'ra, ularning vazirlar mahkamalari zarur bo'lib qolgan taqdirda xo'jalik ijtimoiy-madaniy hayot, mudofaa ishlari yuzasidan vazirlar maxkamasi huzurida qo'mitalar, bosh boshqarmalar va boshqa idoralarni tuzadi.

Davlat boshqaruvining *mahalliy organlari* guruhi, xalq deputatlari o'lkasi, viloyat, tuman, shahar hokimiyatlari, korxona, muassasa va tashkilotlarning ma'muriyati tashkil etadi.

Davlat boshqaruvining shakllari – bu davlat boshqaruv organlari harakatining ko'rinishi, ifodasidir. Ma'lumki, davlat boshqaruvi davlat nomidan amalga oshiriladigan faoliyat, boshqacha qilib aytganda, rasmiy faoliyat hisoblanadi. U yuridik ahamiyatga ega va shuning uchun ma'lum shaklda, ko'rinishda bo'lishi talab etiladi.

Davlat boshqaruvi faoliyatining *huquqiy shakllari* quyidagilardan iborat: normativ aktlar qabul qilish, individual aktlar chiqarish, shartnomalar tuzish, qonunchilikda nazarda tutilgan majburiy hisobotlar taqdim qilish, boshqa yuridik harakatlar sodir etish.

Albatta, bu huquqiy faoliyat shakllari boshqaruv organining vakolatlari doirasida amalga oshirilishi lozim.

Davlat boshqaruvi usullari deyilganda, belgilangan maqsadga erishishda kelib chiqadigan vazifalarni bajarishning usullari yoki vositalari tushuniladi.

Boshqaruvning umumiy usullari quyidagilardan iborat: *ishontiruv va majburlov, majburiy va iqtisodiy usullar*.

Davlat boshqaruvida eng ko'p qo'llaniladigan usul *ishontiruv*dir. Ishontiruv usuli ma'naviy va moddiy rag'batlantirish sistemasini qo'llashda, davlat boshqaruv organlari faoliyatida oshkoralikni kuchaytirishda, tushuntirish ishlari olib borishda, huquqiy tarbiyani amalga oshirishda ifodalanadi.

Ishontiruv usulining keng qo'llanilishi natijasida kishilar qonunlar va boshqa huquqiy aktlarni ongli va ixtiyoriy ravishda bajaradilar. Lekin, bu bilan bir qatorda zarur majburlov usullari ham qo'llaniladi. Majburlov usullari ikkiga – *intizomiy majburlov va ma'muriy majburlovga* bo'linadi.

Ma'lumki, davlat boshqaruvini amalga oshirishda yuqori boshqaruv organlari o'z farmoyishlari, buyruqlari bilan quyi boshqaruv organlarini belgilangan vazifalarni bajarishga majbur etadi. Ta'sir etishning bunday usuli *ma'muriy usul* deb ataladi. Boshqacha qilib aytganda, *ma'muriy usul* bu boshqaruvni amalga oshirish jarayonida xodimlar o'rtasidagi tashkiliy munosabatlarga bevosita buyruq berish yo'li bilan ta'sir o'tkazishning turli yo'l va usullaridir.

Boshqaruvda ma'muriy usullarni haddan ziyod oshirib yuborish iqtisodiy usullarga ziyon keltiradi va boshqaruv samaradorligini pasaytirib yuboradi.

Boshqaruvning iqtisodiy usuli bu boshqaruv faoliyatida iqtisodiy qonunlardan oqilona foydalanishni ta'minlab beruvchi tadbirlar majmuidir. Bu usullarni qo'llash samaradorligi iqtisodiy qonunlarni chuqur bilishga va uning talablarini ijtimoiy ishlab chiqarishga, mehnat ommasi faoliyatini jamlash yo'li bilan amalga oshira bilishga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiy usullar orasida rejalashtirish va xo'jalik hisobi katta ahamiyatga egadir. Boshqaruvning iqtisodiy usullariga baho, kredit, foyda va boshqalar ham kiradi.

Davlat boshqaruv akti bu boshqaruv organlarining ijro etish va farmoyish berish faoliyati davomida masalani qonun asosida rasmiy xal etishidir. Bunda akt mazkur boshqaruv organi vakolatlari doirasida qonunda ko'rsatilgan shaklda bo'lishi va yuridik oqibat keltirib chiqarishi lozim. Boshqaruv akti qonun asosida bo'lishining ma'nosi shundan iboratki, u qonunni bajarishga qaratilgan bo'ladi va qonun doirasida chiqariladi.

Davlat boshqaruv aktlari yozma, ogʻzaki shakllarda boʻlishi mumkin.

Davlat boshqaruv aktlari yangi huquqiy normalarni taʼsis etishi yoki oʻzgartirishi, huquq va majburiyatlarni belgilashi, yuridik fakt vazifasini oʻtashi mumkin.

Turli boshqaruv aktlari uchun qonunchilikda turlicha nom, yaʼni turlicha shakl belgilangan boʻladi. Boshqaruv akti tegishli shaklda boʻlishi lozim, tayyorlash, muhokama qilish va qabul etishning belgilangan tartibi saqlangan boʻlishi lozim.

Davlat xizmati deyilganda davlatga tegishli vazifa funksiyalarini bajarish maqsadida davlat organlari xizmatchilari tomonidan kasb asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyati tushuniladi. Davlat xizmati davlat boshqaruvining asosiy prinsiplariga asoslangan boʻladi. Bundan tashqari, u quyidagi prinsiplar asosida ham olib boriladi; davlat xizmati xalq manfaatlariga buysundirilgan boʻladi; davlat xizmat apparati xalq bilan yakindan aloqada boʻladi; davlat xizmatchilari oʻz faoliyatlari yuzasidan hisobot berib turadilar; davlat xizmatchilari vaqti-vaqti bilan almashtirilib turiladi; davlat xizmatiga kirishda barcha fuqarolar teng huquqlarga ega boʻladilar.

Davlat xizmatchisining mehnati bevosita ishlab chiqarish bilan emas, balki korxona, muassasa va tashkilot faoliyatini amalga oshirish yoki maʼnaviy boyliklar yaratish bilan bogʻliq boʻladi. Shuning uchun davlat xizmatchisi deyilganda, davlat korxonasi, muassasi, tashkilotida maʼlum mansabni egallab turgan va ish haqi evaziga ishlab chiqarish xarakteriga ega boʻlmagan mehnatni bajaruvchi shaxs tushuniladi.

Davlat xizmatchisi oʻz vazifalari hajmiga koʻra 4 guruhga boʻlinadi:

1. Yordamchi xodimlar (kotiblar, ukituvchilar...);
2. Mutaxassislar (shifokorlar, oʻqituvchilar...);
3. Mansabdor shaxslar (rektor, direktor...);
4. Hokimiyat vakili (militsiya, soliq inspektori...).

Davlat xizmatchilarining huquqiy holati ularning huquq va burchlarining yigʻindisi bilan belgilanadi. Bu huquq va burchlar umumfuqarolik huquq va burchlari yoki egallab turgan mansabi boʻyicha huquq va burchlar boʻlishi mumkin. Umumfuqarolik huquq va burchlari xizmat faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Bu huquq va burchlar davlat xizmatchisi xizmat qilayotgan davlat organi vakolati doirasida boʻladi.

Davlat xizmatchilari quyidagicha taʼriflanadi: mansabdor shaxslar, operativ xodimlar, maʼmuriy hokimiyat vakillari, yordamchi xodimlar.

Davlat xizmatiga kirish va uni tugatish koʻpgina huquq tarmoqlarining normalari bilan tartibga solinadi. Bu normalar konstitutsiya, kodekslar, qonunlar va boshqa normativ aktlarda oʻz aksini topadi.

Oʻzbekiston respublikasi faoliyati davomida belgilangan huquqiy normalarni buzgan davlat xizmatchilari maʼmuriy, fuqarolik, jinoiy va ijtimoiy javobgarlikka tortiladilar.

3. Fuqarolarning maʼmuriy-huquqiy holati va maʼmuriy javobgarlik. *Fuqarolarning maʼmuriy-huquqiy holati* ularning maʼmuriy huquq normalarida mustahkamlangan huquq va burchlari yigʻindisini, konstitutsiya va boshqa qonuniy aktlarda mustahkamlangan umumiy huquqiy holatning bir qismini tashkil etadi.

Har bir fuqaro *maʼmuriy-huquqiy layoqatga* ega hisoblanadi. Maʼmuriy-huquqiy layoqat

deyilganda, davlat har bir fuqaro ma'muriy huquqning sub'ekti bo'lishi mumkinligini tan olishi tushuniladi. Ma'muriy-huquqiy layoqat fuqaroning tug'ilishi bilan vujudga keladi va uning vafotiga qadar davom etadi.

Fuqarolarning millati, irqi, jinsi, ma'lumoti, va boshqa holatlaridan qat'i nazar, o'zaro teng ma'muriy-huquqiy layoqatga egadirlar.

Ma'muriy-huquqiy layoqat o'zidan soqit qilinishi va boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin emas. U faqat davlat tomonidan o'zgartirilishi mumkin (masalan, maxsus huquqlardan mahrum qilish).

Ma'muriy-muomala layoqati deyilganda, fuqaro boshqaruv sohasida ma'lum huquqlarga ega bo'lishi, ma'lum burchlarni bajarishi mumkinligi davlat tomonidan tan olinishi tushuniladi. Qonunga ko'ra, muomala layoqatiga 18 yoshga to'lgan fuqarolar egadirlar. Ruhiy kasal bo'lgan fuqarolar muomala layoqatiga ega emaslar.

Ma'muriy javobgarlik – ma'muriy huquqbuzarlikni sodir qilganlik uchun davlat tomonidan qo'llaniladigan majburlov chorasi bo'lib, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralari qo'llanilishida ifodalanadi.

Ma'lumki, ma'muriy huquq juda ko'p umummajburiy qoidalaridan iborat. Ularning buzilishi, agar jinoyat qonunlarida ko'rsatilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka asos bo'ladi. Lekin, ko'p hollarda bu huquqbuzarlik jinoyat kabi ijtimoiy xavfli bo'lmaydi. Shuning uchun davlat ularga nisbatan jinoiy javobgarlikdan ko'ra yengil bo'lgan ma'muriy javobgarlikni nazarda tutadi. Ma'muriy javobgarlikning asosi ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlikning uch xil alomati bor:

1. Aybdorlik;
2. G'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizlik;
3. Javobgarlikka tortish.

Qonun bilan ma'muriy buzilishlar quyidagilarga bo'linadi:

- shaxsning qadr-qimmatini, uy-joyining va yozishmalar sirining daxlsizligi uchun huquqlarni muhofaza qilish sohasida;
- mehnatni va sog'liqni (mehnat haqidagi qonunni, sanitariya-gigiena qoidalarini buzish, narkotik moddalar iste'mol qilish, tanosil kasalliklari bilan zararlanish manbalarini yashirish, uni tuzatishdan bosh tortish) muhofaza qilish sohasida;
- mulkka tajovuz qilish sohasida;
- tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida (yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish, qishloq xo'jaligi yerlarini ishdan chiqarish, suv resurslarini muhofaza qilish qoidalarini buzish va boshqalar);
- sanoat qurilishidagi, issiqlik va elektr energiyasi sohasida;
- qishloq xo'jaligidagi huquqbuzarlik, veterinariya-sanitariya sohasida;
- transportda, yo'l xo'jaligi va aloqa sohasida;

• fuqarolarning turar joy huquqlariga taalluqli, kommunal xizmat va obodonlashtirish sohasida;

• savdo tadbirkorlik va moliya sohasida;

• odil sudlovga tajovuz qilish sohasida;

• jamoat tartibiga tajovuz qilish sohasida;

• boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qilish sohasida.

Bulardan tashqari, huquq-tartibotni qo'pol suratda buzuvchi ma'muriy huquqbuzarlik sodir qilganliklari uchun chet el fuqarolarini, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni mamlakat hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish mumkin.

«Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksning 23-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun quyidagi ma'muriy jazo choralari qo'llanilishi mumkin:

1. Jari-
ma.

2. Ma'muriy
huquq-buzarlikni
sodir etish quroli
hisoblangan yoki
bevosita shunday
narsa bo'lgan
ashyoni haqini
to'lash sharti bilan

3. Ma'muriy
huquqbuzarlikni
sodir etish quroli
hisoblangan yoki
bevosita shunday
narsa bo'lgan
ashyoni musodara
qilish.

4. Muayyan shaxs-
ni unga berilgan
maxsus huquqdan
(transport vosita-
sini boshq, ov qilish
huquqidan)
mahrum etish.

5. Ma'-
muriy
qamoq-
qa olish.

1) *jarima* ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdir. Bu eng ko'p tarqalgan ma'muriy jazo turidir. Jarimaning miqdori ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtdagi, davom etayotgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun esa, bu huquqbuzarlik aniqlangan vaqtdagi belgilab qo'yilgan eng kam ish haqidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

2) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni haqini to'lash sharti bilan *olib qo'yish*, shu ashyoni majburiy tarzda tortib olib, uni keyinchalik sotib yuborish hamda sotishdan tushgan pulni ashyoning sobiq egasiga tortib olingan ashyoni sotish xarajatlarini chegirib tashlagan holda topshirishdan iboratdir.

3) ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni *musodara qilish* shu ashyoning haqini to'lamasdan majburiy tarzda davlat mulkiga o'tkazishdan iborat.

4) muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositalarini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) *mahrum qilish* chorasi tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan uch yilgacha muddatga qo'llaniladi. Bunday huquqdan mahrum qilish muddati o'n besh kundan kam bo'lmasligi kerak.

5) *ma'muriy qamoqqa olish* 3 sutkadan 15 sutkagacha muddatga, favqulodda holat tartibi sharoitida esa, jamoat tartibiga tajovuz qilganligi uchun 30 sutkagacha muddatga qo'llaniladi.

ma'muriy qamoqqa olish tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan, favqulodda holat tartibi sharoitida esa harbiy komendant yoki ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan belgilandi.

ma'muriy qamoqqa olish chorasi homilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo'lgan ayollarga, o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalatgan shaxslarga, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas (o'zr mjkning 29-moddasi). jazoni qo'llash chog'ida sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyati, huquqbuzarning shaxsi, uning aybdorlik darajasi, mulkiy ahvoli, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlar hisobga olinadi.

bundan tashqari, *ma'muriy ushlab turish* chorasi ham bo'lib, u 3 soatdan oshmasligi kerak. alohida holatlarda ma'muriy ushlab turish bir qancha muddatga cho'zilishi mumkin. chegara va bojxona xizmati idoralari huquqbuzarlik holati va ma'muriy ushlab turgan shaxsning shaxsiyatini aniqlash uchun uni uch sutkacha ushlab turishlari mumkin, bu holat bo'yicha ular 24 soat ichida prokurorga xabarni yozma ravishda berishlari kerak. agar huquqbuzarning shaxsini belgilab beruvchi hujjat bo'lmasa u prokuror sanksiyasiga ko'ra 10 sutkagacha ushlab turilishi mumkin. voyaga yetmaganlarning ushlab turilganligi to'g'risida ota-onasiga yoki qarindosh-urug'lariga xabar berish majburiydir.

ma'muriy ushlab turish faqat ana shunday vakolatga ega organlar (mansabdor shaxslar), masalan, ichki ishlar idoralari, chegara, bojxona xizmati, harbiy avtomobil noziri, davlat tog' nazorati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

mayda bezorilik sodir etgan, yig'inlar miting, ko'cha namoyishlari o'tkazish va tashkil etish tartibini buzganlar, militsiya xodimiga, boshqa mansabdor shaxslarga yoki jamoatchilik vakiliga karshilik ko'rsatgan shaxslar, o'rnatilgan tartibda savdo-sotiq qilish qoidalarini buzgan shaxslar tuman sudlari orqali yoki ichki ishlar idoralari boshliqlari ishini ko'rib chiqqunga qadar ushlab turilishlari mumkin. ma'muriy ushlab turish muddati huquqbuzarlik bo'yicha bayonnoma tuzilgan paytdan boshlab, mast holatidagi shaxslar uchun - u xushyorxonaga kelgan paytidan boshlab hisoblanadi.

ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish vazifalari har bir ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama, to'la va xolis aniqlash, uni qonunga muvofiq aniq hal etish, chiqarilgan qarorning bajarilishini, shuningdek, huquqbuzarlik sodir etish sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlashdan huquqbuzarlikning oldini olishdan, o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashdan, qonuniylikni mustahkamlashdan iboratdir.

ma'muriy huquqbuzarliklar haqidagi ishlarni amalga oshirish tartibi ma'muriy huquq kodeksi bilan belgilanadi.

voyaga yetmaganlar o'n olti yoshdan ma'muriy javobgarlikka tortiladilar. 16 yoshdan 18 yoshgacha ma'muriy huquqbuzar shaxslarga nisbatan voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar to'g'risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi.

sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyatini va huquqbuzarning shaxsini hisobga olgan holda voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan ishlar voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi shahar, tuman, shaharlardagi tuman komissiyalari ixtiyoriga berilishi mumkin. oz miqdorda talon-taroj qilgan shaxslarning ishlari esa shu komissiyalarga berilishi lozim.

ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va aybdorga nisbatan *ma'muriy jazo chorasini qo'llash vakolatiga quyidagi organlar egadirlar:*

- ✓ shahar, shahardagi tuman, tuman sudlarining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi, xo'jalik sudlari;
- ✓ ichki ishlar organlari va mansabdor shaxslar;
- ✓ davlat inspeksiyasi organlari (tashqi iqtisodiy aloqalar boshqarmasi, xalqaro savdo boshqarmasi, qimmatli qog'ozlar boshqarmasi, moliya boshqarmasi, soliq boshqarmasi, mehnat migratsiya boshqarmasi, oziq-ovqat boshqarmasi, sanoat boshqarmasi, transport boshqarmasi, turizm boshqarmasi, yul boshqarmasi, energetika boshqarmasi, qurilish boshqarmasi, madaniyat boshqarmasi, sport boshqarmasi, sog'lomlik boshqarmasi, bilim boshqarmasi, yoshlar boshqarmasi, oila boshqarmasi, diniy boshqarmasi, ekologiya boshqarmasi, tabiiy resurslar boshqarmasi, aholi boshqarmasi, statistika boshqarmasi, arxiv boshqarmasi, matbuot boshqarmasi, telekommunikatsiya boshqarmasi, radiokommunikatsiya boshqarmasi, avia boshqarmasi, dengiz boshqarmasi, kosmos boshqarmasi, fide boshqarmasi, korrupsiya boshqarmasi, jinoyatchilik boshqarmasi, aybuno boshqarmasi, qonun boshqarmasi, amaliyot boshqarmasi, iqtisodiyot boshqarmasi, madaniyat boshqarmasi, sport boshqarmasi, sog'lomlik boshqarmasi, bilim boshqarmasi, yoshlar boshqarmasi, oila boshqarmasi, diniy boshqarmasi, ekologiya boshqarmasi, tabiiy resurslar boshqarmasi, aholi boshqarmasi, statistika boshqarmasi, arxiv boshqarmasi, matbuot boshqarmasi, telekommunikatsiya boshqarmasi, radiokommunikatsiya boshqarmasi, avia boshqarmasi, dengiz boshqarmasi, kosmos boshqarmasi, fide boshqarmasi, korrupsiya boshqarmasi, jinoyatchilik boshqarmasi, aybuno boshqarmasi, qonun boshqarmasi, amaliyot boshqarmasi, iqtisodiyot boshqarmasi);
- ✓ voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi tuman (shahar) komissiyalari va qonun aktlari boshqaruvi vakolat berilgan boshqa organlar.

Nazorat uchun uchun savollar:

1. ma'muriy huquq qanday munosabatlarni tartibga soladi?
2. ma'muriy huquq qanday huquq sohalari bilan bog'liq?
3. ma'muriy huquqning manbaalariga nimalar kiradi?
4. davlat boshqaruvi deganda nimani tushunasiz?
5. ma'muriy huquqiy normalar deganda nimalar tushiniladi?
6. ma'muriy huquq munosabatlar sub'ektlariga nimalar kiradi?
7. davlat xizmatchisi deganda nimani tushunasiz?
8. qanday davlat boshqaruv organlari mavjud?

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-t.o‘zbekiston 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – t.: adolat, 2005.
3. KARIMOV I. “mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”, o‘zbekiston respublikasi oliy majlisi qonunchilik palatasi va senatining qo‘shma majlisidagi ma'ruzasi, “xalq so‘zi”, 28 yanvar 2010 yil.
4. Qosimbekova S.M., qurbanova d.a., yakubova j.a., ishanxujayev s. a..«huquqshunoslik, o‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasi». ma'ruzalar matni. tdiu. 2006.
5. Qosimbekova S. «huquqshunoslik, o‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasi» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. –t.: tdiu. 2006. 50-65-b.
6. Saidov a., rustamboev m., tursunov a. o‘zbekiston respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. – t.: tdyui, 2005 yil

MAVZU: FUQAROLIK HUQUQI ASOSLARI

Reja

1. Fuqarolik huquqi tushunchasi. Fuqarolik huquqiy munosabat.
2. Fuqarolik huquqiy munosabat, uning mazmuni, ob'ekti va sub'ekti. muomala layoqati.
3. Uuridik shaxs tushunchasi. bitimlar va majburiyat.

1. fuqarolik huquqi tushunchasi.

mulkiy bo'lmagan shaxsiy munosabatlar mulkiy munosabatlardan shu bilan farq qiladiki, bunda o'zaro munosabatlar qiymat (pul) bilan ifodalanmaydi, balki shaxsning o'zi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. mulkiy va mulkiy bulmagan munosabatlar fuqarolik huquqiga taalluqli manbalar bilan tartibga solinadi va

himoya etiladi. bu *manbalarga* o'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi, qonunlari, prezident farmonlari, vazirlar mahkamasining qaror va farmoyishlari, fuqarolik kodeksi, fuqarolik-protsessual kodeksi kiradi.

Fuqarolik Huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi shaxslar yuridik shaxslarga (korxona, tashkilot, jamoa xo'jaligi) va jismoniy shaxslarga (fuqarolar) bo'linadi. fuqarolik huquqi tomonidan tartibga solinadigan *mulkiy munosabatlar doirasi* nihoyatda keng. bular jumlasiga olish-sotish, xilma-xil

buyurtmalar qabul qilish (ijro etish), turar joylarni ijaraga qo'yish va ijaraga olish, korxonalar va tashkilotlarning bir-biriga mahsulotlar yetkazib berish, qurilish ishlarini amalga oshirish, transport korxonalari orqali yuk va yo'lovchi tashish, yetkazilgan zararni to'latish, qonun va vasiyat bo'yicha meros olish, umuman har qanday shakldagi mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlardan iboratdir. turar joy kodeksi bilan turar joyga egalik, foydalanish, turar joy sanitariya normasi, turar joyni kapital va joriy remont qilish, ijara haqi kabi misollar haqida so'z boradi.

Fuqarolik huquqi – tovar-pul munosabatlarini va tomonlarning tengligiga asoslangan boshqa munosabatlarni, mulkiy munosabatlarni va unga bog'liq bo'lgan shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalar majmuidan iborat.

Fuqarolik huquqi insonning kundalik hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan huquq sohaslaridan biridir. Masalan, oldi-sotdi, hadya, qarz – majburiyat huquqini, ijod qilish, asar, she'r yozish – intellektual huquqni, meros olish – vorislik huquqini vujudga keltiradi.

Fuqarolik huquqi tomonidan tartibga solinadigan mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy huquqiy munosabatlar ikki turga: *mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy munosabatlarga* va *mulkiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy munosabatlarga* bo'linadi.

mulkiy xarakterda bo'lmagan shaxsiy huquqlar fuqarolik kodeksi (fk)ning 100-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, ular shaxsning nomi, sha'ni, qadr-qimmati, ishchanlik obro'si va boshqalar shaxslarning mulkiy xarakterda bo'lmagan manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan huquqiy munosabatlarning ob'ekti sifatida ko'riladi. yangi qabul qilingan fkda fuqarolik huquqiy munosabat ob'ektlarini tashkil etadigan mulkiy va nomulkiy shaxsiy huquqlar doirasi bir muncha kengaytirilgan.

intellektual mulk (*mulkiy xarakterda bo'lgan shaxsiy huquq*) ob'ektlari moddiy ko'rinishda emas, balki g'oya, bilim, axborot shaklida namoyon bo'ladi. intellektual mulk ob'ektlariga fuqarolik kodeksning 1031-moddasiga binoan quyidagilar:

1. intellektual faoliyat natijalari ular fan, adabiyot va san'at asarlari, u yoki bu eshittirish tashkilotlarning ijrolari, fonogrammalari va eshittirishlari, ixtirolar va boshqalar kiradi;

2. fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarining xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar; ularga – firma nomlari, tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari), tovar chiqarilgan joy nomi kiradi;

3. fuqarolik kodeksida yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar kiradi.

intellektual mulk ob'ektlari davlat qonunlari bilan huquqiy (fan va texnika davlat

qo'mitasi, patent idorasi va boshqalar tomonidan) muhofaza qilinadi.

Muallif o'z yaratgan intellektual faoliyati natijasidan o'zi foydalanishi, boshqalarga haq evaziga foydalanishga berish yoki haq evaziga foydalanish uchun ruxsat berish yoxud haq evaziga bu natijaga nisbatan huquqlarni boshqalarga o'tkazish imkoniyatlariga ega.

turdosh huquqlar sahna asarlariga, ijroga, ijroning audio va videoyozuviga (ijro yozuviga), efir va kabel orqali ko'rsatuv va eshittirish beruvchi tashkilotning ko'rsatuv va eshittirishlariga tatbiq etiladi.

sanoat mulkiga bo'lgan huquq ixtiro, foydali model, sanoat namunasi kabilarga nisbatan qo'llaniladi.

2. fuqarolik huquqiy munosabat, uning mazmuni, ob'ekti va sub'ekti. *fuqarolik huquqiy munosabat*, deb shaxslar o'rtasida bo'ladigan va fuqarolik huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatga aytiladi. shaxslar (jismoniy va yuridik) o'rtasida tuziladigan olish-sotish, mahsulot yetkazib berish, biron-bir ishni bajarish, ijara, qarz to'g'risidagi va boshqa shartnomalar *huquqiy munosabatlar jumlasiga kiradi*.

fuqarolik huquqiy munosabat ijtimoiy munosabat, ya'ni shaxslar o'rtasidagi munosabatdir. fuqarolik huquqiy munosabat uni qatnashuvchilarning erki (irodasi) bo'yicha vujudga keladi. fuqarolik huquqiy munosabatda ifodalanadigan ayrim shaxslarning erklari davlatning fuqarolik huquqiy normasida (qonunda) ifodalangan irodasiga muvofiq bo'lishi kerak.

xar qanday huquqiy munosabat: huquqiy munosabat sub'ektlari, mazmuni va ob'ektlaridan iboratdir.

Fuqarolik huquqiy munosabat sub'ektlari – unda qatnashuvchi shaxslar – fuqarolar va tashkilotlar (ya'ni yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan korxonalar, muassasalar, jamoa xo'jaligi, kooperativ va boshqa tashkilotlar) hamda ularning birlashmalaridir. Davlat ham fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchisi bo'la oladi.

fuqarolik huquqiy munosabatning mazmunini shu munosabatda qatnashuvchi shaxslarning sub'ektiv huquqlari va burchlarini tashkil etadi.

sub'ektiv huquq deyilganda, muayyan huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxsga tegishli huquq tushuniladi. sub'ektiv huquqlar ob'ektiv huquq normalari, ya'ni davlat tomonidan belgilanagan umumiy qoidalar asosida vujudga keladi va ularga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

sub'ektiv huquq o'z erkini amalga oshirish va o'z manfaatlarini qondirish imkoniyatini beradigan munosabatlarni vujudga keltiradi. sub'ektiv huquq ikkinchi tomondan, huquqqa ega bo'lgan shaxsning boshqa shaxslardan o'z huquqining buzilmasligini talab qilish imkoniyatini nazarda tutadi. masalan, mulk egasining sub'ektiv huquqi, bir tomondan, o'z mulkini egallash, undan foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog'liq huquqlarni nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, u sub'ektiv huquq egasi sifatida o'z huquqlarining buzilmasligini har kimdan talab qila oladi.

Fuqarolik huquqiy munosabatning ob'ekti, deb fuqarolik huquqiy munosabatda qatnashuvi shaxslarning sub'ektiv huquqlari va majburiyatlari nimaga qaratilgan bo'lsa, shunga aytiladi. Bular: ashyolar; ishlar va xizmatlar; intellektual faoliyat natijalari; shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa moddiy hamda nomoddiy boyliklardir.

ishlar va xizmatlar fuqaro va tashkilotlarga ko'rsatiladigan huquqiy munosabatlarning ob'ektlari hisoblanadi. masalan, olish-sotish shartnomasi bo'yicha sotuvchi ashyoni topshirishga qaratilgan harakatni qiladi, pudrat shartnomasi bo'yicha, kiyim tikish atelesi fuqaroning buyurtmasi bo'yicha kiyim tikishga qaratilgan harakatni qilishga va o'zining xizmati natijasini topshirishga majburdir.

huquq sub'ektlarini xarakterlaydigan asosiy huquqiy xususiyatlar huquq va muomala layoqatlaridan iborat. fuqarolik huquqi va burchlariga ega bo'lish layoqati (*huquq layoqati*) teng ravishda e'tirof etiladi (fkning 17-moddasi). har bir shaxs fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lish layoqatiga molik bo'lmay turib, fuqarolik huquqining sub'ekti bo'la olmaydi.

davlat hayotning moddiy sharoitlariga qarab fuqarolarning huquq layoqati, ya'ni muayyan huquq va burchlarga ega bo'lish layoqatini belgilaydi. fuqarolik huquq layoqati fuqarolarga o'zlarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida xilma-xil huquqiy munosabatlarga kirishning yuridik imkoniyatini beradi.

muomala layoqati fuqarolarning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqatidir (fkning 22-moddasi). muomala layoqatini yuridik harakatlar qilish, ya'ni qonun bo'yicha ma'lum huquqiy oqibatlar qilish layoqati deb ham ta'riflash mumkin (masalan, shartnomalar tuzish, yetkazilgan zararni to'lash va hakazolar).

muomala layoqatining huquq layoqatidan farki shuki, barcha fuqarolar ham muomala layoqatiga ega bo'lavermaydi. muomala layoqatiga ega bo'lish sharti shundan iboratki, muomala layoqatiga ega bo'lgan fuqarolar aqli rasolik bilan o'z harakatlarning oqibatlarini tushunib harakat qiladilar. ma'lumki, yangi tug'ilgan bola to'liq huquq layoqatiga ega bo'lsa ham o'z harakatlari bilan bironta huquq yoki majburiyat ola olmaydi. ongli harakatlar qilish layoqati faqat ma'lum yoshga yetgandan keyingina boshlanadi. binobarin, voyaga yetish (18 yoshga to'lish) bilan kishi fuqarolik huquqiy munosabatlarda, jumladan, mulkiy munosabatlarda to'la qatnashuvchigina bo'lib qolmay, siyosiy huquqlar bilan birga boshqa fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini ham oladi.

to'la muomala layoqati yuqorida ko'rsatilganidek, 18 yoshga yetgan fuqarolarga berilgani sababli bu yoshga to'lmagan shaxslarning huquqiy holatini belgilashda ular ikkiga: ya'ni 14 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan va 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslar huquqiy muomala maqomi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

14 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar (yosh bolalar) to'la ravishda muomalaga layoqatsiz hisoblanadilar.

6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar:

- 1) mayda maishiy bitimlar;
- 2) tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlar;
- 3) qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag'larni tasarruf etish borasidagi bitimlarni amalga oshirishga haqlidirlar (fkning 29-moddasi).

4) 14 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar uchun bitimlarni ular nomidan ota-onalari, farzandlikka oluvchilar yoki vasiylari tuzadilar.

14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar (o'smirlar) qisman muomalaga layoqatli bo'lib, qonuniy vakillari (ota-onalari, farzandlikka oluvchilar yoki homiylari)ning roziligi bo'lgan taqdirda o'z harakatlari bilan huquq va majburiyatlar olishlari mumkin.


vasiylik shundan iboratki, bunda muomalaga layoqatsiz shaxs – 14 yoshga to'lmagan fuqarolar, ruhiy kasal va aqli zaiflar nomidan vasiy harakat qiladi va o'zining harakatlari bilan vasiylikka olingan shaxs uchun huquq va majburiyatlar tug'diradi.

homiylilikda homiylarlar qisman muomala layoqatiga ega bo'lgan shaxslarga (14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan fuqarolarga) o'z huquqlarini amalga oshirish, majburiyatlarni bajarishda yordam ko'rsatadilar, shuningdek, ularni uchinchi shaxsning ba'zan bo'lishi mumkin bo'lgan yomon niyatli harakatlaridan saqlaydilar. homiylik jismoniy kamchiliklari bo'lgan, masalan, ko'rlik, mayiblik sababli o'z huquqlarini o'zlari amalga oshira oladigan va himoya qila

olmaydigan to'la muomala layoqatiga ega bo'lgan shaxslarga ham belgilanadi. bunday shaxslarga nisbatan homiylikning vazifasi huquqlar olish yoki ularni amalga oshirish bilan bog'liq turli harakatlarni ular uchun bajarishdan iborat.

3. yuridik shaxs tushunchasi. bitimlar va majburiyat.

o'z mulkida, xo'jalik yuritishda yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot *yuridik shaxs* hisoblanadi (fkning 39 moddasi).



yuqorida berilgan ta'rifdan aniqlanishicha, har qanday tashkilot emas, balki muayyan talablarga javob beradigan tashkilotlarga yuridik shaxs bo'la oladi. *yuridik shaxslar*:

1) tashkiliy birlik; 2) mulkiy mustaqillik; 3) mustaqil mulkiy javobgarlik; 4) fuqarolik muomalasida o'z nomidan harakat qilish belgilariga ega bo'lishi kerak.

Tashkilishy birlik – bu yuridik shaxsning huquq sub'ekti sifatida tashkil bo'lganligi, muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishini bildiradi.

Yuridik shaxsning tashkilishy jihatdan tuzilishi (strukturasi)ni ko'rsatadigan nizomi (ustavi) bo'lishi kerak. Ba'zi davlat muassasalari va davlat byudjetida bo'lgan boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek qonunda nazarda tutilgan hollarda, boshqa tashkilotlar ham alohida nizomga ega bo'lmay, mazkur turdagi tashkilotlar haqidagi umumiy nizom asosida ish olib borishlari mumkin.

Mulkiy mustaqillik – fuqarolik huquqlarining sub'ekti bo'lishi uchun yuridik shaxs hisoblangan har qaysi tashkilotning o'ziga xos mulki bo'lishi, har qaysi davlat tashkilotining o'ziga birlashtirilgan mulki bo'lishini taqozo qiladi. Boshqacha aytganda, yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak (fkning 39-moddasi, 2-bandi).

Mustaqil mulkiy javobgarlik shundan iboratki, yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli bo'lgan (davlat tashkiloti esa, o'ziga birlashtirib qo'yilgan) mulki bilan javob beradi. Yuridik shaxs hisoblangan davlat tashkilotlarining majburiyatlari yuzasidan davlat javobgar bo'lmaydi, aksincha, bu tashkilotlar ham davlat tashkilotlari majburiyati yuzasidan javobgar bo'lmaydilar. Davlat byudjetida turadigan

tashkilotlarning qarzini qoplash, mablag' berish shartlari va tartibi qonunlar bilan belgilanadi.

Fuqarolik muomalasida o'z nomidan harakat qilish – yuridik shaxs hisoblangan tashkilot o'z nomidan turli bitimlar tuza oladi, huquqiy majburiyatlarda qatnashib, mulkiy va mulkiy xarakterda bo'lmagan huquqlarga ega bo'la oladi, ya'ni boshqa majburiyatlar vujudga keltira oladi, demakdir. Yuridik shaxs sudda, xo'jalik sudida mustaqil ravishda da'vogar va javobgar bo'la oladi.

Yuridik shaxslar quyidagi usullarda vujudga kelishi mumkin:

1. *Buyruq (farmoyish) orqali*. Masalan o'zbekiston respublika prezident farmoni bilan o'zbekiston milliy universiteti tashkil topgan edi. Odatda bunday usul bilan davlat tashkilotlari hisoblangan yuridik shaxslar tashkil topadi.

Qolgan ikki usulda esa yuridik shaxslar muassischi yoki ta'sischi bo'lib, mulkdorlar yoki ular vakil qilgan qonunda ko'zda tutilgan hollarda esa, boshqa tashkilotlar va fuqarolar hisoblanadi.

2. *Murojaat qilish usuli*. Bunda muassislar tomonidan tuziladigan yuridik shaxslarning vujudga kelish imkoniyati qonun tomonidan oldindan belgilab qo'yilmagan bo'ladi. Binobarin, bunday hollarda davlat organi xuddi shunday yuridik shaxslarning tashkil bo'lish-bo'lmisligi maqsadga muvofiqligini tekshiradi.

3. *Ruxsat olish usuli*. Bunday usulda tashkil topadigan yuridik shaxslarning vujudga kelish imkoniyatlari qonunlarda oldindan belgilab qo'yiladi va binobarin, ularning tashkil bo'lish-bo'lmisligi maqsadga muvofiqligi tekshirilmaydi, balki ta'sis hujjatlarning (yuridik shaxslarni tashkil etish haqida ta'sis shartnomasi va ularni ustavi) qonunga muvofiqligi tekshiriladi xolos. Yuridik shaxs ta'sis shartnomasi ishtirokchilar tomonidan tuziladi, ustavi esa tasdiqlanadi.

Ta'sis hujjatlarida yuridik shaxslarning tarkibi va vakolatlari, boshqa zaruriy ma'lumotlar bo'lmog'i kerak. Ta'sis shartnomasida ishtirokchilar yuridik shaxs faoliyatini amalga oshirishda vujudga kelgan foyda va zararni tasdiqlash, yuridik shaxsni boshqarish tartibi belgilaydi.

Yuridik shaxs murojaat qilish va ruxsat olish usullari orqali tashkil topganda, albatta, uni tashkil qiluvchilar tashabbuskor guruhi bo'ladi. Bu guruh fuqarolar (jismoniy shaxslar)dan ham, yuridik shaxslardan ham iborat bo'lishi mumkin. Ular muassischilar va ta'sischilar deb ataladi. Ta'sischilar orasida davlat hamda uning organlari bo'lishi mumkin. Muassischilar ko'p hollarda yuridik shaxsning mol-mulkini vujudga keltirishga o'z ulushini qo'shadi. Bu ulushlar asosida ko'p hollarda ustav fondi tashkil topadi. Yuridik shaxs o'z faoliyatida ko'zlangan maqsad bo'yicha tijorat va tijorat bo'lmagan turlarga bo'linishi mumkin. (fkning 40-moddasi). Yuridik shaxslarning tijorat turlari muassischilarning foyda olish maqsadini ko'zlab tuziladi. Notijorat turlarida muassislar foyda olish maqsadini ko'zlamaydilar. Yuridik shaxs bekor bo'lganida ularning tijorat turlarida yuridik shaxs hamma kreditorlar hisob-kitob qilgandan keyin mol-mulki muassislar o'rtasida taqsimlab olinadi. Notijorat harakterdagi yuridik shaxslarda esa qolgan mol-mulkka nisbatan muassislar haq-huquqqa ega bo'lmaydilar. Yuridik shaxslarning davlat ro'yxatidan o'tish ma'lumotlari, shuningdek, o'ziga xos nomi respublika reestriga kiritiladi.

Yuridik shaxslarni tashkil etishda qonunda belgilangan tartib buzilganida yoki ularning ta'sis hujjatlari qonunlarda zid bo'lgan hollarda yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish rad etiladi.

1. Yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari)ning yoki ta'sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq, shu jumladan, yuridik shaxsning amal qilish muddati tugashi, uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadga erishilganligi munosabati bilan yoki yuridik shaxsni tashkil qilish chog'ida qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo'lmasa, sud yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazishni xaqiqiy emas deb topganida.

2. Yuridik shaxs faoliyati ruxsatnomasiz (litsenziyasiz) amalga oshirilgan yoki qonun bilan taqiqlab qo'yilgan faoliyat amalga oshirilgan taqdirda, shuningdek, ushbu kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda sudning qaroriga muvofiq tugatiladi.

3. Fkning 57-moddasida aytilganidek, yuridik shaxsning bankrot deb hisoblanishi uning tugatilishiga olib keladi.

Yuridik shaxs tugatilayotganda, tugatish komissiyasi tayinlanadi. Tugatish komissiyasi yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi ma'lumotlar bosib chiqariladigan matbuot organlarida yuridik shaxsning tugatilishi hamda uning kreditorlar tomonidan talablari bayon etish tartibi va muddati haqida xabar e'lon qiladi (fkning 55-moddasi).

Bitimlar deb fuqorolar va yuridik shaxslarning fuqorolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlariga aytiladi.

Har qanday bitim shaxslarning erki-irodasi bilan bog'liq bo'lib, muayyan huquqiy oqibat tug'dirishga qaratiladi. Bitimdan fuqoro va tashkilotlarning ma'lum moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan erklari ifodalanadi.

Bitim shaxslarning erki bilan bog'liq bo'lgan, ularning irodasidan kelib chiqadigan harakat bo'lganligi tufayli bitimda ifodalanadigan erk izhor qilinishi, ya'ni boshqa shaxslarga bildirilishi lozim.

Bitim tuzish natijasida muayyan huquqiy oqibat tug'dirish uchun bitim tuzuvchi shaxslar bitimda o'z erklarini ifodalashdan tashqari muayyan harakatni qilishlari lozim bo'ladi. Bu harakat shart qilingan ishni bajarishga, ma'lum mulkni topshirishga yoki ma'lum pulni to'lashlikka qaratilgan bo'lishi mumkin.

Bitimlarda fuqarolar va tashkilotlarning fuqarolik huquqlari va vazifalari belgilanadi. Bitimlar bir tomonlama, ikki tomonlama yoki kup tomonlama bulishi mumkin. Bitimlar oddiy va murakkab shaklda tuziladi.

Bir tomonlama bitimlarga vasiyatnomani misol qilish qilish mumkin. U bir tomonlama tuzilgandir.

Ikki tomonlama bitimlar, deb xar ikki tomonning erkiga muvofiq tuziladigan bitimlarga aytiladi. Bunday bitimlar shartnomalardir. Ikki tomonlama bitimga misol qilib olish-sotish, mulk ijarasi, pudrat, sug'urta va boshqa shaxslarni ko'rsatsa bo'ladi.

Shartnoma deb, ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilash, o'zlashtirish yoki bekor qilishga qaratilgan o'zaro kelishuvlarga aytiladi.

Ko'p tomonlama bitimlar, deb uch va undan ortiq shaxslarning erklari ifodalanib tuziladigan bitimlarga aytiladi. Ko'p tomonlama bitimga misol qilib birgalikdagi faoliyat shartnomasini ko'rsatsa bo'ladi. Ko'p tomonlama bitimlar ikki tomonlama bitimlar singari o'zaro kelishuv, ya'ni shartnomadir.

Xulosa qilib aytganda, har qanday shartnoma bitim hisoblansa ham har qanday bitim shartnoma bo'la olmaydi. Aksariyat bitimlar shartnoma hisoblanishi

Notarial tasdiqlanishi talab etiladigan bitimlardan tashqari, quyidagi bitimlar oddiy yozma shaklda tuziladi:

1. Yuridik shaxslarning o'zaro va fuqarolar bilan bitimlari;
2. Fuqarolar o'rtasidagi belgilangan eng kam oylik ish haqining o'n baravaridan ortiq summadagi bitimlar, qonunda belgilangan hollarda esa bitim summasidan qat'i nazar boshqa bitimlar.

Quyidagi hollarda bitimlarni notarial tasdiqlash shart:

1. Qonunda ko'rsatilgan hollarda;
2. Taraflardan birining talabi bo'yicha. Masalan, uy-joy sotish-olish bitimi notarial tasdiqlanishi shart. Vasiyatnoma ham notarial tasdiqlanishi kerak. Shunday bitamlar borki, agar ular notarial tasdiqlanmasa haqiqiy emas deb tan olinadi.

Bitimlar quyidagi holatda haqiqiy emas deb topiladi:

- qonun hujjatlarining talablariga muvofiq kelmaydigan mazmundagi bitim, shuningdek huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadida tuzilgan bitim;
 - 14 yoshga to'lmagan shaxs tomonidan tuzilgan bitim;
 - 14 yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxs tomonidan, uning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki homiysining roziligi talab qilinadigan hollarda ularning rozilgisiz tuzilgan bitim ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki homiysining da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin;
 - ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan tuzilgan bitim;
 - spirtli ichimliklarni yoki giyohvand moddalarni iste'mol qilish oqibatida muomalaga layoqati cheklangan fuqaro tomonidan homiysining rozilgisiz tuzilgan bitimni sud haqiqiy emas deb topishi mumkin;
 - garchi muomalaga layoqatli bo'lsa-da, biroq bitim tuzish vaqtida o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan holatda bo'lgan fuqaro tomonidan tuzilgan bitim;
 - jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan yanglishish ta'sirida tuzilgan bitim yanglishish ta'sirida harakat qilgan tarafning da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.
 - aldash, zo'rlik, qo'rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi tasirida tuzilgan bitim, shuningdek fuqaro og'ir holatlar yuz berishi tufayli o'zi uchun noqulay shartlar bilan tuzishga majbur bo'lgan, ikkinchi taraf esa bundan foydalanib qolgan bitim.
 - yuridik oqibatlar tug'dirish niyati bo'lmagan holda, nomigagina tuzilgan bitim (qalbaki bitim).
 - yuridik shaxs tomonidan uning nizom maqsadlariga zid holda tuzilgan yoki tegishli faoliyat bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lmagan yuridik shaxs tomonidan tuzilgan bitim, uning muassisi (ishtirokchisi) yoki vakolatli davlat organining da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan bitim u tuzilgai paytdan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi.
- Umumiy da'vo muddati uch yil o'rnatilgan. Ayrim turdagi talablar uchun qonunlarda umumiy da'vo muddatiga qaraganda qisqartirilgan yoki uzaytirilgan maxsus da'vo muddatlari belgilanishi mumkin.

Qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to'laydigan va o'tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan **neustoyka penya** hisoblanadi. Neustoyka to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuziladi

majburiyatni bajarishini ta'minlashda garov, kafillik, kafolat, zakalatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo'lgan huquqni, majburiyatlarni ta'minlash uchun berishi **garov** hisoblanadi. Garov zakalat, inoteka huquqlar garovi tarzida amal qilishi mumkin

Kafillik shartnomasi bo'yicha kafil boshqa shaxs o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi. Kafillik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi kerak. Aks holda kafillik shartnomasi haqida bo'lmav qoladi.

Majburiyat to'liq yoki qisman bekor bo'lishi mumkin. *Majburiyat* quyidagi asoslarda: majburiyat bajarilishi bilan; hisobga o'tkazish bilan; qarzdor bilan kreditor bir shaxs bo'lib

qolganda; majburiyatning yangilanishi bilan; kreditor qarzdordan voz kechishi bilan; taraflarning birortasi ham javob bermaydigan vaziyat vujudga kelganligi tufayli; davlat organi hujjati asosida; fuqaro vafot etishi bilan; yuridik shaxs tugatilishi va boshqa qonunda ko'rsatilgan sabablarga ko'ra *bekor bo'lishi mumkin*.

Majburiyat huquqida alohida o'rin «zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga» bag'ishlangan.

Zarar yetkazish – bu g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqarolarning shaxsiga yoki mol-mulkiga zarar yetkazish deb taniladi.

Zarar yetkazish bir necha turlarga bo'linadi:

- zaruriy mudofaa holatida zarar yetkazish;
- oxirigi zarurat holatida zarar yetkazish;
- yuridik shaxs tomonidan yetkazilgan zarar;
- xodim tomonidan yetkazilgan zarar;
- huquqni himoya qiluvchi organlar tomonidan yetkazilgan zarar;
- zararning o'z javobgarligini sug'urtalagan shaxs tomonidan to'lanishi;
- 14 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar tomonidan keltirilgan zarar;
- 14 yoshdan 18 yeshgacha bo'lganlar tomonidan yetkazilgan zarar;
- ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan ota-onaning voyaga yetmagan bolalari tomonidan yetkazilgan zarari uchun javobgarlik;
- muomalaga layoqatsiz deb topilgan muomala layoqati cheklangan fuqarolar tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik;
- tevarak-atrofdagilarga oshiqcha xavf tug'diradigan faoliyat tufayli yetkazilgan zarar;
- uy hayvonlari tomonidan yetkazilgan zarar va boshqalar.

Har bir zarar yetkazish uchun qo'llaniladigan jazo choralari o'zbekiston respublikasining fuqarolik kodeksida alohida-alohida belgilangan.

Masalan, zaruriy mudofaa holatida yetkazilgan zarar, agar bunday mudofaa chegarasidan chiqilmagan bo'lsa, to'lanmaydi.

Agar g'ayriqonuniy tajovuzdan himoyalanish paytida himoyalanuvchi uchinchi shaxsga zarar yetkazgan bo'lsa, bu zarar tajovuz qilgan shaxs tomonidan to'lanishi lozim.

Shaxsga uning jinoiy harakatlarining payini qirqish yoxud uni ushlash va tegishli organlarga olib borish sababli yetkazilgan zarar to'lanmaydi.

Oxirgi zarurat holatida yetkazilgan zarar, ya'ni zarar yetkazgan shaxsning o'ziga yoki boshqa shaxslarga tahdid solgan xavfni bartaraf etish uchun oxirigi zarurat holatida yetkazilgan zarar, agar bu xavf mazkur holatlarda boshqa vositalar bilan bartaraf etilishi mumkin bo'lmasa, zarar yetkazgan shaxs tomonidan to'lanishi lozim (fk, 988-modda).

Yuridik shaxs yoxud fuqaro o'z xodimi (xizmat, lavozim) majburiyatlarini bajarib turgan vaqtida yetkazilgan zararni qoplaydi.

Davlat organlarining, fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining yoki bu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida, shu jumladan davlat organlari yoki fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan qonun hujjatlariga mos kelmaydigan hujjatlar chiqarilishi natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, ular mansabdor shaxslarning aybidan qat'i nazar, sudning qarori asosida qoplanishi lozim.

14 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan (kichik yoshdagi bola) tomonidan yetkazilgan zarar uchun uning ota-onasi (farzandlikka oluvchilari) yoki vasiylari, agar zarar ularning aybi bilan yetqazilmaganligini isbotlay olmasalar, javobgar bo'ladilar.

14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar yetkazilgan zarar uchun umumiy asoslarda mustaqil javobgar bo'ladilar.

Sud ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan ota-onaga ularning voyaga yetmagan bolalari tomonidan ota-onasi o'z huquqlaridan mahrum qilinganidan keyin uch yil ichida sodir etilgan zarar uchun, agar bolaning zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan xulq-atvori ular bolani tarbiyalash bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganliklarining oqibati bo'lsa, javobgarlikni yuklash mumkin.

Muomilaga layoqatsiz yoki muomila layoqati cheklangan deb topilgan fuqaro tomonidan yetkazilgan zararni uning vasiysi yoki uning ustidan nazoratini amalga oshirishi shart bo'lgan tashkilot, agar zarar ularning aybi bilan yetqazilmaganligini isbotlay olmasa, to'laydi.

Faoliyati tevarak-atrofdagilarga oshiqcha xavf tug'diradigan yuridik shaxslar va fuqarolar (transport tashkilotlari, sanoat korxonalari, qurilishlar, transport vositalarining egalari va boshqalar) oshiqcha xavf manbai yetkazilgan zararni, agar zarar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch yoki jabrlanuvchining qasddan qilgan harakati oqibatida yuzaga kelganini isbotlay olmasalar, to'lashlari shart.

Uy hayvoni tomonidan yetkazilgan zarar uchun uning mulkdori yoki bu hayvonga egalik qiluvchi va undan foydalanuvchi shaxs umumiy asoslarda javobgar bo'ladi.

Nazorat uchun uchun savollar:

1. fuqarolik huquqi haqida tushuncha bering.
2. Fuqarolik huquqiy munosabatlar haqida gapiring.
3. Fuqarolik huquqiy munosabatlarning sub'ekt va ob'ektlariga nimalar kiradi?
4. Mulk huquqi qanday vujudga keladi?
5. Mualliflik va turdoshlik huquqi nima?
6. Yuridik shaxslar kimlar?
7. Bitim tushunchasi to'g'risida ma'lumot bering.
8. Bitim bilan shartnomaning qanday farqi bor?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. – t.: «o'zbekiston». 2016.
2. O'zbekiston respublikasining «fuqaroligi to'g'risida»gi qonuni. 1992 yil, 2 iyul. O'zbekiston yangi qonunlari. 6-son. – t.: «adolat», 1993.
3. Islomov z. «huquqshunoslik» darslik. Tdyui. – t., 2002.
4. Shoraxmetov sh. «o'zbekiston respublikasining fuqarolik protsessual huquqi» darslik, (fuqarolik ishlarini sudda ko'rish). – t., 2001.
5. Xaytboev e. «huquqshunoslik» darslik. – t., 2007.
6. Qosimbekova s. «huquqshunoslik, o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – t.: tdiu. 2006.

MAVZU: ISTE'MOLCHILARNING ASOSIY HUQUQLARI VA ULARNI HIMOYA QILINISHINING MAQSADI HAMDA VAZIFALARI

Reja:

1. Iste'molchilar huquqlarining himoya qilinishi tushunchasi.
2. Nuqsonli tovarlarni almashtirish tartibi.
3. Istemolchilar huquqlarini buzganlik uchun huquqiy javobgarlik.

1. Iste'molchilar huquqlarining himoya qilinishi tushunchasi. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan respublikamizda mulkning turli shakllari vujudga keldi. Bunday holatda iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishga katta e'tibor berish lozim.

Tahlillardan ma'lum bo'ldiki, savdo sohasidagi qonunbuzarliklar asosan sotilgan mahsulot uchun chek bermaslik, iste'molchiga sifatni tasdiqlovchi sertifikatni taqdim etmaslik va sanitariya qoidalariga amal qilmaslik bilan bog'liq. Tibbiyot tizimida olib borilgan monitoring natijalari iste'molchilarning sohaga oid xizmatlardan foydalanishda yetarli ma'lumotga ega emasligini ko'rsatdi.

O'zbekiston respublikasining «iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, «iste'molchi – foyda olish bilan boglik bulmagan xolda shaxsiy iste'mol yoki boshka maqsadlarda foydalanish maqsadida tovar sotib oluvchi, ish,

xizmatlarga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bulgan fuqaro»⁴, – deb ta'riflangan. rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda iste'molchi deganda, sotib olinayotgan tovarning xususiyatlari haqida maxsus bilimlarga ega bo'lmagan shaxslar tushuniladi. shuningdek, bunday davlatlarda «iste'molchi har doim haq» degan tomoyil o'z ifodasini topgan.

Sodda qilib aytganda, **iste'molchi** – yashash uchun hayotdagi moddiy ne'matlardan foydalanuvchi inson.

Avalo, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish uchun ularning huquqiy madaniyatini rivojlantirish zarur. Iste'molchilarning huquqiy madaniyati quyidagilardan iborat:

- 1) iste'molchi amaldagi qonunlarni yaxshi bilishi kerak.
- 2) iste'molchi amaldagi qonunlar doirasida harakat qilishi kerak.
- 3) o'ziga nimani ravo ko'rsa, o'zgaga ham shuni ravo ko'rish kerak. Agarda barcha iste'molchilar yuqorida keltirilgan qoidalariga amal qilsalar jamiyatimizda huquq sub'ektlari o'rtasida huquqiy madaniyat yanada rivojlanishi mumkin.

Qonunga ko'ra iste'molchilar quyidagi huquqlarga ega:

- Tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish;
- Tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo'lishi;
- Tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo'lishi; hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo'lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g'ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararning to'liq hajmda qoplanishi;
- Buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so'rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish;
- Iste'molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish.

Iste'molchilarning ijtimoiy himoyaga muhtojlar toifasiga kiritilgan ayrim guruhlar uchun qonun hujjatlari bilan savdo, maishiy xizmat va xizmat ko'rsatishning boshqa turlari bo'yicha imtiyozlar va afzalliklar belgilanishi mumkin.

Iste'molchi *shartnoma* tuzish yo'li bilan tovarni (ish, xizmatni) erkin sotib olish huquqiga ega bo'lib, bu shartnomaga ko'ra sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) iste'molchiga muayyan miqdordagi va maqbul sifatli tovarni mulk qilib topshirish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) majburiyatini, iste'molchi esa, shartlashilgan pulni to'lash majburiyatini o'z zimmlariga oladilar.

Narxnoma bilan qo'yilgan tovarlar hamda tovar (ish, xizmat)lar haqida keluvchilar e'tiboriga havola etiladigan ma'lumot tegishli shartnomani tuzish uchun taklif deb hisoblanadi.

Tomonlar o'rtasida shartnoma narsasi, miqdor, narx va boshqa muhim shartlar to'g'risida kelishuvga erishilsa, iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) o'rtasida shartnoma tuzilgan deb hisoblanadi.

tuzilgan zahoti bajariladigan shartnoma, qoida tariqasida, og'zaki shaklda tuziladi, qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan hollar bundan mustasno. Tuzilgan vaqtdan boshqa paytda

⁴ O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni, 1-modda.

(oldindan beriladigan buyurtmalar bo'yicha, jo'natma savdoda va boshqa hollarda) bajariladigan shartnoma yozma shaklda tuziladi.

2. Nuqsonli tovarni almashtirib berish tartibi.

Iste'molchi tovarning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlagan taqdirda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uni ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga *7 kunlik* muddatda, tovar sifatini sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) tomonidan qo'shimcha ravishda tekshirish zarur bo'lganida esa, iste'molchi talab qo'ygan paytdan e'tiboran *20 kun* ichida almashtirib berishi shart.

Ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar bo'lmagan taqdirda, iste'molchining almashtirib berish xususidagi talabi da'vo qilingan paytdan e'tiboran *bir oy* ichida qondirilishi kerak. Cho'l va olis joylarda, tovarlar vaqti-vaqti bilan olib boriladigan joylarda iste'molchining bunday talabi ushbu joylarga navbatdagi tovar yetkazib berish uchun ketadigan muddat ichida, lekin *ikki oydan* kechiktirmay qondirilishi lozim.

Ana shu muddatlarning o'tkazib yuborilgan har bir kuni uchun sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir vaqtda tovar bahosining bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to'laydi.

Iste'molchining roziligi bilan sotuvchi nuqsonli tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib berib, xarid narxini tegishincha qayta hisob-kitob qilishi shart.

Tovar (ish, xizmat) haqida noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'lmagan ma'lumot berilgan taqdirda iste'molchining huquqlari:

- zarur iste'mol xossalariga ega bo'lmagan tovar (ish, xizmat) sotib olinishiga sabab bo'lsa, iste'molchi shartnomani bekor qilishga va o'ziga yetkazilgan zararining qoplanishini talab qilishga haqlidir;
- sotib olingan tovar (ish, xizmat)dan ko'zlangan maqsadda foydalana olmaslikka sabab bo'lsa, iste'molchi tegishli ma'lumot oqilona qisqa (ko'pi bilan 3 kunlik) muddatda berilishini talab qilishga haqlidir. Agar ma'lumot aytilgan muddatda berilmasa, iste'molchi shartnomani bekor qilib, zararining qoplanishini talab qilishga haqlidir;
- iste'molchining hayotiga, sog'lig'iga yoxud mol-mulkiga zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, u ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) oldiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarni qo'yishga haqlidir.

Noto'g'ri reklama oqibatida sotib olingan tovar (ish, xizmat) tufayli iste'molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to'liq haimda qoplanishi lozim

Nuqsonli tovar sotilgan iste'molchi, agar bu hol shartnoma tuzish paytida aytib o'tilmagan bo'lsa, o'z xohishiga qarab quyidagilardan birini talab qilishga haqli:

- ❖ Tovarni ayni shunday markali (modelli, artikulli) maqbul sifatli tovarga almashtirib berish;
- ❖ Tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib, uning xarid narxini tegishincha qayta hisob-kitob qilish;
- ❖ Tovarining nuqsonlarini bepul bartaraf etish yoki iste'molchining yoxud uchinchi

shaxsning nuqsonlarni bartaraf etishga qilgan xarajatlarini qoplash;

- ❖ Xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirish;
- ❖ Shartnomani bekor qilib, ko'rilgan zararni qoplash.

Agar nuqsonlar:

- Tovarning kafolat muddati yoxud yaroqlilik muddati mobaynida;
- Kafolat muddati va yaroqlilik muddati belgilanmagan tovarlar bo'yicha 6 oy mobaynida;
- Ko'chmas mulk iste'molchiga o'tkazilgan kundan e'tiboran 2 yil mobaynida, agar shartnomada bundan uzoqroq muddat nazarda tutilmagan bo'lsa;
- Mavsumiy tovarlar uchun o'zbekiston respublikasi hukumati tomonidan belgilangan muddat mobaynida aniqlangan bo'lsa, iste'molchi mazkur huquqlarini ro'yobga chiqarishi mumkin.

Iste'molchi texnik pasportni yo'qotib qo'ygan taqdirda, uni qayta tiklash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tovarda aniqlangan nuqsonlar ishlab chiqaruvchi tomonidan bartaraf etiladi. Ishlab chiqaruvchi bilan sotuvchining o'zaro munosabatlari shartnoma bilan tartibga solinadi.

Tovar nuqsonlarini bepul bartaraf etish tartibi. Tovarda kafolat muddatida topilgan nuqsonlarni sotuvchi iste'molchi tegishli talab qo'ygan paytdan e'tiboran 20 kun ichida, ishlab chiqaruvchi esa, 10 kun ichida bepul bartaraf etishi lozim.

Iste'molchi kafolat muddati tugaganidan keyin tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish to'g'risida ishlab chiqaruvchiga talab qo'yishga haqli. Bunday talab, basharti tovarda ishlab chiqaruvchining aybi bilan yo'l qo'yilgan jiddiy nuqsonlar aniqlangan bo'lsa, belgilangan xizmat muddati mobaynida, agar xizmat muddati belgilanmagan bo'lsa, 10 yil mobaynida qo'yilishi mumkin.

Uzoq muddat davomida foydalaniladigan tovarni ta'mirlashga ketadigan vaqtda foydalanib turish uchun iste'molchining talabiga binoan nuqsonli tovar qaytarib berilganidan keyin 3 kun ichida unga ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar berib turiladi (sotuvchining hisobidan uning o'zi yoki vakili eltib beradi). Buning uchun ishlab chiqaruvchi sotuvchi bilan birgalikda shartnoma asosida tovarlarning almashuv fondini nazarda tutishlari shart. Mazkur talablar tatbiq etilmaydigan uzoq muddat davomida foydalaniladigan tovarlar ro'yxatini hukumat belgilaydi.

Tovardagi nuqsonlarni bartaraf etish xususida talab qo'yilgan taqdirda, undan foydalanishning kafolat muddati iste'molchining tovardan foydalana olmagan davrga teng muddatga uzaytiriladi. Mazkur muddat iste'molchi nuqsonlarni bartaraf etish talabi bilan murojaat etgan kundan e'tiboran hisoblana boshlaydi.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchining ta'mirlashga ketadigan vaqtda foydalanish uchun shunday tovarni berib turish haqidagi talabini bajarish kechiktirilgan har bir kun uchun, shuningdek nuqsonlarni bartaraf etishning shartnomadan kelib chiqadigan muddatlaridan ortiq kechiktirilgan har bir kun uchun tovar narxining bir foizi miqdorida iste'molchiga neustoyka (penya) to'laydi.

Iste'molchining nuqsonli tovarning xarid narxni nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirishni yoki shartnomani bekor qilishni talab qilish huquqi. Agar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchining tovarni almashtirib berish yoki undagi nuqsonlarni bartaraf etish haqidagi talablarini bajarmagan bo'lsa, iste'molchi tovarning xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirishni yoki shartnomani bekor qilib, yetkazilgan ziyon va ma'naviy zararni

qoplashni talab qilishga haqli.

Iste'molchiga nuqsonli tovar sotilgan taqdirda u bilan hisob-kitob qilish. Nuqsonli tovar ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga almashtirib berilgan vaqtda tovarning narxi o'zgargan bo'lsa, qayta hisob-kitob qilinmaydi.

Nuqsonli tovar boshqa markali (modelli, artikulli) tovarga almashtirib berilayotganda, agar almashtirilishi kerak bo'lgan tovar narxi uning o'rniga berilayotgan tovar narxidan past bo'lsa, iste'molchi narxlardagi farqni qo'shimcha ravishda to'lashi lozim, almashtirilishi kerak bo'lgan tovar narxi uning o'rniga berilayotgan tovar narxidan yuqori bo'lsa, iste'molchiga narxlardagi farq qaytariladi. Bunday hisob-kitob chog'ida almashtirilishi kerak bo'lgan tovar narxi oshgan taqdirda, uning talab qo'yilgan paytdagi narxi, narxi pasaygan taqdirda esa, xarid qilingan paytdagi narxi qo'llaniladi.

Shartnoma bekor qilinayotganda tovar narxi oshgan bo'lsa, iste'molchi bilan hisob-kitob tovarning tegishli talab qo'yilgan paytdagi qiymatiga qarab, narxi pasaygan taqdirda esa, xarid qilingan paytdagi qiymatiga qarab amalga oshiriladi.

Tovar iste'molchilarga kreditga sotilgan bo'lsa, shartnoma bekor qilingan taqdirda, pul summasi tovar qaytarilayotgan paytga qadar uzilgan kredit miqdorida qaytarib beriladi, shuningdek kredit berganlik haqi to'lanadi.

Hajmi katta yoki vazni besh kilogrammdan ziyod tovarni ta'mirlash, narxini tushirish, almashtirish uchun eltish va iste'molchiga qaytarib keltirib berish sotuvchining (ishlab chiqaruvchining) kuchi bilan va uning hisobidan amalga oshiriladi. Ushbu majburiyat bajarilmagan taqdirda tovarni eltish va qaytarib olib kelish iste'molchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bunda iste'molchining tovarni eltish va qaytarib olib ketish bilan bog'liq xarajatlarini sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) qoplashi shart.

Iste'molchining maqbul sifatli tovarni almashtirib olish huquqi. Iste'molchi maqbul sifatli nooziq-ovqat tovarini xarid qilgan kundan e'tiboran 10 kun ichida ushbu tovar sotib olingan joydagi sotuvchidan uni ayni shunday tovarga almashtirib olishga, bunday tovar sotuvda bo'lmasa, pulini qaytarib olishga haqli.

Almashtirish faqat tovar ishlatilmagan, ko'rinishini yo'qotmagan va o'z xususiyatlarini saqlab qolgan holdagina amalga oshiriladi. Almashtirish faqat nooziq-ovqat tovarlariga taalluqli. Chakana savdo majmuasida sotib olingan oziq-ovqat mahsulotlari qayta qabul qilinmaydi va almashtirilmaydi, ularda ko'rinmas nuqson yoki toifasiga mos kelmaydigan xususiyat aniqlangan hollar bundan mustasno. Bu holda tovar almashtirilib beriladi yoki sotib oluvchiga uning to'lagan puli qaytariladi.

Almashtirib olish tartibi va almashtirib berilmaydigan tovarlar ro'yxati o'zbekiston hukumati tasdiqlaydigan qoidalar bilan belgilanadi.

Tovar (ish, xizmat)ning tuzilishiga, ishlab chiqarilishiga, tarkibiga bog'liq bo'lgan va boshqa nuqsonlari, shuningdek iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkining xavfsizligini ta'min eta olmaydigan materiallar, uskunalar, asbob-anjomlar, moslamalar yoki boshqa vositalar qo'llanilishi oqibatida iste'molchining hayotiga, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) tomonidan qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bilan shartnoma munosabatlariga kirishgan-kirishmaganidan qat'i nazar, har qanday iste'molchi tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni tufayli yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

Iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, agar u normativ hujjatlarda nazarda tutilgan tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati mobaynida, bunday muddat belgilanmagan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarilgan (ish, xizmat qabul qilingan) paytdan e'tiboran o'n yil mobaynida yuzaga kelgan bo'lsa, qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) zarar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch yoki foydalanish, saqlash yoxud tashishning belgilangan qoidalari iste'molchi tomonidan buzilishi tufayli yetkazilganligini isbotlasa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

Iste'molchining huquqlari buzilishi tufayli unga yetkazilgan ma'naviy zarar uchun uni yetkazgan shaxs, basharti u aybdor bo'lsa, haq to'lashi lozim. Ma'naviy zarar uchun to'lanadigan haq miqdorini sud belgilaydi. Ma'naviy zarar uchun haq to'lash mulkiy ziyon va iste'molchi ko'rgan zararining o'rni qoplanishidan qat'i nazar, amalga oshiriladi.

Davlat iste'molchilarning tovar (ish, xizmat) sotib olish va undan foydalanish chog'idagi huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi.

Quyidagilar iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish uchun maxsus vakolat berilgan davlat organlaridir:

- O'zbekiston respublikasi monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi;
- O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("o'zstandart" agentligi);
- O'zbekiston respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi;
- O'zbekiston respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi;
- O'zbekiston respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;
- Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini o'z vakolatlari doirasida nazorat qiluvchi boshqa davlat boshqaruvi organlari.

3. Istemolchilar huquqlarini buzganlik uchun huquqiy javobgarlik.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgar bo'ladi.

o'zbekiston respublikasi monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari ishlab chiqaruvchiga (ijrochiga, sotuvchiga):

- qonun hujjatlarida yaroqlilik muddati ko'rsatilishi shart ekanligi belgilanganligiga qaramay yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan tovarlarni realizatsiya qilish uchun qabul qilganlik va sotganlik uchun tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xavfsiz bo'lishi va sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi tegishli davlat boshqaruvi organlarining ushbu tovarlarning iste'mol (foydalanish) uchun yaroqliligi to'g'risidagi xulosasi olingan taqdirda, realizatsiya qilish uchun qabul qilingan tovarlar hajmining besh foizi va ushbu tovarlarning iste'mol (foydalanish) uchun yaroqsizligi to'g'risidagi xulosasi olingan taqdirda, realizatsiya qilish uchun qabul qilingan tovarlar hajmining yuz foizi miqdorida, biroq eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda;

- yaroqlilik muddati o'tgan tovarlarni realizatsiya qilish uchun qabul qilganlik va sotganlik uchun - realizatsiya qilish uchun qabul qilingan tovarlar hajmining yuz foizi miqdorida, biroq eng kam ish haqining uch yuz baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda;

- iste'molchilar huquqlarining buzilishini bartaraf etish to'g'risidagi o'z ko'rsatmalarini bajarishdan bo'yin tovlaganlik yoki o'z vaqtida bajarmaganlik uchun:

Yuridik shaxslarga - eng kam ish haqining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda;

Jismoniy shaxslarga - eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solish huquqiga ega.

“o'zstandart” agentligi va davlat boshqaruvining boshqa organlari:

- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) majburiy sertifikatlash qoidalari ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tomonidan buzilsa;

- o'zlarining ko'rsatmalarini ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) bajarishdan bo'yin tovlasa, o'z vaqtida yoki lozim darajada bajarmasa;

- normativ hujjat talablariga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat) tufayli iste'molchilarga zarar yetkazilsa, jarimalar solishga haqlidir.

Jarima solish sud tomonidan, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) sodir etilgan huquqbuzarlikdagi aybiga iqror bo'lgan va jarimani ixtiyoriy ravishda to'lagan taqdirda esa, maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ishlab chiqaruvchining (ijrochining, sotuvchining) oxirgi hisobot sanasidagi joriy aktivlari summasining jami yigirma foizidan ortiq miqdorda jarima undirish unga undiriladigan summani undirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran olti oy mobaynida oyma-oy bo'lib to'lash imkoni berilgan holda amalga oshiriladi.

Jarima solish ishlab chiqaruvchini (ijrochini, sotuvchini) yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklarni bartaraf qilish majburiyatidan ozod etmaydi.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) davlat boshqaruvi organining ko'rsatmasini to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqlidir.

Tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishi haqidagi talablarga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat)lar tufayli iste'molchilarga zarar yetkazilsa, tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsiz bo'lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Iste'molchining huquqlari buzilgan taqdirda, u sudga murojaat qilishga haqlidir. Da'volar, agar qonunlarda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, javobgar, iste'molchi joylashgan yerdagi yoki zarar yetkazilgan joydagi sudga taqdim etiladi

tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari, iste'molchilarning jamoat birlashmalari iste'molchining (iste'molchilar nomuayyan doirasining) manfaatlarini ko'zlab qo'zg'atiladigan da'volar bo'yicha davlat boji to'lashdan ozod qilinadilar.

Nazorat uchun savollar:

1. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qiluvchi qanday qonun hujjatlari mavjud?
2. Iste'molchining kanday asosiy huquqlari mavjud?
3. Ishlab chiqaruvchi o'zi haqida kanday ma'lumotlarni iste'molchiga yetkazishi lozim?
4. Ishlab chiqaruvchining kafillik majburiyatlari nimalardan iborat?
5. Tovar haqida noto'g'ri ma'lumot berilganda iste'molchining kanday huquqlari bor?
6. Iste'molchi tovar xavfsiz bo'lishi uchun qanday talab qo'yishga haqli?
7. Iste'molchiga nuqsonli tovar qanday almashtirib beriladi?
8. Iste'molchiga yetkazilgan tovar uchun qanday javobgarliklar mavjud?
9. Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan iste'molchining huquqi qanday himoyalangani?
10. Iste'molchilarning huquqlarini sud orqali himoya qilinishi tartibi qanday?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. – t.: o'zbekiston, 2016.
2. Raxmankulov x.r. Oldi-sotdi shartnomasi. – t.: tdyui, 2000.
3. O'zbekiston respublikasining «iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonuni. 26 aprel 1996 yil.
4. Qosimbekova s. «huquqshunoslik, o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – t.: tdiu. 2006.

MAVZU: MEHNAT HUQUQI ASOSLARI

Reja

1. Mehnat huquqi tushunchasi, predmeti, uslulari va vazifasi.
2. Mehnat shartnomasi, uni tuzish va bekor bo'lish asoslari.
3. Mehnat intizomi.

1. Mehnat huquqi tushunchasi, predmeti, uslulari va vazifasi, mehnat huquqi huquq sohasi

o k b

Mehnat yoshi 16 yoshdan boshlanadi. Ayrim hollarda ota-onasidan birining roziligi bilan 15 yoshdan, 14 yoshga to'lgan o'quvchilar ota-onasidan birining roziligi bilan o'qishdan bo'sh vaqtlarida mehnat qilishlari mumkin.

mehnat huquqining vazifalari mehnat kodeksida nazarda tutilgan bulib, unga ko'ra: "mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari xodimlar, ish beruvchilar, davlat manfaatlarini e'tiborga olgan holda, mehnat bozorining samarali amal qilishini haqqoniy va xavfsiz mehnat shart-sharoitlarini, xodimlarning mehnat huquqlari va sog'ligi himoya qilinishini ta'minlaydi, mehnat unumdorligining o'sishiga, ish sifati yaxshilanishiga, shu asosida barcha aholining moddiy va madaniy turmush darajasini yuksalishiga ko'maklashadi"⁵, – deb aniq ko'rsatib berilgan.

Konstitutsiya va qonunlarga ko'ra **majburiy mehnat** taqiqlanadi. Lekin harbiy yoki muqobil xizmat to'g'risidagi qonunlar asosida, favqulodda holat yuz berganda, sudning hukmi qonuniy kuchga kirganida va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollar bundan mustasno.

ish beruvchi ishtirok etadi. mehnat huquqining sub'ekti sifatida xodimlar vakillik

⁵ O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. 2-modda. – T.: Adolat, 1999.

organlari: kasaba uyushmalari, mehnat jamoalari, boshqa organlar ishtirok etadilar va ularning huquqiy maqomi tegishli qonunlar bilan, xodimlar jamoasi berilgan vakolatlar bilan begilanadi. ish beruvchilar vakillari ham mehnat huquqining sube'ktlaridan sanaladi.

mehnat huquqi predmeti. mehnat huquqi mehnat jarayoni texnologiyasini emas, balki birgalikdagi mehnat davomida uning ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keluvchi sotsial aloqalarni tartibga soladi.

mehnat huquqining predmeti sanaluvchi ijtimoiy munosabatlar alohida guruhlariga ajratilishi mumkin.

mehnat huquqining uslublari va tizimlari. agar mehnat huquqining predmeti deganda, ushbu sohada nimalar tartibga solinishi anglansa, uslubi deganda, bu munosabatlar qanday qilib tartibga solinishi tushuniladi.

16 yoshdan boshlab to pensiya bilan ta'minlanish huquqini olishgacha bo'lgan shaxslar, agarda hyech qaerda ishlamasalar, ishlash uchun ish joy qidirib yurgan bo'lsalar, davlat ularni ishsiz, deb e'tirof etadi. ishsiz deb e'tirof etilganlar mahalliy mehnat organlarida ro'yxatga olingan paytdan boshlab 10 kun ichida o'zlariga taklif qilingan maqbul keladigan ishni ikki marta rad etgach ish qidirayotganlar, deb e'tirof etilmaydi va shu kundan keyin uni yana takroran ishsiz sifatida ro'yxatga olish mumkin.

ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarga ishsizlik nafaqasi to'lanadi.

ishsizlik nafaqasi ko'pi bilan:

- ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan yoki uzoq (bir yildan ortiq) tanaffusdan keyin mehnat faoliyatini qayta boshlashga harakat qilayotgan shaxsga o'n ikki oylik davr mobaynida yigirma olti kalendar hafta;

- ilgari ishlamagan va birinchi marta ish qidirayotgan shaxsga esa o'n uch kalendar hafta mobaynida to'lanadi.

ishsiz shaxs nafaqa olish davrida ish qidirishi va har ikki haftada kamida bir marta mahalliy mehnat organida yo'qlamadan o'tishi kerak.

2. mehnat shartnomasi, uni tuzish va bekor bo'lish asoslari. *mexnat shartnomasi* xodim bilan ish beruvchi o'rtasida muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibiga bo'ysungan holda taraflar kelishuvi, shuningdek mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan shartlar asosida haq evaziga bajarish haqidagi kelishuvdir. mehnat shartnomasi yozma shaklda tuziladi.

Mehnat shartnomalari: nomuayyan muddatga; besh yildan ortiq bo'lmagan muavvan muddatga; muavvan ishni bajarish vaqtiga mo'ljallab tuzilishi mumkin.

ish beruvchining xohishiga asosan sinov muddati o'rnatiladi. dastlabki *sinov muddati* 3 oydan oshib ketishi mumkin emas. sinov muddatida ishlagan davr mehnat stajiga kiritiladi.

dastlabki sinov muddati tugagunga qadar har bir taraf ikkinchi tarafni uch kun oldin yozma ravishda ogohlantirib, mehnat shartnomasini bekor qilishga haqlidir.

mehnat shartnomasi deganda, mehnat jarayonidagi ijtimoiy (mehnat haqi miqdori, ish vaqtining, ta'tilning muddati va boshqalar) va ishlab chiqarish (texnika, sanitariya, gigiena va boshqalar) omillarining jami tushuniladi.

Mehnat kodeksining 97-moddasiga ko'ra mehnat shartnomasi quyidagi asoslarda bekor qilinadi:

- ❖ taraflarning o'zaro kelishuviga ko'ra;
- ❖ taraflardan birining tashabbusi bilan;
- ❖ muddatning tugashi bilan;
- ❖ taraflarning ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra;
- ❖ mehnat shartnomasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra;
- ❖ yangi muddatga saylanmaganligi (tanlov bo'yicha o'tmaganligi) yoxud saylanishda (tanlovda) qatnashishni rad etganligi munosabati bilan.

mehnat shartnomasini *xodimning tashabussi* bilan istalgan paytda, bekor qilish mumkin. bunda mehnat shartnomasining muddatli yoki nomuddatli muddatga tuzilganligining ahamiyati yo'q. bunday holda xodim ish beruvchini ikki hafta oldin yozma ravishda ogohlantirishi lozim. shu muddat o'tgach xodim ish beruvchidan u bilan hisob-kitob qilib, mehnat daftarchasini berishni talab qilishga haqli.

ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasi quyidagi:

- 1) texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi;
- 2) xodimning malakasi yetarli bo'lmaganligi yoki sog'ligi holatiga ko'ra bajarayotgan ishga noloyiq bo'lib qolishi;
- 3) xodimning o'z mehnat vazifalarini muntazam ravishda buzganligi;
- 4) xodimning o'z mehnat vazifalarini bir marta qo'pol ravishda buzganligi;
- 5) o'rindoshlik asosida ishlamaydigan boshqa xodimning ishga qabul qilinishi munosabati;
- 6) mulkdorning almashishi sababli korxona rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasining bekor qilinganligi asoslarida bekor qilinadi.

agar xodim sog'ligi holatiga ko'ra bajarayotgan ishga noloyiq bo'lib qolganligi aniqlansa, ogohlantirilmasdan ikki haftalik ish haqi miqdorida kompensatsiya to'lanadi.

mehnat shartnomasi xodim aybli xatti-harakatlar sodir etganligi munosabati bilan bekor qilingan hollarda ish beruvchi xodimni uch kun oldin xabardor qiladi yoki unga shunga mutanosib kompensatsiya to'lanadi.

mehnat shartnomasini bekor qilish ishga qabul qilish huquqiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi va buyruq bilan rasmiylashtiriladi.

Respublikamizda haftasiga **40 soatlik** normal ish vaqti qonunlashtirilgan. Ish vaqti: normal – haftasiga 40 soat; qisqartirilgan – haftasiga 36 soat 16 yoshdan 18 yoshga to'lmaganlar uchun; haftasiga 24 soat 15 yoshdan 16 yoshga to'lmaganlarga. Qonunda nazarda tutilgan hollar ham mavjud, nogironlar, o'qituvchilar, shifokorlar, yosh bolali ayollar va boshqa xodimlarga ham qisqartirilgan ish vaqti qo'llanadi.

masalan, uch yoshga to'lmagan bolalari bor, byudjet hisobidan ishlayotgan ayollarga ish vaqtining haftasiga o'ttiz besh soatdan oshmaydigan qisqartirilgan muddati belgilagan.

xodim bilan ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan ishga qabul qilish chog'ida ham, keyinchalik ham to'liqsiz ish kuni yoki to'liqsiz ish haftasi belgilab qo'yilishi mumkin.

homilador ayolning, 14 yoshga to'lmagan bolasi (16 yoshga to'lmagan nogiron bolasi) bor ayolning, shu jumladan homiyligida shunday bolasi bor ayolning yoki oilaning betob a'zosini parvarish qilish bilan band bo'lgan shaxsning iltimosiga ko'ra, ish beruvchi tibbiy xulosaga muvofiq ularga to'liqsiz ish kuni yoki to'liqsiz ish haftasi belgilashga majburdir.

tungi ish vaqti turlari ham bor. soat 22-00 dan to soat 6-00 gacha bo'lgan vaqt tungi vaqt deb hisoblanadi. xodim uchun belgilangan kundalik ish muddatidan tashqari ishlash ish vaqtidan tashqari ish deb hisoblanadi. bu vaqtda ish bajarish xodimning roziligi bilan amalga oshiriladi. nogironlar, homilador ayollar, o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar ish vaqtidan tashqari ishlashga jalb etilmaydi. ish vaqtidan tashqari ishlashning bir yillik soat hajmi 120 soatdan ortiq bo'lmاسligi lozim. bunday chegaralashning sababi xodimning sog'ligi, ish unumdorligining pasayib ketmasligi uchun qaratilgan.

dam olish vaqti – bu xodim mehnat vazifalarini bajarishdan xoli bo'lgan va undan u o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanishi mumkin bo'lgan vaqtdir.

dam olish vaqti quyidagilarga bo'linadi:

ish kuni (smena) davomidagi tanaffuslar;

kundalik dam olish vaqti;

dam olish kunlari;

bayram kunlari (ishlamaydigan kunlar):

- a) 1 yanvar – yangi yil;
- b) 8 mart – xotin-qizlar kuni;
- v) 21 mart – navro'z bayrami;
- g) 9 may – xotira va qadrlash kuni;
- d) 1 sentyabr – mustaqillik kuni;
- ye) 1 oktyabr – o'qituvchi va murabbiylar kuni;
- j) 8 dekabr – konstitutsiya kuni;
- z) ro'za va qurbon hayiti diniy bayramlarining birinchi kuni.

5.ta'tillar:

- a) yillik mehnat ta'tili;
- b) yillik uzaytirilgan asosiy ta'tillar;
- v) yillik qo'shimcha ta'tillar;

g) ijtimoiy ta'tillar;

d) ish haqi saqlanmagan holda beriladigan ta'tillar.

Yillik asosiy **ta'til**ning muddati 15 ish kunidan kam bo'lmashligi lozim. 18 yoshga to'lmaganlarga, ishlayotgan I va II guruh nogironlariga uzaytirilgan – 30 kalendar kun ta'til beriladi. Bunday ta'tillar ayrim toifadagi xodimlarga ularning mehnat vazifalarining o'ziga xos iihatlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda beriladi.

yillik qo'shimcha ta'tillar mehnat sharoiti noqulay, og'ir, alohida tushga ega bo'lgan ishlarda va mehnat qonunlarida, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan boshqa hollarda beriladi.

ijtimoiy ta'tillar: homiladorlik va tug'ish, bolalarni parvarishlash; o'qish bilan bog'liq va ijodiylikka bo'linadi. ish haqi saqlanmagan holda beriladigan ta'tillar xodim bilan ish beruvchining o'rtasidagi kelishuvga binoan beriladi.

mehnatga haq to'lash muddatlari jamoa shartnomasida belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam bo'lishi mumkin emas. odatda ish haqi xodim ishlayotgan joydan to'lanadi. xodimning xohishiga binoan mehnat haqi uning omonat kassasidagi hisob varaqasiga yuborilishi mumkin. mehnat qonunlarida xodimning roziligi bilan, agar roziligi bo'lmasa, sudning qaroriga binoan mehnat haqidan ushlab qolinishi mumkin.

Yillik asosiy ta'tilning muddati 15 ish kunidan kam bo'lmashligi lozim. 18 yoshga to'lmaganlarga, ishlayotgan I va II guruh nogironlariga uzaytirilgan – 30 kalendar kun ta'til beriladi. Bunday ta'tillar ayrim toifadagi xodimlarga ularning mehnat vazifalarining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda beriladi.

Mehnat qonunlarida har bir xodimning davlat yoki jamoat vazifalarini bajarayotgan vaqtida uning ish joyini saqlab qolinishi, kafolatli to'lovlar va kompensatsiya to'lovlari mavjud ekanligi ko'rsatilgan. Bunday to'lovlar va kafolatlar xodim saylov huquqlarini amalga oshirish vazifalarini bajarish, harbiy burchni bajarish, surishtiruv, tergov organiga, sudga guvoh, jabrlanuvchi, ekspeditsiya va h.k. Da ishtirok etishida amalga oshiriladi. Undan tashqari xodim xizmat safari davrida va ko'chib yurish bilan bog'liq ishlarda xarajatlari ham to'lanadi.

Mehnat shartnomasiga ko'ra to'lanadigan haq bajarilgan mehnatning miqdori va sifatiga mutanosib bo'lishi talab etiladi hamda bu ko'rsatkich ish haqi tizimlari (ishning davomiyligi, murakkabligi, xodimning malakasi, normalarning bajarilishi va boshqa omillar hisobga olingan holda) vositasida aniqlanadi. Xodim asosiy ish haqidan tashqari korxona ish yakunlariga ko'ra belgilangan qo'shimcha ish haqlarini ham oladi (mukofot pullari, ustama haqlar va boshqalar).

Mehnat shartnomasining shakli, mazmuni va amal qilish muddatlari. Mehnat shartnomasi unda ishtirok etayotgan taraflarning, birinchi navbatda xodimning manfaatlarini real va samarali tarzda ta'minlash maqsadida faqat yozma ravishda tuzilishi lozim. Mehnat kodeksining 74-moddasida aytilishicha: "mehnat shartnomasi yozma shaklda tuziladi".

Mehnat shartnomasi mazmuni deganda, unga ko'ra tomonlar qo'lga kiritayotgan huquqlar, o'z zimmlariga olayotgan majburiyatlar majmui tushuniladi.

Quyidagilar mehnat shartnomasi (kontrakt)ning *zarur shartlari* hisoblanadi:

1) *ish joyi* – xodim ishga qabul qilinayotgan korxona, muassasa, tashkilot (uning tarkibiy

bo‘linmasi)ning nomi;

2) *mehnat funksiyasi* – mazmuni lavozim yo‘riqnomalari, malaka majburiyatlari va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilangan muayyan mutaxassislik, malaka yoxud lavozim bo‘yicha ish (rahbarlar, mutaxassislar va xizmatchilarning hamda boshqalarning yagona tarif-malaka ma'lumotnomasi, malaka ma'lumotnomalariga muvofiq);

3) *ish boshlanadigan kun* – qonun hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi, agar ishning boshlanishi sanasi qayd etilmagan bo‘lsa, xodim shartnoma imzolangan kundan keyingi ish kunidan (smenadan) kechikmay ishga tushishi shart;

4) *mehnatga haq to‘lash miqdori va boshqa shartlar*.

Mehnat kodeksining 75-moddasiga muvofiq *mehnat shartnomalari*:

- nomuayyan muddatga;
- besh yildan ortiq bo‘lmagan muayyan muddatga;
- muayyan ishni bajarish vaqtiga mo‘ljallab tuzilishi mumkin.

Agar mehnat shartnomasida uning amal qilish muddati ko‘rsatilmagan bo‘lsa, mehnat shartnomasi nomuayyan muddatga tuzilgan deb hisoblanadi. Nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasi xodimning roziligisiz muayyan muddatga, shuningdek muayyan ishni bajarish vaqtiga mo‘ljallanib qayta tuzilishi mumkin emas.

Ishga qabul qilishning umumiy tartibi.

Ishga qabul qilish paytida ish beruvchi ishga kirayotgan shaxsdan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hujjatlarni talab qilishi lozim.

Mehnat kodeksining 80-moddasida aytilishicha: “ishga qabul qilish vaqtida ishga kirayotgan shaxs quyidagi hujjatlarni:

- *pasport* yoki uning o‘rnini bosadigan *boshqa hujjatni*, 16 yoshga to‘lmagan shaxslar esa, tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma va turar joyidan ma'lumotnomani;
- *mehnat daftarchasini*, birinchi marotaba ishga kirayotgan shaxslar bundan mustasno. O‘rindoshlik asosida ishga kirayotgan shaxslar mehnat daftarchasi o‘rniga asosiy ish joyidan olgan ma'lumotnomani;
- harbiy xizmatga majburlar yoki chaqiriluvchilar tegishli *harbiy guvohnomani* yoki harbiy hisobda turganligi haqida guvohnomani;
- qonun hujjatlariga muvofiq maxsus ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega shaxslargina bajarishi mumkin bo‘lgan ishlarga kirayotgan oliy yoki o‘rta maxsus o‘quv yurtini tamomlaganligi to‘g‘risidagi *diplomni* yoxud mazkur ishni bajarish huquqini beradigan guvohnomani yoki boshqa tegishli hujjatni taqdim etadi.

Ishga qabul qilish vaqtida ishga kirayotgan shaxsdan qonun hujjatlarida ko‘rsatilmagan hujjatlarni talab qilish ta’qiqlanadi”.

O‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan mehnat shartnomalari qatoriga o‘rindoshlar, uyda ishlovchilar, tanlov yoki saylov asosida o‘z vazifasiga tayinlanadigan shaxslar, muqobil xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar, uy xizmatchilari bilan tuziladigan shartnomalarni kiritish mumkin.

Tanlov yoki saylov asosida o'z vazifasiga tayinlangan shaxslar bilan tuziladigan mehnat shartnomasi. Ish beruvchi qonun hujjatlarida bevosita nazarda tutilgan hollarda unda belgilangan kasb va lavozimlarga tanlov asosida ishga qabul qilishi lozim. Hozirgi paytda ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy xodimlari hamda oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari tarkibidan bo'lganlar bilan tanlov asosida mehnat shartnomasi tuzish nazarda tutilgan⁶.

Jumladan, o'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998 yil 30 oktyabrda 305-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan (4-ilova) "oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni ishga qabul qilish tartibi haqidagi nizom", "ta'lim to'g'risida"gi qonunning 5-moddasi asosida *pedagog xodimlar* (professor-o'qituvchilar)ni konkurs asosida ishga qabul qilishni belgilaydi.

Ushbu nizomda aytilishicha, konkursning maqsadi kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq zamonaviy talablarga javob beruvchi, kadrlar tayyorlash jarayoni uchun layoqatli, yuqori malakali, chuqur kasbiy bilimga ega, ilmiy yutuqlarga erishgan, ilmiy-ijodiy salohiyatli, yuqori idrok va axloqli shaxslarni saralab olishdir. Oliy ta'lim muassasalarida kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi va assistent lavozimlari konkurs asosida 5 yil muddatga egallanadi va muddat tugagach, qayta konkurs o'tkaziladi.

Kafedra mudiri, professor lavozimlarini egallash uchun o'tkaziladigan konkursda, odatda professor ilmiy unvoni yoki fan doktori ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar, qolgan lavozimlarni egallash uchun o'tkaziladigan konkursda esa. Dotsent ilmiy unvoniga va fan nomzodi ilmiy darajasiga ega shaxslar ishtirok eta oladilar. Istisno tariqasida ilmiy unvon va ilmiy darajaga ega bo'lmagan, ammo besh yildan ortiq ilmiy-pedagog ish tajribasiga ega, oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari yohud umumta'lim maktablari uchun yakka muallif sifatida darslik yoki o'quv qo'llanmasi yozgan, yuqori ilmiy-nazariy darajada ma'ruzalar o'qiy oladigan oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari ham professor yoki dotsent lavozimini egallash uchun konkursda qatnashishga ruxsat beriladi.

Oliy ta'lim muassasasi joriy semestrda 5 yillik saylov muddatlari tugayotgan lavozimlarga va bo'sh lavozimlarga konkurs e'lon qiladi hamda bu haqda ommaviy axborot vositasi e'lon qiladi. Konkursda ishtirok etish istagini bildirgan shaxslar yozma ariza va zarur hujjatlarni institut rektori nomiga taqdim etadi. Professor va kafedra mudiri lavozimlariga oliy o'quv yurtining, boshqa pedagogik lavozimlarga esa fakultetning ilmiy kengashi tomonidan saylanadilar.

Ish beruvchi salohiyatli va yuqori malakali xodimlarni tanlay olish maqsadida korxona lokal hujjatlarida oldindan belgilab qo'yilgan tartibda va shartlarda lavozim (vazifa)larni egallash uchun konkurs e'lon qilishga, bu haqda davriy matbuotda e'lon qilishga haqli. Bunday holda lavozim (vazifa)ni egallashga da'vogar fuqaroni ishga qabul qilishdan bosh tortish mehnat shartnomasi tuzishni g'ayriqonuniy rad etish deb hisoblanmasligi lozim.

Davlat hokimiyati, boshqaruv va mahalliy organlarning ayrim mansabdor shaxslari, jamoat birlashmalari organlarining rahbarlari, aksiyadorlik jamiyati ijroiya organi rahbarlari o'z lavozimlarini belgilangan tartibda o'tkaziladigan saylovlar asosida egallaydilar. Bunday lavozimlarga saylovlar o'tkazish, saylov natijalari yakunlash va qaror qilish tegishli saylov komissiyalari, saylov natijalarini baholashga vakolatli bo'lgan boshqa organlar zimmasiga yuklatilgan. Ushbu organ tomonidan lavozimni egallashga da'vogarni o'tkazilgan saylovda g'olib deb topilishi, bu haqda tegishli hujjatni rasmiylashtirishi, mazkur shaxs bilan yozma

⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlar.

shaklda mehnat shartnomasi tuzilishiga hamda uni lavozimga tayinlash to'g'risida vakolatli organning buyrug'i chiqarilishiga asos bo'ladi.

3. Mehnat intizomi. Ish beruvchi va xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasini amalga oshirishda, mehnat vazifasini sidqidildan bajarishda korxonada o'rnatilgan mehnat tartibiga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki korxonada mehnat tartibi ish beruvchi, kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib tasdiqlaydigan ichki mehnat tartibi qoidalari bilan belgilanadi. Intizom to'g'risida ustav va nizom qabul qilinadi. Bu basharti mehnat nizolari komissiyasi o'n kunlik muddat ichida mehnat nizosini ko'rib chiqmasa yoki hal etmasa, manfaatdor xodim ushbu nizoni ko'rishni tuman (shahar) sudiga o'tkazishga haklidir.

Sudga yoki mehnat nizolari komissiyasiga murojaat etish uchun quyidagi muddatlar belgilanadi:

- Ishga tiklash nizolari bo'yicha – xodimga u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqidagi buyruqning nusxasi berilgan kundan boshlab bir oy;
- Xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zararni to'lash haqidagi nizolar bo'yicha – zarar yetkazilganligi ish beruvchiga ma'lum bo'lgan kundan boshlab bir yil;
- Boshqa mehnat nizolari bo'yicha – xodim o'z huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab uch oy.

Mehnat kodeksining 72-moddasida xodim muayyan malaka, mutaxassislik, lavozim bo'yicha ishni ichki mehnat tartibi qoidalariga, mehnat to'g'risidagi qonunlarga, taraflar kelishuvi bilan belgilangan shartlarga asosan bajarishi lozimligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, ushbu modda mazmunidan ish beruvchi ham xodimga samarali ishlashi uchun zarur sharoit yaratish, uning mehnatiga haq to'lashi lozimligi to'g'risidagi xulosa chiqadi. Shu tariqa mehnat intizomi ikki yoqlama xususiyatga ega va xodim majburiyatlari bilan bir vaqtda ish beruvchining ham ishni to'g'ri tashkil etish, zarur sharoitlar yaratish sohasida sodir etishi lozim bo'lgan aniq xulq-atvor qoidalarini nazarda tutadi, ya'ni mehnat intizomi, eng avvalo, mehnat shartnomasi har ikki tomonning o'zaro huquq va majburiyatlarini anglatuvchi huquqiy tushunchadan iborat. Mehnat intizomi – bu xodim va ish beruvchi xulq-atvori qoidalari yig'indisidan iborat deb talqin etilishi ham mumkin.

Mehnat qonunchiligida mehnat intizomi, texnologiya intizomi, xizmat intizomi, moliya intizomi va boshqalar haqida so'z yuritiladi. Bularning barchasi mehnat intizomini tashkil etadi va tor ma'noda uning ayrim turlari va shakllarini aks ettiradi. Masalan, ishlab chiqarish intizomi deganda, korxona ish faoliyatini tashkil etish, ishlab chiqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish yuzasidan talablar tushunilsa, moliya intizomi deganda, korxona rahbarlari, hisob-kitob va moliyaviy ishlar uchun javobgar mutasaddi shaxslar tomonidan moliyaviy faoliyat qoidalariga qat'iy amal qilish lozimligi tushuniladi.

Mehnat intizomini ta'minlash paytida iqtisodiy, tashkiliy-ruhiy, huquqiy usullardan keng foydalaniladi.

Mehnat huquqi fani va qonunchilik amaliyotida *mehnat intizomini ta'minlash* va mustahkamlashning quyidagi ikki usulidan foydalaniladi:

1) *ishontirish*. Mehnat shartnomasi tomonlarini iqtisodiy, ma'naviy jihatdan manfaatdor qilish, mehnat intizomiga og'ishmasdan amal qilish ular uchun juda ham foydali ekanligiga ishontirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy tadbirlar yig'indisini o'z ichiga oladi.

2) *majburlash*. Mehnat intizomiga shu talablar buzilganida huquqiy majburlov choralari, intizomiy va moddiy jazolarning qo'llanishini taqozo etadi. Bu narsa xodimga nisbatan olganda

turli intizomiy jazolarni qo'llanilishida, ish beruvchiga nisbatan olganda esa, unga turli moliyaviy jazolarni qo'llanilishida, korxonaning bankrot bo'lishida namoyon bo'lishi mumkin.

Ishontirish – mehnat intizomini mustahkamlash, xodimlarni unumli va samarali ishlashga undash, mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishga o'rgatishning eng oqilona usulidan sanaladi.

Ishdagi yutuqlar uchun rag'batlantirish deganda uning korxona oldidagi xizmatlarini ommaviy tan olinishi tushuniladi. Namunaviy ichki mehnat tartibi qoidalarining 3.2-bandida aytilishicha, quyidagi *rag'batlantirish* choralari qo'llanilishi mumkin:

- Tashakkurnoma;
- Pul mukofotlari bilan taqdirlash;
- Qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlash.

Rag'batlantirishning boshqacha turlari ham (masalan, xizmat pog'onasidan ko'tarilish, maxsus unvonlar berish va boshqalar) nazarda tutilishi mumkin.

Xodimga nisbatan quyidagi jazo choralari qo'llanilishi ham mumkin:

1) xayfsan;

2) o'rtacha oylik ish haqining 30% dan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima, ichki mehnat tartibi qoidalarida 50% dan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima solish mumkinligi ko'zda tutilishi mumkin;

3) mehnat shartnomasini bekor qilish (100-moddaning 2-qismi, 3 va 4-bandlari).

Yuqorida sanab ko'rsatilganlardan tashqari boshqa intizomiy jazo choralarini qo'llash taqiqlanadi. Intizomiy jazo bevosita nojo'ya xatti-harakat aniqlanganidan keyin, ammo bu xatti-harakat aniqlanganidan boshlab, xodimning kasal yoki ta'tilda bo'lgan vaqtini hisobga olmasdan uzog'i bilan 1 oy ichida qo'llaniladi".

Xodimga qo'llanilgan intizomiy jazo 1 yil davomida amal qiladi va shu muddat ichida xodim boshqa intizomiy nojo'ya harakat sodir etmasa, u jazoga tortilmagan hisoblanadi.

Intizomiy jazo ish beruvchi tashabbusiga ko'ra, jazoga tortilgan xodim iltimosiga ko'ra, mehnat jamoasi yoki xodimning bevosita rahbari iltimosiga ko'ra, bir yil o'tmasdan ham muddatidan oldin olib tashlanishi mumkin. Bu haqda korxona ish beruvchisining buyrug'i chiqarilishi lozim.

Mehnat huquqining o'ziga xos tamoyillari quyidagilardan iboratdir:

1) mehnat munosabatlariga kirishishning ixtiyoriyligi, erkinligi va majburiy mehnatga yo'l qo'yilmasligi;

2) o'z jismoniy va aqliy imkoniyatlaridan foydalanish chog'ida fuqarolarning mutlaqo mustaqil va erkin ekanliklari;

3) ish kuchining tovar ekanligi, uning bahosi mehnat bozoridagi taklif va talablarga ko'ra belgilanishi, davlat mehnat bozorining shakllanishi va faoliyat yuritishiga ko'maklashuvi;

4) davlatning ijtimoiy himoyaga muhtoj, mehnat bozorida teng raqobatlasha olmaydigan aholi qatamlarini ishga joylashtirishda qo'llab-quvvatlashi va yordam ko'rsatishi;

5) ishsizlikdan himoyalashning kafolatlanishi;

6) mehnat munosabatlarini tartibga solishda shartnomani hamda lokal me'yoriy hujjatlar ustuvorligi;

7) minimal mehnat sharoitlari yaratilishi ta'minlanishining barcha mulkchilik shaklidagi korxonalar uchun majburligi;

8) mehnat intizomiga amal qilishning zarurligi;

9) mehnatga haq to'lashda bajarilgan ishning miqdori va sifatiga ko'ra cheklanmagan haq to'lanishi;

10) xodimlar va ish beruvchilar vakilligining mavjudligi va mojarolarni muzokaralar yo'li bilan hal etilishi;

11) xotin-qizlar, yoshlar, nogironlar mehnatining maxsus muhofaza etilishi, ularga qo'shimcha kafolatlar berilishi va boshqalar.


Oliy majlis tomonidan 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan va 1996 yil 1 apreldan amalga kiritilgan mehnat kodeksi tarkibiy tuzilishiga ko'ra umumiy va maxsus qism, 16-bob, 294 moddadan iborat. Unda barcha asosiy mehnat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qonun-qoidalar jamlangan.

Mexnat qonunlarida barcha xodimlar davlat yo'li bilai ijtimoiy sug'urta qilinishlari ko'rsatilgan. Bu badal to'lov asosida amalga oshadi. Sug'urta qilingan xodimlar, tegishli hollarda esa, ularning oilalari ham davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan:

- Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari, ayollar esa, bundan tashqari, homiladorlik va tug'ish nafaqalari;
- Bola tug'ilganda beriladigan nafaqalar;
- Davlat tomonidan beriladigan yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar bilan ta'minlanadilar.

Mehnat qilgan shaxs vaqti-soati etganda **pensiya** olish huquqiga ega. Pensiya olish uchun faqat mehnat qilgan, pensiya yoshiga etgan bo'lishi shart emas.

Davlatimizda pensiyaning *yoshiga doir, nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik pensiya* turlari mavjud.



Nazorat uchun savollar:

Mehnat huquqi haqida umumiy tushuncha bering.
Jamoat shartnomasi bilan jamoat kelishuvi farqi nimada?
Mehnat shartnomasi qanday tartibda tuziladi?
Mehnat shartnomasi qanday hollarda bekor qilinadi?
Ishga joylashtirish tartibi qay tartibda amalga oshiriladi?
Ish beruvchi va xodimning huquqlari, burchlari nimalardan iborat?
Ish vaqtining qanday turlari bor?
Dam olish vaqti, uning qanday turlari mavjud?
Mehnat muhofazasi nima?
Mehnat intizomi qanday tartibda belgilanadi?
Mehnat nizolarini qanday xal etilish tartibi bor?
Intizomiy jazo choralarini qo'llashdan maqsad nima?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi.-t.:o'zbekiston 2008.
2. Karimov i.a. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. – “xalq so'zi”, 2006 yil 11 fevral.
3. Tursunov. Y. Mehnat huquqi. T.: “moliya”, 2001.
4. «o'zbekiston respublikasining mehnat kodeksi». – t.: adolat, 1999.
5. O'zbekiston respublikasi mehnat qonunchiligi bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'plami. № 1. – t., «iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyoti uyi. 2005.

MAVZU: OILA HUQUQI

Reja

1. Oila huquqi tushunchasi.
 2. Nikoh, uning shartlari va uni tuzish hamda tugatish tartibi.
 3. Oila a'zolarining huquq va majburiyatlari.
1. Farzandlikka olish, vasiylik va homiylik.

Oila bu – ota-ona, er-xotin, farzandlar va qarindosh-urug'lardan tuzilgan uyushma bo'lib, oila a'zolari o'rtasida mulkiy va shaxsiy huquq, majburiyatlarni vujudga keltiradi. Oila, davlat himoyasidadir.

1. Oila huquqi tushunchasi.

Oila munosabatlari «o'zbekiston respublikasi oila kodeksi» bilan tartibga solinadi. Bu munosabatlar nikoh, er-xotin, ota-ona, farzandlar, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi munosabatlardir. Respublika prezidenti islom karimov esa: «oila – bu jamiyatning asosi va boshlang'ich zarrachasidir. Oila farovonligi, bolalarni ma'naviy va jismoniy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash mamlakat boyligining va kuch-qudratining negizidir», deya ta'kidlaydi.

Shu munosabat bilan o'tgan yillarni “oila yili”, “ona va bola yili”, “sog'lom avlod yili”, “ayollar yili”, “yoshlar yili” va bu yilni “barkamol avlod yili” kabi nomlar bilan atalgani bu boradagi ishlarning samaradorligiga qaratildi.

Oila qonunlarining asosiy vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish xamda oila oldida uning barcha a'zolarining ma'sulligi hissi asosida ko'rishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslik, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishni hamda bu huquqlarning himoya qilinishidan iboratdir.

Oila huquqi predmeti oilaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlarni

tashkil etadi.

Oila huquqining *asosiy prinsiplari*:

- oilada erkak va ayol o'rtasidagi nikohning ixtiyoriyligi;
- oilada er-xotin teng huquqliligi;
- faqat fhdyo organlari tuzgan nikohni tan olish;
- oilaning voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz a'zolari huquq va manfaatlarining birinchi galda himoya qilinishini ta'minlash;
- farzandlar farovonligi va ravnaqi haqida g'amxo'rlik qilish;
- ichki oilaviy masalalarni o'zaro kelishuv asosida xal qilish;
- farzandlarni oilada tarbiyalashning ustunligi kabilardan iboratdir.

2. Nikoh, uning shartlari va uni tuzish hamda tugatish tartibi.

Nikoh erkak va ayol o'rtasida tuzilgan ixtiyoriy bitim bo'lib, FHDYo (fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi)da rasmiylashtiriladi. Nikoh yoshiga etish, turmush qurish uchun unga har tomonlama tayyor bo'lish, yaxshi kasbni egallash, er-xotin oldida turgan burchlarini tushuntirish ota-onaning vazifasidir.

Erkak va ayol o'rtasidagi munosabatni albatta rasmiylashtirish shart. Chunki ikki shaxs rasmiylashtirilmagan nikohiy munosabatda yashasalar, ular o'rtasidagi mulkiy va shaxsiy munosabatlar qonuniy tarzda tartibga solinmaydi. Masalan, ajrim, nafaqa olish, vorislik huquqi, turar joy, farzandlarga bo'lgan muammolar faqat qonun orqali hal qilinadi.

Qonun nikohdan o'tishning majburiy shartlari va tartiblariga rioya etilishini talab qiladi.

Nikohdan o'tishning *birinchi sharti* – nikohlashishga kelishganlarning o'zaro ixtiyoriy roziligi.

Ikkinchisi, qonun uchun bo'lajak kelin-kuyovning nikoh yoshiga yetgan-yetmaganligi muhimdir. Ayollar uchun 17, erkaklar uchun 18 yosh nikoh yoshi deb belgilangan. Uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda nikoh yoshi bir yilga kamaytirilishi mumkin.

Oila kodeksida oila tuzishdagi shartlar qatorida, *nikoh tuzishga mone'lik qiladigan holatlar* ham qayd etilgan:

- 1) loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida;
- 2) nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida; tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;
- 3) loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida.

Nikohni qayd qilishning *muayyan tartibi* ham bor. Bu tartibga ko'ra, bo'lajak er bilan

xotin nikohdan o'tishdan oldin ariza berib nikoh qayd etish organlari xodimlaridan nikohdan o'tish shartlari va tartibi bilan, er-xotinning hamda ota-onalarning huquq va burchlari bilan tanishadilar. So'ngra nikohni qayd qilish kuni belgilanadi. Kamida bir oy o'tgach nikoh qayd qilinadi. Oila kodeksining 17-moddasida nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shuningdek tibbiy-irsiy hamda oilani rejalashtirish masalalari bo'yicha maslahat berish nikohlanuvchi shaxslarning roziligi bilan davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Tibbiy ko'rikdan o'tish nikohlanuvchi shaxslarning roziligi bilan amalga oshirilishi qonunda ko'rsatilgan bo'lishiga qaramasdan, bo'lajak er-xotin bir-birlarini majburlab bo'lsa ham shu ko'rikdan albatta o'tishi lozim. Chunki, hayotda nikohlanuvchilarning biri tanosil kasalligi yoki odam immuniteti taqchilligi virusi (oits infeksiyasi) borligini yashirganligi tufayli qanchadan-qanchalarning azob chekkanligi ma'lum. Qonunga asosan shunday faktlar mavjud bo'lsa nikohlanuvchilarning ikkinchi tomoni – kasalligini yashirgan shaxs bilan bo'lgan nikohini haqiqiy emas deb topishni talab qilish huquqiga ega.

Ajrim yoki nikohni tugatilishiga quyidagilar asos bo'ladi:

1. Er yoki xotindan birining vafot etishi yoki sud tomonidan o'lgan deb e'lon qilinishi bilan;
2. Er-xotindan birining yoki ikkalasining arizasiga binoan;
3. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergan arizaga muvofiq.

Er-xotin o'zaro roziligi bo'lganda yoki birining imzosiga binoan fhdya nikohdan ajratish mumkin. Bunday holatlarda er-xotin bir-biridan ajralish to'g'risida ariza bergan kundan boshlab uch oy o'tgandan keyin ariza rasmiylashtiriladi va er-xotingga *ajralganliklari to'g'risida guvohnoma* beriladi.

Er-xotindan birining arizasiga binoan nikoh bekor qilinishida quyidagi sabablar bo'lishi shart:

- ❖ Bir tomon bedarak yo'qolgan deb topilsa;
- ❖ Sud tomonidan ruhiyati buzilishi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa;
- ❖ Sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, o'rtada voyaga yetmagan bolalari borligidan qat'iy nazar er-xotinning birining arizasiga binoan fhdya nikohdan ajratiladi.

Nikohdan ajralish ishlari sudda fuqarolik kodeksida da'vo ishlarini hal qilish uchun belgilangan tartibda ko'riladi. Sud er-xotinning yarashtirish choralari ko'radi. Sud ishning ko'rilishini boshqa vaqtga qoldirib, er-xotingga yarashish uchun *olti* oygacha muhlat berishga haqli. Sud agar er bilan xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo'q deb topsa, ularni *nikohdan ajratadi*.

Nikohdan fhdya ajratilganda nikohdan ajratilganlik ro'yxatga olingan kundan, nikohdan sudda ajratilganda esa, sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab nikoh tugatiladi.

Ajraganlar o'rtasida mulkiy va nomulkiy nizolar vujudga keladi. Mulkiy nizolar er-xotinning birga olgan mulkiga, turar joyiga, hadya mulklariga, omonat kassasidagi pul va boshqa mulklariga qaratilgan bo'lib, o'zaro kelisha olmasa sud hal qiladi.

Nomulkiy munosabatga farzand va uning taqdiri bilan bog'liq er (xotin)ning o'z

familiyasini o'zgartirish masalalari kiradi. Farzand kim bilan qolishi, farzand bilan bog'lanish, uning tarbiyasida ishtirok etish muommolari eng og'ir va tashvishlidir. Chunki ajralganlarning ayrimlari eri (xotini) bilan birgalikda farzandlaridan ham voz kechishadi, ayrimlari esa farzandini ko'rishga zor bo'ladi.

Farzand masalasi sud qaroriga binoan hal qilinadi. Bolalardan qaysi biri otasi yoki onasi bilan qolishi, shuningdek, bolalarning ta'minoti uchun ota-onalarning qaysi biridan qancha miqdorida aliment undirish kerakligi sud qaroriga ko'ra hal qilinadi.

Voyaga etmagan bolalar uchun ularning ota-onalaridan *aliment*, ota-onaning ish haqi (daromadi)dan: bir bola uchun to'rttdan bir qismi, ikki bola uchun uchdan bir qismi, uch va undan ko'p bola uchun yarmisi miqdorida undiriladi. Mol-mulkni bo'lish uchinchi shaxslarning manfaatiga daxldor bolgan hollarda sud bu ishni alohida ish vuritish uchun airatadi.

Sud nikohdan ajratish haqidagi masalani hal qilish bilan birga bir-biridan ta'minot olish huquqiga ega bo'lgan er yoki xotinning iltimosiga ko'ra, er yoki xotindan undiriladigan ta'minot miqdorini belgilashi lozim.

Oila kodeksida er va xotin bir-birlariga moddiy yordam berishi ko'rsatilgan. Jumladan, bular er va xotinning bir-birlariga ta'minot berish majburiyatlari (117-modda); er-xotinning nikohdan ajralgandan keyin bir-biridan ta'minot olish huquqlari (118-modda); er-xotinga beriladigan ta'minot miqdorini belgilash (119-modda); er yoki xotinni ta'minot berish majburiyatidan ozod qilish yoki bu majburiyat muddatini yangilash (120-modda); er-xotinning bir-biridan ta'minot olish huquqining tugashi (121-modda)larda aniqlangan.

Yetarli mablag'ga ega bo'lgan sobiq, er (xotin)dan quyidagi asoslarda ta'minot olish huquqi vujudga keladi:

- ▶ sobiq xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil mobaynida;
- ▶ o'rtadagi nogiron bola 18 yoshga to'lguncha yoki bolalikdan 1-guruh nogironi bo'lgan bolaga qaragan yordamga muhtoj sobiq xotin (er);
- ▶ nikohdan ajralgunga qadar yoki nikohdan ajralgan paytdan boshlab, 1 yil davomida mehnatga layoqatsiz qolgan yordamga muhtoj sobiq er (xotin);
- ▶ er yoki xotin nikohdan ajralgan vaqtdan boshlab 5 yil mobaynida pensiya yoshiga yetgan yordamga muhtoj er yoki xotin agar er-xotin uzoq vaqt nikohda turishgan bo'lsa sud tartibida aliment talab qilish huquqiga egadir.

Sud yuqorida ko'rsatilgan majburiyatlarda er yoki xotinni ozod qilishi yoxud bu majburiyatni ma'lum muddat bilan cheklashi mumkin. Bu holatlar quyidagilardan iborat:

- er-xotin nikohda qisqa vaqt tursalar;
- agar o'ziga ta'minot uchun mablag'lar to'lashni talab qilayotgan er yoki xotinning nomunosib xulq-atvori natijasida nikoh bekor bo'lgan bo'lsa;
- ta'minot talab qilayotgan er-xotin spirtli ichimliklarni, kayf beradigan moddalarni iste'mol qilganligi yoki jinoyat qilganligi natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotgan bo'lsa;

■ er-xotinning bir-biridan ta'minot olish huquqi ularning biri yangi nikohga kirganida tugaydi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari quyidagilar:

⊗ er-xotinning o'z roziligi bo'lmasa, bu roziligini (rozi emasligini) ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lmasa;

⊗ nikoh tuzishiga bo'lajak er yoki xotin majbur qilingan bo'lsa;

⊗ nikohlanuvchilar qonunda ko'rsatilgan nikoh yoshiga yetmagan bo'lsalar;

⊗ nikohlanuvchilarning loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda tursa;

⊗ nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

⊗ loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilsa;

⊗ basharti, nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odam immuniteti taqchilligi virusi (oits) borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa;

⊗ shuningdek soxta nikoh, ya'ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko'zlamay tuzgan nikoh.

nikohni haqiqiy emas deb topish sud tartibida amalga oshiriladi. Nikohning haqiqiy emas deb topilishi shunday nikohdan tug'ilgan yoki nikoh haqiqiy emas deb topilgan kunday keyin 300 kun ichida tug'ilgan bolalarning huquqlariga ta'sir etmaydi.

Qarindoshlar to'g'ri shajara bo'yicha, yon shajara bo'yicha, tug'ishgan, yod aralashmagan va yod aralashganlarga bo'linadi. To'g'ri shajaradagi qarindoshlar o'z navbatida birinchi, ikkinchi, uchinchi va hokazo darajadagi qarindosh hisoblanadi.

Er (xotin) va uning yaqin qarindoshlari bilan xotin (er) qarindoshlarining bir-biriga nisbatan munosabatlari (qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik) o'zaro huquq va maiburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.

Bolaning shu onadan tug'ilganligi (onalik) FHDYo tomonidan tibbiy muassasaning hujjatlariga ko'ra, bola tibbiy muassasada tug'ilmagan holda esa, boshqa dalillariga asosan belgilanadi.

Ayolning nikoh tuzilgandan keyin yoki erining o'limi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas, deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan so'ng 300 kun ichida tug'ilgan bolasi nikohda tug'ilgan bola hisoblanadi.

Agar nikoh tugaganidan keyin 300 kun ichida bola tug'lsa va bu davrda ayol yangi nikohga kirgan bo'lsa, bola *yangi nikohda tug'ilgan hisoblanadi*. Bunday hollarda sobiq er yoki uning ota-onasi bolaning nasl-nasabi xususida nizolashish huquqiga ega.

Bolaning *onasi bilan nikohda bo'lmagan shaxsning otaligi* o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning fhdryoga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi.

Ona vafot etganda, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda, onaning qardaligini aniqlash imkoniyati bo'lmaganda yoki u onalik huquqidan mahrum qilinganda, otalik vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan holda o'zini bolaning otasi, deb tan olayotgan shaxsning arizasiga binoan belgilanadi.

Bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, otalikni belgilash to'g'risidagi arizani uning nomidan vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan uning homiysi berishi mumkin.

O'lgan kishining to o'limiga qadar ixtiyorida bo'lgan huquq va zimmasidagi majburiyatlarning bir qismi (mulkiy, shaxsiy huquq va majburiyatlari) bekor bo'ladi, shu bilan birga ba'zi mulkiy huquqlar vorislarga o'tadi. O'lim qator huquqiy oqibatlar tug'diradigan faktdir. Shuning uchun o'lim ham tug'ilish singari fhdryoda nikoh va oila qonunchiligiga muvofiq qayd etiladi.

3. Oila a'zolarining huquq va majburiyatlari. Er-xotinlik huquq va majburiyatlari *shaxsiy va mulkiyga bo'linadi*.

Oilada er-xotin teng huquqli hisoblanadi. Teng huquqlik nikoh tuzish vaqtidan boshlanib, er va xotinning familiya tanlashdagi tengligini vujudga keltiradi. Eri xotining, xotini erining familiyasiga o'tishi, har biri o'z familiyasida qolishi mumkin. Er xotinini majburlab o'zining familiyasiga o'tishini talab qilishi qonunda ta'qiqlanadi.

Er-xotin bolalar tarbiyasida va oilaviy turmushning barcha masalalarini birgalikda hal qilish huquqiga egadirlar.

Er-xotin har biri o'zi tanlagan kasbi, mutaxassisligi, mashg'ulot turida ishlash huquqiga ega. Er va xotin yashash joylarini tanlashda ham teng huquqli. Bundan er o'z uyida, xotin o'z uyida yashashi kerak, degan ma'no chiqmaydi. Lekin turar joy masalasida er va xotin tinch-totuv yashash imkoniyatini ko'zlab, oilani saqlash maqsadida bu masalaga yondoshishi lozim.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkleri, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulkleri, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi *umumiy mulki* hisoblanadi. Er va xotin ularning birgalikdagi umumiy mulki bo'lgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishda teng huquqlarga egadir.

Er va xotindan birining umumiy mol-mulkini tasarruf etishi bilan bog'liq bitim tuzilganda bu harakat boshqasining roziligiga ko'ra amalga oshirilayotganligini anglatadi.

Er va xotinning nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulki ulardan har birining *o'z mulki* hisoblanadi.

Qimmatbaho buyumlar va zebu-ziynatlardan boshqa shaxsiy foydalanishdagi buyumlar (kiyim-bosh, poyabzal va boshqa shu kabilar), garchi nikoh davomida er va xotinning umumiy mablag'i hisobiga olingan bo'lsa ham, ulardan foydalanib kelgan er va xotinning *xususiy mulki* hisoblanadi.

Nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi *nikoh shartnomasi* deb hisoblanadi. Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga

olinguniga qadar ham, shuningdek nikoh davrida ham tuzilishi mumkin.

Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim. Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lg'usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin. Nikoh shartnomasi er-xotinning kelishuvi bilan istalgan vaqtda o'zgartilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Voyaga yetmagan bolalarning quydagi huquqlari mavjud:

- ☺ oilada yashash va tarbiyalanish;
- ☺ ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish, ularning g'amxo'rligidan foydalanish;
- ☺ o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- ☺ o'z fikrini ifoda etish;
- ☺ ism, ota ismi va familiya olish;
- ☺ ism va familiyasini o'zgartirish;
- ☺ oilada umumiy mulk, o'z xususiy mulkiga ega bo'lish va boshqalar.

Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, u o'z huquq va majburiyatlarini, shu jumladan himoya huquqini mustaqil amalga oshirishga haqlidir.

Oilada bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday masala hal qilinayotganda u bola o'z fikrini ifoda qilishga, shuningdek har qanday sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama davrida so'zlashga haklidir.

Bolaga ism ota-onaning kelishuviga binoan, ota ismi – otasining ismiga ko'ra beriladi. Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi. Ota-ona turli familiyalarda bo'lganda ota-onaning kelishuviga binoan bolaga otasining yoki onasining familiyasi beriladi. Ota-onaning xohishiga ko'ra, bolaga ota yoki ona tomonidan milliy an'analarga ko'ra boboning ismi bo'yichi familiya berilishi mumkin.

Fhdyo ota-onaning birgalikdagi arizasiga binoan bola 16 yoshga to'lguncha uning manfaatlarini e'tiborga olib, ismini o'zgartirishga, shuningdek unga berilgan familiyani ham otasi yoki onasining familiyasiga qarab o'zgartirishga haqlidir.

Ota-ona o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar. Ota-onalik huquqlari bolalar 18 yoshga to'lganlarida (voyaga yetganda), shuningdek, voyaga yetmagan bolalar nikohga kirganlarida hamda qonun bilan belgilangan boshqa hollarda bolalar voyaga yetmasdan to'la muomala layoqatiga ega bo'lganlarida tugaydi.

Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalashi shart. Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'ligi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart. Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatiladi.

O'Zaro Nikohda Bo'lmagan, Voyaga Yetmagan Ota-Ona Ulardan Bola Tug'lganda Hamda Ularning Onaligi Va (Yoki) Otaligi Belgilanganda 16 Yoshga To'Lishlari Bilan Ota-Onalik Huquqlarini Mustaqil Ravishda Amalga Oshirishga Haqlidirlar.

Ota-onalik huquqini amalga oshirishda ota-ona bolalarining jismoniy va ruhiy sog'lig'iga, axloqiy kamolotiga zarar etkazishga haqli emas. Bolalarni tarbiyalash usullari mensimaslik, shafqatsizlik, qo'pollik, insoniy qadr-qimmatni kamsituvchi muomaladan, bolalarni haqoratlash yoki ekspluatatsiya qilishdan xoli bo'lishi kerak.

Boladan alohida yashayotgan ota (ona) bola bilan ko'rishish, uning tarbiyasida ishtirok etish va ta'lim olishi masalasini hal etishda qatnashish huquqiga ega.

Bobo, buvi, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqin qarindoshlar bola bilan ko'rishib turish huquqiga ega.

Ota-ona o'z farzandlari oldida burchlarini g'ayriqonuniy asosda bajarmasalar, ular otalik (onalik) huquqidan sud qarori asosida mahrum qilinadi.

Oila kodeksning 78 moddasiga binoan *ota-onalik huquqidan mahrum qilish* quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlasa;
- Uzrsiz sabablarga ko'ra, o'z bolasini tug'ruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa;
- ota-onalik huquqini suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa;
- muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka muhtalo bo'lsa;
- o'z bolalarining hayoti yoki sog'ligiga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'ligiga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan undan ta'minot olish, bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqlaridan mahrum bo'ladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi ota-onani o'z bolasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Farzandlar ham ota-onalarining oldida *o'z burchlarini bajarishlari shart*. Bu burchlar, ayniqsa, mehnat qobiliyatini yo'qotgan, kasal bo'lgan, boquvchisiz qolgan ota-onalarga g'amxo'rlik qilishdan iboratdir. Bu jinoyat, nikoq va oila qonunlarida ko'rsatilgan.

qonun bo'yicha alimentni ota yoki ona to'lashi mumkin. farzand kimning qaramog'ida qolsa o'sha shaxsga aliment olish huquqi beriladi. voyaga yetgan farzandlar esa, o'z navbatida, ota-onalari talab qilsalar, ularga ham aliment to'laydilar. faqat aliment sud hay'ati belgilagan miqdorda amalga oshiriladi. ota-onaga to'lanadigan aliment miqdori aniq ko'rsatilmagan.

4. farzandlikka olish, vasiylik va homiylik.

Har bir voyaga yetgan erkak va ayol, fuqarolar *farzanllikka olish huquqiga* ega. Faqat qamoqdagilar, ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar, ruhiy kasallar, muomalaga layoqatsizlar yoki narkalogiya muassasalarida ro'yxatda turuvchilar, jinoiy jazoga tortilganlar bunday huquqdan foydalanishdan mahrumdirlar. Farzandlikka olinish sir saqlanadi.

Farzandlikka olish haqidagi ariza farzandlikka oluvchi shaxs turgan joydagi yoki farzandlikka oluvchi turgan joyidagi vasiylik va homiylik organiga beriladi. Farzandlikka olishga faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarinigina ko'zlab yo'l qo'yiladi.

Farzandlikka oluvchining iltimosiga ko'ra, farzandlikka olinuvchi familiya va ota ismi – farzandlikka oluvchining familiya va ismiga qarab berilishi, shuningdek, farzandlikka olinuvchining ismi o'zgarishi mumkin.

Farzandlikka olinishning sir saqlanishini ta'minlash maqsadida, farzandlikka olinuvchi bolaning tug'ilgan joyi haqidagi yozuvini, uning tug'ilgan vaqti haqidagi yozuvni o'zgartirishi mumkin. Farzandlikka olishni sir saqlash qonun bilan himoya qilinadi.

Otasiz-onasiz qolgan bolalarga *vasiylar va homiylar* belgilanadi. Vasiylik va homiylik tuman yoki shaqar hokimiyatining qarori bilan belgilanadi.

Vasiylik 14 yoshga to'lmagan bolalarga va sud tomonidan ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga nisbatan belgilanadi.

Vasiylik va homiyliklarni vasiylik va homiylik organlari tayinlaydilar. O'z roziligi bilangina vasiy yoki homiy bo'lish mumkin. Vasiy va homiy bo'ladigan shaxslar odobli, ongli, o'z vazifalarini bajarish ma'suliyatini biladiganlar bo'lishi shart. Ular ota-onaning o'rnini bosa olish darajasida bola tarbiyasida qatnashishlari, unga mulkiy va shaxsiy yordam berishlari kerak.

Homiylik 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlarga hamda kasalligi sababli mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan voyaga yetgan shaxslarga, shuningdek, sud tomonidan muomala layoqati cheklangan shaxslarga nisbatan belgilanadi.

Vasiylik va homiylik bola 14 yoshga yoki 18 yoshga yetganda, vasiy yoki homiy vafot etsa, muomala layoqati cheklangan shaxslarga sudning hal qiluvchi qarori bilan ular endi muomalaga layoqatli deb tanilsa, tugaydi.

Oila kodeksida bolalarni *oilaga tarbiyaga olish (patronat)* ham belgilangan. Ota-onasiz qolgan bolalarni ayrim fuqarolar o'z roziliklari bilan tarbiyaga olishlari mumkin.

Tarbiyaga olayotgan shaxsning maishiy sharoitlari va oila a'zolarining salomatligi tekshirilgandan keyin bolani tarbiyaga olish masalasi hal qilinib, tegishli organlar tomonidan rasmiylashtiriladi. *10 yoshga to'lgan bolalar ularning roziligi bilan tarbiyaga beriladi.*

Nazorat uchun savollar:

1. «Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini» deganda nimani tushunasiz?
2. Nikoh tuzish yoshini ayting.
3. Er va xotinning shaxsiy huquq va erkinliklari nimalardan iborat?
4. Farzandlarning ota-onalari oldida qanday burch va majburiyatlari bor?
5. Fhdyo tomonidan qaysi holatlarda nikoh bekor qilinishi mumkin?
6. Farzandlikka olish qonun-qoidasi qanday?
7. Homiylik va vasiylikni qanday tushunasiz?
8. Aliment to'lashdan bosh tortganlik uchun qanday javobgarliklar mavjud?
9. Ota-ona va bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlari qanday?
10. Voyaga yetmagan ota-onaning qanday huquqlari mavjud?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. – t.: o'zbekiston, 2016.
2. Otaxo'jaev f.m. «o'zbekiston respublikasining oila huquqi» darslik. Tdyui. –t., 2005.
3. O'zbekiston respublikasining oila kodeksi. –t.: adolat, 1998.
4. Qosimbekova s. «huquqshunoslik, o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T. Tdiu. 151-160-betlar.

MAVZU: TABIATNI MUHOFAZA QILISH

Reja

1. Tabiatni muhofaza qilish tushunchasi.
2. Ekologiya huquqining tamoyillari, usullari va tizimi. Ekologik nazorat.
3. Ekologik qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

Kishilar hayotini saqlab qolishning hozirgi zamondagi eng samarali usullaridan biri, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishda kelib chiqadigan jamiyatdagi munosabatlarni huquqiy-me'yoriy boshqarishdir

N.f.reymers

1. Tabiatni muhofaza qilish tushunchasi.

O'zbekiston resblikasining boyliklari g'oyat kattadir. Tabiiy boyliklar deyilganda yer va yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, o'zbekiston hududidagi havo havzasi ko'zda tutiladi. Tabiiy boyliklardan foydalanishda tabiatda ro'y beradigan asosiy jarayonlarni rivojlanishini va o'zaro ta'siri qonuniyatlarini o'rganib, ish tutish katta ahamiyatga egadir.

O'zbekiston konstitutsiyasining 34-moddasida belgilanishicha, o'zbekiston fuqarolari tabiatni muhofaza qilishlari, uning boyliklarini qo'riqlashlari kerak.

“yer to'g'risida”gi qonunda tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, qo'riqxonalar, botanika bog'lari, zakazniklar, tabiat yodgorliklari yerlaridan to'g'ri foydalanish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, shu resurslar unga qanday maqsadlarda berilgan bo'lsa,

ulardan ana shu maqsadlarga muvofiq tejab-tergab foydalanish, atrof-muhitni zararli ta'sirlardan muhofaza qilishi, tabiiy muhitni muhofaza etish zarurligi ko'rsatilgan.

Inson bu tabiat maxsuli, uning bir qismi, tabiat qonuniyatlari doirasida shakllanadi va rivojlanadi va taraqqiy etadi. Shuning uchun ham jamiyat o'z taraqqiyotiga erishmoqchi bo'lsa, albatta tabiatning muqaddas, ustuvor qonuniyatlarini anglashi, e'tirof etishi, o'z xatti-harakatlarini moslashtirishi va eng muhimi o'z ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq harakat yo'nalishlari tabiatning holatiga bog'lab rivojlantirilishi lozim bo'ladi.

Ekologik muammolarni xal qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ekologik tamoyil, qoida, talablar bilan bir qatorda boshqa huquq sohalari ya'ni ma'muriy, jinoiy, fuqarolik, mehnat va xo'jalik huquqiy vosita va qoida talablaridan foydalanadi.

Hozirda tabiat ilmini o'rganishda tabiiy fanlar tizimida o'z yo'nalishi, xususiyatlariga ega bo'lgan ekologiya fani tobora rivojlanmoqda.

Ekologiya huquqi o'rganadigan ekologik munosabatlar deganda, tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar natijasida paydo bo'ladigan turli ijtimoiy munosabatlarni tushunamiz. Bugungi kunda bu munosabatlar uchta quyidagi asosiy yo'nalishlarda paydo bo'ldi:

1. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq ekologik huquqiy munosabatlar;
2. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'liq ekologik huquqiy munosabatlar;
3. Aholini ekologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ekologik huquqiy munosabatlar.

Ekologiya huquqi tabiat bilan jamiyat o'rtasida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomondan tartibga solishni o'rgatuvchi fandır.

Ekologiya huquqining predmeti – jamiyat (kishilar) va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sir doirasining jamiyatdagi ekologik huquqiy munosabatlari.

Ekologiya huquqining maqsadi – hozirgi va kelajak avlod uchun tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish doirasidagi jamiyatning ekologik munosabatlarini huquqiy tartibga solish.

Ekologiya huquqining ob'ektlari – amaldagi qonunlar bilan himoya qilinadigan atrof tabiiy muhitning tarkibiy qismlari. Ularning belgilari:

- 1) tabiiy kelib chiqqanlik,
- 2) ekologik tizimning tarkibiga kirishi,
- 3) kishilarning ekologik, iqtisodiy, madaniy va dam olish talabini bajarishi, hamda yashash muhiti sifatini ta'minlab berishi.

Ekologiya huquqining prinsiplari:

- kishilar sog'ligi va hayotini muhofaza qilishning afzalligi;
- ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash;
- ekologik ekspertizaning majburiyligi;
- tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish;

- tabiatni muhofaza qilish qonun talablarini buzganlik uchun javobgarlik;
- ta'lim sohasida ekologik o'quvning majburiyligi;

2. ekologiya huquqining tamoyillari, usullari va tizimi. Ekologik nazorat.

Ekologiya huquqining tamoyillarini quyidagi tizimga bo'linadi:

1. Davlat va huquqning umumiy tamoyillari;
2. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishga oid tamoyillar;
3. Tabiat resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan tamoyillar.

Ekologiya huquqi huquq tizimining sohasi sifatida ekologik munosabatlarni tartibga solishda davlat va huquqning quyidagi tamoyillaridan foydalaniladi:

1. Qonuniylik;
2. Ijtimoiy adolat;
3. Oshkoralik;
4. Ishontirish va majburlov choralarining hamkorligi;
5. Shaxslarning huquq va burchlarining birligi va boshqalar.

Atrof tabiiy muhit barqarorligini ta'minlash va tabiatni muhofaza qilishning asosiy tamoyillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Biosfera va ekologiya tizimlari barqarorligi hozirgi va kelgusi avlodning genetik fondini saqlash;
2. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishda tabiat qonuniyatlari ustuvorligini tan olish;
3. Fuqarolarning hayoti uchun qulay tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash;
4. Jamiyatning ekologik, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini uyg'unlashtirish;
5. Tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarining tabiiy resurslardan foydalanish tadbirlaridan ustuvorligini tan olish;
6. Tabiatni muhofaza qilish faoliyatini rag'batlantirish;
7. Ekologik qonun-qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik;
8. Tabiiy resurslar holatini tiklash majburiyligi;
9. Ekologiya ekspertizasini o'tkazishning majburiyligi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar quyidagi tamoyillar doirasida tartibga solinadi:

- tabiiy resurslardan faqat ilmiy asoslangan holda oqilona foydalanishning zarurligi;
- tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish faoliyatini rag'batlantirish;
- yer, yer osti boyliklari, o'simlik, hayvono tdunyosidan maxsus foydalanganlik uchun haq to'lash va umumiy asosda foydalanganlik uchun haq to'lamaslik;
- yerlardan belgilangan toifalar doirasida maqsadli foydalanish;

- qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning ustuvorligi;
- tabiiy resurslar kadastrini yuritish majburiyati va boshqalar.

Ekologik huquqiy munosabatlar tizimida quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Ekologizatsiyalashtirish;
2. Ma'muriy-huquqiy;
3. Fuqaroviy-huquqiy.

Ekologiya huquqining tizimi – ekologik munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati va mazmuniga ko'ra asosiy institut, toifa va nazariy-huquqiy masalalarning ma'lum tartibda joylashishidir.

Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solishda yordam beradigan, qatnashadigan huquqiy hujjatlar ekologik huquqning manbasi sifatida qaralishi mumkin.

Ekologik munosabatlarni tartibga solishni yo'nalishlari bo'yicha:

- tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish qonunchiligi;
- aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash qonunchiligi.

Munosabatlarni tartibga solish predmeti bo'yicha:

- umumiy va maxsus ekologik qonunchilik hujjatlari;
- huquqiy tartibga solish holati bo'yicha moddiy va protsessual ahamiyatdagi qonunchilik hujjatlari;
- qonunchilik hujjatlarining tizimi bo'yicha oddiy kodifikatsiyalashgan manbalar.

Qonunchilik hujjatlarining qo'llanilish doirasi bo'yicha:

- hududiy-mintaqaviy;
- respublika miqiyosida;
- xalqaro miqiyosdagi manbalar va xokazo.

Tabiiy hodisa va jarayonlar ko'p qirralikdir. Shuning uchun ham ular har tomonlama ob'ektiv baholanishi kerak. Bu degani har bir tabiiy hodisa yoki ob'ektga xalq xo'jaligining sohaviy zaruriyatiga qarab yondoshish demakdir. Bu sohaviy yondoshuv avvalambor ekologik tizimlarni saqlab qolish va ularni qayta tiklash nuqtai nazaridan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'rta osiyo sharoitida o'rmon qurilish yoki ximik xom-ashyo manbai emas, balki ekologik tizim yoki lanshaftlarni bir me'yorda ushlab turuvchi element sifatida qaralishi kerak. Chunki bu mintaqada bor yo'g'i umumiy maydonning bir fiozidan oshmaydigan siyrak daraxtzor va butazorlar suv tuproq muhofazasida «yashil qalqon», iqlimni mo'tadillashtiradigan kompanent, aholini madaniy dam olishini ta'minlaydigan ob'ekt sifatida qarashni taqozo etadi⁷.

⁷ Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka ta'hdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». – T.: «O'zbekiston», 1997.

O'zbekiston respublikasi suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlariga ko'ra suv fondidagi daryolar o'rta osiyo sharoitida sug'orish va rekratsiya manbai emas, balki ichimlik suvi va aholining maishiy xizmati uchun mo'ljallanishi kerak. Chunki issiq iqlimli sharoitda suv aholi uchun hayot manbaidir. Sibir, uzoq sharq kabi sovuq yoki nam iqlimli mintaqalar uchun daryolar, avvalambor aholini transport xizmatini bajaruvchi va arzon energetika manbaidir. Daryolar insonlarning hayoti uchun bilvosita qishloq xo'jaligi, metallurgiya, tog'-kon sanoati, kimyo kabi suvni ko'p talab qiluvchi xalq xo'jaligi tarmoqlari orqali xizmat qiladi. Asosiysi tabiat komponentlari turli chiqindilar va axlatlar tashlaydigan tabiiy ob'ekt bo'lib qolmasligi kerak.

Hozirda o'zbekistonda mavjud bo'lgan orol dengizi va uning atrofida ro'y bergan ekologik inqiroz holati sobiq ittifoqning noekologik agrar iqtisodiy siyosatining natijasidir. Shu sabab davlatimiz ekologik masalalarni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlar bilan uyg'unlashtirgan holda olib borishni lozim deb topmoqda⁸.

O'zbekiston respublikasi *ekologik siyosatining asosiy maqsadi* – kishilarning hayotiy zarur bo'lgan ekologik xavfsiz muhitini ta'minlash uchun tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ya'ni tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi iqtisodiy-ekologik munosabat shaklini qo'llashdir.

29 avgust 1997 yilda qabul qilingan milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risidagi qonunda ham mamlakatimizning ekologik konsepsiyasi berilgan. «O'zbekiston xxi asr busag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida xamda 2005 yilgacha bo'lgan davrda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishning davlat dasturida yuqorida aytilgan maqsad va konsepsiyalarni amalga oshirishning asosiy chora-tadbirlari belgilandi. Ular quyidagilardan iborat:

- ekologik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish;
- qishloq xo'jalik ekinlarini eng avallo g'o'zani sug'orishda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish;
- sanoat korxonalarida atmosferaga, havoga, suv havzalariga, tuproqqa ifloslantiruvchi hamda zararli moddalarni tashlaganlik uchun maxsus soliqdan keng foydalangan holda ma'suliyatni oshirish darkorligi;
- qayta tiklanadigan zaxiralarni qayta ishlab chiqarishning tabiiy ravishda kengayishini ta'minlangan turlaridan oqilona foydalanish;
- foydali qazilmalardan oqilona foydalanish kerakligi;
- keng maydonlardagi tabiiy sharoitlarni tabiiy zaxiralardan samarali va kompleks foydalanishni ta'minlaydigan darajada aniq maqsadli, ilmiy asoslangan tarzda uzgartirish;
- jonli tabiatning xilma-xilligini saqlash;
- jahon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratish va boshqalar⁹.

Ekologik nazorat – atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona

⁸ Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». – T.: «O'zbekiston», 1999.

⁹ Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». – T.: «O'zbekiston», 1997.

foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash qoida-talablarini barcha vazirlik, davlat qo'mitalari va idoralari korxonalar. Tashkilotlar, muassasalar, mansabdor va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, tabiiy muhit holatini o'rganish va kuzatish, chora-tadbirlarni qo'llash bilan bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar yig'indisini o'z ichiga oladi.

Ekologik nazoratning asosiy maqsadi atrof-tabiiy muhit barqarorligini saqlashdan iborat bo'lib davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirgan holda olib borilishini takazo etadi.

Ekologiya nazoarti bilan bog'liq murakkab faoliyatni olib borishda ekologik nazorat sub'ektlari tomonidan quyidagi asosiy tashkiliy-huquqiy usullar qo'llaniladi:

- *kuzatish* – atrof tabiiy muhitda bo'ladigan o'zgarishlarni o'rganish va ma'lumotlarni to'plash;
- *umumlashtirish* – atrof tabiiy muhit holatiga zararli va xavfli ta'sirlarni aniqlash, tahlil qilish asosida ma'lumotlarni tasniflash;
- *baholash* – antropogen faoliyat ishlarining zararli, xavfli va noqonuniyligini aniqlash;
- *ruxsatnima berish* – yuridik va jismoniy shaxslarga yer, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, yer osti boyliklari va atmosfera havosidan foydalanish uchun litsenziya berish;
- *ogohlantirish, cheklash va to'xtatish* – ekologik xavfli va zararli xo'jalik va boshqa faoliyatni cheklash, vaqtincha to'xtatib qo'yish va bekor qilish;
- *javobgarlikka tortish* – ekologik qoida-talablarni buzgan, yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ma'muriy-huquqiy javobgarliklarni qo'llash.

Qonun hujjatlariga muvofiq tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, sog'likni saqlash vazirligi, yer resurslari davlat qo'mitasi, ichki ishlar vazirligi, sanoat va konchilik nazorati agentligi maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Ekologik ekspertiza quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

- mo'ljallanayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilinishidan oldingi bosyiqchilarda bunday faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash;
- rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyat atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, bunday faoliyatning ekologik xavflilik darajasini aniqlash;
- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha nazarda tutilayotgan tadbirlarning yetarliligi va asoslilikini aniqlash¹⁰.

Ekologik ekspertizaning eng asosiy vazifasi atrof tabiiy muhit va aholining hayoti va sog'ligiga xavfli va zararli ishlab chiqarish va xo'jalik ob'ektlarining ta'sirlarini oldini-olish, bartaraf etish bilan bog'liq preventiv chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Ekologik ekspertiza jarayonida turli shakldagi quyidagi usullardan foydalangan holda kuzatishda tutilgan maqsadlarga erishiladi:

¹⁰ «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi qonun «Xalq so'zi» gazetasi. 2000 yil 7 iyun soni.

- *ma'lumotlar to'plash* – ekspertizadan o'tayotgan muayyan ob'ektga tegishli bo'lgan barcha axborot, ma'lumotlarni yig'ish va to'plash;
- *umumlashtirish* – ob'ekt haqidagi tuplangan iqtisodiy, texnologik, ekologik, gidrologik kimyoviy va boshqa ma'lumotlarni o'z yunalishlari bo'yicha ma'lum tizimga keltirish;
- *tahlil qilish* – umumlashgan ma'lumotlar bankini o'z yo'nalishi va xususiyatlari bo'yicha alohida o'rganish va tasniflash;
- *baholash* – ekspertiza o'tkazilayotgan ob'ekt yo'nalishlari, bo'limlari, tashkil etuvchi qismlari bo'yicha xavfli va zararlilik darajasini aniqlash;
- *xulosa berish* – ekspertiza o'tkazilayotgan ob'ektning ekologik jihatdan zararli yoki zararsiz, xavfli yoki xavfsiz, ekologik qoida-talablarga mos keladi yoki ushbu qoidalarga zid ekanligi haqidagi yakuniy, adolatli, ob'ektiv xulosaga kelish.

Ekologik ekspertizaning huquqiy holati konstitutsiyaviy qoidalarda «tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, «ekologik ekspertiza to'g'risida»gi qonunlarda, tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, sog'likni saqlash vazirligining ekologik ekspertizani o'tkazish tartibi to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarida belgilangan¹¹. Davlat ekologik ekspertizasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan olib boriladi.

3. Ekologik qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik. Ekologiya qonun hujjatlarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik o'zining asosiy maqsadi va tamoyillari bilan boshqa qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikdan farq qilmaydi, lekin ma'lum bir o'ziga xos xususiyatlariga ham ega. Ushbu xususiyatlar o'simlik va hayvonot dunyosiga yetkazilgan zararni undirish va ekologik qonun hujjatlarini buzganlik uchun maxsus jazo choralari, ya'ni tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatib turish va undan mahrum qilish choralari qo'llashdan iboratdir.

Ekologik qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik quyidagi maqsadlarga qaratilgandir:

- ♦ tabiiy ob'ektlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish qoidalarini buzgan shaxslarga nisbatan jazo choralari qo'llash;
- ♦ atrof tabiiy muhitga va inson salomatligiga yetkazilgan zararni qoplash;
- ♦ yangi ekologik huquqbuzarliklarni sodir etishni ogohlantirish.

Ekologik huquqbuzarliklarning ob'ekti tabiiy resurslar, atrof tabiiy muhit, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza etish bo'yicha belgilangan tartibi hisoblanadi.

Ekologik huquqbuzarliklarning sub'ektlari esa, uni sodir etuvchi yuridik va jismoniy shaxslardir.

Ekologik huquqbuzarlikning ob'ektiv tomoni xatti-harakatning noqonuniyligi, ekologik zararni yetkazish yoki yetkazish xavfi tug'ilishi hamda ekologik munosabatlarning boshqa sub'ektlarini huquq va manfaatlarini buzilishi. Ushbu xatti-harakat bilan vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish bilan ifodalanadi.

Ekologik huquqbuzarliklarning sub'ektiv tomoni deganda, huquqbuzarlarning aybi tushuniladi. Huquqbuzarning aybi qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilishi mumkin.

¹¹ Xaytboev E.R. «Ekologiya huquqi» o'quv qo'llanma, – T., 2001, 28-bet.

Qasddan huquqbuzarlik sodir etishda huquqbuzar taqiqlangan qoidani yoki bajarishi lozim bo'lgan majburiyatni atayin buzadi yoxud bajarmaydi va bunda u o'z xatti-harakatlari bilan zararli oqibatlarni kelib chiqishini biladi hamda unga ongli ravishda yo'l qo'yadi.

Ekologik huquqbuzarlik o'zining xavflilik darajasiga qarab jinoiy, ma'muriy, fuqolik (mulkiy) huquqbuzarlik hamda intizomiy xatti-harakat tarzida bo'lishi mumkin va ularga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan turli javobgarliklar qo'llaniladi.

«ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi kodeksining xii-xiii boblarida belgilangan qoidalar tabiat atrof muhitga qarshi sodir etiladigan huquqbuzarliklar uchun javobgarliklardir. Ularda ko'rsatilgan qoidalar buzilsa, jarima, maxsus huquqdan mahrum etish, ma'muriy qamoq, mol-mulkini musodara qilish kabi jazolar qo'llanilishi belgilangan.

«jinoyat kodeksi»ning 193-194-195-196-moddalarida umumiy ekologik talablarni buzish oqibatida vujudga keladigan javobgarliklar belgilangan. Ularning barchasi tabiiy resurslarni muhofaza qilish bilan bog'liqdir.¹² ekologik jinoyatlar uchun javobgarlikka tortish yoshi 16 yosh bo'la oladi.

Yuqorida qayd etilgan kodekslardan tashqari «tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi, «atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi, «milliy xavfsizlik konsepsiyasi to'g'risida»gi, «o'simliklar dunyosidan foydalanish va ularni muhofaza qilish to'g'risida»gi, «hayvonot dunyosidan foydalanish va uni muhofaza qilish to'g'risida»gi, «davlat yer kadastri to'g'risida»gi, «o'rmonlar to'g'risida»gi va boshqa qonunlar.

Nazorat uchun savollar:

O'zbekistonda tabiat muhofazasi bo'yicha qanday huquqiy aktlar mavjud?
Ekologiya huquqining predmeti nimani o'rgatadi?
Ekologik jamg'armalarning vazifalari nimalardan iborat?
Ekologiya huquqining manbalari haqida tushuncha bering.
Ekologik ekspertiza nima?
Ekologiya huquqining asosiy yo'nalishlari haqida nima bilasiz?
Ekologik ekspertizaning tizimi qanday?
Ekologiya huquqi qanday tamoyillarga asoslanadi?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. – t.: o'zbekiston, 2016.
2. Mirzaev t. «o'zbekistonda ekologik muammolar va prokurorlik nazorati». –t., 2000.
3. Xaytboev e.r. «ekologik huquqi» o'quv qo'llanma. –t.: o'z mi, 2002.
4. Xolmo'minov j.t. «ekologiya va qonun». – t.: adolat, 2000.
5. Qosimbekova s. «huquqshunoslik, o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – t. Tdiu.

MAVZU: JINOYAT HUQUQI ASOSLARI

Reja:

1. Jinoyat huquqi tushunchasi va uning mohiyati.
2. Jinoyat belgilari, turlari, tarkibi, elementlari va ishtirokchilari.
3. Jinoiy javobgarlik.
4. Jinoyat kodeksining tibbiyot sohasiga oid moddalar.
1. Jinoyat huquqi tushunchasi va uning mohiyati. Mustaqillikdan beri respublikamiz

¹² O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. – T.: Adolat, 2001.

oldida turgan g'oyat muhim vazifalardan biri jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurash olib borishdir. Bu vazifani xalq etish davlat va fuqarolar tomonidan doimo kuch-g'ayrat sarflashni, ijtimoiy-iqtisodiy, tarbiyaviy va huquqiy tadbirlarni og'ishmay amalga oshirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, jazoni yengillashtirish ham davlat darajasidagi muhim masala sanaladi. Ilk mustaqillik paytlarida jinoyat qonunchiligida o'lim jazosini nazarda tutgan 33 ta modda bor edi. 1994 yilda qabul qilingan jinoyat kodeksi (jk)da ushbu moddalar soni 13 taga, 1998 yilda 8 taga, 2001 yilda esa 4 taga qisqartirdi. Nihoyat, 2003 yilda jinoyat qonunchiligini erkinlashtirishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilganidan keyin o'lim jazosi faqat 2 jinoyat turi, ya'ni aybni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm sodir etganligi uchun nazarda tutilgan. Bugungi kunga kelib esa, prezident farmoni va qonunchilikka ko'ra bunday jinoyatlarga belgilangan o'lim jazosi uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish bilan almashtirildi.

O'lim jazosini bekor qilishning ahamiyati shundan iboratki, sud tomonidan xatolikka yo'l qo'yish oqibatida odam asossiz qatl etilishining oldi olinadi.

Ilmiy xulosalar, hayotiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, o'lim jazosi tufayli jinoyatchilik kamayib qolmaydi. Zero, qatl hukmi jamiyatdagi insoniy, axloqiy normalarga ziddir. Qolaversa, uzoq yillik qamoq jazosi o'limdan ko'ra ta'sirliroqdir. Yana shuni ta'kidlash kerakki, jazoning shafqatsizligi emas, uning muqarrarligi muhim. Har bir fuqaro jinoyatga qo'l urishdan oldin qilmishiga yarasha jinoyatga tortilishi aniqligini his etsa, anglab yetsagina adolat yo'ldan og'ishmaydi.

Qamoqqa olish to'g'risidagi sanksiyani prokuraturadan sudlarga o'tkazilishi ham bu boradagi muhim ishlardan bo'ldi. Shunga muvofiq, sudlar qamoqqa olish to'g'risida jinoyat protsessual kodeksining 236- va 242-moddalarida ko'rsatilgan holatlardagina qaror chiqarishlari mumkin. Ayblanuvchi, sudlanuvchining suddan yashirinishi mumkinligiga oid asosli taxmin mavjud bo'lsagina shunday qaror qabul qilinadi. Qamoka olish chorasini qasddan sodir etib, 3 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ko'zda tutilgan hamda ehtiyotsizlik oqibatidagi jinoyati 5 yildan ortiq muddatga qamoq jazosiga loyiq bo'lgan ayblanuvchilarga nisbatan qo'llanadi.

Sanksiya berish jarayonida o'tkaziladigan sud majlisida ayblanuvchi va uning himoyachisi, tergovchi, prokuror, jabrlanuvchi hamda uning vakili ishtirok etib, o'z fikrlarini bildiradilar. Mazkur holatda jamoatchilik ishtiroki, albatta, ta'minlanmokatda. Shu tarzda sudgacha bo'lgan jarayonda ayblovlari va himoya o'rtasida tortishuv imkonini tug'ildi.

Davlatimiz jinoyatchilikning sababini tugatish uchun barcha choralarni ko'rmoqda. Lekin shunga qaramay jinoyat bugungi kunda mavjuddir. Xo'sh, nima uchun jinoyat sodir etish ko'paymoqda? Bunga sabab ko'p hollarda kishilarning qonunni bilmasliklari yoki qonunni hurmat qilmasliklaridir. Ular o'z xatti-harakatlariga yengil qaraydilar.

Shuning uchun barcha qilayotgan har bir xatti-harakatlarini uylab, oqibatini bilib qilishi zarur. Jinoyat sodir etilgach, u albatta jazoga tortiladi.

O'zbekiston hududida jinoyat sodir etgan shaxs o'zbekiston jinoyat kodeksiga binoan javobgarlikka tortiladi. Ya'ni qilmish (jk 11-modda):

- ◀ o'zbekiston hududida boshlangan, tamomlangan yoki to'xtatilgan bo'lsa;
- ◀ o'zbekiston hududidan tashqarida sodir etilib, jinoiy oqibati o'zbekiston hududida yuz bergan bo'lsa;
- ◀ o'zbekiston hududida sodir etilib, jinoiy oqibati o'zbekiston hududidan tashqarida yuz

bergan bo'lsa;

◀ bir nechta qilmishdan iborat yoki boshqa qilmishlar bilan birgalikda sodir etilgan bo'lib, uning bir qismi o'zbekiston hududida sodir etilgan qilmish jinoyat deb topiladi.

O'zbekiston bayrog'i ostidagi yoki o'zbekiston portida ro'yxatga olingan havo, dengiz yoki daryo kemasida o'zbekiston hududidan tashqarida bo'lib, chet el davlati hududi hisoblanmagan joyda sodir etilsa, bunday jinoyat uchun *o'zbekiston jinoyat kodeksi asosida javobgarlikka tortiladi*.

O'zbekiston respublikasi jinoyatga oid qonun hujjatlari *o'zbekiston fuqarolari*, shuningdek *o'zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar*, basharti boshqa davlat hududida sodir etgan jinoyati uchun o'sha davlat sudining hukmi bilan jazolangan bo'lmasal, mazkur qonunlar asosida jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

o'zbekiston fuqarosi chet davlat hududida sodir etgan jinoyati uchun, agar xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, ushlab berilishi mumkin emas. *Chet el fuqarolari*, shuningdek *o'zbekiston hududida doimiy yashamaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar* o'zbekiston hududidan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun faqat xalqaro shartnomalar va xalqaro bitimlarda nazarda tutilgan hollardagina o'zbekiston jinoyat kodeksi bo'yicha javobgarlikka tortiladilar.

Qilmishning jinoiyligi va jazoga sazovorligi ana shu qilmish sodir etilgan vaqtda amalda bo'lgan qonun bilan belgilanadi.

Jinoyat huquqining vazifalariga quyidagilar kiradi: «shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, mulkini, tabiiy muhitni, jamoat va davlat manfaatlarini hamda butun huquq tartibotni jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, jinoyatlarni oldini olishga, fuqarolarni respublikamiz konstitutsiyasi va qonunlarga aniq rioya etish ruhida tarbiyalashga yordam berish»¹³.

Jinoyat huquqi normalari o'z mazmuniga ko'ra ikki qismga bo'linadi: ulardan biri jinoyat huquqning umumiy o'rni, qoida va tartibini belgilab beradi, ikkinchisi esa aniq jinoyatlar belgilarini ta'riflab, mazkur jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jazolarni aniqlaydi. Birinchi xil normalar jinoyat huquqining umumiy qismini, ikkinchi xil normalar esa maxsus qismini tashkil etadi.

2. Jinoyat belgilari, turlari, tarkibi, elementlari va ishtirokchilari.

Jinoyat (huquqbuzarlik) jinoyat deb topilishi uchun uning quyidagi *to'rtta belgisi* mavjud bo'lishi kerak:

- huquqqa ziddlik (jk bilan taqiqlanishi);
- ijtimoiy xavflilik (harakat yoki harakatsizlik);
- ayblilik (qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida);
- jazolanish (vakolatli davlat organi tomonidan javobgarlikka tortilish).

1) *jinoyatning qonunga xilofligi* – jinoyatning yuridik huquqiy belgisidir. Ya'ni uning qilmishi jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan bo'lishi darkor.

2) jinoyat boshqa qoidabuzarliklardan o'ziga xos jixatlari bilan ajralib turadi. Bu qilmishning *ijtimoiy xavfliligidir*. Chunki jinoyat natijasida jamiyat va shaxs uchun ham

¹³ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 2-modda. – T.: Adolat, 2001.

moddiy, ham ma'naviy zarar yetkaziladi. Shuning uchun jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi jinoiy oqibatda aks etadi.

Jinoyatlar ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

❖ *Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar* – qasddan sodir etilib, uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar. Masalan, savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini ancha miqdordagi qiymatda buzish, shunday qilmishlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa, – eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi (jk 189-modda);

❖ *Uncha o'fir bo'lmagan jinoyatlar* – uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar.

❖ *Og'ir jinoyatlar* – qasddan sodir etilib, besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar. Masalan, o'zbekiston respublikasi prezidenti badaniga qasddan shikast yetkazish jinoyati uchun besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi (jk 158-modda);

❖ *O'ta og'ir jinoyatlar* – qasddan sodir etilib, o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki o'lim jazosi (bu jazo turi 2008 yildan olib tashlangan bo'lib, o'rniga umrbod yoki uzoq muddatli qamoq jazosi kiritilgan) nazarda tutilgan jinoyatlar. Masalan, o'zbekiston respublikasi prezidentining hayotiga tajovuz qilish, o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi (jk 158-modda).

demak, jinoyat ijtimoiy xavfli, qonunga xilof, qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan qilingan harakat yoki harakatsizlikdir. Harakat yoki harakatsizlikning ijtimoiy xavfliligi jinoyatning tabiatini va mohiyatini ochib beradi.

Harakat shaxsning ongi, fe'l-atvori va erkinlik ifodasi bo'lib hisoblanadi. Shaxs qilgan ijtimoiy harakatini ongli ravishda sodir etadi.

Harakatsizlik shaxsning ijtimoiy, xavfli, passiv fe'l-atvori bo'lib, qilish lozim bo'lgan harakatni qilmaslikda ifodalanadi.

Qilmishning *harakat* yoki *harakatsiz* sodir etilishida aybli ijtimoiy xavfi bo'lishi asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi harakatli yoki harakatsiz amalga oshirilishi mumkin. Chaqalog'ni bo'g'ib o'ldirish, suvga tashlash, tiriklayin ko'mib qo'yishi *harakatli qilmish* turiga kiradi. Bolani tashlab ketish, unga qaramasdan qiynoqda qoldirish *harakatsiz qilmish* turiga kiradi. Yana *harakatsiz aybli qilmishga* – voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash, ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashlar misol bo'la oladi.

3) *aybli* ijtimoiy xavfli qilmish *qasddan* yoki *ehtiyotsizlik* orqasida sodir etilishi mumkin. Jinoyatni sodir etgan shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan va shunday qilmishni sodir etishni istagan bo'lsa, bunday jinoyat *qasddan* sodir etilgan deb topiladi.

O'z-o'ziga ishonish yoki beparvolik orqasida sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish *ehtiyotsizlik* orqasida sodir etilgan jinoyat deb topiladi.

Qasddan sodir etilgan qilmishlar *to'g'ri* yoki *egri* qasddan sodir etilgan bo'lishi mumkin.

A) agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishini istagan bo'lsa, bunday jinoyat *to'g'ri qasddan* sodir etilgan deb topiladi.

B) agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishiga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lsa, bunday jinoyat *egri qasddan* sodir etilgan deb topiladi.

Agarda jinoyatni sodir etgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligidan jamiyat uchun xavfli oqibatlar kelib chiqishi mumkinligiga, ko'zi yetga turib, lekin xomxayolik bilan ana shu oqibatlarining oldini olishni mo'ljallab harakat qilsa yoki bunday oqibatlarining kelib chiqishi mumkinligiga ko'zi yetmasa-da, lekin ko'zi yetishi mumkin va lozim bo'lsa, bunday jinoyat *ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyat* deb topiladi. Jinoyatkorona beparvolik bilan jinoyat sodir qilgan shaxs o'z harakati yoki harakatsizligidan ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqishi mumkinligiga ko'zi yetmagan, lekin ko'zi yetishi kerak va lozim bo'lsa, o'z-o'ziga ishonib jinoyat sodir etgan shaxs mazkur jinoyatning mumkinligiga ko'zi yetadi, lekin xomxayollik bilan shu oqibatlarining oldini olishni mo'ljallab harakat qiladi.

Shaxs sodir qilgan harakati yoki harakatsizligining ijtimoiy xavfliligini va uning zararli oqibati yuz berishini bilmasa-da, lekin ish holatiga ko'ra bilishi lozim va mumkin bo'lmagan taqdirda uni qilmishida jinoyat tarkibi yo'q deb topiladi va u jinoiy javobgarlikka tortilmaydi, yuz bergan zararli oqibatlar esa *tasodifiy hodisa* deb sanaladi.

Jinoyatning ijtimoiy xavfli darajasi tajovuz ob'ektining ahamiyati va yetkazilgan zararining xarakteri aybdorning shaxsi, jinoyatni sodir etish usuli, sharoiti yoki qilmishning takroran sodir etilishi, bir guruh shaxslar tomonidan ilgari kelishib sodir qilinishi, vaqti, joyi va uning qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir qilinishi bilan belgilanadi.

Jk ikki qismga bo'linadi. Maxsus qismdagi har bir moddaning birinchi qismida konkret jinoyatning mazmuni, javobgarlikni og'irlashtiradigan va yengillashtiradigan holatlar, uni sodir qilish usuli, maqsadi kabi holatlar bayon qilingan bo'lib, *dispozitsiya* deb aytiladi. Har bir moddaning jinoyat sodir etilgan taqdirda tatbiq qilinadigan jazo turlari va muddatlari belgilangan qismi esa *sanksiya* deb ataladi.

Jinoiy javobgarlikka faqat jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxs tortiladi. Qilmishning jinoyat deb topilishi uchun unda **jinoiyat tarkibi** borligi aniqlanadi. Jinoyat tarkibiga jinoyat 1) *ob'ekti*, 2) *ob'ektiv tomoni*, 3) *sub'ekti*, 4) *sub'ektiv tomonlari* kiradi. Jinoyat tarkibining bu elementlaridan bittasi bo'lsa ham shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin.

Jinoyat tarkibining zaruriy elementlaridan biri jinoyatning ob'ekti bo'lib, u umumiy, maxsus va bevosita ob'ektlarga bo'linadi. Jkda ko'rsatilgan har qanday jinoyat, birinchi navbatda, turli tajovuzlardan qonun bilan himoya qilinadigan ijtimoiy munosabatlar talabini buzib, ularga qarshi qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ham har qanday jinoyatning umumiy ob'ekti ijtimoiy munosabatlaridir.

Jinoyat ob'ekti – bu jinoyat qonuni bilan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlardir. Qonunlar bilan jinoiy tajovuzlaridan himoya qilinadigan ijtimoiy munosabatlarning ma'lum bir sohasi jinoyatning maxsus ob'ekti deb topiladi. Masalan, jk maxsus qismining uchinchi bobida ko'rsatilgan jinoyatning maxsus ob'ekti davlat mulkidir.

Sodir qilingan konkret jinoyat qaysi ijtimoiy munosabatga bevosita qarshi qaratilgan bo'lsa, ana shu ijtimoiy munosabat jinoyatning bevosita ob'ekti hisoblanadi.

Jinoyatning *ob'ektiv tomonini* shaxsning ongli xatti-harakati va irodaviy hulq-atvorini tashkil etadi. Jinoyatning ob'ektiv tomoni – ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik, uning zararli oqibatlari va ular o'rtasida sababiy bog'lanish mavjud bo'lishidir. Ba'zi jinoyatlarning ob'ektiv tomoni uchun zararli oqibatlar yuz bermasa ham, lekin ularning amalga oshirilishi real, aniq bo'lishining o'zi yetarli bo'lib, tugallangan jinoyat tarkibini xosil qiladi. Agar qasddan qilingan moddiy tarkibli jinoyat yuz bermagan bo'lsa, aybdor jinoyatga suiqasd qilgan yoki jinoyatga tayyorgarlik ko'rgani uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ikkinchi ba'zi moddalarida jinoyatning ob'ektiv tomoni uchun zararli oqibatlar yuz berishi talab qilinmay, jinoiy harakat yoki harakatsizlik sodir qilinishining o'zi tugallangan jinoyat hisoblanadi.

Jinoyat qonunga binoan, jinoyat ob'ektiv tomonining zaruriy belgilaridan biri jamiyat uchun xavfli harakat yoki harakatsizlik bilan yuz bergan zararli oqibat o'rtasida sababiy bog'lanishning mavjud bo'lishidir.

Qilmishning sodir etish vaqti, joyi, usuli kabi holatlar jinoyat ob'ektiv tomonining *fakultativ belgilari* bo'lib, ikkinchi moddalarining dispozitsiyasida ko'rsatiladi, konkret jinoyat tarkibining zaruriy belgisi deb topiladi.

Jinoyatning sub'ekti deb, jismoniy aqliraso, jinoiy qonunda belgilangan muayyan yoshga yetgan shaxsga aytiladi. Jinoyatning sub'ekti jinoyat tarkibining bir elementi bo'lib, ikkinchi 17-18-moddalariga asosan, jinoyat sodir qilgunga qadar shaxs 16 yoshga to'lgan va aqli raso bo'lishi talab qilinadi. 17-moddaning davomida esa, jismoniy shaxslarning jinoiy jazoga tortishdagi yoshi to'rt xilga bo'linishi ham aytilgan: 13 (bu yoshda faqatgina bitta jinoyat – javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish uchun jinoiy jazo qo'llaniladi), 14, 16, 18.

Ba'zi jinoyatlarning sub'ekti 18 yoshga to'lgan bo'lishi talab qilinadi. Masalan, mansabdorlik jinoyatlari va harbiy jinoyatlar, xizmat vazifasini suiste'mol qilish va hokazo jinoyatlar.

Ana shunday jinoyat sub'ektiga, taalluqli zaruriy belgilardan tashqari, yana maxsus belgilarga ega bo'lgan shaxslar ham kiradi va ular jinoyatning maxsus sub'ekti deb ataladi. Masalan, *mansabdorlik jinoyatining sub'ekti mansabdor shaxs* bo'ladi.

Jinoyat sodir qilingan vaqtda shaxsning aqli raso bo'lmasa, u harakati yuzasidan o'ziga hisob berolmaydi. Shuning uchun davolanganidan keyin ham *jinoiy javobgarlikka tortilmaydi*. Shaxs jinoyat sodir qilinganida aqli raso bo'lib, sud hukmi chiqishiga qadar yoki jazo o'taganida ruhiy kasalikka chalinib qolsa, sud unga *meditsina harakteridagi majburiy davolash choralari*ni belgilaydi, lekin davolanganidan keyin jinoyat ishini yuritish tiklanadi va jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Shaxs spirtli ichimlik ichish yoki narkotik modda iste'mol qilish natijasida mastlik holatida jinoyat sodir qilsa, *jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi*.

Jinoyatning *sub'ektiv tomoni* deb – shaxsning o'zi sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga va uning oqibatlariga uning ruhiy munosabatini ifodalaydi. Jinoyat tarkibining sub'ektiv tomoni ayb bo'lib, u shaxsning sodir qilgan harakat yoki harakatsizligiga va uning zararli oqibatlariga nisbatan psixik munosabatlarning ifodasidir.

Ba'zi *jinoyatlar sub'ektiv tomonining zaruriy belgisi* jinoyatni sodir qilishda *motiv* va biron-bir *maqsad*ning mavjud bo'lishidir.

Jinoyat sub'ektning *motivi* — shu qilmishni sodir etishga nima majbur qilganligi; *maqsadi* – bu qilmish natijasida nimaga erishdi, erishmoqchi ekanligini bildiradi.

Ba'zi *jinoyatlarning predmeti* qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashda va uni yuridik jihatdan baholashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, jkning 210-moddasi birinchi qismida qurol-yarog'lar, o'q-dorilar va portlovchi moddalarni g'ayriqonuniy ravishda olib yurish, saqlash, sotib olish, yasash va sotish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu jinoyatning predmeti shu modda dispozitsiyasida ko'rsatilgan bo'lib, undan mazkur jinoyat boshqa jinoyatlarga qaraganda xavfliroq ekanligi ravshan ko'rinib turibdi. Bu hol qilmish darajasini belgilashda va jazo tayinlashda muhim ahamiyatga egadir.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi. (jk 27-moddasi).

Ob'ektiv tomondan ishtirokchilik: 1) ikki yoki undan ortiq shaxslarning mavjudligi; 2) birlikdagi ishtiroki bilan tavsiflanadi.

Sub'ektiv tomondan ishtirokchilik: 1) qasddan ayb taktining mavjudligi; 2) o'zaro axborot almashuv (bilganlik) bilan izohlanadi.

Jinoyat qonunchiligida to'rt turdagi ishtirokchilar ko'rsatilgan. Bular – a) bajaruvchi, b) tashkilotchi, s) dalolatchi va d) yordamchilar.

A) jinoyatning bajaruvchisi deb:

- 1) jinoyatni bevosita to'la yoki qisman sodir etgan shaxslar;
- 2) jinoyatni bevosita sodir etmagan, biroq sodir etish uchun boshqa, jinoyat qonuniga ko'ra javobgarlikka tortilmaydigan shaxslardan foydalanganlarga aytiladi.

Sub'ektiv tomondan bajaruvchining qilmishi hamisha qasddan hisoblanadi.

B) «tashkilotchi» tushunchasiga quyidagi faoliyat shakllari mansubdir:

- 1) jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik uchun rahbarlik qilish;
- 2) jinoyatni sodir etishga rahbarlik qilish kabilar.

V) dalolatchilik o'zga shaxsni jinoyatni sodir etishga undash yoki jinoiy faoliyatda qatnashishga qiziqtirishda ifodalanadi.

G) yordamchi deb, jinoyatni sodir etishga ko'maklashgan shaxsga aytiladi.

Sub'ektiv jihatdan *tashkilotchi* va *dalolatchilarning* faoliyati *to'g'ri qasd* bilan sodir etiladi. Sub'ektiv tomondan *sheriklik to'g'ri* va *egri qasd* bilan amalga oshirilishi mumkin.

Ishtirokchilikka muayyan shaklni bag'ishlaydigan belgilar ob'ektiv va sub'ektiv tomonni ta'riflagani bois ishtirokchilik shakllarini tasniflash asosiga ob'ektiv va sub'ektiv mezonlar quyilgan bo'ladi.

Ob'ektiv mezon birgalikda sodir etilish belgisi bilan oldindan aniqlanadi va u ishtirokchilarning o'zaro harakati xususiyatini ochib beradi. Sub'ektiv mezon ishtirokchilar jinoiy faoliyatining muvofiqlashish darajasini belgilaydi. Ikkala mezon ham ajralmas bir butunlikni tashkil etib, ularning yig'indisi ishtirokchilikni to'rt shaklga bo'lish imkonini beradi. Bular: 1) *oddiy shakl*; 2) *murakkab shakl*; 3) *uyushgan guruh*; 4) *jinoiy uyushma*dir.

O'zbekiston Respublikasi JKning 35-moddasiga binoan quyidagi holatlar: ya'ni kam ahamiyatli qilmishlar; zaruriy mudofaa; oxirga zarurat; ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash chog'ida zarar etkazish; buyruqni yoki boshqacha tarzda vazifani bajarish; kasb yoki xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilik **jinoiyatni istisno qiluvchi holatlar** deb topiladi.

Zaruriy mudofaa holatida sodir etilgan, ya'ni mudofaalanuvchi yoxud boshqa kishining shaxsi yoki huquqlarini, jamiyat yoki davlat manfaatlarini qonunga xilof tajovuzlardan tajovuzchiga zarar yetkazgan holda himoya qilish chog'ida qilingan harakat, agar zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Oxirgi zarurat holatida, ya'ni shaxsning yoki boshqa fuqarolarning shaxsiga yoxud huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariga taxdid soluvchi xavfni qaytarish uchun qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarga zarar yetkazgan holda sodir etilgan qilmish, basharti, shu xavfni o'sha holatda boshqa choralar bilan qaytarishning iloji bo'lmasa hamda keltirilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat organlariga topshirish maqsadida ushlash vaqtida unga zarar yetkazish, agar uni ushlash zarur bo'lgan choralarning chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Shaxsning buyruq yoki boshqa farmoyishni, shuningdek, *mansab vazifalarni qonunan bajarishi* tufayli zarar yetkazilgan bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Ijtimoiy foydali maqsadga erishish uchun kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik qilib, huquqlar va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazish jinoyat deb topilmaydi.

Umuman olganda *jinoyat protsessi* quyidagilardan iborat:

- jinoyat ishini qo'zg'atish;
- dastlabki tergov;
- sudga oshirish;
- sudda muhokama qilish;
- kassatsiya tartibida ish yuritish;
- hukmni ijro etish;
- ba'zida ishni sud nazorati tartibida qayta ko'rib chiqish va ishni yangi ochilgan holatlari bo'yicha qayta qo'zg'atish ham protsessga kiradi.

3. Jinoiy javobgarlik.

Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llaniladigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir.

Huquqiy davlatda jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan xar bir shaxs ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ravishda ko'rib chiqilib, aybi aniqlanmaguncha *aybdor* hisoblanmaydi. Jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rish, suiqasd kilish; og'ir jinoyat sodir etilayotganligi hakida aniq bila turib, tegishli organlarga xabar bermaslik yoki jinoyat vositasi yoki jinoyat natijasida qo'lga kiritilgan narsalarni olish yoki sotish; shuningdek, jinoyat sodir etishga kiziqtirganlik (dalolatchi), tashkil kilganlik (tashkilotchi) va yordam berganlik (yordamchi) xam jinoyat hisoblanadi va jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etganlik jinoiy javobgarlik uchun asos bo'ladi.

O'zbekiston respublikasi jkning 43-moddasiga binoan quyidagi *asosiy jazolar* tizimi mavjud:

A) jarima (eng kam oylik ish haqining besh baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda belgilanadi);

B) muayyan huquqdan mahrum qilish;

V) ahloq tuzatish ishlari (olti oydan uch yilgacha muddatga tayinlanadi);

G) xizmat bo'yicha cheklash;

D) qamoq (shaxsni batamom ajratgan sharoit ostida saqlashdan iborat bo'lib, bir oydan olti oygacha muddatga belgilanadi);

Ye) intizomiy qismga jo'natish (muddatli harbiy xizmatchilarga uch oydan bir yilgacha muddatga qo'llaniladi);

J) ozodlikdan mahrum qilish (olti oydan yigirma yilgacha muddatga belgilanadi);

Z) uzoq muddatli yoki umrbod ozodlikdan mahrum etish (o'lim jazosi o'rniga qo'llaniladi).

Mahkumlarga asosiy jazolardan tashqari *qo'shimcha jazolar* ham qo'llanilishi mumkin:

- harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish;

- mol-mulkni musodara qilish;

- xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazolar faqat harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladi;

- muayyan huquqdan mahrum qilish faqat asosiy jazo sifatidagina emas, balki qo'shimcha jazo tariqasida ham qo'llanilishi mumkin.

Jazoni qo'llashda uni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlari inobatga olinadi.

Quyidagi holatlar *jazoni yengillashtiruvchi holatlar* deb topiladi:

A) aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish;

B) yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish;

V) og'ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish;

G) majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish;

D) jabrlanuvchining zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanishi holatida jinoyat sodir etishi;

Ye) zaruriy mudofaaning, oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda, kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lgan asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish;

J) voyaga yetmaganing jinoyat sodir etishi;

Z) homilador ayolning jinoyat sodir etishi;

I) jabrlanuvchining g'ayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori ta'siri ostida jinoyat sodir etishi.

Jazoni og'irlashtirish holatlarga jkning 56-moddasiga binoan quyidagi holatlar kiradi:

A) homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan;

B) yosh bola, qariya yoki ojiz ahvoldagi shaxsga nisbatan;

V) xizmat vazifasi yoki fuqarolik burchini bajarganligi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan;

G) aybdorga moddiy tomondan, xizmat yoki boshqa jihatdan qaram shaxsga nisbatan;

D) o'ta shafqatsizlik bilan;

Ye) ko'pchilik uchun xavfli bo'lgan usulda;

J) yosh bola yoki ruhiy kasalligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsdan foydalangan holda;

Z) jinoyat natijasida og'ir oqibatlarining kelib chiqqanligi;

I) umumiy ofat sharoitidan foydalangan holda yoki favqulodda holat vaqtida yoxud ommaviy tartibsizliklar jarayonida;

K) g'arazli yoki boshqacha past niyatlarda;

L) irqiy yoki milliy dushmanlik yoxud adovat zamirida;

M) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda yoki uyushgan guruh yoxud jinoiy uyushma tomonidan;

N) ilgari ham qasddan jinoyat sodir etgan shaxsning takroran yoki qasddan yangi jinoyat sodir etishi;

O) mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop yoxud kishining aql-idrokiga ta'sir qiluvchi boshqa moddalar ta'siri ostida jinoyat sodir etish.

Jinoyat qonunlarida *javobgarlikdan va jazodan ozod qilish* turlari ko'rsatilgan. *Sodir etilgan qilmishi uchun jinoiy javobgarliqdan ozod qilishning imkoniyati* masalasi ikki omildan iborat bo'ladi:

A) shaxsning jinoyat belgilari ifodalangan qilmishni sodir etganda, shuningdek uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun barcha asoslar mavjud bo'lganda;

B) mazkur shaxsni jinoiy javobgarliqdan ozod etish uchun barcha qonuniy asos va shart-sharoitlar mavjud bo'lgan holatlarda.

javobgarlikdan ozod qilish javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan, qilmish yoki shaxs ijtimoiy xavfliligini yo'qotganligi munosabati bilan, aybdor o'z qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan, kasalligi tufayli *amnistiya akti asosida* amalga oshiriladi.

Voyaga etmaganlarga nisbatan faqat asosiy jazo choralari qo'llaniladi, qo'shimcha jazo ularga qo'llanilmaydi.

Voyaga yetmaganlarning (18 yoshgacha bo'lganlar) jinoyatlari uchun quyidagi asosiy jazolarni qo'llash mumkin:

- A) jarima;
- B) axloq tuzatish ishlari;
- V) qamoq;
- G) ozodlikdan mahrum qilish.

Jarima eng kam ish haqining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda tayinlanadi. *Axloq tuzatish ishlari* faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan o'z ish joyida o'tash, aybdor hyech qaerda ishlamasa, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o'zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o'tash tariqasida bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanadi. Voyaga yetmaganlarga *qamoq jazosi* bir oydan uch oygacha muddatga belgilanadi. *Ozodlikdan mahrum qilish jazosi* voyaga yetmaganlar uchun olti oydan o'n yilgacha muddatga tayinlanadi.

Bu jazoni qo'llashda voyaga yetmaganing jinoyati sabablari, jinoyatning og'irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlari, yoshi va boshqa xususiyatlari inobatga olinadi. Voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish faqat voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha komissiya hujjatlari bilan tanishib chiqqandan keyin yuz beradi. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun voyaga yetmagan 18 yoshga to'lmaganligi, jinoyatni birinchi marotaba sodir etishi, jinoyatning ijtimoiy xavfi katta bo'lmaganligi e'tiborga olinadi.

Har bir voyaga yetmaganing jinoyatini sud puxta o'rganib chiqib, sababini, uzr so'rashini, shaxsning psixologik jihatini, yoshini, tarbiya olgan muhitini e'tiborga olgan holda, balki, unga jinoiy jazo qo'llanmasdan, majburlov choralar qo'llashni ma'qul ko'rishi mumkin. Sud voyaga yetmaganga uning qilmishini qoralab, og'ir oqibatini tushuntirib, bunday nojo'ya harakatlar takrorlamasligini uqtirib, nima sababdan jinoiy jazo emas, majburlov choralar qo'llaganligini aytib o'tishi zarur.

Sud voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslariga amal qiladi, voyaga yetmaganing rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasini, sog'ligini, sodir etgan jinoyatning sabablarini, katta yoshdagilarning va boshqa holatlarning uning shaxsiga ta'sirini hisobga oladi.

13 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan vaqtda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyatlar majmui tariqasida jazo tayinlanganda ozodlikdan mahrum qilishning eng ko'p muddati o'n yilgacha, agar sodir etgan jinoyatlarning bittasi o'ta og'ir jinoyat bo'lsa, o'n ikki yilgacha tayinlanadi.

16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan vaqtda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyatlar majmui tariqasida ozodlikdan mahrum qilish jazosi – o'n ikki yilgacha muddatga, agar sodir etgan jinoyatlarning bittasi o'ta og'ir jinoyat bo'lsa, o'n besh yilgacha muddatga tayinlashi mumkin.

Jinoyat kodeksiga binoan quyidagi jinoyatlar uchun jinoyat sodir etilgunga qadar 18 yoshga to'lganlar jinoiy jazoga tortiladilar:

1. Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash;
2. Ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash.

3. Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish.
4. Fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish.
5. Saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish.
6. Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish.
7. Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish.
8. Atrof tabiiy muhitning ifloslanish oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko'rmaslik.
9. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish.
10. Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish.
11. Mansabga sovuqqonlik bilan qarash.
12. Hokimiyat harakatsizligi.
13. Mansab soxtakorligi.
14. Pora olish.
15. Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo'yin tovlash.
16. Ma'muriy nazorat qoidalarini buzish.
17. Aybsiz kishini javobgarlikka tortish.
18. Adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish.
19. Sud qarorlarini bajarmaslik.
20. Qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish.
21. Ko'rsatuv berishga majbur qilish.
22. «harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar» (jkning yettinchi bo'limidagi 279-302-moddalari) uchun ham javobgarlik begilangan.

Jinoyat protsessual kodeksining 464-moddasiga ko'ra oqlov hukmi quyidagi holatlarda chiqariladi:

- 1) mahkum sodir etgan jinoyat uchun jazo tayinlashni istisno etadigan amnistiya akti e'lon qilingan bo'lsa;
- 2) mahkumni jinoyat uchun ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish muddati o'tib ketgan bo'lsa;
- 3) hukm chiqariladigan vaqtga kelib qilmish ijtimoiy xavfliligini yo'qotsa yoki uni sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfli bo'lmay qolsa;
- 4) mahkumning tuzalishiga jamoat birlashmalari va jamoalar tomonidan qo'llaniladigan jamoat ta'siri choralari yoki ma'muriy jazo choralari ko'rish yo'li bilan erishish mumkin bo'lsa;
- 5) hukm chiqarish vaqtigacha sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa.

Nazorat uchun savollar:

1. o'zbekiston respublikasi jinoyat huquqining tushunchasi.
2. Jinoyatning qanday belgilari va tarkibi mavjud?
3. Jinoiy javobgarlik haqida tushuncha bering.
4. Jinoiy jazo, uning qanday turlari bor?
5. Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi, asosi, shakllari qanday?
6. Ijtimoiy xavfli bo'lmagan jinoyat turlari haqida tushuncha bering.
7. Javobgarlikdan ozod qilishning qanday turlari mavjud?
8. Jazo muddatlari qanday hisoblanadi?
9. Jazo qanday tartibda tayinlanadi?
10. Tibbiyot sohasidagi jinoyatlarni ayting.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. – t.: o'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston respublikasi jinoyat kodeksi. – t.: adolat, 2001.
3. O'zbekiston respublikasining jinoyat protsessual kodeksi. – t.: adolat, 2001.
4. O'zbekiston respublikasining jinoyat kodeksiga sharhlar. – t.: «adolat». 1997.
5. Rustamboev m.x. “jinoyat huquqi” darslik. – t.: tdyui, 2006.

MAVZU: XALQARO HUQUQ

Reja

1. Xalqaro huquqning paydo bo'lishi va xalqaro huquq tushunchasi.
2. Xalqaro huquq tizimi, funksiyalari va tamoyillari.
3. Xalqaro shartnoma, uning tuzilishi va mazmuni.

1. Xalqaro huquqning paydo bo'lishi va xalqaro huquq tushunchasi.

Xalqaro huquq huquqning boshqa sohalari kabi o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas. U muayyan ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Xalqaro huquq tarixiy ijtimoiy-huquqiy amaliyotining rivojlanishi natijasidir. Kishilik tarixi davomida xalqaro huquq nafaqat xalqaro munosabatlarni taraqqiyoti bilan birga rivojlanib keldi, balki ularga malum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Xalqaro huquqning kelib chiqishi tabiiy-obektiv jarayondir. Xalqaro huquqni paydo bo'lishining umumiy shart-sharoiti davlatlarning xohish-irodasi emas, balki insoniyat hayotining sharoiti, uning tarixiy evalyusiyasi, insonni atrofdagi dunyo bilan o'zaro munosabati, ijtimoiy mehnat taqsimoti, davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishidir.

Xalqaro huquq – bizni o'rab turgan dunyoning muhim bir ajralmas qismi. U doimiy ravishda insonga, xalqlarga davlatlarga ta'sir ko'rsatib keladi.

Xalqaro huquqni paydo bo'lishi bevosita davlatlarning vujudga kelishi bilan bog'liq. Davlatlar taraqqiyotining obektiv shart-sharoiti ularning o'rtasidagi siyosiy iqtisodiy, madaniy va huquqiy munosabatlarni o'rnatish zaruriyati kelib chiqadi. Buning natijasi o'laroq huquqning mustaqil tizimi sifatida xalqaro huquq paydo bo'lgan va rivojlangan.

Xalqaro huquq davlatlar, xalqlar va xalqlaro tashkilotlar o'rtasidagi turli

Davlat va huquq nazariyasi fani davlatning milliy huquqiy tizimiga xos bo'lgan hodisalarni o'rgansa xalqaro huquq fani esa, davlatlararo yoki kengroq ma'noda xalqaro

munosabatlarga xos bo'lgan hodisa va jarayonlarning xususiyatlarini ko'rib chiqadi.

Xalqaro huquq fanida xalqaro huquq tushunchasiga berilgan turli xil tariflardan bir nechtasini keltirib o'tamiz:

Birinchi ta'rif: xalqaro huquqni “davlatlarning irodasini muvofiqlashtirish asosida tuzilgan va rivojlanadigan, davlatlarning tinch totuv yashashi, xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilashini taminlash maqsadida xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar sistemasi” sifatida xarakterlash mumkin.

Ikkinchi ta'rif: xalqaro huquq – bu “davlatlar va ushbu huquq tizimining boshqa sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar sistemasi”dir.

Uchinchi ta'rif: xalqaro huquq “ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarining ta'siri bilan bog'liq ravishda xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi va davlatlar irodasining nisbiy uyg'unligini ifodalovchi shartnomalar, odat normalari va printsiplar sistemasidir”

To'rtinchi ta'rif: xalqaro huquq – bu “xalqaro (davlatlararo va boshqa turdagi) munosabatlarni tartibga soluvchi normalar majmui va sistemasidir”.

Бешинчи таъриф: халқаро ҳуқуқ – бу “ҳуқуқнинг мустақил тармоғи бўлиб, ўзида бир бутун ва яхлит принциплар ва нормалар системасини, яъни энг аввало давлатлар ўртасидаги халқаро муносабатлар соҳасини тартибга солувчи, юридик мажбурий бўлган ҳуқ-атвор қоидаларини ифодалайди”.

Олтинчи таъриф: “халқаро ҳуқуқ ғоят кенг ва турли тармоқларни ўз ичига олувчи алоҳида ҳуқуқлар тизимидир. Шу билан бирга, фақат нормалар йиғиндиси бўлибгина қолмай уларнинг тизими ҳамдир”.

qadar ko'prok xalqaro huquqqa xos bo'lgan hodisalarni qamrab olishga harakat qilganlar. Birok, ta'kidlab o'tish joizki, bunday vazifani uddalash juda mushkuldir. Har qanday ilmiy tarif unda foydalanilgan atamalar tushunchalarning, shuningdek, ulardan kelib chiqadigan tushunchalarni izohlanishini talab qiladi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi ikkinchi jaxon urushidan bmtning ustavi qabul

qilinganidan so'ng yuzaga kelib rivojlangan. Shu bois, "hozirgi zamon xalqaro huquqi" tushunchasi xalqaro munosabatlarning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari rivojlanishini yangi bosqichini aks ettirgan holda, xalqaro huquq harakatining xronologik doirasini belgilaydi.

Xalqaro huquqqa quyidagicha umumiy tushuncha berish mumkin: "Xalqaro huquq – bu tinchlik va hamkorlikni taminlash maqsadida davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar sistemasidir.

Xalqaro huquq aynan yuridik normalardan tashkil topgan. Ta'kidlab o'tish lozimki, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat xalqaro huquqiy normalar bilan, balki siyosiy, axloqiy normalar hamda amaliyot va boshqa normalar bilan ham tartibga solinadi.

"xalqaro huquq" – atamasi xalqaro ommaviy huquqni bildiradi, undan xalqaro xususiy huquqni farqlab olish lozim. Shu bois, "xalqaro huquq" atamasi malum darajada shartli ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Shu ma'noda tarixan shakllanib va davlatlar hamda xalqaro hujjatlarda darsliklarda qo'llaniladigan xalqaro huquq atamasi o'zining tub manosiga to'la mos keladi deb bo'lmaydi. Mazkur atamani boshqa tillardagi manosi ham aynan o'xshashdir: rus tilida *mejdunarodnaya prava*, ingliz tilida *international law*, faransuz tilida *droit international*, nemis tilida *volker recht*, ispan tilida *derecho international* va x.

Xalqaro huquq obektiga har kanday emas, balki muayyan xalqaro munosabatlar, ya'ni davlatlar va davlatlar sistemasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, huquqiy, diplomatik, harbiy va boshqa turdagi aloqalar va munosabatlar, shuningdek, dunyo miqyosidagi asosiy siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa tashkilotlar, harakatlar o'rtasidagi hamkorliklar kiradi.

Xalqaro munosabatlarda davlatlararo munosabatlar asosiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga, nodavlat harakterdagi xalqaro munosabatlar ham mavjud. Masalan, turli davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari o'rtasidagi ("chet el elementi" yoki "xalqaro element" kabilar), xalqaro nohukumat tashkilotlar va xalqaro xo'jalik birlashmalari ishtirokidagi xalqaro munosabatlar.

Xalqaro huquq obektiga eng avvalo suveren davlatlar o'rtasidagi munosabatlar kiradi. Davlatlararo munosabatlar – bu avvalambor hokimiyatlararo munosabatlardir. Davlatlar o'rtasidagi mavjud munosabatlar tegishli xalqaro bitimlar bilan tartibga solingandagina xalqaro huquqiy shaklga ega bo'ladi.

davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish bmt nizomida mustahkamlab qo'yilgan, umume'tirof etilgan xalqaro huquq prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro huquq, huquq tarmog'i sifatida quyidagi munosabatlarni tartibga soladi:

- ❖ Davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni. Ularning ichida butun xalqaro hamjamiyatni qamrab oladigan munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi;
- ❖ Davlatlarning xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi bilan bog'liq davlatlar va hukumatlararo tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni;
- ❖ Hukumatlararo tashkilotlar o'rtasidagi;
- ❖ Davlatlar va nisbiy mustaqil xalqaro maqomga ega bo'lgan davlat ko'rinishidagi tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlar (masalan, vatikan rim katolik cherkovining markazi sifatida alohida uziga xos xalqaro huquqiy maqomga ega).

Demak, xalqaro *huquqiy munosabatlar ob'ekti* – bu shunday voqeyelikdirki, unga ko'ra sub'ektlar xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari asosida o'zaro huquqiy munosabatlarga kirishadilar.

Quyidagilar xalqaro huquqiy munosabatlar ob'ekti bo'la oladi:

1. Hudud va xalqaro yer kenglik (hudud tinchlik shartnomalari va boshqa hujjatlarda xalqaro huquqiy munosabatlar ob'ekti sifatida juda ko'p namoyon bo'ladi);
2. Xatti-harakatlar (xatti-harakatlar davlatlar o'rtasidagi turli-xil huquqiy munosabatlar ob'ekti bo'lishi mumkin. Masalan, o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risidagi hujjatlarda, ittifoq shartnomalarida);
3. xatti-harakatlardan tiyilish (masalan, neytralitet to'g'risidagi, urush odatlari va qonunlari to'g'risidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda muayyan xatti-harakatlardan tiyilish ham xalqaro huquqiy munosabatlar ob'ekti bo'lib hisoblanadi)

Xalqaro huquq tizimi – bu o'zaro ichki bog'liq elementlarning ob'ektiv mavjud bo'lgan bir butunligidir.

Bu elementlarga *xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari, normalari* (shartnomaviy va oddiy-huquqiy), *xalqaro tashkilotlarning qarorlari, tavsiyaviy rezolyusiyalari, xalqaro sud organlarining qarorlari xalqaro huquq institutlari* (xalqaro tan olish instituti, shartnomalarga nisbatan huquqiy vorislik instituti, xalqaro javobgarlik instituti va boshqalar) kiradi.

Sistemaning qayd etib o'tilgan barcha elementlari turli birikmalarda xalqaro huquq tarmoqlarini tashkil qiladi (diplomatik huquq, xalqaro shartnomalar huquqi, xalqaro dengiz huquqi va boshqalar). Ushbu har bir tarmoqlar o'zi mustaqil sistema sifatida namoyon bo'ladi. Bunday sistemalar xalqaro huquqning yaxlit yagona tizimi doirasida shu tizimni bir qismi hisoblanishi mumkin.

Xalqaro huquq milliy huquq singari sub'ektlar o'rtasidagi har kandy munosabatlarni emas, balki faqat huquqiy tartibga solish talab qilinadigan qismini tartibga soladi. Bundan tashqari, xalqaro va milliy huquqlar o'zining ma'lum konservativligi tufayli odatda vujudga keladigan huquqiy tartibga solish talabidan orqada koladi.

Shunday qilib, xalqaro huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan xalqaro munosabatlar xalqaro-huquqiy munosabatlar harakteriga ega bo'ladi. Xalqaro huquq sub'ektlari u yoki bu xalqaro-huquqiy munosabatlarga kirishish bilan o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshiradilar.

Xalqaro huquqiy munosabatlar turli-tumanligi bilan harakterlanadi va xalqaro huquqiy normalarning turli-tuman bo'lishini belgilaydi. Bir turdagi xalqaro munosabatlarni muayyan guruhlarga ajratish mumkin, bu o'z navbatida xalqaro huquq institutlari va tarmoqlarini tashkil qiluvchi bir turdagi xalqaro huquqiy normalar guruhi va majmui (kompleksi) mavjudligini bildiradi.

Xalqaro-huquqiy institut – bu bir turdagi xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi, ushbu munosabatlarning umumiy ob'ekti bilan o'zaro yaqin aloqador bo'lgan huquqiy normalar guruhidir.

Huquqiy normalar va institutlar xalqaro huquq tarmog'iga birlashadi. Tarmoq ob'ekti bo'lib barcha bir turdagi xalqaro munosabatlar majmui hisoblanadi, masalan, xalqaro shartnoma huquqi, xalqaro tashkilotlar huquqi, diplomatik huquq, xalqaro dengiz huquqi, xalqaro atom huquqi, xalqaro kosmik huquq. Ularni tashkil qilishning yagona yo'li xalqaro huquq sub'ektlarining kelishuvi hisoblanadi. Faqat xalqaro huquq sub'ektlarigina o'zining u yoki bu xatti-harakatlariga, xulq-atvor qoidalariga yuridik majburiy harakter berishi mumkin.

Xalqaro huquqiy normalarni bajarish ushbu huquq tizimi sub'ektlari tomonidan asosan ixtiyoriylik asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro huquq normalari sub'ektlari turli xil bo'ladi. Ular, barcha sub'ektlarga yoki barcha asosiy sub'ektlar (davlatlar)ga qaratilgan umumiy (universal) xalqaro huquq normalariga va ikki yoki bir necha sub'ektlar o'rtasidagi kelishuv asosida belgilangan hamda ularga qaratilgan lokal (partikulyar) normalarga bo'linadi. Lokal normalar jumlasiga sub'ektlarning muayyan bir holatdagi xulq-atvorini belgilovchi individual normalarni ham kiritish mumkin.

Partikulyar normalar universal normalarga mos kelishi lozim. Bmt nizomining 103-moddasiga muvofiq a'zo davlatlarning nizom bo'yicha majburiyatlari boshqa shartnomalar bo'yicha olgan majburiyatlariga nisbatan ustuvorlikka ega.

Huquqiy tartibga solish uslubi bo'yicha xalqaro-huquqiy normalar *dispozitiv* va *imperativ* normalarga bo'linadi. *Dispozitiv normalarda* xalqaro huquq sub'ektlari o'z xulq-atvorini, muayyan huquqiy munosabatlardagi holatdan kelib chiqib o'zaro huquq va majburiyatlarni o'zlari belgilashi mumkin. Umumiy xalqaro huquqning aksariyat qoidalari dispozitiv norma hisoblanadi, ya'ni ulardan davlatlar va boshqa sub'ektlar o'zining o'zaro lokal munosabatlaridan kelib chiqib, umumiy xalqaro huquqning ushbu normasi mohiyatiga zid kelmaydigan ma'lum o'zgartirishlar kiritish bilan chetlab o'tishi mumkin.

1969 yilda xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi vena konvensiyasi qabul qilinganidan so'ng umumiy xalqaro huquq normalari tizimida imperativ normalar ajratila boshlandi. 1969 yildagi vena konvensiyasining 53-moddasiga muvofiq "*umumiy xalqaro huquqning imperativ normasi* davlatlarning xalqaro hamjamiyati tomonidan chetlab o'tish mumkin bo'lmagan normasi sifatida tan olinadi va bunday normalar faqat keyin qabul qilingan xuddi shunday normalar bilangina o'zgartirilishi mumkin. Xalqaro huquqda imperativ normalar ro'yxati yo'q. Biroq, xalqaro huquq nazariyasi bmt nizomida, bmt nizomiga muvofiq davlatlar o'rtasidagi do'stona aloqalar va hamkorliklarga tegishli bo'lgan 1970 yildagi xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiyada ifodalangan xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini yakdillik bilan imperativ normalar qatoriga kiritadi.

Xalqaro huquq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. *Muvofiqlashtiruvchi funksiya.* Davlatlar xalqaro huquq normalari yordamida xalqaro hamkorlikning turli sohalarida umumiy qabul qilingan xulq-atvor standartlarini belgilaydi.

2. *Tartibga soluvchi funksiya.* Bu davlatlar tomonidan qat'iy qoidalarini belgilashda namoyon bo'ladi. Bularsiz davlatlarning jahon hamjamiyati bilan munosabatlari va birgalikda mavjudligini tasavvur qilishni imkoni yo'q.

3. *Ta'minlash funksiyasi.* Bunda xalqaro huquq shunday normalarni o'zida mustahkamlaydiki, bu davlatlarni ko'p yillik aloqalari jarayonida belgilangan malum xulq-atvor qoidalariga rioya qilishga undaydi.

4. *Muhofaza funksiyasi.* Bu davlatlar milliy manfaatlari va qonuniy huquqlarini himoya

kiladi.

Xalqaro huquqni o'ziga xos xususiyati shundaki, xalqaro munosabatlarda davlatlardan yuqori turuvchi majburlash mexanizmi mavjud emas. Zarur hollarda davlatlarning o'zlari kollektiv ravishda xalqaro-huquqiy normalar bajarilishini va xalqaro huquqiy-tartibotni ta'minlaydilar.

Real voqeyelikda biri-biriga bog'liq, lekin mustaqil ikki huquqiy tizim mavjud: bir tomondan, ichki davlat huquqi (alohida milliy davlatning huquqiy normalari majmui) va ikkinchi tomondan *xalqaro huquq*. Agar, ichki davlat huquqida huquqiy tartibga solish obekti bir davlat doirasidagi ijtimoiy munosabatlar bo'lsa, xalqaro-huquqiy munosabatlar obektiga davlatlar va ularning birlashmalari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar kiradi.

Huquqning ichki davlat huquqi va xalqaro huquq tomonidan tashkil qilinishi e'tirof etiladi. Mazkur masala xususida huquqshunoslik fanida turli xil nazariyalar olga surilgan. Ba'zi bir olimlar xalqaro huquqni yagona huquqiy tizim deb hisoblaydilar. Ular davlatlarning ichki munosabatlarini ham xalqaro huquq tartibga soladi, malum bir bosqichda davlatlarni ichki huquqiy tartibga solishning rivojlanishini ham inkor qilmaydilar, lekin kelajakda xalqaro huquqni rivojlanishi bilan yo'q bo'lib ketadi, deb hisoblaydilar. Boshqa bir mualliflar xalqaro huquq faqat davlatlarning milliy huquqida nazarda tutilgan doiradagina mavjud bo'ladi, ya'ni u muayyan davlatlarning tashqi huquqi sifatida xizmat qiladi, deb hisoblaydilar.

Ichki davlat huquqi va xalqaro huquqning o'zaro aloqadorligi shundaki, xalqaro huquq davlatlarning konstitutsiyaviy tuzumi, vakolatli davlat hokimiyati organlari sistemasi, shuningdek, har qanday davlatni ichki ishi hisoblanadigan va odatda xalqaro huquqiy munosabatlarni tartibga solish doirasiga kirmaydigan ishlarni mavjudligi bilan hisoblashishga majburdir.

Ichki davlat huquqi davlatning majburiyatlarini mustahkamlovchi, malum hollarda ushbu davlatning milliy huquqida aks ettirilishi lozim bo'lgan xalqaro huquqiy normalarni mavjudligi bilan hisoblashadi.

Xalqaro huquq va ichki davlat huquqi bir-biridan alohida mavjud bo'lmaydi. Xalqaro huquq normalarini ishlab chiqishga milliy huquqiy sistemalar ta'sir ko'rsatadi, u davlatning tashqi siyosati va diplomatiyasida o'z ifodasini topadi.

Xalqaro huquq o'z navbatida milliy qonunchilikni rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

xalqaro huquq normalari o'z sub'ektlari, eng avvalo davlatlar uchun huquq va majburiyatlar tug'diradi. Davlatning rasmiy organlari, yuridik va jismoniy shaxslari esa bevosita xalqaro huquq normalariga bo'ysunmaydilar. Chunki bular uning sub'ekti bo'lib hisoblanmaydilar. Xalqaro majburiyatlarni ichki davlat huquqi darajasida real amalga oshirilishini ta'minlash uchun xalqaro-huquqiy normalarni milliy qonunlarda mustahkamlash, ya'ni *transformatsiya* qilish choralari ko'riladi.

O'zbekiston respublikasi fuqarolik kodeksida shunday deyiladi: "agar xalqaro

Ko'pgina davlatlarning, shu jumladan, O'zbekistonning qonunlarida davlatlarni ichki qonuni bilan xalqaro majburiyatlari o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lsa, xalqaro majburiyatlar ustuvorlikka ega bo'ladi, degan qoida mustahkamlab qo'yilgan. Bunday qoida xalqaro huquqni

Xalqaro huquqiy tizim normalarini yaratishning o'ziga xos tomoni shundaki, bu jarayonda sub'ektlarning o'zi ixtiyoriy ravishda, xohish-irodasini bildirish yo'li bilan unda ishtirok etadilar. Binobarin, xalqaro huquq uyg'unlashtiruvchi hamda muvofiqlashtiruvchi harakterga ega.

Xalqaro huquq tamoyillari – bu ijtimoiy amaliyot natijasida vujudga keladigan xalqaro huquqning yuridik mustahkamlangan asoslari bo'lib, huquq sub'ektlari xatti-harakatining rahbariy qoidalari hisoblanadi.

Xalqaro huquq tamoyili – bu avvalom bor xalqaro huquq normasidir.

Huquq sub'ektlari xalqaro huquq tamoyillariga rioya qilishlari qat'iy majburiydir. Chunki mazkur tamoyillarni har qanday tarzda buzish muqarrar ravishda xalqaro munosabatning boshqa ishtirokchilarining qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qilishga olib keladi. Xalqaro huquq tamoyillari butun xalqaro-huquqiy normalar tizimining qonuniylik mezonini hisoblanadi.

Xalqaro huquq tamoyilini ijtimoiy amaliyotni o'zgartirish orqaligina bekor qilish mumkin. Bu esa alohida davlatlar yoki davlatlar guruhi imkoniyati doirasida emas. Shuning uchun har bir milliy davlat xalqaro huquq tamoyillarini buzish orqali ijtimoiy amaliyotni "tuzatish" ga qaratilgan har kanday bir tomonlama tartibdagi urinishlarga o'z munosabatini bildirishi lozim.

Xalqaro huquq tamoyillari odatiy va shartnoma usullari orqali shakllanadi. Ular bir paytning o'zida ikki xil funksiyani bajaradi:

- xalqaro munosabatlarni ularni ma'lum normativ doiralar bilan chegaralash orqali barqarorlashishiga ko'maklashadi;
- xalqaro munosabatlar amaliyotida vujudga keladigan barcha yangi holatlarni mustahkamlaydi.

Xalqaro huquqning *umum e'tirof etilgan tamoyillari*, deb jahon hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvatlanadigan va tegishli xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan tamoyillar hisoblanadi.

Xalqaro huquqda umum e'tirof etilgan tamoyil va normalarni batafsil tarzda bayon qilib beruvchi yagona normativ hujjat mavjud emas. Agar bmt nizomida besh tamoyilning nomi keltirilgan bo'lsa, xalqaro huquq tamoyillari to'g'risidagi deklaratsiyada ularning yettitasi ifodalab berilgan:

1. Kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik.
2. Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan xal etish.
3. Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik.
4. Davlatlarning xalqaro hamkorligi.
5. Davlatlarning suveren tengligi.
6. Xalqlar va millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi.
7. Davlatlarning olgan xalqaro majburiyatlarini vijdonan bajarishi.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashining xelsinki yakunlovchi hujjatida mazkur tamoyillarga yana uchtasi qo'shilgan:

1. Chegaralar daxlsizligi.
2. Davlatlarning hududiy daxlsizligi.
3. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish.

Jahon xamjamiyati oldida turgan umumbashariy muammolarni xal etish zaruriyatini ifoda etuvchi yangi tamoyillar ham shakllanmokda. Masalan, atrof muhitni himoya qilish majburiyati.

Umum e'tirof etilgan tamoyillar va normalar u yoki bu shaklda ko'p davlatlarning konstitutsiyalarida ham mustahkamlangan. Qonunchilik, ijro va sud hokimiyatlari faoliyati ularga muvofiq kelishi lozim. Mazkur tamoyillar o'zbekiston konstitutsiyasining 4-bobida mustahkamlangan.

3. Xalqaro shartnoma, uning tuzilishi va mazmuni.

Xalqaro shartnomalarning huquqda tutgan o'rni kattadir. Shu sababli xalqaro huquqda xalqaro shartnomalar to'g'risida bayon qilingan fikrlar xalqaro munosabatlarni o'rnatishda muhim ahamiyatga ega.

Shartnoma, shu jumladan xalqaro shartnoma uning ishtirokchilari uchun muayyan huquqlar va majburiyatlar vujudga keltirishga qaratilgan kelishuvdan iborat bo'lib, u uch asosiy vazifani:

A) shartnoma tuzuvchi sub'ektlar o'rtasida huquqiy munosabat mavjudligini isbotlovchi fakt vazifasini;

B) tomonlar o'rtasidagi o'zaro kelishuvlarni o'zida ifoda etuvchi yozma hujjat vazifasini;

V) shartnoma talablari bajarilmasdan qolgan taqdirda aybdor tomoni javobgarlikka tortish asosi vazifasini bajaradi.

Hozirgi zamonda jahondagi davlatlararo iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar, savdo-sotiq, sanoat va boshqa sohalardagi hamkorliklarni o'rnatish hamda amalga oshirishning asosiy shakli ikki tomonlama va ko'p tomonlama kelishuvlar bo'lib qolmoqda.

Xalqaro munosabatlar sohasida davlatlararo hamkorlikni nazarda tutuvchi kelishuvlar shartnoma, ahdlashuv, pakt, deklaratsiya, konvensiya, protokol va h. Nomlar bilan ataladi. Ammo bu hol ularning mohiyatiga ta'sir etmaydi.

Xalqaro shartnomalar turli belgilari va xususiyatlariga ko'ra turlarga ajratiladi. Jumladan,

- o'z *predmetiga* ko'ra – savdo-sotik, sanoat, transport, aloqa, moliya-kredit va h. Sohalardagi shartnomalarga;

- *tartibga solish doirasiga* ko'ra: xalqaro munosabatlarning barcha ishtirokchilari xatti-harakatini tartibga soluvchi shartnomalarga (masalan, bmt ustavi) va davlatlararo muayyan masalalarni tartibga soluvchi shartnomalar (masalan, sanoat yoki savdo-sotiq masalalari xususidagi ko'p tomonlama konvensiyalar) hamda ochiq yoki yopiq shartnomalar va h.

Xalqaro shartnomalarning sub'ekti bo'lib eng avvalo davlatlar ishtirok etadilar. Keyingi paytlarda davlatlarning xalqaro tashkilotlari ham shartnomalarda keng ishtirok etmoqdalar. Birok, ularning xalqaro shartnoma munosabatidagi ishtiroki doirasi uning a'zolari bo'lgan davlatlar beradigan vakolatlar hajmi bilan belgilanadi.

Xalqaro shartnomalarning ob'ektlari iqtisodiy, xo'jalik aloqalari sohasida davlatlar o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar, savdo, sanoat, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, moliya va boshqa sohalarda huquqiy tartibga solinishi talab etiladigan xatti-harakatlardir.

Xalqaro iqtisodiy shartnomalar tuzish muayyan davrni o'z ichiga oluvchi jarayon bo'lib, ma'lum bosqichlarga bo'linadi.

Xalqaro shartnomalar tuzish qoida tariqasida davlat boshlig'i tomonidan, mamlakat konstitutsiyasida, boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda yoki davlat boshlig'i tomonidan berilgan vakolatga muvofiq bunday shartnomalarni imzolash huquqi boshqa davlat organlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Xalqaro shartnomalar o'z tarkibi jihatidan asosan uch qismdan: *kirish qismi* (preambula), *asosiy qism* va *yakunlovchi qoidalar*dan iborat bo'ladi.

A) shartnomaning kirish qismi (preambula)da uning tuzilgan joyi, vaqti, tomonlari, maqsad va vazifalari belgilab qo'yiladi.

B) asosiy qismda uning mazmuni, tomonlari o'z zimmlariga olayotgan majburiyatlarni bajarish vaqti, joyi, usuli, pul majburiyatlari va ularni ado etish kabi shartnoma tuzishdan kelib chiquvchi konkret xatti-harakatlar ko'zda tutiladi.

V) shartnomaning yakuniy qismida tomonlar javobgarligi, shartnomani muddatidan avval bekor qilish asoslari va tartibi, uni prolongatsiyalash, unga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish tartiblari, uning ochiq yoki yopiq ekanligi kabi holatlar aks ettiriladi. Vakolatli mansabdor shaxs yoki davlat organining imzolari shartnomani yakunlaydi.

Xalqaro shartnomalar yaxlit bir hujjatdan iborat bo'lishi yoki turli ilovalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Xalqaro shartnomalar odatda davlatning vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan imzolanishi bilan kuchga kiradi. Ammo shartnoma tuzayotgan tomonlar uning kuchga kiritilishi yuzasidan boshqacha muddatlarni belgilashlari ham mumkin. Yuksak milliy va davlat ahamiyatiga ega bo'lgan xalqaro shartnomalarni kuchga kiritilishi yuzasidan maxsus protsedura (tartib) belgilanadi. Jumladan, o'zbekiston konstitutsiyasining 78-moddasi 21-bandida aytilishicha, o'zbekiston respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan muhim ahamiyatga molik shartnomalari va bitimlari o'zbekiston respublikasi oliy majlisi tomonidan ratifikatsiya qilinmog'i (tasdiqlanmog'i) lozim.

Xalqaro shartnomalar uning ishtirokchisi bo'lgan davlatlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lib, tarixiy shart-sharoitni o'zgarganligi, shartnoma qoidalarini ichki qonunchilikka zid kelishi va h. vaziyatlar shartnomadan kelib chiquvchi majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlash uchun asos bo'la olmaydi. Urushlarni yuz berishi urushayotgan tomonlardan boshqa ishtirokchilar

xalqaro shartnomalar unda ishtirok etayotgan tomonlar rasmiy davlat tillarida tuziladi. Ko'p tomonlama shartnomalarning bmt ishchi va rasmiy tillarida tuzish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston o'z mustaqilligini tobora mustahkamlab, jahon hamjamiyatida munosib o'ringa, obro'-e'tiborga ega bo'lib borayotgan paytda xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan turli aloqalar urnatish, hamkorlikni kuchaytirish o'ta muhim ahamiyat kasb etuvchi vazifalardan biridir. Umumjaxon xo'jalik tizimlariga kirishning, butun dunyo miqyosidagi iqtisodiy jarayonlarga tobora kengroq qo'shilishning asosiy huquqiy shakli bo'lib respublikamizning boshqa davlatlar bilan o'rnatadigan shartnomaviy aloqalari hisoblanadi. Shu sabab davlatlararo shartnomalarga oid xalqaro huquq normalarini bilish, shartnoma tuzish jarayonini chuqur anglab yetish o'zbekistonni xalqaro hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirishning, davlatimiz manfaatlarini va xavfsizligini samarali himoya qilishning ishonchli va ta'sirchan vositasidir.

Nazorat uchun savollar:

1. Xalqaro huquq qanday paydo bo'lgan?
2. Xalqaro huquqning mohiyati nimada?
3. Xalqaro huquq va ichki davlat huquqi nisbati nimada?
4. Xalqaro huquq normalarini yaratish jarayoni nimaning vositasida amalga oshiriladi?
5. Xalqaro huquq davlatlarning tashqi siyosatida va diplomatiyasida qanday o'ringa ega?
6. Xalqaro huquq funksiyasi nimadan iborat?
7. Xalqaro huquq tamoyillarini tushuntiring.
9. Xalqaro shartnoma qanday tuziladi va rasmiylashtiriladi?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. – t.: o'zbekiston, 2016.
2. Karimov i.a. "o'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li" –t., 2008.
3. Saidov a.x. «xalqaro huquq» darslik. 2-tom. – t.: adolat, 2001.
4. Saidov a.x. «xalqaro huquq tushunchasi va mohiyati» o'quv qo'llanma. – t.: 2000.
5. Bekyashev k.a., volosov m.ye. «mejdunarodnoe pravo v sxemax» uchebnoe posobie. – m.: prospekt, 2006.
6. Qosimbekova s. «huquqshunoslik, o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – t. TDIU.

MAVZU: «O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASINI O'RGANISH» O'QUV KURSI,
UNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Nazorat uchun savollar:

1. Konstitutsiyani o'rganish qachon joriy qilindi?
2. Konstitutsiyani o'rganish o'quv kursining vazifasi, maqsadlari nimalardan iborat?
3. Konstitutsiyani o'rganish kursi – konstitutsiyaviy huquqning asosiy qismiga nimalar kiradi?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. –t.: «o'zbekiston», 2003.
2. Karimov i.a. Bunyodkorlik yo'lidani. T. 4. –t.: «o'zbekiston», 1996.
3. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2001 yil 4 yanvardagi «o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi farmoyishi.
4. Tadjixanov u., saidov a., odilqoriev x. O'zbekiston respublikasining konstitutsiyaviy huquqi (darslik). – t.: «sharq», 2001.
5. O'zbekiston respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. – t.: moliya nashriyoti. 2002. 632-b.

1. O'quv kursining joriy qilinishi, tushunchasi, maqsad va vazifalari.

O'zbekiston respublikasi prezidentining 2001 yil 4 yanvardagi «o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi farmoyishi asosida 2001 yil 1 sentyabrdan boshlab mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining magistraturagacha bo'lgan

bosqichida konstitutsiyani o'rganish tashkil etildi. Ta'lim tizmiining bog'chadan to oliy o'quv yurtlarining eng yuqori bosqichigacha bo'lgan yosh avlod bugun asosiy qonunimizni o'rganmoqda.

Bu o'quv kursining maqsadi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, ma'no-mazmunini hamda mohiyatini o'rganish, yosh avlodning huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini muntazam yuksaltirish, shuningdek, Konstitutsiyani mukammal o'zlashtirish, uni tarqatib va tashviq qilishdan iborat.

O'quv kursining asosiy vazifalari quyidagilarni o'rganishdan iborat bo'lib, ular:

1. *O'zbekiston respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosiy prinsiplarini;*
2. *Fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;*
3. *Jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni;*
4. *Jamiyatning iqtisodiy asoslarini;*
5. *O'zbekistonning ma'muriy-hududiy davlat tuzilishini;*
6. *O'zbekiston respublikasi saylov tizimini;*
7. *O'zbekiston respublikasi davlat hokimiyatini, oliy va mahalliy organlarining tuzilishini;*
8. *O'zbekiston respublikasi sud hokimiyatining amalga oshirilishini;*
9. *O'zbekiston respublikasi prokuratura organlarining tashkil etilishi va vazifalarini;*
10. *O'zbekiston respublikasi moliya va kredit tuzilishini;*
11. *O'zbekiston respublikasida mudofaa va xavfsizlikning ta'minlanishini;*
12. *O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibini o'rganish.*

2. O'zbekiston konstitutsiyasini o'rganish kursi konstitutsiyaviy huquqning asosiy qismi. O'zbekiston konstitutsiyasini o'rganish kursining predmeti.

Ushbu o'quv kursining mohiyatini to'la anglab olish uchun avvalo «konstitutsiyaviy huquq» tushunchasini bilib olish kerak, zero, «O'zbekiston konstitutsiyasini o'rganish» o'quv kursi «konstitutsiyaviy huquq» fanining asosiy qismini tashkil etadi.

Konstitutsiyaviy huquq fani esa, huquqshunoslikning muhim tarmog'i bo'lib, uning asosiy vazifasi konstitutsiyaviy huquq sohasini o'rganishdan iborat.

Konstitutsiyaviy huquq fani O'zbekiston respublikasi huquqiy tizimning etakchi tarmog'i bo'lgan konstitutsiyaviy huquq tushunchasi, uning predmeti, huquqiy normalari, institutlari, ularni amalga oshirish natijasida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarni o'rganadi va ushbu huquqiy tarmoqning rivojlanish istiqbolini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini o'rganish o'quv kursida ham konstitutsiyaviy huquq fanida o'rganilgani kabi shaxsning asosiy huquq va erkinliklari, burchlari, hokimiyat bilan shaxsning o'zaro munosabatlari, davlat idoralari tizimining faoliyat yuritishini tartibga soluvchi, fuqarolarning huquqiy maqomi, shuningdek, jamiyatning boshqa ijtimoiy tuzilmalari holatini tadqiq etiladi.

Demak, O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini o'rganish kursining predmeti – bu konstitutsiyaviy institutlar haqida tasavvurlar va bilimlar, konstitutsiyaviy normalar va ular orqali tartibga solinadigan munosabatlar tizimidir. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini o'rganish kursi o'ziga O'zbekiston respublikasi konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, ularning kafolatlari va burchlarini, ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishini, saylov tizimini, hokimiyat tizimi va davlat organlari tizimini tashkil etish hamda faoliyatining asosiy prinsiplarini fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish asoslarini mustahkamlaydi.

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini o'rganish kursi konstitutsiyaviy institutlar va normalar haqida bilim va tasavvurlar va ularning rivojlanishlarini o'rganadi.


Shulardan kelib chiqqan holda bu o'quv kursiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish o'quv kursi shaxs, jamiyat va davlat o'rtasida vujudga keladigan va davlat hokimiyatini amalga oshirish jarayonida paydo bo'ladigan, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimi (yig'indisi)dir.

Tizimi bu konstitutsiyaviy huquq normalarini ilmiy asoslangan tartibda, ularning mazmuniga, ular tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarning xususiyatiga, ahamiyatiga qarab muayyan guruhlariga bo'lish demakdir.

Konstitutsiyaviy huquqning huquq sohasi sifatidagi tizimi o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining tizimiga mos keladi. Konstitutsiya tizimi o'zgarishi bilan konstitutsiyaviy huquqi tizimi ham o'zgaradi.

Huquq sohasi sifatida konstitutsiyaviy huquq quyidagi tizimga ega.



Endi bu tizimlar haqida to'xtalib o'tamiz.

1. *Fanning umumiy masalalari.* Ularga huquq tarmog'i sifatida konstitutsiyaviy huquqning tushunchasi, predmeti, bu huquq tarmoq normalarining mohiyati va xususiyatlari; konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar va ularning turlari; konstitutsiyaviy huquqning respublikamiz huquqiy tizimidagi o'rni kabi masalalar kiradi.

2. *O'zbekiston respublikasida konstitutsiyaviy rivojlanishning asosiy bosqichlari.* Bu bo'lim konstitutsiyaviy huquqning bosh manbai va davlatning asosiy qonuni bo'lgan o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining jamiyatdagi o'rni va xususiyatlarini, konstitutsiyaviy huquq normalarini amalga oshirish mexanizmi va shakllarini, o'zbekistonda konstitutsiyaviy rivojlanishning asosiy bosqichlarini o'z ichiga oladi.

3. *O'zbekiston respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosiy prinsiplari bo'limida* respublikamizning davlat mustaqilligi, xalq hokimiyatchiligi, konstitutsiya va qonunlarning ustunligi tamoyillari, o'zbekiston tashqi siyosatining konstitutsiyaviy asoslari o'rganiladi.

4. *Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.* Bu bo'limda shaxs huquqiy holatining asoslari, o'zbekiston respublikasining fuqaroligi, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari, burchlari, ularni amalga oshirish kafolatlari o'rganiladi.

5. *Jamiyat va shaxs munosabatlarining asoslari.* Bu bo'limda o'zbekiston respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining iqtisodiy negizlari, jamiyatdagi mulkiy munosabatlar, fuqarolik jamiyatining konstitutsiyaviy asoslari, jamoat birlashmalari, oilaning jamiyatdagi roli, ommaviy axborot vositalarining jamiyat siyosiy tizimida to'tgan o'rni o'rganiladi.

6. *O'zbekiston respublikasining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi.* Bu bo'limda o'zbekistonning milliy-davlat tuzilishi, ma'muriy-hududiy bo'linishi, qoraqalpog'iston respublikasining konstitutsiyaviy maqomi o'rganiladi.

7. *O'zbekiston respublikasining davlat hokimiyati organlari tizimi.* Bu bo'limda davlat hokimiyatining bo'linish tamoyillari, davlat hokimiyati organlarining tizimi va turlari, ular faoliyatini tashkil etish tamoyillari va shakllari; o'zbekiston respublikasi oliy majlisi, uning vakolati va faoliyatining shakllari; o'zbekiston respublikasi prezidentining maqomi, vakolatlari, davlatni va xo'jalikni boshqarish organlari, mahalliy hokimiyat organlarining tizimi, sud hokimiyati va prokuratura organlari tizimi o'rganiladi.

Albatta, bu tizim shu shaklda o'zgarmasdan qolmaydi, konstitutsiyaviy huquq institutlarining rivojlanishi bilan bu fan tizimi ham o'zgarib boraveradi.

Masalan, respublikamizda ikki palatalik parlament tashkil topishi, prezidentning konstitutsiyaviy saylash muddati etti yilga cho'zilishi bilan o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirishlar kiritildi.

Konstitutsiyaviy huquq fani huquqshunoslik fanlari ichida markaziy o'rinni egallaydi. Chunki konstitutsiyaviy huquq fani respublikamiz konstitutsiyaviy tuzumining asosiy tamoyillarini, ijtimoiy tuzumning konstitutsiyaviy asoslarini, inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini, o'zbekiston respublikasining davlat tuzilishi va davlat tizimlarini belgilaydigan eng muhim huquqiy institutlarni o'rganadi. Bu huquqiy fan boshqa yuridik umumnazariy, tarixiy tarmoq fanlari bilan uzviy bog'liqdir.

3. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi o'rganish kursining manbalari.

Davlat hokimiyati jamiyat ehtiyojlaridan va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish yo'nalishlaridan kelib chiqib huquqiy normalarni qabul qiladi. Har qanday konstitutsiyaviy normada davlat hokimiyatining muayyan irodasi o'z ifodasini topadi.

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini o'rganish kursi manbalaridan biri bu – o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi hisoblanadi. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasida davlat va jamiyat tuzilishi, davlat siyosatining yo'nalishlari, inson va fuqarolarning huquqiy holati, milliy davlat ma'muriy-hududiy tuzilishi, davlat organlarining tashkil topishi va faoliyatining asosiy prinsiplari yuridik asoslar mustahkamlangan. Konstitutsiya yuridik kuchi bo'yicha davlatning hamma huquqiy normalardan yuqori turadi va o'zining ba'zi normalari bilan huquqning boshqa tarmoqlari uchun manba vazifasini bajaradi.

2. Qoraqalpog'iston respublikasining konstitutsiyasi ham manba hisobladi.

3. O'zbekiston respublikasi parlamenti – oliy majlisi tomonidan qabul qilingan konstitutsiyaviy va joriy qonunlar ham manba bo'ladi. Konstitutsiyaviy qonunlarda konstitutsiyaviy normalariga aniqlik kiritish, ularni mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilish tartibi joriy qonunlarni qabul qilishdan farq qiladi. Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda oliy majlis qonunchilik palatasi deputatlarining 2/3 qismi ovoz berishi talab etiladi, joriy qonunlarni qabul qilishda esa deputatlarning ko'pchilik ovoz berishi yetarli bo'ladi.

4. O'zbekiston respublikasi prezidentining farmon va farmoyishlari kiradi. Farmon faqat o'zbekiston respublikasi prezidenti tomonidan konstitutsiya va qonunlarga muvofiq va ularning ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilinadi. Davlat qurilishi va jamiyat hayotini isloh qilishda o'zbekiston respublikasi prezidenti tomonidan muhim farmon, qaror va farmoyishlar qabul qilinmoqda.

5. O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar ham hisoblanadi. Bunday qarorlarda respublika prezidenti tomonidan belgilangan vazifalar huquqiy asosda batafsil yoritilib beriladi va aniq chora tadbirlar bilan mustahkamlanadi.

6. Mahalliy hokimiyatning ba'zi bir qarorlari ham manba bo'lishi mumkin. Bunday qarorlarga xalq deputatlarining kengashlari tomonidan tasdiqlangan, kengashlarning qo'mita va komissiyalari, deputatlar guruhlariga to'g'risidagi nizomlar, ularni ish tartiblarini tasdiqlovchi qarorlar misol bo'ladi. Mahalliy vakillik va ijroiya organlarining hujjatlari konstitutsiya, qonun, farmon, hukumat qarorlari, markaziy davlat boshqaruv organlari aktlariga muvofiq va ularning

ijrosini ta'minlash uchun chiqariladi. Ular o'z hududi doirasida konstitutsiyaviy huquq predmetiga kiruvchi masalalarni tartibga soladi.

4. O'quv kursini o'rganish usullari.

Har qanday fan yoki o'quv kursi o'zi o'rgatadigan masalalarni o'rganish usullariga ega. Bu fanda «metodologiya» deb ham yuritiladi.

«metodologiya» so'zi yunoncha «metodos» so'zidan olingan bo'lib, aynan ma'nosi «biron narsani o'rganish yo'li» demakdir.

Metod – bu umumiy ma'noda maqsadga erishish usuli, muayyan izga solingan faoliyatdir. *Metod* – bu maxsus ma'noda bilish vositasi, o'rganiladigan mavzuni tafakkurda hosil qilish yo'lidir.

O'quv kursini o'rganishda quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

Tarixiy uslub – konstitutsiyaviy-huquqiy normalarni nima uchun va qanday vujudga kelganligi, rivojlanganligini tahlil qilib ularning mohiyati va vazifalarini ochib beradi.

Qiyosiy uslub – boshqa huquqiy tizimlarning huquqiy tartibga solish mexanizmini o'rganib, huquqiy normalarining samarali modelini yaratishga imkon beradi.

Tizimli uslub – huquqni yagona tizim sifatida uning normalari, institutlari va boshqa huquqiy hodisalar o'rtasidagi aloqalarini o'rganish orqali huquq sohasini takomillashtiradi.

Sotsiologik uslub – huquqiy normalarni ijtimoiy munosabatlardagi o'rniga nisbatan jamoat munosabatini o'rganish orqali huquqiy normalarni takomillashtirishga imkon yaratdi.

Statistik uslub – normalarni amalga oshirish natijalari va ko'rsatkichlarini yig'ish va ularni tahlil qilish orqali huquqiy normalar samaradorligini kuzatishga, o'rganishga imkon yaratadi.

Shakliy yuridik usul – soha, institutlar va normalar ichki tuzilishi normani shakliy aniqligini, ularni tizimlashtirishni tahlil qiladi.

MAVZU: MUSTAQIL O'ZBEKISTON KONSITUTTSIYASINI ISHLAB CHIQISH VA QABUL QILISH JARAYONI.

KONSTITUTSIYANING ASOSIY TAMOYILLARI

Nazorat uchun savollar:

1. Mustaqil o'zbekiston konstitutsiyasida avvalgisiga nisbatan qanday yangiliklar mavjud?
2. O'zbekiston yangi konstitutsiyasining loyihasi qanday tayyorlandi?
3. Nima sababdan o'zbekiston respublikasining yangi konstitutsiyasini qabul qilish zaruriyati paydo bo'ldi?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. – t.: «o'zbekiston», 2003.
2. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasiga sharhlar. – t.: «o'zbekiston», 2008.
3. Karimov i.a. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. – t.: «o'zbekiston», 1992, 37-bet.
4. Tadjixanov u., saidov a., odilqoriev x. O'zbekiston respublikasining konstitutsiyaviy huquqi (darslik). – t., «sharq», 2001.
5. O'zbekiston respublikasining konstitutsiyaviy huquqi. – t.: moliya nashriyoti, 2002. 632-b.

1. O'zbekistonning konstitutsiyaviy tarixi.

«konstitutsiya» atamasi o'zining uzoq tarixiga ega. Qadimgi davrlarda konstitutsiya so'zi siyosiy tuzumni bildirgan. Yunoncha ma'nosiga ko'ra esa, huquq bilan belgilanadigan davlat tuzilishini ifodalagan. Xiv-xv asrlarda markaziy osiyo xalqlarida davlatning holatiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazgan amir temurning tuzuklari sqariat bilan bir qatorda amal qilgan shaq madaniyatiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat bo'lgan. Yaqin o'tmishda sobiq

sovetlar tomonidan markaziy osiyoda milliy-davlat chegaralanish olib borilishidan oldin 1918 yilda turkiston asrning konstitutsiyasi qabul qilindi. Milliy chegaralanish natijasida o'zbekiston respublikasi tashkil topgach, oradan uch yil o'tib 1927 yilda o'zbekiston ssrning birinchi konstitutsiya qabul qilindi. Konstitutsiya qabul qilinguniga qadar respublikada konstitutsiya ahamiyatiga molik bo'lgan bir nechta hujjatlar e'lon qilingan edi. Bu hujjatlarga quyidagilarni kiritish mumkin. O'zbekiston ssrni tashkil etish to'g'risidagi deklaratsiya, 1925 yilning 22-iyulida chiqarilgan «o'zbekiston ssrning gerbi va bayrog'i haqida»gi respublika mik qarori va boshqalar.

1927 yildagi o'zbekiston ssr konstitutsiyasi respublika suverentini va uning sssr tarkibiga kiritishini, o'zbekiston ssr tashkil etilishi hamda shakllanishi davrida paydo bo'lgan davlat hokimiyati va davlat boshqaruvchi organlari tuzilmasini mustahkamladi.

1937 yildagi ikkinchi konstitutsiya, o'sha paytlardagi ittifoqda amalda bo'lgan an'anaga ko'ra, sssr konstitutsiyasidan keyin qabul qilindi. Sssr konstitutsiyasida aytilgani kabi o'zbekiston konstitutsiyasida ham sotsialistik tuzum asoslari qurilishi tugallanganligi e'lon qilindi. Bunday olib qaraganda nihoyatda demokratik va maqsadga muvofiq bo'lib, ko'ringan bu konstitutsiya ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan huquq va erkinliklarni o'zida mustahkamlagan edi. Lekin konstitutsiyada yozilganlar hayotda amalga oshirilmadi va qog'ozda qolib ketdi.

1978 yilda qabul qilingan o'zbekiston ssrning uchinchi konstitutsiyasi esa sssr asosiy qonunidagi barcha ustunlik hamda kamchiliklarni o'zida mujassam etdi. Sssr konstitutsiyasi kabi o'zbekiston ssr konstitutsiyasi ham jamiyat manfaatlari yo'lida foydalanish mumkin bo'lgan bir qancha demokratik imkoniyatlarga ega edi. Konstitutsiyada ham deputatlari orqali davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi xalqning to'la hokimiyati, qonunchilik, huquq-tartibot tamoyillari mustahkamlangan edi. Shuningdek, unda fuqarolarning huquq va erkinliklari xususidagi moddalar soni 1937 yildagi konstitutsiyaga qaraganda ikki barovar ko'p edi.

Ammo bu konstitutsiya ham real hayotda amal qilmadi, sababi konstitutsiyaning o'zi turg'unlik davrida odamlar ongiga singmadi. Konstitutsiya moddalarini hayotga tadbiq etish imkoni ozligi uni amalda boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tuzumi almashtirgani bilan izo'landi. Qonunchilikni tiklash jarayoni esa oxiriga etkazilmadi. Misol uchun shuni eslab o'tish kifoya qiladi, ya'ni, bizda 1987 yilga qadar mansabdor shaxs harakati ustidan fuqarolarning arz qilish tartibi haqidagi huquqiy akt yo'q edi. Vaholanki, ana shu akt xususida konstitutsiyaning 56 moddasida ochiqchasiga aytilgan edi.

Huquqiy tizimda konstitutsiyaning chinakam ustunligi ta'minlanmadi.

Shunga ko'ra, sobiq sssr da ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar boshlangan birinchi yillardayoq ittifoq konstitutsiyasining o'zini va unga kiradigan respublikalarning konstitutsiyalarini o'zgartirish zarurligi dolzarb vazifa sifatida oldinga surildi.

2. O'zbekiston respublikasining mustaqil, suveren davlat deb e'lon qilinishi. O'zbekiston prezidenti i.a.karimov – mustaqil o'zbekiston konstitutsiyasining tashabbuskori.

O'zbekiston respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi favqulodda yuz bergan hodisa emas, balki qonuniy va tabiiy holdir. Qolaversa respublikamiz mustaqilligining e'lon qilinishi ona zaminimizda asrlar osha qo'lni qo'lga berib, elkama-elka yashab, mehnat qilib kelayotgan barcha qardosh, dindosh xalqlarning 150 yilga yaqin vaqt mobaynida goh oshkora, goh pinxona qurolli yoki tinch yo'l bilan olib borgan mashaqqatli, ko'pchilik hollarda fojiali kurashning mahsulidir.

Ozodlik va mustaqillik uchun intilishning ommaviy tus olishiga imkoniyat bo'lmagan bo'lsada, u yashirin, unchalik katta bo'lmagan guruhlar tomonidan davom ettirildi.

80-yillarning oxirlariga kelib o'zbekiston mustaqilligi uchun kurash tarixida yangi davr boshlandi. Bu erda qayta qurish, oshkoralik, demokratiya uchun kurash jarayonida turli xil ommaviy tashkilotlar, xalq harakatlari, guruhlar vujudga keldi. Ularning faoliyatida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklari, nuqsonlar, millatchilik kayfiyatidagi urinishlar, nojo'ya xatti-harakatlardan qat'iy nazar asosiy maqsadlari o'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligiga erishish edi. Bu davrda paxta yakka hokimligiga barham berish,

respublikadagi tabiiy boyliklarga to'la egalik qilish, o'zbek tiliga davlat maqomini berish, ittifoq tasarrufidagi korxonalarni respublika ixtiyoriga berish, respublikaning pul birligini chiqarish, armiyasini tashkil etish, chegarasini qo'riqlash, o'zbekistonning xalqaro huquqining teng huquqli sub'ekti sifatida birlashgan milatlar tashkilotiga va boshqa xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi, xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diplomatik aloqalar o'rnatishi haqidagi g'oyalar ilgari surildi.

1990 yil 20 iyunda o'zbekiston sssr oliy soveti 12-chaqiriq ii sessiyasida respublikaning mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi. Ushbu deklaratsiyadan respublikadan davlat mustaqilligining muhim prinsiplari mustahkam o'rin olganligi diqqatga sazovordir. Jumladan, unda respublika tashqi siyosatiga doir masalalarni mustaqil xalqaro huquq prinsiplarini e'tirof etish va hurmat qilish imkoniga ega ekani ta'kidlangan edi. Shu bilan birgalikda oliy sovet o'zbekiston respublikasi xalqaro huquqning umum e'tirof etgan normalarining eng muhim prinsiplarini tan olinishini ham ma'lum qildi.

Sobiq ittifoq siyosiy va ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlarni hisobga olib va mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiyaga amal qilib, 1991yil 31 avgustda respublika oliy soveti o'zining navbatdan tashqari sessiyada o'zbekiston davlat mustaqilligi va erkin, mustaqil o'zbekiston respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qildi.

Shu bilan bir vaqtda oliy sovet ittifoqining barcha yuqori qonunchilik organlariga va uning tarkibiga kiruvchi mustaqil davlatlar, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyatiga respublikaning mustaqil davlat deb e'lon qilingani to'g'risidagi hujjatni tan olishga da'vat etib, murojaat qilindi.

Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonun qabul qilingandan keyin esa o'zbekiston respublikasi to'g'ridan-to'g'ri jahon hamjamiyati bilan xalqaro munosabatlarga kirisha boshladi.

O'z istiqloli va mustaqilligini har tomonlama mustahkamlab borayotgan respublika ayni paytda sobiq ittifoq hududida iqtisodiy aloqani saqlab qolish da'vati bilan chiqmoqda. Shu munosabat bilan 1992 yil 21 dekabrda olmata shaxrida ilgari ittifoq tarkibiga kirgan 12 ta mustaqil davlat bilan mdhga a'zo bo'lish to'g'risidagi hujjatga imzo chekildi.

O'zbekiston o'z mustaqilligi davomida qisqa vaqt ichida jahon mamlakatlari o'rtasida o'zining munosib o'rnini egalladi va o'z ovozi, mavqeiga ega bo'ldi.

O'zbekiston hozirgi kunda jahon hamjamiyatining teng huquqli ishtirokchisidir. Uning tashqi siyosati tinchlik siyosatidir. Bu siyosiy insonparvarlik, odamlarning tinch va osoyishta mehnati to'g'risida g'amxo'rlik g'oyalari bilan sug'orilgan.

O'zbekiston prezidenti i.a. Karimov – mustaqil o'zbekiston konstitutsiyasining tashabbuskori va ijodkori.

1991 yil 31 avgustda respublika oliy kengashining oltinchi sessiyasida i.a. Karimovning tashabbusi bilan o'zbekistonning mustaqilligi asoslari to'g'risidagi konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Dunyo qaritasida o'zbekiston respublikasi deb atalgan yangi mustaqil davlat paydo bo'ldi. Xalqimiz uzoq yillar orzu qilib kelgan ozodlik, mustaqillik, erkinlik ruyobga chiqdi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, yangi suveren davlat maqomini konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlab qo'yish muammosi yuzaga keldi. O'zbekiston prezidenti mamlakatni o'zining rivojlanish yo'lini konstitutsiyaviy asosda belgilab olishi zarurligini bir necha bor ta'kidlagandi. «davlatimizning kelajagi, xalqimizning taqdiri ko'p jihatdan konstitutsiyamiz qanday bo'lishiga bog'liq», – degan edi yurtboshimiz.

O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilingan kundan boshlab konstitutsiya loyihasi ustida ish jonlanib ketdi.

Tuzilgan konstitutsiyasi komissiyasi dastlabki kundan to konstitutsiyani oliy kengash majlisida qabul qilingunga qadar doimo prezidentning diqqat markazida bo'ldi. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, prezidentimiz konstitutsiyaning har bir moddasini takomillashtirishga bosh bo'ldi.

Prezidentimizning taklifi bo'yicha konstitutsiyaga 26-modda (aybsizlik prezumtsiyasi) 42 (ijod erkinligi), 46 (xotin qizlarning erkaklar bilan teng huquqligi), 3 (oliy xo'jalik sudi to'g'risida) va boshqa bir necha moddalar kiritildi.

Ko'pgina moddalarni tahrir qilishda, o'zgartirishda, yangilashda prezident shaxsan qatnashdi. Ba'zi nizoli masalalarni hal etdi. Masalan, 91-moddaning oldingi tahririda, prezident shu lavozimda turgan paytda partiya a'zolidini to'xtab qo'yish kerak, deyilgan edi. Prezidentimiz xorijiy davlatlarga safar qilgan paytlarda va o'zimizda boshqa mamlakatlarni rahbarlari bilan bo'lgan uchrashuvlarda bu masalada jahon tajribasiga doimiy e'tibor berib keldilar.

Prezident o'z partiyasiga a'zolikni vaqtincha to'xtatib qo'yishi haqidagi qoida qizg'in munozaraga sabab bo'ldi. Xalq demokratik partiyasi butun kuchi va g'ayrati bilan bu qoidaga qarshi chiqdi va natijada qolib keldi. Konstitutsiya komissiyasi o'zining oxirgi majlisida shu masalani muhokama qilib, yuqorida aytilgan jumlaning loyihadan olib tashlashga rozi bo'ldi. Mana shunga o'xshash masalalar juda ko'p edi. Har safar masalani hal etishda jahon tajribasi inson huquqlari haqidagi xalqaro hujjatlar hisobga olinib, bir qarorga kelinadi.

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi – bu o'zbekiston hududida yaratilgan birinchi tom ma'nodagi mustaqil davlatning birinchi asosiy qonunidir.

Prezidentimizning iborasi bilan aytganda, bu konstitutsiya o'zining tub mohiyati, falsafasi, g'oyasiga ko'ra tamomila yangi hujjat. Unda kommunistik mafkura, sinfiylikdan, eskicha partiyaviylikdan asar ham yo'q. Konstitutsiya jamiki dunyoviy qadriyatlar orasida eng ulug'i- inson degan fikrni ilgari surdi va shu asosida «fuqaro-jamiat-davlat» o'rtasidagi oqilona huquqiy echimini topishga intildi.

3. 1992 yilgi o'zbekiston konstitutsiyasi loyihasining tayyorlanishi, umumxalq muhokamasidan o'tkazilishi va qabul qilinishi.

Konstitutsiya kontseptsiyasining ishlab chiqilishi va loyiha tayyorlanishi to'g'risida albatta, har bir o'qituvchi va talaba qolaversa, hamma o'zbekiston fuqarolari xabardor bo'lmog'i lozim.

1991 yilning boshida konstitutsiyaviy kommissiya bo'lajak konstitutsiya kontseptsiyasini ishlab chiqish bo'yicha ish boshladi. O'zfa falsafa va huquq instituti, siyosatshunoslik va boshqaruv instituti, respublika prezidenti

Devoni ma'muriy-huquqiy bo'limi konstitutsiya kontseptsiyasi ustidan ish olib bordilar. Ishlab chiqarilgan turli kontseptsiyalar asosida yagona mukammal kontseptsiya yaratildi.

Ishchi guruh kontseptsiya asosida 1991 yilning noyabrida yangi konstitutsiya loyihasining dastlabki, ya'ni birinchi variantlarini tayyorladi. U muqaddima va 158 moddadan iborat edi. 1992 yilning bahorida loyiha ikkinchi varianti ishlab chiqildi.

Konstitutsiya komissiyasining raisi islom karimov ikkinchi loyihani aniq va prinsipial tarzda tahlil qilib chiqdi. Tahrir qilingan loyiha 137 moddadan iborat bo'lgan bo'lsa, loyiha uchunchi varianti ham prezident tomonidan tahrir qilinib, u 128 moddani tashkil etdi.

1992 yil 26 sentyabrda konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi sentyabrning oxiridan dekabrning boshigacha davom etdi. Unda mamlakatning voyaga etgan deyarli barcha aholisi ishtirok etdi.

Loyiha qoraqalpog'iston oliy kengashining sessiyasida va viloyatlar, shaharlar faollarining yig'ilishlarida muhokama qilindi.

1992 yil 21 noyabrda konstitutsiya loyihasi keyingi muhokama uchun yana matbuotda e'lon qilindi. Loyiha bu variantida mamlakatimiz oddiy fuqarolarining ko'plab taklif va mulohazalari hisobga olindi. Demak, loyihani muhokama qilish 2 bosqichga o'tdi.

Konstitutsiyaviy komissiyaning 1992 yil 7 dekabrda bo'lib o'tgan oxirgi majlisida loyiha aholi tomonidan maqullanganligi ta'kidlandi. Muhokama davomida 6000 dan ziyod mulohaza va taklif qabul qilindi. Ular har tomonlama o'rganildi va tahrir qilindi.

Konstitutsiyaviy komissiya raisi i.a. Karimov shunday deydi: «uning loyihasi ustida tahminan ikki yil davomida ishladi. U ikki yarim oy mobaynida umumxalq muhokamasidan o'tdi, xalqning fikr-xazinasini durdonalari bilan boyitildi, sayqal topdi».

1992 yil 8 dekabrda o'zbekiston respublikasi oliy kengashning xii chaqiriq 11-sessiyasi bo'lib, unda «o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi qabul qilish haqida»gi masala ko'rildi. Bu xususida konstitutsiyaviy komissiya raisi prezident islom karimov ma'ruza qilib, sessiya muhokamasiga havola qilingan qonunlardan farqli o'laroq demokratik yo'l bilan tayyorlangan bo'lib, unda yillar davomida sinovdan o'tgan umuminsoniy qadriyatlar o'z aksini topganligini hamda u ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlarning tajribalarini o'ziga singdirganligi alohida uqdirildi. Shuning uchun ham mazkur konstitutsiya har qanday etakchi mamlakatning konstitutsiyasi bilan bahslasha olishi mumkin deb ta'kidlandi.

Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o'zgarish, qo'shimcha, va aniqliklar kiritildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Shunday qilib, suveren demokratik o'zbekiston respublikasining birinchi mustaqil konstitutsiyasi qabul qilindi.

Yangi konstitutsiya eskisidan farq qilib, muqaddima bilan boshlanadi. Muqaddimada asoslar ko'rsatib berilgan va konstitutsiya shu asoslarga tayanadi.

Faqat milliy istiqlo, davlat mustaqilligiga erishish tufayli o'zbekiston respublikasining tamomila yangi, inson manfaatlarini, haq-huquqini himoya qiluvchi chinakam demokratik konstitutsiyasini yaratishdek ulkan tarixiy imkoniyat vujudga keldi.


O'zbekiston respublikasi 12 chaqiriq oliy kengashining 1992 yilning 8 dekabrda 11 sessiyasi tomonidan o'zbekiston respublikasi birinchi konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakat tarixida olamshumul voqea bo'ldi.

O'zbekiston respublika prezidenti i.a. Karimov oliy kengashning 11 sessiyasida konstitutsiya loyihasi yuzasidan so'zlagan nutqida bunday deb ta'kidladi: «hur o'zbekistonning tarixida birinchi konstitutsiyani qabul qilish- jumhuriyatimizning yangi tug'ilishidir, huquqiy mustaqilligimizga mustahkam poydevor qurishdir. Konstitutsiya asosiy qonunimiz sifatida davlatni davlat qiladigan, millatni millat qiladigan qonunlarga asos bo'lishi muqarrar».

Konstitutsiya qabul qilingan kun 8 dekabr – bayram, dam olish kuni deb e'lon qilindi.

4. O'zbekiston konstitutsiyasining tuzilishi va o'zgartirish kiritish tartibi.

O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi 6 bo'lim, 22 bob va 128 moddadan iborat bo'lib, u o'z ichki tuzilishi bilan jahon konstitutsiyalarining amaliyotiga to'la mos keladi.



Muqaddimasi juda qisqa va ko'tarinki ruhda yozilgan. Uning mohiyati: konstitutsiyani xalq, ya'ni davlatning haqiqiy sohibi qabul qiladi va unda o'z irodasini ifoda etadi.

Konstitutsiyaning asosiy mantiqiy yo'nalishi quyidagicha: inson-jamiat-davlat.

Birinchi bo'limda mustaqil o'zbekiston davlatining asosiy konstitutsiyaviy prinsiplari ko'rsatilgan bo'lib, bunday prinsiplar qatoriga davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, konstitutsiya va qonunning ustunligi hamda tashqi siyosatimiz tamoyillari kiradi.

Ikkinchi bo'lim inson huquqlari to'g'risidagi o'zbek hartiyasidir. Boshqacha qilib aytganda inson huquqlarining yaxlit va keng tizimidir.

Uchinchi bo'lim esa odatdagidek emas, jahonning bironta konstitutsiyasida bunday bo'lim yo'q. Ya'ni bu bo'limning asosiy maqsadi: fuqarolik jamiyatining an'analari tiklash, ijtimoiy uyushmalar va munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solib, ularning rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Bu bo'lim «jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i – inson degan fikrni» o'zida mujassamlashtirgan.

To'rtinchi bo'lim ma'muriy hududiy va davlat tuzilishiga bag'ishlangan o'zbekiston viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalardan iborat ma'muriy-hududiy tuzilishga egadir. Respublika tarkibiga qoraqalpog'iston respublikasi ham kiradi. Bu suveren davlatning konstitutsiyaviy maqomiga va o'zbekiston bilan o'zaro munosabatlariga maxsus 17 bob bag'ishlangan.

Beshinchi bo'lim davlat hokimiyati idoralari tashkil etish haqida bo'lib, konstitutsiyadagi eng katta qism hisoblanadi. Bu bo'limda hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipi o'zining amaliy ifodasini topgan, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati idoralari konstitutsiyaviy maqomi muayyan tartibda mustahkamlangan. Davlatimizning markaziy idoralari oliy majlis, prezident, vazirlar mahkamasi, konstitutsiyaviy, oliy va xo'jalik sudlari, prokuratura, mahalliy davlat hokimiyati idoralari konstitutsiyaviy maqomi belgilab berilgan.

Saylov tizimining prinsiplari, moliya va kredit, xavfsizlik va mudofaa masalalari ham konstitutsiyaviy tartibga solish doirasiga kirgan.

Nihoyat so'nggi, *oltinchi bo'lim* – konstitutsiyani o'zgartirish muammosiga bag'ishlangan bo'lib, huquqiy nuqtai nazardan asosiy qonunning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining tuzilishi uning: *birinchidan*, fuqarolar tinchligiga, ya'ni milliy va ijtimoiy totuvlikka; *ikkinchidan*, shaxs erkinligiga va saylov erkinligiga; *uchinchidan*, siyosiy barqarorlikka, *to'rtinchidan*, faravonlik va iqtisodiy o'sishga; *beshinchidan*, davlatning odamlar oldidagi o'z burchini bajarishga erishishga qaratilgan.

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish tartibi o'zbekiston konstitutsiyasida mustahkamlangan bo'lib, u 127-, 128-moddalarida o'z ifodasini topgan. Ya'ni:

127-modda, o'zbekiston respublikasining konstitutsiyasiga o'zgartirishlar o'zbekiston respublikasi oliy majlisi jami deputatlarning kamida uchdan ikki qismidan iborat, ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonunlar bilan kiritiladi.


128-modda, o'zbekiston respublikasi oliy majlisi tegishli taklif kiritilgandan keyin olti oy mobaynida konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi keng va har taraflama muhokamani hisobga olgan holda qonun qabul qilishi mumkin. Agar oliy majlis konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi taklifni rad etsa, taklif bir yil o'tgandan keyingina qayta kiritilishi mumkin.

Sharoit taqozo etsa, har qanday qonun yoki konstitutsiya maqomi o'zgartirilishi mumkin. Konstitutsiya maqomlari asosiy qonunlar tarkibiga kirganligi uchun ularni o'zgartirish, yangilash, oddiy qonunlarni o'zgartirish yoki yangilashdan qisman farq qiladi. Bu jahon tajribasida qabul qilingan qoida.

O'tmishda konstitutsiyaga juda ko'p o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilar edi. Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritilmagan deyarli biror-bir sessiya ham yo'q edi. Bu ahvol konstitutsiya va qonunlarning barqarorligiga putur etkazar va huquqiy ongning shakllanishiga zarar keltirar edi. Konstitutsiya va qonunlarga nisbatan bo'lgan ishonch va hurmatni susaytirardi. Shu sababli konstitutsiyaviy me'yorlarning obro'yini ko'tarishni, ularni barqarorligini mustahkamlashni maqsad qilib, o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasiga ushbu moddalar kiritildi.

O'zbekiston konstitutsiyasining asosiy tamoyillari.

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi quyidagi asosiy tamoyillardan tashkil topgan:



Davlat suvereniteti tamoyili. «suverenitet» atamasi ilk bor fransiyada (xvi asr) vujudga kelgan. Bu atama lotincha superareitas (cupra, superios) soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, aslida «eng oliy», «oliy hokimiyat» degan maʼnoni anglatadi.

Suverenitet har qanday mustaqil davlatning umumiy va ajralmas belgisi boʻlib, uning toʻla huquqliligini hamda ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatga qaram emasligini anglatadi.

Suveren davlat oʻz ichki va tashqi ishlarini boshqa davlatlarning huquqlarini, shuningdek xalqaro huquq prinsiplari va normalarini buzmaganda, oʻzi xohlagancha hal qiladi.

Suverenitet davlatga xos tushuncha boʻlib, u bilan birga vujudga keladi. Davlat va uning xususiyati boʻlgan suverenitet tarixiy hodisadir.

Millatlarning oʻz taqdirini oʻzi belgilash huquqi, yaʼni oʻz taqdirini chet davlatlarning aralashuvisiz belgilash huquqi davlat suverenitetning asosini tashkil etadi.

Hozirgi sharoitda davlat suvereniteti prinsipi xalqaro hamkorlikning eng muhim masalasidir. Er yuzidagi barcha mamlakatlar oʻzaro munosabatlarning teng huquqlilik, bir-birlarini ichki ishlariga aralashmaslik, boshqa davlatlarga hujum qilmaslik va ularning hududiy butunligiga daxl qilmaslik, shuningdek suvereniteti va milliy mustaqilligini toʻla hurmat qilish prinsiplariga asoslangan boʻlishi uchun kurashmoqdalar.

Xalq hokimiyatchiligi tamoyili. «xalq hokimiyatchiligi» atamasi yunoncha «demokratiya» soʻziga monand boʻlib, bu ibora ilk bora yunon shahar-davlatida paydo boʻlgan. Keyinchalik butun dunyoga tarqalgan hamda siyosiy lugʻatdan mustahkam oʻrin olgan. Demokratiya soʻzi «demos» xalq va «kratos» hokimiyat soʻzlarining birikmasidan tuzilib, «xalq hokimiyatchiligi» demakdir.

Oʻzbekiston respublikasi konstitutsiyasining «xalq hokimiyatchiligi» deb nomlangan tamoyili davlatimizning demokratik tabiatini ifodalaydi va oʻzbekistonni suveren demokratik respublika ekanligini tasdiqlaydi. «xalq hokimiyatchiligi» prinsipi har qanday demokratik davlat konstitutsiyaviy tuzumining asosiy shartlaridan biridir. Darhaqiqat, oʻzbekiston respublikasi demokratik davlat hisoblanib, uning asosiy qonuni xalq hokimiyatchiligi prinsipiga asoslanadi va butun mazmun-mohiyati bilan ana shu prinsipni mustahkamlaydi. Umuman, oʻzbekiston respublikasi konstitutsiyasining juda koʻp moddasiga (7, 8, 9, 10, 11, 12, 13) xalq hokimiyatchiligi gʻoyasi singdirilgan boʻlib, bunga koʻra hokimiyat amalda va qonun boʻyicha tanho xalqqa tegishlidir. Zero xalq hokimiyatchiligi deganda hokimiyatning faqat xalqqa tegishli ekanligi, davlat xalq irodasini ifodalashi va uning manfaatlariga xizmat qilishi lozimligi, davlatning asosiy vazifalaridan biri inson va jamiyatning farovonligini taʼminlashga qaratilgan boʻlishi kerakligi tushuniladi.

O'zbekiston respublikasida xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi muvoziy tarkiblarini tuzish konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

Konstitutsiyaga binoan, xalq hokimiyatchiligining jahon konstitutsiyaviy rivojlanishi tajribasida ishlab chiqilgan quyidagi ikkita shakli o'rnatilgan.

1. *To'g'ridan-to'g'ri*, ya'ni *bevosita demokratiya* – fuqarolarning davlat shaklini hal qilishda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishi.

2. *Vakillik demokratiyasi* – fuqaroning davlat ishlarini hal etishda o'zi Saylagan vakillar, ya'ni deputatlar orqali ishtirok etishi.

O'zbekistonda demokratiyaning ushbu shakllari konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlangan. Bevosita demokratiyaning asosiy ko'rinishlardan biri – referendum o'zbekiston konstitutsiyasida alohida ravishda belgilangan.

Konstitutsiya va qonunlar ustunligi tamoyili. Konstitutsiyaning asosiy prinsiplaridan yana biri – konstitutsiya va qonunning ustunligidir, ya'ni o'zbekistonda konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar konstitutsiyasi va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

Jamiyatda qonunning ustvorligi huquqiy davlatning bosh mentalitetidir.

Bunday jamiyatda oddiy fuqarolardan tortib prezidentgacha hamma qonun talablarini bajarishi shart.

Amir temur o'z tuzuklarida tegishli tartib va qonunga rioya qilish uning taqdiri va yutuqlarining asosi hamda tayanchi bo'lib xizmat qilishini ko'rsatgan.

Respublikamiz prezidenti i.a. Karimov «o'zbekiston xxi asrga intilmoqda» mavzusidagi respublika oliy majlisining birinchi chaqiriq 14-sessiyasida qilgan nutqida: «jamiyatda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish ta'minlanganda u chinakam huquqiy fuqarolik jamiyati bo'ladi. Har bir kishi o'z huquqlarini aniq va ravshan bilishi, ulardan foydalana olishi, o'z huquqlari va erkinliklarini himoya qila olishi lozim» – deb ko'rsatganlar. «har bir inson», – deydi prezident: «to'ralarcha o'zboshimchalikdan, qonunsizlikdan o'z huquqlarini himoya qiladigan idoralar mavjudligiga amin bo'lishi kerak»¹⁴.

Tashqi siyosat tamoyili. Konstitutsiyaning asosiy tamoyilaridan yana biri – tashqi siyosat. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalqaro munosabatlarda to'la huquqli sub'ekt bo'ldi. Bu esa o'zbekistonning bmtga a'zo bo'lishi bilan yanada qonuniy mustahkamlandi. Endi o'zbekiston mustaqil ravishda tashqi siyosatni belgilab, uni amalga oshiradi.

Bu tamoyillar siyosatda oshkoralikka, ochiqlikka, tenglikka va huquqiylikka tayanib ish yuritishni taqozo qiladi. Ammo qo'shni respublikalardagi va mintahamizdagi vaziyat mamlakatimiz suverenitetiga tahdid soluvchi tajovuzkor kuchlardan saqlay oluvchi mustahkam va barqaror xavfsizlik tizimni yaratish zaruriyatini tug'diradi.

Ma'lumki, jamiyatda barqarorlik, xavfsizlik, millatlar va fuqarolararo totuvligi hamda sarhadlarimiz daxlsiz va yaxlitligini ta'minlash masalalari davlatimiz rahbari tomonidan mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab kun tartibiga qo'yilgan edi. Lekin 1999 yil 16

Referendum

Referendum so'zining lug'aviy ma'nosi lotincha "ma'lum qilinishi lozim bo'lgan narsa" deganidir, ya'ni davlatda hal qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalar xalqqa ma'lum qilinadi va uning ovoz berishi orqali hal etiladi. Referendum respublikamizda demokratiya-ni ko'rinishlaridan biri bo'lib, xalq hokimiyatini bevosita

fevralda mamlakatimizning konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi uyushtirilgan to'ntarishga urinish bugun ko'pgina vazifalarni qayta ko'rib chiqishni, yangi amaliy yondashuvlarni taqozo etmoqda.

MAVZU: O'ZBEKISTONDA INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI

Nazorat uchun savollar:

1. Hozirgi demokratik davlatlar konstitutsiyalarida inson huquqlariga oid qanday muhim qoidalar mustahkamlangan?
2. Fuqarolik tushunchasi deganda nima nazarda tutiladi?
3. O'zbekiston respublikasi fuqaroligiga ega bo'lish asoslari qonunda qanday belgilangan?
4. Shaxsning aybsizlik prezumpsiyasi o'zbekiston konstitutsiyasining qaysi moddasida mustahkamlangan va qaysi qonunlar asosida amalga oshirilishi belgilangan?
5. O'zbekiston fuqarolarining konstitutsiyaviy bilim olish huquqlari o'zbekiston respublikasining qaysi qonuni asosida amalda mustahkamlangan?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. – t.: «o'zbekiston». 2016.
2. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasiga sharhlar. – t.: «o'zbekiston», 2008.
3. Karimov i. A. O'zbekiston milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1.– t.: «o'zbekiston», 1993.
4. Karimov i. A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T. 2. – t.: «o'zbekiston», 1996.
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – t., «adolat», 1992.
6. O'zbekiston respublikasining «fuqaroligi to'g'risida»gi qonuni. 1992 yil, 2 iyul. O'zbekiston yangi qonunlari. 6-son. – t.: «adolat», 1993.
7. O'zbekiston respublikasining «siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonuni. 1996 yil, 26 dekabr. O'zbekiston yangi qonunlari, 15-son, – t.: «adolat», 1997.
8. O'zbekiston respublikasining «vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonuni. 1998 yil, 1 may. O'zbekiston yangi qonunlari, 19-son. – t.: «adolat».

1. O'zbekiston respublikasida shaxsning huquqiy holati tushunchasi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach parlamentimiz tomonidan birinchi bo'lib ratifikatsiya qilingan xalqaro huquqiy hujjat bu «inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»dir. Bu bejiz emas, albatta. Chunki insonni ulug'lash, uning xohishi, irodasini kafolatlash orzu umidlarini to'la ro'yobga chiqarishni o'zining bosh maqsadi qilib belgilagan mustaqil davlatimizning etakchi tamoyillarini ana shu muhim xalqaro hujjatga muvofiqlashtirish nazarda tutilgan edi.

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini tayyorlash va qabul qilishda inson huquqlariga oid umuminsoniy oliy qadriyatlar asos qilib olindi. Shuning uchun ham konstitutsiyamiz xalqaro hamjamiyat tomonidan umumbasqariy insonparvarlik va demokratik mezonlarga to'la javob beradigan hujjat sifatida yakdillik bilan e'tirof etildi. Konstitutsiyamizda inson va fuqarolarga tegishli bo'lgan bir qancha umuminsoniy huquq va erkinliklarni belgilanishi bilan birga ularning bajarilishini davlat tomonidan kafolatlanishi bu e'tirofga sabablardan biridir. Asosiy qomusimizda belgilangan insonning huquq va erkinliklari o'z mohiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- 1) tabiiy huquq va erkinliklar;
- 2) pozitiv huquq va erkinliklar.

Tabiiy huquq va erkinliklar insonning uzviy, ajralmas huquq va erkinligi bo'lib, tug'ilgandan boshlab, vafot etguniga qadar mavjud bo'ladi.

Tabiiy huquq va erkinliklarga har qanday inson (chet el fuqarolari va fuqaroligi yo'q shaxslar) hech qanday moneliksiz ega bo'ladi. Tabiiy huquq va erkinliklar jumlasiga: yashash huquqi, shaxsiy erkinlik va daxlsizlik huquqi, fikr va so'z erkinligi va hokazolar kiradi.

Pozitiv huquq va erkinliklar davlat tomonidan beliglanadigan huquq va erkinliklar bo'lib, ularning ko'lami va chegarasi davlatning siyosiy tuzumi, ijtimoiy iqtisodiy holatiga qarab belgilanadi va o'zgarishi mumkin.

Pozitiv huquq va erkinliklar jumlasiga ijtimoiy ta'minot olish huquqi, bankda omonat saqlash, bepul bilim olish huquqi kabilarni kiritish mumkin. Mazkur huquqlar davlat tomonidan o'rnatilib davlat tomonidan bajarilishi kafolatlanadi. Shuningdek, bir qancha pozitiv huquq va erkinliklar faqatgina davlatning o'z fuqarolariga beriladi va o'zga davlat fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun cheklanadi. Bu xalqaro huquqda ham oddiy bir holga aylangan. Masalan, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar:

- ❖ oliy va mahalliy hokimiyat vakillik organlari saylovida ovoz berish huquqidan mahrumdirlar;
- ❖ prezident saylovida ovoz berish huquqidan mahrumdirlar;
- ❖ referendumlarda ishtirok etish huquqidan mahrumdirlar;
- ❖ prezident, vazir, deputat, senator, prokuror, sudya va boshqa davlat organi xizmatchisi yoki mansabdor shaxsi bo'la olish huquqidan mahrumdirlar va hakazo.

Ko'rib turibmizki, fuqarolik shaxs huquqiy holatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, huquq va erkinliklarga ega bo'lishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik masalalarini to'g'ri tartibga solish maqsadida 1992 yil 2 iyulda «o'zbekiston respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunda fuqarolikka oid bir qancha muhim masalalar berilgan. Qonunda fuqarolikka quyidagicha ta'rif berilgan:

Bunda fuqaro shu davlat tomonidan belgilangan huquq va burchlarni amalga oshiradi, davlat esa fuqaroni har erda va har vaqt himoya qiladi. Mazkur huquqiy aloqadorlik fuqaroning tug'ilganida yuzaga kelib, uning butun umri davomida saqlanib qoladi.

Fuqarolik – bu jismoniy shaxsning ma'lum bir davlatga mansubligini anglatib, ushbu fuqaroning tegishli davlat bilan doimiy ravishda huquqiy aloqadorlikda bo'lib turishini bildiradi

har qanday boshqa davlatda bo'lgani kabi respublika aholisi faqat o'z fuqarolaridagina emas, shu bilan birga respublika hududida vaqtincha yoki doimiy yashovchi chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan ham iboratdir. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati respublikadagi fuqarolarning huquqiy holatidan farq qiladi, lekin shunga qaramay, ular ham davlat bilan jamiyatga nisbatan muayyan huquq va burchlarga egadirlar. Davlat o'z navbatida, o'z hududida bo'lgan


Fuqaro

"Fuqaro" atamasi ilk bor Fransuz revolyutsiyasining 1799 yildagi "Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi"da qayd etilgan.

Har qanday kishi, har qanday shaxs huquqlarini muhofaza qiladi, biroq ularga berilgan huquqlar va ular zimmasiga yuklangan burchlar hajmi har xil bo'lib, bu holat ularning respublika bilan huquqiy aloqalari xarakteriga bog'liqdir. Faqat respublika fuqarolari huquq va erkinliklaridan to'la-to'kis foydalanadilar va belgilangan burchlarini ado etadilar. Qolgan hamma toifadagi shaxslar kamroq xotimdagi huquq va burchlarga egadirlar.


Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan ayrim burchlar ham soqit qilingan. Masalan, ularga konstitutsiyamizda belgilangan vatanni himoya qilish burchi yuklatilmaydi.

Ularning huquq va erkinliklari har bir davlatning milliy qonunchiligi va xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi.



Inson huquqlariga doir xalqaro huquqlar sirasiga eng avvalo, 1948 yilda «inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini» aytish mumkin. Bu xalqaro hujjatda er yuzidagi har bir shaxsning asosiy huquqlari bayon etilgan. Shuningdek, unda bmt ustavini, inson huquqlarini har jihatdan hurmat qilish barcha hukumatlar va barcha xalqlarning mushtarak burchidir, – degan prinsip o'z aksini topgan. Bu deklaratsiya buyuk tarixiy ahamiyatga molik hujjat bo'lib, u jahon davlatlari va hukumatlar pozitsiyalarining nechog'lik to'g'riligini o'lchab beradigan mezonlardir.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan keyin yana uch hujjat, ya'ni, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi 16-dekabr 1966 yildagi xalqaro pakt, 1966 yil 16-dekabrda fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt, fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi 1966 yil 19 dekabr xalqaro paktga fakultativ protokol qabul qilingan bo'lib, ular ham inson huquqlarini himoya qilishda etakchi o'rin egallaydi.



Fuqarolik insonni qaysi davlatda yashashiga to'liq bog'liq tushuncha emas, ya'ni shaxs bir davlatning fuqarosi bo'lib butun umr boshqa bir mamlakatda yashashi ham mumkin. Fuqarolikni qabul qilish va undan chiqish ham bu huquqdir. Lekin fuqarolikni qabul qilishda har bir davlat o'ziga xos shartlarni belgilagan. Jumladan o'zbekiston ham. Asosiy

qonunimizning 21-moddasida: «o'zbekiston respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatilgan.

O'zbekiston respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganligidan qat'iy nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog'iston respublikasining fuqarosi ayni vaqtda o'zbekiston respublikasining fuqarosi hisoblanadi. Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi» deb mustahkamlab qo'yilgan.

1992 yil 2 iyulda qabul qilingan «o'zbekiston respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonunda ana shu shartlar batafsil bayon etilgan. Fuqarolik qonuniga ko'ra quyidagilar o'zbekiston respublikasining fuqarolari hisoblanadilar:

❖ Kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tili, siyosiy qarashlari, dini e'tiqodi, mashg'ulotining turidan qat'iy nazar, ushbu qonun kuchga kirgan vaqtda (1992 yil 7 iyulda) o'zbekiston respublikasida doimiy yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lmagan hamda o'zbekiston respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslar;

❖ Davlat yo'llanmasi bilan o'zbekiston respublikasidan tashqarida ishlayotgan, harbiy xizmatni o'tayotgan yoki o'qiyotgan shaxslar, agar ular, o'zbekiston respublikasining hududida tug'ilgan bo'lsalar yoki doimiy yashaganliklarini isbot qilgan bo'lsalar, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lmاسalar va ushbu qonun kuchga kirgandan keyin kechi bilan bir yil ichida o'zbekiston respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan bo'lsalar;

❖ Ushbu qonunga muvofiq o'zbekiston respublikasining fuqaroligini olgan shaxslar.

Ota-onasidan biri bola tug'ilgan paytdan o'zbekiston respublikasi fuqarosi bo'lgan, boshqasi esa fuqaroligi yo'q shaxs bo'lgan, yohud noma'lum bo'lgan taqdirda, bola qaerda tug'ilgan bo'lishidan qat'iy nazar, u o'zbekiston respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Fuqarolikni olishni eng asosiy ko'rinishi tug'ilish orqali fuqarolikka qabul qilinish bo'lib, bu o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

1. «qon huquqi» asosida chaqaloqning fuqaroligi ota-onasining fuqaroligi bilan belgilanib, tug'ilgan joyiga bog'lanmaydi.

2. «tuproq huquqi» asosiga ko'ra, fuqarolik chaqaloqning tug'ilgan joyidan kelib chiqib, uning ota-onasi fuqaroligi bilan bog'liq bo'lmaydi.

O'zbekiston respublikasida ham tug'ilish orqali fuqarolikni olishni «qon huquqi»ga asoslanadi, ya'ni «o'zbekiston respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonunining 14-moddasiga binoan tug'ilgan paytida ota-onasi o'zbekiston respublikasi fuqarosi bo'lgan bola, o'zbekiston respublikasi hududida yohud o'zbekiston respublikasidan tashqarida tug'ilgan bo'lishidan qat'i nazar, o'zbekiston respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Fuqaroligi bo'lmagan, o'zbekiston respublikasida doimiy istiqomat joyga ega bo'lgan shaxslarning o'zbekiston respublikasi hududida tug'ilgan bolasi o'zbekiston fuqarosi hisoblanadi.

Ota onasi noma'lum bo'lgan va o'zbekiston hududida yashayotgan bola o'zbekiston respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z iltimosnomalariga ko'ra kelib chiqishidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tilidan, dinga munosabatidan, siyosiy va boshqa e'tiqodlaridan qat'iy nazar, o'zbekiston respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi mumkin, lekin shu bilan birga o'zbekiston respublikasi fuqaroligiga kirish uchun qonun tomonidan ayrim shartlar qo'yilgan bo'lib ular:

1.Chet el fuqaroligidan voz kechishi;

2.So'ngi 5 yil davomida o'zbekiston respublikasida doimiy yashaganligini;

3.Qonuniy tirikchilik manbalarining mavjudligi;

4.O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasini tan olishi va bajarishi shartdir.

Fuqarolik to'g'risidagi qonunda o'zbekiston respublikasi fuqaroligini yo'qotish asoslari ham belgilab berilgan. Bunga quyidagilar sabab bo'ladi:

➤ shaxs chet davlatda harbiy xizmatga, xavfsizlik xizmati va boshqaruvning boshqa idoralariga ishga kirganligi aniqlansa;

- agar chet elda doimiy yashovchi shaxs 5 yil davomida uzrli sabablarsiz konsullik hisobida turmagan bo'lsa;
- agar o'zbekiston respublikasi fuqaroligi yolg'onligi shak-shubhasiz ma'lumotlar yoki soxta hujjatlarni taqdim etish natijasida olingan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi quyidagi asoslarga ko'ra to'xtatiladi:

- ✗ *O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish oqibatida;*
- ✗ *O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish oqibatida;*
- ✗ *O'zbekiston Respublikasining shartnomalarida nazarda tutilgan asoslarga binoan;*

respublikasi fuqaroligiga qabul qilinadi yoki yo'qotiladi.

2. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari respublikamiz konstitutsiyasining 18-moddasida mustahkamlangan bo'lib, «o'zbekiston respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart».


Ushbu qoidaning o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasida yozib qo'yilishi o'zbekiston davlat sifatida dunyodagi eng demokratik mamlakatlar darajasiga ko'taradi. Chunki insonni ulug'lash, uni kim bo'lishidan qat'iy nazar qonun olida tengligini ta'minlash hamda uning haq va huquqini qo'riqlash faqat demokratik davlatlarga xosdir.

Fuqarolarning o'zbekiston respublikasida bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lishi qoidasi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi moddalariga to'la-to'kis mos keladi. Masalan, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasida «barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar. Ular aql va vijdon sohibidirlar va bir-birlariga birodarlarcha muomala qilishlari zarur», - degan so'zlar bitilgan.

Inson huquq va erkinliklari har bir shaxsga taalluqli bo'lib, fuqarolarning ba'zi huquq va erkinliklari esa faqat o'sha davlat fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslargagina tegishlidir.

Har qanday demokratik davlatning asosiy maqsadi insonning ajralmas va tabiiy huquqlarini ta'minlashga qaratiladi. Erkinlik, mulkka egalik qilish, xavfsizlik, zulm-qiynoqlarga solinishiga qarshilik ko'rsatish shular jumlasidandir.

Huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy ifodalanishi ikki usuli – *ijobiy va salbiy usullari* mavjud. *Ijobiy usul* konstitutsiya sub'ektining muayyan huquqqa egaligini belgilaydi yoki ta'kidlaydi. *Salbiy usul* esa, ijobiy usuldan farqli har qanday sub'ektga o'zga sub'ektning huquq yoki muayyan erkinligini buzish yoki cheklashni ta'qiqlaydi. Huquq, erkinliklar va burchlarni asosiy guruhlariga ajratish quyidagicha qabul qilingan:



3. Inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari.

shaxsni himoya qilish shuningdek uning hayotini ijtimoiy xavfli tajovuslaridan muhofaza qilish davlatning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Shaxsiy huquqlar:

- ✍ *yashash huquqi;*
- ✍ *shaxsiy daxlsizlik huquqi;*
- ✍ *shaxsiy erkinlik huquq,*
- ✍ *qonun tomonidan teng muhofaza etilish huquqi;*
- ✍ *o'zining va yaqin kishilarining o'ziga qarshi guvohlik bermaslik huquqi;*
- ✍ *aybi sud tomonidan isbot qilingunicha aybsiz deb hisoblanish huquqi;*
- ✍ *odil sudlov va sud himoyasi huquqi;*
- ✍ *sir saqlash huquqi;*
- ✍ *turar-joy daxlsizligi huquqi;*
- ✍ *erkin ko'chib yurish va turar joy tanlash huquqi;*
- ✍ *erkin o'z davlatidan chiqish va unga qaytib kelish huquq.*

Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari tizimida eng muhimi yashash huquqi hisoblanadi.

Haqiqatdan ham, yashash huquqi insonning tabiiy huquqidir, har bir inson jinsi, irqi, millati, dini, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, fikrlash, shaxsiy va ijtimoiy ahvolidan, yoshi, jismoniy kuch, sog'ligidan qat'iy nazar yashash huquqiga ega.

«yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir» deb, konstitutsiyaning 24-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Mazkur modda xalqaro huquqiy hujjatlarga, aniqrog'i, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga; iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi pakt va fuqarolik siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga to'la mos keladi va mana shu hujjatlarga asoslanadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasida: «*har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir*», deyilgan bo'lsa, fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlari to'g'risidagi paktning 6-moddasi 1-bandida: «*har bir insonning yashash huquqi uning ajralmas huquqidir. Bu huquq qonun bilan muhofaza etiladi. Hech kim o'zboshimchalik bilan insonni yashash huquqidan mahrum qila olmaydi*», deb belgilangan.

erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi konstitutsiyaviy huquq bo'lib, inson tug'lishi bilan unga ega bo'ladi.

Inson erkinligi va shaxsiy daxlsizligining buzilishi har bir shaxsning sudga shikoyat bilan murojaat qilish hamda buzilgan huquqlarini tiklash va uning talablarini qondirish huquqini keltirib chiqaradi.

Ushbu huquqni amalga oshirish tartiblari o'zbekiston respublikasining 1995 yil 30-avgustdagi «fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solinadi.

Shaxsiy erkinliklar:

- ✍ *fikr erkinligi;*
- ✍ *so'z erkinligi;*
- ✍ *vijdon erkinligi;*

Aybsizlik prezumtsiyasi (aybini isbot qilguncha shaxsni aybsiz deb faraz qilish) konstitutsiyaning 26-moddasida mustahkamlangan bo'lib, u jinoyat huquqida qonuniylik tamoyilining asosi hamda odil sudlovning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Bu tamoyil jinoyat kodeksining 4-moddasida yanada rivojlantiriladi. Unga binoan, hech kim sudning hukmini bilmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emas. Bu qoida birinchi marta 1789 yildagi fransiyada qabul qilingan «inson va fuqarolarning huquqlari to'g'risida»gi hujjatlarda o'z ifodasini topgan edi.

Aybsizlik prezumpiyasi, o'zbekiston mustaqil bo'lib, o'z konstitutsiyasini qabul qilgach, odil sudlovning asosiy prinsipi darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston respublikasi oliy majlisining 1995 yil 31 avgustdagi qarori bilan 1984 yil 10 dekabrda «qiynoqlarga solishga va muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shavqatsiz, g'ayri insoniy yoki qadr-qimmatini tahqirlovchi turlariga qarshi konvensiya»ga qo'shilishini e'lon qildi.

O'zbekiston konstitutsiyasining 27-moddasida «har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuslardan, shaxsiy hayotiga aralashishidan himoyalaniish va turar joy daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonunda nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilish mumkin emas», deb mustahkamlab qo'yilgan.

Bu qoidagi shaxsni sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish, shaxsiy hayot va uy-joyi daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan. Sha'n va qadr-qimmat faqat insonga xos sifat bo'lib, u unga tug'ilganidan boshlab ega bo'ladi. Bu huquq shaxsning ajralmas va boshqalarga o'tkazib bermaydigan huquqi hisoblanadi. Ya'ni bu huquqlar umuman mutloq xarakterga ega bo'lib, ulardan foydalanishi uchun maxsus ruxsatnoma talab qilinmaydi.

Sha'n, qadr-qimmat tushunchalari bizning mentalitetimizda yuksak qadrlanadigan tushunchalar hisoblanadi.

Sha'n – bu jamiyatning shaxsga bahosi, jamiyat a'zosi sifatida fuqaro ijtimoiy va ma'naviy xususiyatlarining o'lchovidir.

Jamiyatning shaxsga bahosi to'g'ridan-to'g'ri fuqaroning o'ziga bog'liqdir, chunki uning shaxsi davlatga, jamiyatga, o'zini o'rab turgan insonlarga munosabati hamda ba'zi bir harakatlari umumiy faoliyati asosida shakllanadi. U inson faoliyatining ijtimoiy hayotdagi o'rnini va samarali faoliyatini foydaliligiga bog'liq, chunki bu sifat uning barcha mavjud xizmatlarini aks ettiradi.

Inson ya'ni shaxsning xulqi asosida uning ma'naviy axloqiy timsoli haqidagi qarashlardan shakllanadi, ular shu asosida jamoatchilik, jamoalar, boshqa shaxs-individlar, tomonidan aniq shaxsning xususiyatlariga baho beriladi.

Har bir inson o'zining jamiyatda tutgan o'rnini anglab etadi. Unga o'zini-o'zi hurmatlash va boshqa odamlar uni hurmatlashini xis qilish xususiyatlari xosdir. Ya'ni insonning jamiyatda tutgan o'rnini o'zi anglab etishi umuman uning harakat va xulqini aniqlab beradi.

Shaxs sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqining e'lon qilinganligi o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi inson huquqlariga oid xalqaro standartlariga to'la mos kelishining yana bir bor isbotidir.

O'zbekiston respublikasi fuqarolik kodeksining 100-moddasiga binoan, fuqaro o'zining sha'ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'siga putur etkazuvchi ma'lumotlar yuzasidan, basharti qandaydir ma'lumotlarni etkazgan shaxs ularning haqiqatga to'g'ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo'li bilan raddiya talab qilishga haqlidir.

Qadr-qimmat – o'zining jamoatdagi o'rniga, shaxsiy xususiyatlariga, qobiliyatiga, dunyo qarashiga qarab o'zini-o'zi ichki baholashdir.

Sha'ni va qadr-qimmatiga putur etkazgan fuqaro ushbu ma'lumotlarni raddiya qilish bilan birga bir qatorda, uni tarqatilishi natijasida o'ziga etkazilgan ziyon va ma'naviy zararni qoplash talabini qo'yishi ham mumkin.

Insoning turar joy daxlsizligi huquqi, mulk shaklidan qat'iy nazar hamma uy-joylarga, hamma binolarga tegishlidir. Uy-joyga ruxsatsiz kirishga faqat qonun bilan ko'rsatilgan hollarda va belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi. Jinoyat protsessual qonuni esa uyni ko'zdan kechirish va tintuv o'tkazish shartlari va asoslarini belgilab beradi.

Fuqarolarning uy-joylariga ularning rozilgisiz kirishga faqat yong'in, gaz yoki suv tizimining buzilishi kabi favqulodda vaziyatlarda yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasining 28-moddasi respublika hududida fuqarolarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, kelish va undan chiqish huquqini mustahkamlaydi. Bu huquqqa muvofiq shaxs o'z xohishi bilan o'zbekiston respublikasi hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, undan chiqib ketishi va qayta kelishi mumkin. Qonunda belgilangan cheklash hollari bundan mustasnodir.

Ichki ishlar organlari quyidagi shaxslarga chet elga chiqish huquqini rad etishi mumkin:

- ❖ *Davlat siri bo'lgan ma'lumotlardan xabardor bo'lgan shaxslarga bu holat bekor bo'lgunga qadar;*

- ❖ *Shartnoma majburiyatlari amal qilayotgan shaxslarga nisbatan bu holatlar tugagunga qadar;*

- ❖ *Jinoiy ish qo'zg'atilgan shaxslarga nisbatan ishni ko'rib chiqish tugagunga qadar;*

- ❖ *O'ta xavfli retsidivist deb tanilgan shaxslarga nisbatan sudlanganligi olib tashlangunga qadar;*

- ❖ *Ustidan ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslarga nisbatan ma'muriy nazorat tugagunga qadar;*

- ❖ *Sud tomonidan yuklatilgan majburiyatni bajarmasdan yurgan shaxslarga nisbatan ushbu majburiyatni bajargunga qadar;*

- ❖ *O'zi haqida yolg'on ma'lumotlar bergan shaxslarga;*

- ❖ *Sud tomonidan fuqarolik da'vosi e'lon qilingan shaxslarga nisbatan ish yakunlangunga qadar;*

- ❖ *Chaqiruv bo'linmasiga yozilgan va haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladigan shaxslarga nisbatan muddatli harbiy xizmatni o'tagunga qadar yoki undan qonunga muvofiq ozod etilgunga qadar.*

O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 1995 yil 6-noyabridagi «o'zbekiston respublikasi fuqarolarining chet elga chiqish tartibi va o'zbekiston respublikasi diplomatik pasporti to'g'risidagi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori bilan respublika hududidan chiqish va unga kirish tartibi belgilangan.

Fuqaro ko'chib yurish huquqi rad etilgani haqida yuqori idoralarga shikoyat qilishi mumkin. Bunday shikoyatga 30 kun mobaynida javob berilishi shart. Agar fuqaro uning qaroridan norozi bo'lsa, sudga shikoyat qilishga haqli.

Konstitutsiyaning 29-moddasida har bir insonga fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, istagan axborotini izlash, olish va uni tarqatish huquqini beradi, lekin bunday erkinlik amaldagi konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlarga qat'iy rioya etilgan holda amalga oshirilish kerak.

Fuqarolarga fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, barcha ma'lumotlarni qidirish, olish, tarqatish huquqi ularga davlat idoralariga, jamoat birlashmalariga, korxona, tashkilot, muassasalarga taklif, ariza yoki shikoyat bilan murojaat qilish yo'li bilan jamoat va davlat ishlarini boshqarishda faol qatnashish imkonini beradi.

Fikr erkinligi so'z erkinligi orqali amalga oshiriladi – bu o'z fikrini ochiq so'zlamoq va boshqa shaxslarning e'tiboriga etkazmoq deb tushuniladi.

So'z erkinligi esa – bu qonun hujjatlarining ko'rib chiqishda, referendum o'tkazilayotganda, oliy majlis va mahalliy hokimiyat saylovlarida, o'zini o'zi boshqarish organlarida va kundalik hayotda o'z fikrini bildirish va ishtirok etish imkonini beradi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida ham «har bir inson e'tiqodlar erkinligi va ularni erkin ifodalash huquqiga ega: ushbu huquq hech bir to'siqsiz o'z e'tiqodlariga amal qilish erkinligi hamda axborot va g'oyalarni har qanday vositalar bilan, davlat chegaralaridan qat'iy nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi», deb mustahkamlab qo'yilgan.

Har bir inson sudda o'ziga nisbatan har qanday ish ko'rilayotganda o'z huquq va manfaatlariga ta'sir qiladigan hujjatlar qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishish huquqiga ega.

Konstitutsiyaviy sud esa fuqarolarga hujjatlar va materiallar bilan tanishish imkoniyatini berish huquqiga ega.

Bu huquqlar konstitutsiyaning 30-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsiyada belgilangan inson va fuqarolarning eng muhim shaxsiy huquqlardan yana biri bu – vijdon erkinligidir.

Vijdon erkinligi – bu insonning dinga bo'lgan munosabatidir.

Respublika konstitutsiyasining 31-moddasi respublika xalqining hammasi uchun vijdon erkinligini kafolatlaydi. Buning ma'nosi shundaki, o'zbekistonda yashaydigan har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega.

Diniy tashkilotlar siyosiy partiyalar faoliyatida qatnashmaydilar va siyosiy partiyalarga moliyaviy madad ko'rsatmaydi.

O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgach davlatning puxta o'ylab o'tkazayotgan oqilona siyosati jamiyatning dinga munosabatini ancha o'zgartirib yubordi. Dindorlarning qonunlarga qat'iy rioya etishi, diniy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish xalqning barcha tabaqalarini jipslashtirishga ya'ni birlashtirishga yordam bermoqda.

4. Fuqarolarning siyosiy huquqlari.

Siyosiy huquqlar:

- ✍ *saylov huquqi;*
- ✍ *referendumda ishtirok etish huquqi;*
- ✍ *umumxalq muhokamasida ishtirok etish huquqi;*
- ✍ *mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlarda ishtirok etish huquqi;*
- ✍ *jamoat birlashmalari (siyosiy partiyalar)ga birlashish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqi;*
- ✍ *vakolatli davlat organlariga, muassasalaraa. xala vakillariaa*

Siyosiy huquqlar - o'zbekistonda xalq hokimiyatining amalga oshirilishi har bir o'zbekiston fuqarosiga mamlakatning ijtimoiy, siyosiy hayotida faol amaliy va huquqiy ishtirok etish imkonini beradi.

Siyosiy huquqlar to'g'risida gap ketarkan ekan, bu huquqlar asosan o'zbekiston fuqarolariga tegishli ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Chunki faqat o'zbekiston respublikasi fuqarolarigina konstitutsiyada ko'rsatilganidek, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishi (32-modda); o'z ijtimoiy faolliklarini o'zbekiston respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoishlar shaklida amalga oshirish (33-modda); kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalariga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish (34-modda) huquqlaridan foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston konstitutsiyasining fuqarolarga berilgan siyosiy sohadagi huquqlardan biri «jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish»dir (32modda). Bunday ishtirok etish huquqi ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

Birinchidan, bevosita ishtirok etish. Bu referendum o'tkazishda, davlat organlarini saylovlar yo'li bilan tashkil etishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatida ishtirok etishi bilan amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, fuqarolar o'zlari saylab qo'ygan vakillari, davlat organlari, respublika prezidenti orqali jamiyat va davlat ishlarini amalga oshirishda qatnashadilar.

Konstitutsiyaga binoan o'zbekiston respublikasi fuqarolari vakillik organlariga saylash huquqiga egadirlar.

O'zbekiston respublikasi prezidenti lavozimiga hamda davlat hokimiyatining vakillik organlariga saylovlar umumiy, teng, yashirin ovoz berish va bevosita saylov huquqi asosida erkin amalga oshiriladi. 18 yoshga etgan o'zbekiston respublikasi fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

Fuqarolarning yana bir passiv saylov huquqi bo'lib, bu vakillik organlariga saylash huquqidir. Saylov kuniga qadar 21 yoshga to'lgan har bir fuqaro mahalliy hokimiyat vakillik organi deputati bo'lish, 25 yoshga etgan har bir fuqaro esa oliy vakillik organi – oliy majlisning qonunchilik palatasiga deputat, senatga senator etib saylanishi mumkin. Shuningdek, 35 yoshga etgan, davlat tilida erkin so'zlasha oladigan, bevosita saylovgacha 10 yildan kam bo'lmagan vaqtda respublikamiz hududida muqim yashagan fuqaro o'zbekiston respublikasi prezidenti bo'lib saylanishi mumkin.

Demokratiyaning asosiy shakllaridan biri – bu davlat va jamiyat hayotining muhim muammolarini umumxalq muhokamasida o'z echimini topishi – referendum hisoblanadi.

Fuqarolarning yana bir konstitutsiyaviy huquqi – bu ularning ijtimoiy faolliklarini mitinglar, yig'ilishlar namoishlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirish huquqidir (33-modda).

Miting – bu siyosiy masalalarning muhokamasi uchun yig'ilgan jamoa yig'ilishidir.

Yig'ilish – bu yopiq imoratda yoki biror xonada o'tkaziladigan, ma'lum yig'ilgan shaxslarning majlisidir.

Namoyish – bu ijtimoiy siyosiy noroziliklarni ochiq ko'rinishi bo'lib, namoyishchilarning u yoki bu masalaga nisbatan oilaviy tarzda ochiq munosabatidir.

qarolarning siyosiy huquqlari tizimiga kiradigan huquqlardan yana biri fuqarolarning kasaba

Iqtisodiy huquq va erkinliklar turlari:

- ✎ *Xususiy mulk huquqi;*
- ✎ *Vorislik (meros) huquqi;*
- ✎ *Tadbirkorlik faoliyatining erkinligi;*
- ✎ *Korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqi;*
- ✎ *Mehnat qilish huquqi;*
- ✎ *Kasb tanlash erkinligi;*
- ✎ *Mehnat erkinligi;*
- ✎ *Ishsizlikdan himoyalash huquqi;*
- ✎ *Dam olish huquqi;*
- ✎ *Mehnat ta'tiliga chiqish huquqi*

uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqidir. Bu huquq konstitutsiyaning 34-moddasida o'z aksini topgan.

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ijtimoiy davlat qurilishidagi asosiy yutuqlaridan biri – fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi konstitutsiyaviy huquqlaridir.

Fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy sohasidagi huquqlari konstitutsiyaning ix bobida ko'rsatilgan bo'lib, ular: shaxslarning mulkdor bo'lish huquqi (36-modda); mehnat qilish, erkin kasb tanlash huquqi: adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, ishsizlikdan himoyalash huquqi (37-modda); dam olish huquqi (38-modda); qariganida, mehnat

layoqatini yo'qotganda ijtimoiy ta'minot olish huquqi (39-modda); malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi (40 modda); bilim olish huquqi (41-modda); ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish (42-modda); huquqlardan foydalanish o'z aksini topgan.

Bozor iqtisodiyoti asosida rivojlangan mamlakat tajribasi shuni ko'rsatadiki, faqatgina iqtisodiy jihatdan erkin fuqarogina haqiqiy mulk egasi bo'lib, u o'z mulkidan samarali foydalanishi va shu orqali mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir etishi mumkin.

o'zbekistonda o'tkazilayotgan iqtisodiyot islohotlarning asosiy vazifasi davlat mulkini xususiyashtirish orqali monopoliyaga chek qo'yish; ko'p ukkladli iqtisodiyotni barpo etish, mulkni haqiqiy egasiga topshirish, mulkning barcha shakllari rivojlanishiga bir xil shart sharoit yaratib berishdan iborat. Bu vazifani bajarish birinchi navbatda, mulk huquqini amalga oshirish mexanizmining huquqiy asosini yaratish ayniqsa, uning muhim elementi bo'lgan har kimning o'z mulkiga erkin egalik qilish tamoyilini mustahkamlash edi.

Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida o'zbekiston respublikasining «mulkchilik to'g'risida»gi, «tadbirkorlik to'g'risida»gi, «xususiyashtirish to'g'risida»gi qonunlarni qabul qiladi.

Shaxs o'zining mulkiy huquqlarini amalga oshirishda atrof-tabiiy muhitga va kishilar sog'ligiga zarar etkazmasligi kerak.

Davlat mulkdorning qo'lidagi mulkni o'zgalar tomonidan chegaralanishi taqiqlaydi.

Bank omonatining sir tutilishi iqtisodiy huquqlar sirasiga kiradi. Bank tomonidan omonot sirlarini saqlashga oid munosabatlar o'zbekiston respublikasining «bank va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuni bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston respublikasi fuqarolik kedeksiga binoan meros qoldiruvchining o'lguniga qadar meros qoldirish huquqi saqlanib qoladi. Fuqarolar, ya'ni meros ochilishida shu uyda yashagan shaxslar, farzandlar, qarindosh-urug'lar merosxo'r hisoblanadi.

Meros ikki yo'l bilan: qonun va vasiyat qilish orqali qoldiriladi.

Meros olishga quyidagilar

- ❖ Meros qoldiruvchining farzandlari, (farzandlikka olingan bolalari); shuningdek, meros qoldiruvchining o'limdan keyingi bolalari;
- ❖ qarindoshlari, meros qoldiruvchining aka-ukalari va opa-singillari, buvisi va buvasi, ota tarafidan bo'lganidek ona tarafidagi qarindoshlari;
- ❖ Meros qoldiruvchining tog'alari va amma-xolalari;
- ❖ Meros qoldiruvchining oltinchi avlodigacha bo'lgan uzoq qarindoshlari

Ijtimoiy huquq va erkinliklar:

- ✎ *ijtimoiy ta'minot olish huquqi*
- ✎ *bilim olish huquqi*
- ✎ *sog'iliqni saqlash va tibbiy yordam olish huquqi*
- ✎ *turar-joy huquqi*
- ✎ *ijod erkinligi*
- ✎ *madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi*
- ✎ *ijtimoiy sug'urta huquqi*

vasiyatnoma meros qoldiruvchi tomonidan yozma shaklda amalga oshirilishi shart va buning sir tutilishi davlat tomonidan kafolatlanadi.

Fuqarolik kodeksi bo'yicha merosxo'rlarning darajasi belgilangan bo'lib, merosxo'rlar qonun bo'yicha merosni teng miqdorda bo'lib oladilar.

Respublikada qonun bo'yicha to'la erkin iqtisodiy faoliyat har bir inson uchun ta'minlanadi, muhit tanlash, o'z mehnatini sarflash Erkinligi, har bir shaxsning mehnat qilish huquqi, erkin ish joyini tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va ishsizlikdan himoyalash kabi shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlari

o'zbekiston respublikasining «aholining bandligi to'g'risida»gi, «mehnat muhofazasi to'g'risida»gi qonunlari va o'zbekiston respublikasining mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi.

Har bir ishchi mehnat muhofazasi huquqiga ega.

Mehnatni muhofaza qilish, deganda – bu amaldagi qonunchilik va boshqa me'yo'riy hujjatlarda mustahkamlangan insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiena, davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimi tushuniladi.

Ish vaqti deb ma'lum bir grafik asosida tashkil etilgan, mehnat shartnomasi bilan belgilangan mehnat majburiyatlari bajariladigan vaqtga aytiladi.

1992 yil 13-yanvarda «aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi o'zbekiston respublikasi qonuni qabul qilindi. 1993 yil 7-mayda esa o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston respublikasining mehnat kodeksining 115-moddasiga asoson xodim ish haftasida 6 kun ishlayotgan har bir ish kuniga etti soatdan ko'p bo'lmagan, besh kunlik ish haftasida 8 soatdan ko'p bo'lmagan ish bilan ta'minlanadi. Ishchining ish vaqti haftasiga 40 soatdan oshmasligi kerak.

Ijtimoiy ta'minot deganda – bu davlat tomonidan yaratib beriladigan, insonlarning hayotiy faoliyati uchun zarur bo'lgan ehtiyojni moddiy tomondan qondirish maqsadida moddiy va boshqa ijtimoiy himoya qilish tushuniladi.

Bunga esa pensiya, nafaqa va ijtimoiy nochor fuqarolarni pul va shunga o'xshash shakllardagi moddiy ta'minotlar bilan ta'minlash kiradi. Konstitutsiyada ko'rsatilgan ijtimoiy himoyalardan yana biri-har bir inson uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqidir.

O'zbekiston respublikasining «mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuni fuqarolarni ularning sog'ligiga to'g'ri kelmaydigan ishga qabul qilishni taqiqlashni ko'zda tutadi.

Shuningdek, respublikada sog'lom avlodning tug'ilishi va tarbiyasiga jiddiy e'tibor berilmokda. Shu bois, o'zbekistonda birinchi bo'lib, «sog'lom avlod uchun» ordeni ta'sis etildi, shu nomda xalqaro jamhurma tashkil etildi.

Respublika konstitutsiyasi har bir shaxsga bilim olish huquqini beradi.

Oliy majlisning 1997 yil 29 avgustdagi ix sessiyasida o'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish masalasi ko'rildi va «ta'lim to'g'risi»da yangi qonun qabul qilindi. Shu qonunning 4-moddasiga muvofiq bilim olish, shaxsning kelib chiqishi, jinsi, tili, yoshi, irqi, qaysi millatga mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy ahvoli, yashash joyi, respublika hududida qanchadan beri yashayotganidan qat'iy nazar, har kim uchun tengdir.

Respublikada ta'lim olayotgan shaxslarni ijtimoiy himoyalash maqsadida ular belgilangan tartibda stependiyaga, nafaqa, yotoqxona, tekin ovqat va boshqa imtiyozlar belgilangan.

O'zbekiston konstitutsiyasining 42-moddasi shaxslarning ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqini birinchi marta konstitutsiyaviy maqom darajasiga ko'tardi.

Madaniyat deganda inson tomonidan yaratilgan barcha boyliklar, yutuqlar yig'indisi tushuniladi. Madaniyat tarkibiy qismlarini fan, ta'lim va sa'nat tashkil qiladi.

Respublikada madaniyat muassasalari taraqqiyoti faoliyati tizimini boshqarish madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Ilmiy-texnika sohasi faoliyati bilan fan va texnika davlat qo'mitasi shug'illanadi.

5. Inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlari.

Inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash deganda, shaxslarning konstitutsiyada ko'rsatilgan huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratish hamda har bir insonning bu huquqlarini huquqiy amalga oshirish tushuniladi.

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari ikki ko'rinishga ega:

1. Davlatning o'z ichki kafolatlari;
2. Xalqaro huquqiy kafolatlar.

Bunda inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash borasida oliy majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili ya'ni ombudsman faoliyati alohida o'ringa ega.

inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi, shuningdek, malakali yuridik xizmat va professional himoyachi, ya'ni advokat xizmatidan foydalanish huquqi va imkoniyatlarining mavjudligidir.

Inson huquqlarining xalqaro huquqiy kafolatlari xalqaro ommaviy huquq tomonidan o'rnatilgan.

Fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini kafolatlash ko'rsatilgan huquq va erkinliklarga faqat egalik qilish bilangina cheklanmasdan, ulardan foydalanish va ularning buzilishidan muhofaza qilishdan ham iboratdir.

Kafolatlanishning mohiyati – bu davlat va uning organlari fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish uchun doimiy ravishda zarur vositalar bilan ta'minlash burchida nomoyon bo'ladi.

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi insonlarga ma'lum huquq va erkinliklar berish bilan birga ularni amalga oshirish uchun kerakli iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy va huquqiy kafolatlarni ham ta'minlaydi.

Iqtisodiy sohadagi kafolatlar o'zbekiston konstitutsiyasi va qonunlarida ko'rsatilgan va iqtisodiyotning negizini tashkil etuvchi mulk shakllarining xilma-xilligidir. Ularda mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-barovar muhofaza etilishi kafolatlangan.

Inson siyosiy huquqlari va erkinliklarining kafolatlanganligi o'zbekistonda hokimiyatning xalqqa tegishliligi, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekanligi; davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatga bo'linishi prinsipiga asoslanganligidir.

O'zbekistonda ijtimoiy hayotning siyosiy institutlari, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligidir.

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 43, 44, 45, 46-moddalari aynan inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlariga bag'ishlangan.

«davlat fuqarolarining konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi», deb mustahkamlab qo'yilgan.

Davlatimiz mustaqillikka erishgach, respublikamizda umuminsoniy qadriyatlarni tiklash demokratik jamiyat qurish yo'lidan borishda inson erkinligiga, jamiyat va davlatning birligida insonning tutgan o'rini baholashga katta ahamiyat berildi.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarining huquqiy kafolatlari juda ko'p va turlichadir.

Kafolat tizimida fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish davlatning muhim xususiyatlaridan biridir. Bu kafolatlar konstitutsiyaning 44-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Ya'ni: «har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari:

- ✎ *Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklar;*
- ✎ *huquq va erkinliklarning sud orqali himoya qilish;*
- ✎ *mansabdor shaxslar va jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish;*
- ✎ *voyaga etmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari kafolati;*
- ✎ *Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi kafolati.*

himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi».

O'zbekistonda aholining ijtimoiy himoya qilishning mukammal dasturi ishlab chiqilgan. Bunda respublika aholisining eng muhtoj qatlamlariga katta e'tibor berilmokda. Bu konstitutsiyaning 45-moddasida o'z ifodasini topgan. Davlat o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda, aholining ana shu qatlamlarini maxsus himoya qiladi.

O'zbekiston respublikasining 46-moddasida xotin qizlarning erkaklar bilan teng huquqliligi mustahkamlangan. Ayollar va erkaklarning teng huquqliligini ta'minlash uchun davlat keng miqyosda qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirmoqda. Davlat ayollarga bilim olish, kasb egallash, mehnat qilish, unga haq olish, siyosiy hayotda faol ishtirok etish uchun erkaklar bilan teng imkoniyatlar yaratish bilan birga, ayollarning oiladagi o'rni, jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, ularga mehnat qilishda, sog'ligini mustahkamlashda, yaxshi sharoitlar va imtiyozlar yaratib berishi zarurdir. Chunki teng imkoniyat va qo'shimcha sharoit, imtiyozlar o'rnatish bilangina ayollarning teng huquqliligi taminlanadi.

Demak, o'zbekiston fuqarolari jinsidan qat'iy nazar ijtimoiy va siyosiy hayotda teng ishtirok etish huquqiga egadirlar.

6. Fuqarolarning konstitutsiyaviy burchlari.

O'zbekiston respublikasida shaxslarga nisbatan hurmat, ishonch bo'lishi, ularning tashabbusini, ijodkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bilan bir vaqtda, ulardan davlat va jamiyat oldidagi ma'lum bir burchlarini ham bajarish talab qilinadi.

Fuqarolarning burchlari:

- ✎ *Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish;*
- ✎ *o'zgalarning huquq va erkinliklari va sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish;*
- ✎ *tarixiy, madaniy merosni asrash;*
- ✎ *atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;*
- ✎ *soliq va mahaliy yig'implarni to'lash;*
- ✎ *O'zbekiston Respublikasini himoya qilish.*

bular konstitutsiyaning 47-52 moddalarida o'z ifodasini topgan.

Fuqarolarning imtiyozini mustahkamlash, davlat o'rnatgan tartib va qoidalarga rioya qilish jamiyatimiz rivojini ta'minlash shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham o'zbekiston respublikasida o'rnatilgan konstitutsiyaviy tuzum fuqarolarga keng huquq va erkinliklar berish, ularning amalga oshirishini kafolatlash bilan birga fuqarolar zimmasiga ma'lum burchlarni bajarishni yuklaydi. Bu konstitutsiyaning 47-moddasida «barcha fuqarolar konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar», deb

mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsiyaga binoan o'zbekiston respublikasi fuqarosi va davlat bir biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari uzviyligi prinsipi bilan bog'liqdir. Bu prinsipning amalga oshirilishi o'zbekiston fuqarolarining o'z burchlarini tushungan holda ixtiyoriy bajarganliklarida namoyon bo'ladi. Demak, huquq bor joyda burch ham bor. Chunki fuqaro o'ziga berilgan huquq va erkinlik bilan bir qatorda yuklatilgan mas'uliyatni ham sezish lozim.

Shunday ekan, fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishlari boshqa fuqarolarning hamda davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak.

Har bir fuqaroning qonunda belgilangan huquqlarini bajarmasligi muayyan oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'zbekiston respublikasi fuqarolarining burchlari konstitutsiya normalarida o'z aksini topgan bo'lib, ma'lum tizimni tashkil qiladi. Bu tizimga: konstitutsiya va qonunlarga rioya etish, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish (48-modda); o'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni avaylab asrash (49-modda); atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish (50-modda); qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lash (51-modda); o'zbekiston respublikasini

himoya qilish, qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tash (52-modda); ota-onalarning o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalash (64-modda); voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlarning o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishi (66-modda) kiradi. Bu normalarni to'g'ri amalga oshirilishi respublikada osoyishtalikni, bozor iqtisodiyotiga tinch o'tishni, demokratik prinsiplar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini to'la amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Konstitutsiyaning 48-moddasi o'zbekiston fuqarolari zimmasiga konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish va o'ziga tegishli burchlarni bajarish orqali kirishadigan huquqiy munosabatlarda, ya'ni fuqarolik uy-joy, oila-nikoh va boshqa munosabatlarda nomayon bo'ladi, shu bilan birga respublika fuqarosi degan yuksak nomga munosib bo'lish majburiyatini yuklaydi. O'zbekiston xalqining tarixiy, madaniy va ma'naviy boyliklarini, madaniy yodgorliklarni ehtiyot qilish va saqlash har bir fuqaroning burchidir.

Arxitektura yodgorliklari, tarixiy-madaniy hudud va ob'ektlar, badiiy va musiqiy asarlar, xalq og'zaki ijodiyoti o'zbekiston xalqining o'zligini anglashiga xizmat qiladi hamda dunyo madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan katta hissasini bildiradi. Qadimdan qolgan yodgorliklarni nafaqat saqlash, balki kelajak avlodga etkazib, yangilarini yaratish bu bizning, ya'ni barchamizning burchimizdir.

Konstitutsiyaning 50-moddasida «fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishiga majburlar», deb ko'rsatilgan bo'lib, bu qoida va boshqa qonunlarda qayd etilgan shu kabi huquqiy me'yor fuqarolarda atrof tabiiy muhitga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirishiga qaratilgan.

Fuqarolarning bu majburiyati 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan va 1995 yil 6 mayda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan o'zbekiston respublikasining «tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunida belgilangan bo'lib, bu qonunning mazmunini o'zbekiston respublikasi fuqarolarining tabiat resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanishlarini tashkil etadi.

Tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan konstitutsiyaviy majburiyatlarni bajarmagan shaxslarni mulkiy, ma'muriy va hattoki, jinoiy javobgarlikka tortish ham belgilangan.

Amaldagi qonunlarga ko'ra, soliq yuridik shaxslar va fuqarolarning davlatga to'laydigan majburiy to'lovidir. Bu konstitutsiyamizda «fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburlar», deyilgan normasi bilan o'z ifodasini topgan.

Bu qoida 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «o'zbekiston respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan va xorijiy fuqarolardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida» dagi, 1993 yil 7 mayda qabul qilingan «mahalliy soliq va yig'imlar to'g'risida»gi qonun hamda boshqa qonun hujjatlar va aktlar orqali tartibga solinadi.

Soliq to'lashdan bosh tortgan shaxslar tegishli ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Soliq va yig'imlarni undirish qator davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Bularga o'zbekiston soliq qo'mitasi, moliya vazirligi, o'z-o'zini boshqaruvchi idoralar kiradi.

O'zbekiston respublikasining daromad solig'i to'g'risidagi qonunda belgilanishicha, yuqorida qayd qilinganidek undirilgan soliqlar va to'lovlar fuqarolarning ehtiyojlari uchun xalq ta'limi, sog'liqni saqlashga, moddiy yordam hamda ijtimoiy yordamning boshqa turlariga sarf qilinadi. Bulardan tashqari amaldagi soliq tizimi nogironlarni, bolalarni, talabalarni, ko'p farzandlilarni va fuqarolarning boshqa toifalarini ijtimoiy himoyalash uchun qaratilgandir.

O'zbekiston respublikasida fuqarolarning vatanni himoya qilish burchi to'g'risida bir qancha farmon va huquqiy aktlar qabul qilingan.

O'zbekiston konstitutsiyasining 52-moddasida o'zbekiston respublikasini himoya qilish uning har bir fuqarosining burchi ekanligi mustahkamlangan. Har bir fuqaro o'zbekiston respublikasi manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, uning qudratini va obro'-e'tiborini mustahkamlash uchun barcha choralarni ko'rishi lozimdir.

O'zbekiston respublikasini «mudofaa to'g'risi»dagi 1992 yil 2-iyul qonunida vatanning hududiy yaxlitligini, mustaqilligini himoya qilish, respublika fuqarolarining konstitutsiyaviy

burchi ekanligi ifodalangan. Bundan tashqari o'sha vaqtda qabul qilingan «umumiy harbiy majburiyat va xizmat to'g'risida»gi qonunning maqsadi o'zbekiston fuqarolarining o'z mamlakatini qurolli himoya qilish uchun majburiy harbiy tayyorgarlikdan o'tishlaridan hamda respublika qurolli kuchlarini butlash va zahira tayyorlashni ta'minlashdan iborat ekanligi ko'rsatilgan.

Qonunga ko'ra, tinchlik vaqtida salomatligi harbiy xizmatga yaroqli bo'lgan va chaqiruv kunigacha 18 yoshga to'lgan o'zbekiston fuqarosi bo'lgan yigitlar muddatli harbiy xizmatga chaqiriladilar.

yana bir narsaga e'tibor berish lozimki harbiy xizmatga nafaqat yigitlarimiz, balki o'zbekiston xotin-qizlari ham ixtiyoriy ravishda harbiy xizmatga kirishlari mumkin.

Qonunda ko'rsatilgan vazifalarni respublikaning mudofa vazirligi amalga oshiradi. Shunday qilib o'zbekistonning har bir fuqarosi qurolli kuchlar safida harbiy xizmat qilishi o'zining faxriy va muqaddas burchi ekanligini, unga xiyonat qilish esa eng og'ir jinoyat ekanligini hamisha e'tiborda tutishlari lozimdir.

MAVZU: O'ZBEKISTONDA JAMIYAT VA SHAXS MUNOSABATLARINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Nazorat uchun savollar:

1. Jamiyatning iqtisodiy negizlari deganda nimani tushunasiz?
2. Mulkning qanday shakllarini bilasiz?
3. Jamoat birlashmalarining faoliyati qanday prinsiplarga asoslanadi?
4. O'zbekistonda qanday jamoat birlashmalari mavjud?

Adabiyotlar

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi. – t., «o'zbekiston», 2016.
2. Karimov i.a. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1. –t.: «o'zbekiston», 1993.
3. Karimov i.a. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T. 2. – t.: «o'zbekiston», 1996.
4. Karimov i.a. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T. 8. – t.: «o'zbekiston», 2000.
5. Karimov i.a. O'zbekiston xxi asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - t., «o'zbekiston», 1997.

1. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. Mulk va uning shakllari.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, mulkchilik shakllarida ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Konstitutsiyamizning «jamiyatning iqtisodiy negizlari»ga bag'ishlangan xii bobining 53-moddasida mamlakat iqtisodiy asosini tashkil etuvchi «bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllaridagi mulk tashkil etishi, davlat iste'molchilarning huquqiy ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi» kafolatlanishi to'g'risidagi konstitutsiyaviy norma belgilanib, u o'z o'rnida mamlakat iqtisodiy munosabatlarini tartibga soluvchi konstitutsiyaviy prinsip hisoblanadi. «eng asosiy ijtimoiy institut bo'lgan mulkka (asosan, xususiy mulkka) munosabatning o'zgarishi - deb ta'kidlaydi islom karimov, butun jamiyatni va xususan, iqtisodiy hayotni demokratiyalashning bosh bo'g'ini bo'ldi. Jamiyatni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yangilash asosan yangi mulkchilik munosabatlari orqali o'tadi»¹⁵.

Konstitutsiyaga ko'ra har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli bo'lib, u moddiy va nomoddiy ne'matga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf qilishga haqli.

¹⁵ Karimov I.A. O'zbekiston buyukkelajak sari. – T.: “O'zbekiston”, 1998. –B. 558-559.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir.

Mulkning daxlsizligi shuni anglatadiki, mulkdorning mulkiy huquqlari qonun bilan kafolatlanadi va mulkdor bu huquqlardan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda o'z mulkidan mahrum etilishi mumkin. Mulk huquqi muddatsizdir. Ya'ni mulk egasi o'ziga tegishli bo'lgan mulkdan abadiy foydalanishi, o'zining mulk huquqini xohlagan vaqtda tasarruf qilishi mumkin. Biroq, mulkdan foydalanish ekologiyaga, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari zarar etkazmasligi shart. Demak, mulk nafaqat huquq, balki mas'uliyat hamdir.

Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

Insonning iqtisodiy huquqlari qonun hujjatlarida mustahkamlanib, nafaqat konstitutsiyaning 36, 53, 54-moddasida, balki fuqarolik kodeksida¹⁶, «mulkchilik to'g'risida»¹⁷gi, «mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi, «tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining erkinligi to'g'risida»gi, er to'g'risidagi, ijara to'g'risidagi, davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risidagi va boshqa qonunlarni kiritish mumkin.

O'zbekiston respublikasi prezidenti agrar sohadagi iqtisodiy islohotlar jarayonini chuqurlashtirishni ta'minlash, fermer xo'jaliklarini shakllantirish asosida qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish maqsadini amalga oshirish borasidagi vazifalarni belgilab berdi. Iqtisodiyotning turli sohalarida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquq va iqtisodiy erkinlik borasidagi maqomini belgilab beradigan kooperatsiya to'g'risidagi, qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risidagi, fermer xo'jaligi to'g'risidagi, dehqon xo'jaligi to'g'risidagi, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. Ushbu qonunlarda mamlakat yangi xo'jalik mexanizmining asosiy qoidalari ilk bor bayon qilib berildi. Bu qoidalar iqtisodiy manfaatdorlikka, foydaga va o'z faoliyatining natijalari uchun moddiy javobgarlik mas'uliyatiga asoslanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida, o'zbekiston respublikasining etakchi xalqaro moliyaviy va iqtisodiy tashkilotlarga a'zoligi to'g'risida, valyutani tartibga solish to'g'risida qabul qilingan qonunlar, asosiy xalqaro paktlar va bitimlarning o'zbekiston tomonidan imzolanishi mamlakatimiz tashqi aloqalarining rivojlanishidagi muhim qadamlardan bo'ldi. Natijada iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishga katta e'tibor qaratildi.

«er osti boyliklari to'g'risida»gi va shunga oid boshqa qonun hujjatlarining qabul qilinishi natijasida er, er osti boyliklari, tabiiy va mineral resurslar, yaratilgan ishlab chiqarish quvvati o'zbekiston xalqining ajralmas mulki ekanligi tan olindi.

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni, jamoat tashkilotlarining huquqlari va erkinliklarini, vijdon erkinligini ta'minlaydigan qonunlar ishlab chiqildi. Ular bozor iqtisodiyotiga o'tishning murakkab sharoitlarida aholining eng muhtoj tabaqalari manfaatlarini qonun kuchi bilan

¹⁶ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 1996, – B. 558.

¹⁷ O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida”gi qonuni. (O'zbekiston Oliy Sovetining Vedomostlari, 1990, 31-33 son, 371-modda; 1993, 48-modda;)

himoya qilishgagina emas, balki odamlarning ma'naviy, ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilishga, islohotlar uchun mustahkam ijtimoiy zamin yaratishga ham imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, yuridik shaxslar hamda davlat *mulk huquqining sub'ektlari* bo'lishi mumkin.

Er, er osti boyliklari, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, xom ashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk *mulk huquqining ob'ektlari* bo'ladi.

Mulk huquqining mazmuni uning ob'ektiv va sub'ektiv ma'nodagi tushunchasidan, shuningdek, mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqlaridan iborat.

O'zbekistonda *xususiy va ommaviy mulk* mustahkamlangan.

Xususiy mulk to'g'risida fuqarolik kodeksining 207-moddasida shunday deyiladi: «xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilishi, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir». Ya'ni qonunda taqiqlab qo'yilmagan asoslarda olgan huquqidir.

Xususiy mulk huquqining sub'ektlari fuqarolar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va davlatga qarashli bo'lmagan boshqa yuridik shaxslardir.

Xususiy mulk huquqining ob'ektlari doirasi juda keng bo'lib, ular: uy-joylar, xonadonlar, dala hovlilar, ekinlar, hayvon va parrandalar, uy-ro'zg'or buyumlari; aktsiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar; ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, savdo va boshqa xo'jalik faoliyati sohasida korxonalar, mulkiy komplekslar, binolar, inshootlar, uskuna, transport va boshqa ishlab chiqarish vositalari; ixtirolar, seleksiya yutuqlari, sanoat namunalari va intellektual faoliyatning (mulkning) boshqa natijalari; iste'mol qilishga va ishlab chiqarishga mo'ljallangan har qanday mol-mulk qonunlarga muvofiq, xususiy mulk bo'lishi mumkin, ayrim mol-mulk turlari bundan mustasno. Ushbu ob'ektlar xususiy mulk huquqi asosida fuqarolarga ham, yuridik shaxslarga ham tegishli bo'lishi mumkin.

Ommaviy mulkka o'zbekiston mulki; ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulki kiradi.

Mulk shakllarining asosiy turlaridan biri *davlat mulki*dir. Uning sub'ekti o'zbekiston respublikasi xalqidir. Mulkiy huquqni xalq nomidan o'zbekiston respublikasi oliy majlisi, o'zbekiston respublikasi prezidenti va ular vakolat bergan davlat boshqaruvi organlari amalga oshiradi.

Er (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, tartibda va shartlarda mulk qilib berilgan erlardan tashqari), er osti boyliklari, ichki suvlar, respublika hududi doirasidagi havo havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosi o'zbekistonning mutloq mulkiga hisoblanadi. Unga respublika davlat hokimiyati va idora organlarining mol-mulki: respublika xalqlarining madaniy va tarixiy boyliklari: respublika byudjetining mablag'lari, respublika va davlat ahamiyatidagi banklar, suv, urta va qisqa muddatli fondlari va boshqa davlat fondlari: davlat ahamiyatiga molik korxonalar, davlat oliy o'quv yurtlari, ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlari hamda davlatning respublika istiqlolini va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi boshqa mol-mulklar kiradi.

Ma'muriy-huquqiy tuzilmalar mulkini tasarruf etish va boshqarishni xalq (ma'muriy-hududiy tuzilma aholisi) nomidan tegishli xalq deputatlari kengashlari va ular vakolat bergan davlat boshqaruvi idoralari amalga oshiradilar.

O'zbekiston respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilmasi byudjet yoki boshqa mablag'lar yohud ular ixtiyoridagi korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning mablag'i hisobiga

hosil qilinadi yoki sotib olinadigan mulk tegishli ravishda o'zbekiston respublikasining mulki yoki ma'muriy-hududiy tuzilmaning mulki bo'ladi.

Shirkat (jamoat) mulki oilaviy mulkni, mahalla mulkini, shuningdek, kooperativlarning, ijara, jamoa korxonalarining mulkini, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlarning, turli xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, assotsiatsiyalar va yuridik shaxs hisoblangan boshqa birlashmalarning mulkini o'z ichiga oladi. Kollektiv mulkning hosil bo'lishi va ko'payib borishi davlat korxonalarini ijaraga berish, davlat korxonalarini xo'jalik jamiyatlariga aylantirish, fuqarolarning va yuridik shaxslarning mol-mulkini kooperativlar va boshqa xo'jalik jamiyatlari hamda shirkatlarni tuzish uchun ixtiyoriy birlashtirish bilan ta'minlanadi. Bunday mulk umumiylik xususiyatiga ega bo'lib, egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlariga ko'ra mol-mulk mulkdorlardan har birining mulk huquqidagi ulushi aniqlab qo'yilgan (ulushli mulk) yoki bunday ulushlar aniqlab qo'yilmagan (birgalikdagi mulk) holda umumiy mulk bo'lishi mumkin.

Mulkning yana bir shakli bu *aralash mulk*dir. Mulkchilik to'g'risidagi qonunning 27-moddasiga muvofiq, «mulkning aralash shakllari mulkdorlarning moddiy va pul mablag'larini birlashtirish yo'li bilan hosil qilinadi. Aralash mol-mulkka egalik qilish hissa qo'shib ishtirok etish prinsipi asosida ham, shuningdek, o'z mablag'larini birlashtirgan mulkdorlar o'rtasida daromadlarni bir tekis taqsimlash va tomonlarning kelishuvi bilan ham amalga oshirilishi mumkin». Aralash mulkka, shuningdek, qo'shma korxonalarining mulki ham kirishi mumkin.

O'zbekiston xalqaro huquqning sub'ekti sifatida o'z hududida davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning mulkini ham vujudga kelishiga yo'l qo'yadi va ularning teng muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Byudjet – davlat hokimiyati vakillik organi tomonidan tasdiqlanadigan markazlashgan pul fondlarining tashkil topishi, taqsimlanishi va foydalanishining asosiy moliyaviy rejasi bo'lib, davlatning barcha vazifalari va funksiyalarini ta'minlashga xizmat qiladi. Davlat byudjeti har yili tasdiqlanadi va u 1- yanvardan 31- dekabrga qadar harakatda bo'ladi.

O'zbekiston qonunchiligiga binoan byudjetlar ikkiga bo'linadi:

- *davlat byudjeti*,
- *mahalliy byudjet*.

Konstitutsiyaning 122-moddasiga binoan o'zbekiston *davlat byudjeti* respublika byudjetidan, qoraqalpog'iston respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan iborat. O'zbekiston respublikasining fuqarolik kodeksiga binoan davlat mulki respublika mulki va ma'muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulkdan) iborat. Tegishli byudjetning vositalari va boshqa davlat mol-mulki, agar ular davlat korxonasi va muassasasiga birlashtirilgan bo'lsa, o'zbekiston respublikasining davlat xazinasini, viloyat xazinasini tashkil qiladi. Respublika mulki respublika byudjetiga tushadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlardan, shuningdek qonunlarda nazarda tutilgan asoslarga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi.

Mahalliy (munitsipal) mulk – davlat hokimiyati mahalliy organlarining mol-mulki, mahalliy byudjet mablag'lari, shuningdek uy-joy fondi va kommunal xo'jalik korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta'limi, madaniyat, sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek boshqa mol-mulkdan iborat. Munitsipal mulk mahalliy byudjetga tushadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlardan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan tashkil etiladi.

Mahalliy byudjet esa, tuman, shahar, qishloq va boshqa ma'muriy-hududiy tuzilmalar pog'onasida tashkil topadi.

2. Jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalarining jamiyatda tutgan o'rni.

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 56-moddasiga asosan kasaba uyushmalar, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari *jamoat birlashmasi* sifatida e'tirof etilgan.

1991 yilgi «o'zbekiston respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonunga ko'ra, o'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma *jamoat birlashmasi* hisoblanadi.

Jamoat birlashmalari o'z ustavlarida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun tashkil etiladi. Mazkur qonunning 3-moddasiga muvofiq, «jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish kasbkor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish; ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish; aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sog'lomlashtirish va sport ishlarini o'tkazish; tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi; respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi».


Jamoat birlashmasi deganda uning mohiyatiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Jamoat birlashmasi biron-bir shaxsni yoki oilani yohud ayrim guruhlarining shaxsiy foyda olish istagini ifodalamaydi. Jamoat birlashmalari odatda g'oya, iroda bilan harakatga keladi, ularning yagona maqsadi - jamiyatni takomillashtirish. Ular o'z oldiga nazorat qilish yoki foyda olish vazifasini qo'ymaydi, balki ular jamiyatni mukammallashtirish yo'nalishi va istagida faoliyat yuritadi. Demak, jamoat birlashmalari fuqarolarga o'zlariga o'zlari yordam berishlari, o'z hayotlarini jamiyatni takomillashtirish orqali yaxshilashlari imkonini beradi.

Jamoat birlashmalarining faoliyat ko'rsatishiga quyidagi holatlarda yo'l ko'rsatilmaydi:

- Axloq-odob qoidalarini buzilishiga olib kelsa;
- Noqonuniy maqsad bilan konstitutsiyaviy tuzumni o'zgartirishga;
- Respublika hududi va birligini bo'lib tashlashga;
- Qoraqalpog'iston respublikasi va o'zbekiston respublikasi o'rtasidagi aloqalarni buzishga;
- Zo'rlik, vaxshilik, ijtimoiy kelishmovchilikni tashkillashtirishga tashviqotlar olib borsa;
- Turli, millatlar o'rtasida bir millatni yuqori qo'yish evaziga kelishmovchilik keltirib chiqarsa va jamiyatni bo'lib tashlash uchun dinga qarshi tashviqot olib borsa;
- Harbiylashtirilgan birlashmalarni, diniy partiya harakterida bo'lgan boshqa davlat tuzilmasidagi diniy partiya filiallarini tuzish tashkillashtirsa.

Shuningdek, jamoat birlashmalari demokratiyaga qarshi, davlat hokimiyati va boshqaruvida o'z vakillarini qonuniy qo'yish yo'li bilan hokimiyat vakolatiga ega bo'lib qonunlarni ma'naviy kuch bilan qabul qildirish va davlatning demokratik yo'lidan foydalanib, davlat hokimiyati va boshqaruvida o'z organlarini tashkil qilish qat'iyan man qilinadi.

Yoshlar va bolalar tashkilotlariga davlat moliyaviy tomondan yordam beradi. Soliq siyosatida imtiyozli munosabatlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Binolardan foydalanishda va boshqa sharoitlar yaratadi. Davlat organlarining, mansabdor shaxslarning ular faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi. Albatta tegishli qonunlarda ko'rsatilgan nazorat funktsiyalari bundan mustasnodir.



Jamoat birlashmalari aholining ma'lum qismini o'zida birlashtirgan bo'lib, ularning ma'lum bir sohadagi manfaatlarini amalga oshirish uchun tashkil etiladi.

Masalan, kasaba uyushmalari o'z a'zolarining ijtimoiy, iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar.

Siyosiy partiyalar esa turli tabaqa va guruhlarining siyosiy ifodasini ifodalaydi va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'ygan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Shu kabi boshqa boshqa jamoat birlashmalari ham o'z nizomlarida belgilangan vazifalarni bajaradilar.

Prezident islom karimov oliy majlis birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida: «yaqin kelajakda fuqarolarning siyosiy jarayonlarda, davlat boshqaruvida qatnashuvini ta'minlaydigan huquqiy asoslarini takomillashtirishga alohida e'tibor berish zarur. Bunda men siyosiy partiyalar, birlashmalar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari, turli xil xayriya va ijodiy jamharmalar hamda uyushmalar faoliyatini nazarda tutyapman»¹⁸, - degan edi. Demak, jamoat birlashmalarining davlat va jamiyat hayotidagi ahamiyati yanada ortib boradi.


Jamoat birlashmasi ustavni davlat ro'yxatiga olish haqidagi ariza u topshirilgan kundan boshlab ikki oy muddatda ko'rib chiqiladi. Ustavda quyidagilar ko'zda tutilishi kerak:

- 1) jamoat birlashmasining nomi, maqsadi va vazifasi;
- 2) jamoat birlashmasining ichki tuzilishi, uning o'z faoliyatini amalga oshiradigan hudud;
- 3) jamoat birlashmasi a'zoligiga qabul qilish shartlari va tartibi, agar birlashma ro'yxatda qayd etiladigan a'zolarga ega bo'lsa, bunday hollarda undan chiqish shartlari va tartibi;
- 4) jamoat birlashmasi a'zolari (qatnashchilari)ning huquqlari va burchlari;

¹⁸ Karimov I.A. O'zbekistonni siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.: «O'zbekiston», 1995. – B. 19.

- 5) jamoat birlashmasi hamda uning tashkilotlari rahbar idoralarining vakolatlari va ularni tuzish tartibi, ularning vakolat muddati;
- 6) jamoat birlashmasi hamda uning tashkilotlarining mablag'lari va boshqa mol-mulkini hosil qilishning pul bilan taminlanish manbalari;
- 7) jamoat birlashmasining rahbar idorasi qaerda joylashganligi;
- 8) jamoat birlashmasi ustaviga o'zgartishlar, qo'shimchalar kiritish tartibi;
- 9) jamoat birlashmasi faoliyatini to'xtatish tartibi. Ustavda jamoat birlashmasi faoliyatiga taalluqli boshqa qoidalar ham ko'zda tutilishi mumkin. Jamoat birlashmasining ustavi amaldagi qonunlarga zid bo'lmazligi kerak.

Ustavni ro'yxatga olish rad etilgan taqdirda bu haqda taqdim etilgan ustav qaysi qonunning qoidalariga zid ekanligi ko'rsatilib, ariza beruvchiga yozma ravishda xabar qilinadi. Jamoat birlashmasining ustavini ro'yxatdan o'tkazining rad etilishi ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.



Jamoat birlashmalari *shaharcha, qishloq, viloyatlararo va boshqalar* lib, ularning huquqlari nizomlarida belgilab qo'yiladi:

- 1) o'z faoliyati va maqsadlari to'g'risidagi axborotni erkin tarqatadi;
- 2) qonunga muvofiq davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini tuzishda qatnashadi;
- 3) davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining qarorlarini tayyorlashda ishtirok etadi;
- 4) davlat va jamoat idoralarida o'z a'zolari nomidan ish yuritadi va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

Jamoat birlashmalari to'g'risidagi qoidalarni buzish amaldagi qonunlarga muvofiq jinoiy, ma'muriy-moddiy yoki o'zga javobgarliklarga sabab bo'ladi.

Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tashkil etishda ishtirok etadilar.

Demokratiyaning eng muhim belgilaridan biri bu – hokimiyat vakillik organlarining ko'ppartiyaviylik asosida shakllanishidir. Respublikamizda siyosiy hayotni demokratlashtirish borasida konstitutsiyaviy huquqiy asos yaratildi. Bunga misol qilib, «jamoat birlashmalari to'g'risida», «siyosiy partiyalar to'g'risida», «nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida», «siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi qonunlarni keltirish mumkin.

Hozirgi kunda respublikamizda o'zbekiston xalq demokratik, «adolat» sotsial-demokratik, «milliy tiklanish» demokratik, fidokorlar milliy demokratik va tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – o'zbekiston liberal-demokratik partiyalari faoliyat yuritib kelmoqdalar. Barcha siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini konstitutsiya va qonunlar asosida amalga oshiradilar.

1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan «siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonunning 1-moddasiga ko'ra, *siyosiy partiya* o'zbekiston respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir.

Mazkur qonunning 6-moddasiga muvofiq siyosiy partiyaning tuzilish uchun kamida sakkizta hududiy sub'ektda (viloyatda), shu jumladan qoraqalpog'iston respublikasi va toshkent shahrida yashayotgan hamda partiya birlashish istagida bo'lgan kamida yigirma ming fuqaroning imzosi bo'lishi talab etiladi. Siyosiy partiya tuzilish tashabbuskorlari kamida ellik kishidan iborat bo'lishi, ular partiya ta'sis hujjatlarini tayyorlash, a'zolar tarkibini shakllantirish hamda ta'sis s'ezdi yoki konferensiyasini chaqirish bo'yicha tashkiliy qo'mitani tuzishlari lozim.

Tashkiliy qo'mita o'zi tuzilgan kundan boshlab etti kunlik muddatdan kechiktirmay adliya vazirligiga o'z tashabbusi, qo'mitaning tarkibi, rahbari (yetakchisi), joylashgan manzili hamda ta'sis s'ezdi yoki konferensiyasi chaqiriladigan sanani yozma ravishda xabar qilishi lozim. Tashkiliy qo'mita tuzilgan kundan boshlab uzog'i bilan uch oy faoliyat ko'rsatish huquqiga egadir. Siyosiy partiya ta'sis s'ezdida yoki konferensiyasida tuziladi dastur qabul qilinadi, uning saylab qo'yiladigan organlari tuziladi. Siyosiy partiyalar adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi.

Siyosiy partiyaning ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza u tushgan kundan boshlab bir oy muddat ichida ko'rib chiqiladi. Ko'rib chiqish natijalariga binoan siyosiy partiyaning ro'yxatga olish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi va uzog'i bilan uch kun muddat ichida u siyosiy partiya rahbar organiga beriladi yoki pochta orqali jo'natiladi. Siyosiy partiya ro'yxatdan o'tgan kundan e'tiboran yuridik shaxs maqomini oladi va u o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Siyosiy partiya ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi xabar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, agar siyosiy partiyaning ustavi, maqsadlari, vazifalari va faoliyat uslubi o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasiga, «siyosiy partiyalar to'g'risida» qonunga hamda boshqa qonun hujjatlariga zid bo'lsa yoki oldinroq xuddi shunday nomdagi siyosiy partiya yoki jamoatchilik harakati ro'yxatga olingan bo'lsa, bu partiya ro'yxatga olinmaydi. Rad etish ustidan oliy sudga belgilangan tartibda shikoyat qilish mumkin.

Respublikamiz fuqarolari o'zlari xohlagan bir paytning o'zida faqat bitta siyosiy partiya a'zo bo'lishlari mumkin.

Fuqarolarning partiya mansubligiga ko'ra huquqlarini har qanday cheklash, xuddi shuningdek unga imtiyozlar yoki ustunliklar berish taqiqlanadi.

siyosiy partiyalarga a'zolik yakka tartibda qayd etilib, quyidagilar siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydilar: sudyalari, prokurorlar va prokuratura tergovchilari, ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari, harbiy xizmatchilar, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega:

- o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari va qarorlarini targ'ib qilish;
- saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarini tayyorlashda ishtirok etish;
- qonunda belgilab qo'yilgan tartibda o'zbekiston respublikasi prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish;
- partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;

- o'zbekiston respublikasining siyosiy partiyalari bilan ittifoq tuzish, ular bilan va boshqa jamoat birlashmalari bilan shartnoma munosabatlari o'rnatish.

Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi.
Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar.

Senzuraga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu konstitutsiyaviy prinsipda uchta jihat o'z aksini topgan:

- Ommaviy axborot vositalarining erkinligi;
- Ular faoliyatida qonun ustivorligi;
- Senzura qilishga yo'l qo'ymaslik.

«ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi (1997 y.) «noshirlik faoliyati to'g'risida»gi (1996 y.), «mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi (1996 y.), «axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi (1997 y.), «jurnalistlik faoliyatni himoya qilish to'g'risida»gi, (1997 y.), «axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi (2002 y.) Qonunlar respublika prezidenti farmon va qarorlari davlat hamda nodavlat shakldagi matbuot va ommaviy axborot vositalari erkinligini ta'minlashda, jamiyatda demokratik muhitni qaror toptirishda katta huquqiy zamin yaratmoqda.

Ommaviy axborot vositalariga gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, axborot agentliklari, televidenie (kabelli, efir-kabelli televidenie) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo'lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar kiradi.

Ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar berilayotgan axborotning to'g'riligi uchun javobgar bo'lib, ularning mavjud konstitutsiyaviy tuzumni, hududiy yaxlitlikni zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qilishi, urush va zo'ravonlikni, shafqatsizlikni, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib etishi, davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan o'zga sirni oshkor qilishi, jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan xatti-harakatlar sodir qilishni targ'ib qilishi, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularning shaxsiy hayotiga aralashishi taqiqlanadi.

Ushbu qonunning 5-moddasida aytilishicha, jurnalist o'z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirish chog'ida:

- axborot to'plash, uni tahlil etish va tarqatish;
- axborot olish uchun davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga murojaat etish;
- davlat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni istisno etgan holda hujjatlar, materiallar va axborotdan foydalanish;
- jurnalist tekshiruvini o'tkazish;
- o'zi tayyorlagan xabarlar va materiallarni ommaviy axborot vositalari orqali imzosini yoki taxallusini qo'yib tarqatish, ularda o'z fikr-mulohazasini ifodalash;
- jurnalistlik faoliyatini amalga oshirish yuzasidan mansabdor shaxs qabulida bo'lish;
- ma'lumotlarni belgilangan tartibda yozib olish, shu jumladan zarur texnika vositalaridan foydalangan holda yozib olish;
- sudlarning ochiq majlislarida, harbiy harakatlar maydonlarida, tabiiy ofat yuz bergan hududlarda, ommaviy tadbirlarda hozir bo'lish;
- e'lon qilishga tayyorlangan ma'lumotlarni tekshirish uchun mutaxassislarga murojaat qilish;
- basharti qonunni buzishga olib keladigan bo'lsa, ommaviy axborot vositasi tomonidan berilgan topshiriqni bajarishni rad etish;

- o'zi tayyorlagan xabar yoki materialning mazmuni tahrir jarayonida buzilgan degan fikrga kelsa, unga imzo qo'ymaslik yohud uni nashrdan olib qolishni (efirga bermaslikni) talab etish;

- axborot manbai yoki muallifning nomi sir saqlanishini talab qilish;

- taqdim etgan xabarning mazmunini ommaviy axborot vositasi buzib e'lon qilishi oqibatida o'ziga etkazilgan ma'naviy zarar va moddiy ziyon qoplanishini sud orqali talab qilish;

- jamoat birlashmalariga, shu jumladan jurnalistlarning xalqaro tashkilotlariga kirish huquqlariga ega.

Qonunning 6-moddasida jurnalistning majburiyatlari quyidagicha bayon qilingan:

- qonun hujjatlari hamda o'zbekiston respublikasining xalqaro shartnomalari talablariga rioya etishi;

- o'zi tayyorlayotgan materiallarining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshirishi va xolis axborot taqdim etishi;

- aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiga amal qilishi;

- shaxsning huquqlari va erkinliklarini, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi shart.

Jurnalist o'z kasbiga doir axborotdan shaxsiy maqsadlarda foydalanishi, axborot manbai yoki muallif roziligisiz jismoniy shaxsning shaxsiy hayotiga taalluqli ma'lumotlarni e'lon qilishi mumkin emas.

Muharrir yoki jurnalist ommaviy axborot vositalarida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan materiallarni tarqatganligi uchun, agar ma'lumotlar: rasmiy xabarlardan olingan bo'lsa; axborot agentliklari yoki davlat organlarining matbuot xizmatlari orqali olingan bo'lsa yohud muallifning oldindan yozib olinmay, to'g'ridan-to'g'ri efirga berilayotgan nutqlarida aytilgan bo'lsa, javobgar bo'lmaydi.

Demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari «to'rtinchi hokimiyat», deb ta'riflanadi. Bu «hokimiyat»ni ro'yobga chiqarishda jurnalist, uning kasb mahorati, umumiy saviyasi va madaniyati katta rol o'ynaydi. Jurnalistlik faoliyatning davlat darajasida muhofazalanishi, jurnalistning huquq va majburiyatlari tartibga solinishi «to'rtinchi hokimiyat» uchun mustahkam zamindir.

3. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

O'zbekistonda oila masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgandir. Chunki oilalardan bir butun jamiyat paydo bo'ladi. Prezident islom karimov bu borada shunday deydi: «eng muhim vazifa – xalqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat poydevorini, eng avvalo, boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, ma'naviy sog'lom hamda madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etadi»¹⁹. Natijada mustaqillik yillarida 2,5 million oila birinchi marta er uchastkalari oldilar va o'z er uchastkalarini kengaytirdilar.

1998 yilda qabul qilingan oila kodeksida 8 bo'lim, 30 bob, 238 modda mavjud bo'lib, uning ii bo'limi «nikoh» (13-56-moddalar)ga bag'ishlangan. Chunki oilaning vujudga kelishi asosi nikoh hisoblanadi. Kodeksining 13-moddasiga binoan nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Shunday nikohgina huquq va majburiyatlar vujudga keltiradi. Nikohning tegishli davlat organida qayd etilishi uning vujudga kelganligini

¹⁹ Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: "O'zbekiston", 1993. – B. 14.

isbotlovchi birdan-bir dalildir. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh esa, huquqiy ahamiyatga ega emas.

Nikohni tuzish ariza berganidan keyin bir oy muddat o'tgach, shaxsan tomonlarning ishtirokida amalga oshiriladi. Bunday muddatni belgilashdan maqsad bir-birlari bilan yaxshi tanish bo'lmagan shaxslarning yengiltaklik qilib, shoshmashosharlik bilan nikohdan o'tishlariga yo'l qo'ymaslikdan iborat.

Nikoh davlat va jamoat manfaatlarini ko'zlab, shuningdek, er bilan xotinning va bolalarning shaxsiy va mulkiy huquqlari hamda manfaatlarini muhofaza etish maqsadida qayd etiladi.

Nikohga qo'yilgan talablar bo'lib, ular quyidagilardan iborat: nikoh tuzish ixtiyoriydir; nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak; nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi (14-modda).

Nikoh yoshi erkaklar uchun 18, ayollar uchun 17 yosh qilib belgilangan. Uzrli sabablar bo'lganida alohida alohida hollarda nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra, davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin (15-modda).

Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar:

- Loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Respublikada har bir fuqaro faqat yakka nikohda bo'lishi mumkin;
- Nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi.
- Loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi (16-modda).

Oila kodeksida belgilangan shartlarning buzilishi sud tomonidan ushbu nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lishi mumkin.

Qonunga binoan nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shuningdek, tibbiy irsiy hamda oilani rejalashtirish masalalari bo'yicha maslahat berish nikohlanuvchi shaxslarning roziligi bilan davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Nikohlanuvchi shaxsni ko'rikdan o'tkazish natijalari shifokor siri hisoblanadi va u nikohlanuvchi shaxsga faqat ko'rikdan o'tgan shaxsning roziligi bilan bildirilishi mumkin. Basharti nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odam immuniteti taqchilligi virusi (oits infeksiyasi) borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, shu shaxs nikohni haqiqiy emas deb topishni talab qilib, sudga murojaat etishga haqlidir.

Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Ota-ona va bolalarning bir-biriga nisbatan huquq va majburiyatlari bolalarning nasl-nasabiga qarab belgilanadi.

Ota-ona va bolalar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni kelib chiqishiga asos bo'lib bolaning otadan paydo bo'lganligi va onadan tug'ilganligi qonun bilan belgilanganligi hisoblanadi.

Bolaning shu onadan tug'ilganligi (onalik) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi tomonidan tibbiy muassasaning hujjatlariga ko'ra, bola tibbiy muassasada tug'ilmagan holda esa, boshqa dalillarga asosan belgilanadi. Agar bola tibbiy muassasadan tashqari joyda tug'ilgan bo'lsa, u holda bu yuridik fakt guvohlar ko'rgazmalari va boshqa dalillar bilan belgilanadi (60-modda).

Voyaga etmaganlar quyidagi shaxsiy huquqlarga ega: oilada yashash va tarbiyalanish; ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish; o'zini himoya qilish; o'z fikrini ifoda etish; ism, ota ismi va familiya olish va boshqalar.

Bolalarning huquqlari ularning tug'ilishi bilan vujudga keladi. Bola o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega. Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onani (ularning o'rini bosuvchi shaxslar), qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga etmagan bolalar o'z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta'minot olish huquqiga ega. Voyaga etmagan bolalar ta'minoti uchun olingan mablag', pensiya, nafaqa uning otasi yoki onasi tasarrufida bo'lib, bolaning ta'minoti, tarbiyasi va ta'lim olishi uchun sarflanadi (90-modda).

Ota-ona o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga ega. Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi, kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'liqi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari lozim. Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustunlik huquqiga ega.

Ota-onalar o'zlarining ota-onalik majburiyatlarini bajarmasalar u holda ular ota-onalik huquqidan mahrum etiladilar. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish ularga ta'sir qiladigan hamma tadbir-choralar tegishli natija bermagandan so'ng qo'llaniladi (79-modda).

Ota-ona voyaga etmagan bolalarga ta'minot berishi shart. Agar voyaga etmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagi ish haqi va (yoki) boshqa daromadlarining bir bola uchun to'rtadan bir qismi; ikki bola uchun uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to'lovlarining miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin (96-modda).

Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak (99-modda).

onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Voyaga etgan farzandlarning ota-onalari to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari nafaqa

majburiyati vujudga kelganmi yoki yo'qmi undan qat'i nazar, paydo bo'ladi. Ko'pincha ota-onalar qarilik yoki kasal bo'lgan davrlarida yaxshigina pensiya olib moddiy tomonidan yaxshi ta'minlangan bo'lsalar-da, ammo ular o'z farzandlarining ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlariga, ma'naviy e'tiborlariga muhtoj bo'ladilar. Aksariyat holatlarda ota-onalar bunday bolalardan nafaqa undirish haqida da'vo qilmaydilar. Ammo bolalarni muhtoj va mehnatga layoqatsiz ota-onalari to'g'risida g'amxo'rlik qilmasliklari ularni nafaqa undirish haqida sudga da'vo arizasi bilan murojaat etishga majbur etadi.

Farzandlar ota-onalari to'g'risida g'amxo'rlik qilmasalar, ularga nisbatan qonuniy kafolatlar belgilanmaydi. Biroq insofsiz, ota-onalariga nisbatan o'z farzandlik burchlarini eslaridan chiqarib qo'ygan bolalarga nisbatan ular to'g'risida sud xususiy ajrim chiqarib, ularning yashash yoki ishlash joylarida ma'naviy qiyofasini muhokama qilishlikka yuborishi mumkin.

MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MA‘MURIY-HUDUDIIY VA DAVLAT TUZILISHI

1. Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi tushunchasi.

Dunyodagi har bir mustaqil davlatning umumiy e'tirof etilgan asosiy belgilaridan biri – o'z chegarasi doirasidagi yagona ma'muriy hududiga ega bo'lishidir.

Shunga muvofiq o'zbekiston respublikasi 1991 yil 31 avgustda bo'lib o'tgan oliy kengashning xii chaqiriq, navbatdan tashqari 6-sessiyasida qabul qilingan «o'zbekiston respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunining 4 va 17-moddalariga binoan respublikamiz davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmas, deb belgilangan. O'zbekiston xalqi o'z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib, davlat chegarasi va hududining o'zgartirilishi mumkin emas. O'zbekiston tarkibida bo'lgan qoraqalpog'iston respublikasining hududiy butunligi va mustaqilligi ham e'tirof etiladi. Ushbu huquqiy holat birlashgan millatlar tashkiloti nizomiga va mustaqil davlatlar hamdo'stligining 1991 yil 21 dekabrda olmaotada imzolangan xalqaro shartnomasiga to'la ravishda mos tushadi.

Har bir davlatning hududi – davlat chegarasi doirasidagi yer kengliklaridan iborat. Yer kengliklariga esa ushbu hududlarning quruqlik qismi, suv akvatoriyasi, er osti boyliklari va atmosfera havosi kiradi.

to'g'risida»gi qonunga muvofiq, davlat chegarasi o'zbekiston respublikasi hududi doirasini (quruqlikda, suvda, er ostida, havo bo'shlig'ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo'ylab o'tuvchi vertikal sathdan iborat.

Davlat chegarasi quyidagicha belgilanadi:

- *quruqlikda* – o'ziga xos nuqtalar, relefning chiziqlari yoki aniq ko'rinib turadigan joylar bo'yicha;

- *kema qatnaydigan daryolarda* – daryoning asosiy farvateri yoki talvegi o'rtasi bo'ylab;

- *kema qatnamaydigan daryolarda, jilg'alarda* – ularning o'rtasi yoki daryoning asosiy o'zanining o'rtasi bo'ylab;

- *ko'llar yoki boshqa suv xavzalarida* – ko'l yoki boshqa suv xavzasi qirgoqlariga chi'kan joylarni tutashtiruvchi to'g'ri yoki boshqacha chiziq bo'yicha. Daryo, jilg'a ko'l yoki boshqa suv havzasi orqali o'tadigan chegara ular qirg'oqlarining ko'rinishi yoki suv sathi o'zgarganda ham, daryo, jilg'a oqimi u yoki bu tomonga burilganda ham o'zgarmay qolaveradi;

- *suv omborlarida va boshqa sun'iy suv xavzalarida* – ular suv bilan to'ldirilgunga qadar chegaraning mazkur joydan o'tgan chiziqiga muvofiq ravishda;

- *daryolar, jilg'alar, ko'llar va boshqa suv havzalari orqali o'tuvchi ko'priklarda to'g'onlar, va boshqa inshootlarda* – chegara suvdan o'tish-o'tmasligidan qat'i nazar, shu inshootlarning o'rtasi yoki ularning texnologiya o'qi bo'ylab.

Davlat chegaralari joylarda aniq ko'rinib turadigan chegara belgilari bilan ko'rsatib qo'yiladi.

ma'lum bir qismlarga ajratib olish juda katta siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hamda huquqiy ahamiyat kasb etadi. Har bir davlatning maydoni, aholisining soni, milliy-etnik tarkibi, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi kabi omillarga ko'ra uning er kengliklari ma'lum bir qismlarga ajratiladi. Bunday ma'muriy-hududiy qismlarga ajratish aksariyat hollarda davlatning markazdan turib ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solish imkoni bo'lmagan tarzda

Ma'muriy-hududiy tuzilish tushunchasi quyidagi masalalarni qamrab oladi:

amalgaga oshiriladi. Ajratilgan qismlar mexanik tarzda emas, balki biron bir maqsadni ko'zlab va ma'lum bir prinsiplarga asoslangan holda bo'linadi.

- *Ma'muriy-hududiy birliklar tizimi, ularni tuzish va tugatish;*
- *Aholi punktlarini ma'muriy-hududiy birliklarning u yoki bu toifasiga kiritish;*
- *Ma'muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash va o'zgartirish;*
- *Bir necha aholi punktini o'z ichiga oladigan ma'muriy-hududiy birliklarning ma'muriy markazlarini belgilash;*
- *Ma'muriy-hududiy birliklar, alohida aholi punktlari, ularning ko'chalari, maydonlari va boshqa qismlariga nom berish va ularning nomini o'zgartirish;*
- *Aholi punktlarini ro'yxatga olish va boshqalar.*

Davlatning ma'muriy-hududiy bo'linishi davlat boshqaruvini osonlashtirish uchun uning yer kengliklarini siyosiy nuqtai nazardan ma'lum bir qismlarga ajratib olish, deb tushunish mumkin. Ma'muriy-hududiy tuzilish esa, davlatning yer kengliklarini huquqiy davlat sub'ektlari, ya'ni mustaqil ijtimoiy-siyosiy qismlar tariqasida tashkillashtirishdir. Shu sabab konstitutsiyaning 4-bo'lim xvi bobi o'zbekiston respublikasining ma'muriy-hududiy «bo'linishi» emas, balki «tuzilishi» deb nomlandi. Chunki «bo'linish»dan ko'ra «tuzilish» so'zi kengroq tushunchani, yuridik nuqtai nazardan kelib chiqilganda ham mustaqilroq degan mazmunni beradi. Bu erda ma'muriy-hududiy bo'linmalarga bo'lib olib, ularni faqatgina ma'muriy jihatdan boshqarishni osonlashtirish emas, balki ma'muriy-hududiy tuzilmalarning o'zlari ham alohida bir sub'ekt singari boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni jadallashtirishda faol bo'lish kabilar ham maqsad qilingan.

Respublikamiz prezidenti islom karimov o'z asarlarida hududlarni viloyat, tuman va shaharlarga bo'linishi sun'iy ravishda, o'z-o'zidan kelib chiqqan «texnik» jarayon bo'lmay, balki respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi asosiy strategik maqsadni amalga oshiruvchi tayanch qismlariga ajratilishi ekanligiga e'tiborni haratadi²⁰. Shuning uchun ham yurtboshimiz boshqaruvning markazdan quyi bo'linmalarga tomon yo'nalishini, aniqroq aytganda, markaziy boshqaruv organlari vakolatlarining anchagina qismini mahalliy hokimiyatlarga hamda mahalliy boshqaruv organlaridan qator vakolatlarni fuqarolarning o'zini-o'zi boshqaruv organlari va jamoat birlashmalariga berish kerakligini bir necha bor ta'kidlaydi.

Shunda davlatning markaziy boshqaruv organida umumiy iqtisodiy, umumekologik, umumsiyosiy masalalar qoladi. Bundan tashqari qolgan barcha masalalarning mahalliy boshqaruv organlari vakolatlariga kiritilishi hozirgi zamon asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Bunday masalalar qatorida konstitutsiyaviy tuzumni, mamlakat mustaqilligi va hududiy yaxlitligini saqlash, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, huquq-tartibot va mudofaa qobiliyatini, mulkchilik huquqi, iqtisodiy erkinlikni ta'minlash, samarali tashqi siyosat o'tkazish, tabiatni muhofaza qilish kabi vazifalarni sanab o'tish mumkin.

Aytib o'tilgan umumiy iqtisodiy, umumekologik, umumsiyosiy masalalardan tashqari barcha masalalar mahalliy boshqaruv organlar vakolatlariga kiritilishini hozirgi zamon ma'muriy-hududiy tuzilishning asosiy jihatlaridan deyish mumkin. Bozor islohotlarini

²⁰ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.:O'zbekiston, 1999, 117-bet.

chuqurlashtirish, tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash, xususiy mulkni turli ko'rinishlarini va shakllarini rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash, iste'mol bozorini to'ldirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, kishilarning yashash darajasi va hayot farovonligini oshirish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish mahalliy-hududiy tuzilmalarda xalq etilishi lozim bo'ladi.

Konstitutsiyaviy huquq nuqtai nazaridan qaraganda kelajakda ma'muriy-hududiy tuzilmalarda, yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni amalga oshirish uchun qonun kuchiga ega bo'lgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarni qabul qilish va albatta, ularni amalga oshirishning ta'sirchan mexanizmini yaratish talab qilinadi. Binobarin, ma'muriy-hududiy tuzilmalarda konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslangan huquqiy boshqaruv funksiyalarini tadbiq qilish uchun ular yetarli moliyaviy resurslarga ega bo'lishlari kerak. Buning uchun esa ularning moliyaviy jamharmalarini shakllantiruvchi huquqiy manbalarini muntazam kengaytirib borishimiz zarurdir. Mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish idoralari soliq kodeksi va unga asosan ishlab chiqilgan yoki ishlab chiqilayotgan normativ hujjatlarda barcha mahalliy soliqlardan tushadigan pul mablag'larining ma'lum bir qisminigina emas, balki umumdavlat soliqlarining ham anchagina qismini mahalliy byudjetlarga yo'naltirilishi kerak bo'ladi. Natijada, davlat byudjeti barcha daromadlarining 60 foizdan ko'proq qismini ma'muriy-hududiy tuzilmalarning byudjetiga tushishini ta'minlash davlat siyosatida ham ko'zda tutilgan. Byudjet xarajatlarining ham xuddi shuncha qismini ushbu ma'muriy-hududiy tuzilmalarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Davlatni nafaqat ma'muriy-hududiy jihatdan tashkillashtirish mumkin. Balki maqsad va vazifalardan kelib chiqib, *iqtisodiy-hududiy* (masalan, erkin savdo qiluvchi zonalar, navoiy viloyati kabi); *harbiy-hududiy* (masalan, toshkent, markaziy, shimoliy, janubiy, farbiy, sharhiy harbiy okruglar); *siyosiy-hududiy* (masalan, barqarorlikni saqlash va etnik masalalarni hal qilish uchun ajratiladigan mintahalar); *ekologik-hududiy* (masalan, orol va orol bo'yi ekologik in'iroz holatidagi alohida muhofazaga muhtoj bo'lgan er kengligining quruqlik qismi va suv akvotoriyasi) shakllarida ham hududiy tashkillashtirish mumkin.

2. O'zbekiston respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilmalari, ularni tashkil qilish, o'zgartirish va tugatish tartibi.

Konstitutsiyamiz me'yorlariga asoslangan holda o'zbekiston respublikasi yer kengligini ma'muriy-hududiy qismlarga bo'linishi aholini davlat bilan yaqinlashuvida, fuqarolarni davlat va jamiyat qurilishidagi faolligini oshirishda, bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda, aholining milliy-etnik huquqlarini tenglashtirishda va ularning xohish-irodalarini inobatga olishda xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat.

O'zbekiston respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilish tizimi hokimiyat va boshqaruv organlarining huquqiy holatiga, ularning huquq va majburiyatlarini ifoda etilishiga ko'ra tashkil etilgandir. Unda har bir ma'muriy-hududiy birlik xo'jalik yurgizishning o'ziga xos tomonlari, aholisining milliy va etnik tarkibi, soni, madaniyati, azaliy urf-odatlar va an'analari, ishlab chiqarish salohiyati va ijtimoiy qudratiga qarab ham ajratilgandir.

Ma'muriy-hududiy tuzilmalarni huquqiy maqomiga ko'ra, 3 toifaga ajratish mumkin: *yuqori* (qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlar, toshkent shahri), *o'rta* (qishloq va shahar tumanlari, viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar), *quyi* (tuman bo'ysunuvidagi shaharlar, shaharchalar, qishloq va ovullarning fuqarolar yig'inlari).

Davlat tuzilishiga ko'ra o'zbekiston unitar davlatdir.

Unitar davlatlar *markazlashgan* (Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Daniya kabi) va *markazlashmagan* (Fransiya, Italiya, Ispaniya kabi) turlarga bo'linadi.


Qoraqalpog'iston respublikasida 14 ta qishloq tumani, 7 respublikaga bo'ysunuvchi shahar, 5 ta tumunga bo'ysunuvchi shahar, 16 ta shaharcha hamda 329 ta ovul va 123 ta mahalla fuqarolar yig'inlari bor.

Viloyatlar eng yirik ma'muriy-hududiy qismlardan bo'lib, o'zbekistonda ularning soni 12 ta. «viloyat» so'zi ma'lum bir hududga nisbatan qo'llanilib, milliy qadriyatlarimizni hamda tariximizni to'liq aks ettiruvchi atamadir.

Respublika itoatidagi shaharga aholi soni 500 ming kishidan ortiq yirik iqtisodiy, madaniy, ma'muriy markaz bo'lgan shaharlar kiradi. *Toshkent shahri* – o'zbekistonning ma'muriy markazi. Umuman davlatga yoki uning respublika hisoblanuvchi sub'ektiga nisbatan olganda ma'muriy markaz «poytaxt» deb ataladi. Toshkent shahri aholisining soni 2,3 million kishidan ortiq bo'lib, unda 100 dan ziyod millat va elatlar yashaydi. Markaziy davlat boshqaruvi idoralari, ilm-fan, madaniyat muassasalarining aksariyat qismi shu erda joylashgani uchun ham poytaxt shahar huquqiy maqomiga ko'ra viloyat darajasidadir. Uning tarkibida 11 ta shahar tumani va 452 ta o'zini o'zi boshqaradigan fuqarolar yig'ini – mahallalar mavjud.

«tuman» so'zi esa, temuriylar davrida qo'llanilgan turkiy ibora bo'lib, 10 ming va undan ortiq askar etkazib berish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'muriy-hududiy qismlar tushinilgan. Tumanlar joylardagi ijtimoiy, iqtisodiy, xo'jalik va madaniy masalalarni hal qilishga bevosita rahbarlik qiladigan bo'g'inlardir. Mamlakatimizda ma'muriy-hududiy o'zgarishlar avvalombor qishloq tumanlari chegarasining o'zgarishi bilan amalga oshiriladi.

Quyi tofidagi qismlarga o'z mahalliy hokimiyatlariga ega bo'lmagan va asosan, mahalliy o'zini o'zi boshqaruv idoralari orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan ma'muriy-hududiy bo'linmalar kiradi.



«O'zbekiston respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida»gi o'zbekiston respublikasining qonuni viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullarni tuzish, tugatish, ularning chegaralarini o'zgartirish, ma'muriy markazlarni ko'chirish hamda aholi punktlarini shahar, shaharchalar turkumiga o'tkazish, ma'muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibini belgilaydi.

Ushbu qonunda «viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga, qoida tariqasida, kamida 30 ming aholisi bo'lgan, muhim ma'muriy ahamiyat kasb etadigan istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar deb hisoblangan shaharlar kiritilishi mumkin» (10-modda) deyilgan. Bular viloyat markazlari bo'lgan shaharlar va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar bo'lishi mumkin.

Viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar o'z huquqiy maqomiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi: 1) viloyat markazlari hisoblangan shaharlar; 2) viloyat bo'ysinuvidagi shaharlar. Ulardagi boshqaruv idoralarining tuzilishi va tarkibi bir-biridan farq qiladi.

Tuman itoatidagi shaharlarga sanoat korxonalari, kommunal xo'jaligi, davlat uy-joy fondi, rivojlangan ijtimoiy-madaniy muassasalari bo'lgan, aholisi 7 mingdan kam bo'lmagan va uning uchdan ikki qismini ishchi, xizmatchilar va ularning oilalari tashkil etgan shaharcha va boshqa manzillar kiradi.

Shaharchalar aholisining soni 2 000 kishidan kam bo'lmagan sanoat korxonalari, qurilishlar, temir yo'l stantsiyalari va boshqa muhim ob'ektlar yaqinida joylashgan aholi punktlari kiradi. Ularning soni birmuncha kamayib vazirlar mahkamasining 1997 yil 30 sentyabrda 459-sonli qaroriga muvofiq 113 tadan 108 taga tushib qolgan. Hozirda 117 ta shaharcha mavjud.

Qishloq va ovullarning shaharchalardan farqi ularda yashovchi aholi sonining eng kam miqdori belgilanmaganligi va mehnatga qobiliyatli kishilarning aksariyat qismi qishloq xo'jaligi bilan band bo'lganligidadir. Qoraqalpog'iston respublikasi va navoiy viloyati aholi punktlarining aksariyati «ovul» deb nomlansa, qolgan viloyatlarda «qishloq» deb yuritiladi. O'zbekistonda 1439 ta qishloq va ovul fuqarolar yig'inlariga birlashtirilgan.

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 69-moddasiga muvofiq qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlar, toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish, shuningdek viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish o'zbekiston respublikasi oliy majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi.

O'zbekistonning yuqori toifadagi ma'muriy-hududiy qismlari – viloyatlar va qoraqalpog'iston respublikasi chegaralarining aksariyat qismi davlat chegaralaridan iboratdir. Shu sabab 1999 yil 20 avgustda qabul qilingan «davlat chegarasi to'g'risida»gi qonunning 5-moddasiga binoan qoraqalpog'iston respublikasi, viloyat, qishloq tumanlari chegaralari davlat chegaralaridan o'tadigan bo'lsa, ularni belgilash va o'zgartirish xalqaro shartnomalarga asosan o'zbekiston respublikasi oliy majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat chegarasi *delimitatsiya* (lotincha «delimitatio» – chegaralash, ayirboshlash) va *demarkatsiya* (frantsuzcha «demarcation» – chegara belgilarini qo'yish) qilinadi, ya'ni ikki davlat o'rtasida chegara chiziqlari o'tkaziladi va tegishli belgilar qo'yiladi. Davlat chegarasini belgilash, o'zgartirish, himoya qilish va qo'riqlash umumsiyosiy masalalar toifasiga kirib, o'zbekiston respublikasi markaziy davlat organlari tomonidan belgilangan normalarda va tartiblarda amalga oshiriladi.

«O'zbekiston respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, topologik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tarkibi to'g'risida» qonunda «aholi punktlarini ma'lum bir turkumdan ikkinchi bir turkumga o'tkazish tegishli viloyat hokimlarining iltimosiga asosan o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining taklifiga muvofiq oliy majlis tomonidan amalga oshiriladi», - deyilgan. Ushbu holat haqidagi qarorlar, albatta, «o'zbekiston respublikasi oliy majlis axborotnomasida e'lon qilinishi shart»ligi ta'kidlangan (30-modda).

Viloyatlar (zarur hollarda tegishli viloyatlarda referendum o'tkazilishi mumkin) va tumanlarning chegaralarini o'zgartirish tegishli viloyatlar, toshkent shahri hokimlarining iltimosnomasiga asosan o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining taklifiga muvofiq oliy majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharlarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli viloyat, toshkent shahri hokimlarining iltimosnomasiga asosan o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining taklifiga muvofiq oliy majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat kengashlari tomonidan, qoraqalpog'iston respublikasida esa, jo'qorg'i kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qishloqlar va ovullar chegarasini o'zgartirish, aholi punktlarini birlashtirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat kengashlari tomonidan, qoraqalpog'iston respublikasida esa, jo'qorg'i kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston respublikasi chegaralarini o'zgartirish juqorg'i kenges qarori asosida oliy majlis tomonidan amalga oshiriladi. Chunki, o'zbekiston respublikasi yagona unitar shakldagi mustaqil davlat bo'lgani uchun ham qoraqalpog'iston respulikasi uning davlat qurilishi, iqtisodiy rivojlanishi, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishi kabi barcha jabhalardagi umumiy masalalarni birgalikda hal qilishi maqsadga muvofiqdir.

Qoraqalpog'iston respublikasida tumanlarning chegaralarini o'zgartirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan qoraqalpog'iston respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq jo'qorg'i kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston respublikasida shaharlarning chegaralarini belgilash va kengaytirish tegishli tuman, shahar hokimlarining iltimosnomasiga asosan qoraqalpog'iston respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq jo'qorg'i kenges tomonidan amalga oshiriladi.

2007 yilga kelib respublikamiz 1835 ta (shaharlardagi mahallalar inobatga olinmaganda) ma'muriy-hududiy qismlardan iborat bo'ldi. Jumladan, 12 tasi viloyat, toshkent shahri, va qoraqalpog'iston respublikasi, bularning tarkibiga kiruvchi 159 tuman, 120 ta shahar, 117 ta shaharcha, 1439 ta qishloq va ovullar fuqarolar yig'ini.

3. Qoraqalpog'iston respublikasining huquqiy maqomi.

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining xvii bobi qoraqalpog'iston respublikasiga bag'ishlangan. 6 moddadan iborat ushbu bob qoraqalpog'istonning huquqiy maqomi to'g'risidadir.

Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi.

Aslida o'zbekiston respublikasi unitar davlatdir. Shu bilan birga, o'zbekiston respublikasining tuzilishida federalizmga xos belgilar mavjud bo'lib, ular qoraqalpog'iston respublikasi suverenitetga ega ekanligida ko'rinadi. Quyida qoraqalpog'iston suverenitetining bir qancha belgilarini ko'rib chihamiz.

1) 1992 yil 9 yanvarda qoraqalpog'iston respublikasi tashkil topgan va 1993 yil 9 aprelda uning konstitutsiyasi qabul qilingan. Ushbu kun xalq bayrami deb e'lon qilingan. Qoraqalpog'iston respublikasi konstitutsiyasining i bobi «davlat suvereniteti» deb nomlanib, uning 1-moddasida qoraqalpog'iston – o'zbekiston respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren demokratik respublikadir, deb belgilangan.

Sobiq ittifoq davrida avtonom maqomga ega bo'lgan respublikalarda konstitutsiyaviy suverenitet masalasi ancha murakkab bo'lgan. Lekin o'zbekiston mustaqillikka erishgach bunga chek qo'yib, qoraqalpog'iston suveren respublikasi bilan mustaqil o'zbekiston respublikasining bir-butun yaxlitligi mustahkamlangan. Shu sabab o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 71-moddasida, qoraqalpog'iston respublikasining o'z konstitutsiyasiga ega bo'lishligi, shuningdek, uning o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasiga zid bo'lmashligi aytilgan.

Qoraqalpog'iston respublikasi konstitutsiyasining 70-moddasining 15-bandida «o'zbekiston respublikasining oliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hujjatlarining o'zbekiston respublikasi konstitutsiyaga muvofiqligi haqida o'zbekiston konstitutsiyaviy sudiga taklif kiritish» huquqi belgilangan. 81-moddasida esa qoraqalpog'iston respublikasi jo'qorg'i kengesi raisining vakolatlari jumlasiga, «o'zbekiston respublikasi qonunlarini va oliy

majlisning boshqa qarorlari, o'zbekiston respublikasi prezidentining farmonlari va boshqa hujjatlarini turmushga tatbi? Etishni tashkil qiladi» deyilgan.

Qoraqalpog'iston respublikasida o'zbekiston va qoraqalpog'iston respublikasining konstitutsiyalari va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. O'zbekiston fuqarolari uchun majburiy bo'lgan qonunlar uning tarkibiga kiruvchi qoraqalpog'iston hududida ham majburiydir. Ko'rinib turibdiki, qoraqalpog'iston qonunlari o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelsa, o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi va qonunlari amalda bo'ladi.

2) qoraqalpog'istonning davlat tili – qoraqalpoq va o'zbek tillari. Ayni vaqtda qoraqalpog'iston respublikasi hududida iste'omat qiluvchi barcha millat va ellatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishi ta'minlanadi ularning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratib beriladi, suveren respublikaning davlat ramzlari hurmat qilinadi, va davlatning xalq irodasini ifoda etishi, xalq manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida javobgar ekanligi qayd etiladi.

3) tuman va shaharlarni tashkil qilish va ularni tugatish shuningdek, ularning chegaralarini o'zgartirish qoraqalpog'iston respublikasi jo'qorg'i kengesi tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi va chegaralari uning roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi.

4) qoraqalpog'iston respublikasi konstitutsiyasining 9-moddasida: «jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga, ya'ni referendumga qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi» deb mustahkamlangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumini asosida ajralib chiqish huquqiga ega.

5) o'zbekiston respublikasi bilan qoraqalpog'iston respublikasining o'zaro munosabatlari o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi doirasida va ular o'rtasida tuzilgan shartnomalar va bitimlar orqali tartibga solinadi. Shuningdek, qoraqalpog'iston respublikasining davlat huquqi o'zbekiston respublikasi tomonidan kafolatlanishi har ikkala suveren davlatlarni konstitutsiyalarida belgilangan.

Qoraqalpog'iston respublikasining fuqarosi ayni vaqtda o'zbekiston respublikasining fuqarosi hisoblanadi. Qoraqalpog'iston xalqini, millatidan qat'i nazar, qoraqalpog'iston respublikasining fuqarolari tashkil etadi. O'zbekiston va qoraqalpog'iston respublikalarining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar. Fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir. Ulardan sud qarorisiz mahrum etishga va ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. Qoraqalpog'iston respublikasining o'zbekiston respublikasi ma'muriy, hududiy birliklari qatoriga kiritilishi, bu ikki xalq deb hisoblangan bir millat ekanligini mustahkamlaydi.

6) qoraqalpog'istonda mustaqil faoliyat ko'rsatadigan davlatning huquqiy institutlari tuzilmasi mavjud. Bularga jo'qorg'i kengesi, vazirlar kengashi, konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi, oliy sud, xo'jalik sudi va boshqalar kiradi.

Qoraqalpog'iston xalqi nomidan faqat u saylagan oliy hokimiyat organi – jo'qorg'i kengesi ish olib boradi. Uning davlat hokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish tamoyillariga asoslanadi. Qoraqalpog'iston respublikasi jo'qorg'i kengesi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Qoraqalpog'iston respublikasining jo'qorg'i kengesi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida besh yil muddatda saylanadigan 75 nafar deputatdan iboratdir. Qoraqalpog'iston respublikasi jo'qorg'i kengesining mutloq vakolatlari uning konstitutsiyasi 70-moddasida ifoda etilgan.

Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi qoraqalpog'iston respublikasi jo'qorg'i kengesi tomonidan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasining raisi, uning o'rinbosari va qo'mitaning a'zolari tarkibida saylanadi. Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasiga saylangan sudyalarning vakolat muddati 5 yildir.

Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasiga saylangan shaxslar o'z vazifalarini bajarishda daxilsizdirlar va faqat qoraqalpog'iston respublikasi konstitutsiyasiga bo'ysunadilar. Uni tashkil etish va ish tartibini belgilash qoraqalpog'istonning konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi to'g'risidagi qonuni bilan belgilangan.

Sud tizimi faoliyatining tashkil etilishi o'zbekiston respublikasi prezidentining vakolatlari jumlasiga kirib unga ko'ra, o'zbekiston respublikasi prezidenti roziligi bilan qoraqalpog'iston respublikasi jo'qorg'i kengesinde, qoraqalpog'iston respublikasi oliy sudi raisi va a'zolari, shuningdek, tuman, shahar sudlarining sudyalari, lavozimlariga nomzodlarni tavsiya qiladi.

Qoraqalpog'iston respublikasida mahalliy davlat hokimiyat organlari tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar. Xalq deputatlari kengashlari va hokimlarining vakolat muddati – 5 yil, vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

7) qoraqalpog'iston respublikasi mahalliy soliqlar va yig'imlar miqdorini o'zi belgilaydi, respublika byudjetini mustaqil qabul qiladi.

8) o'zbekiston respublikasi va qoraqalpog'iston respublikasining o'zaro munosabatlarini shartnoma va bitimlar yordamida tartibga solinadi.

9) qoraqalpog'iston respublikasining o'z davlat ramzlari: bayroq, madxiya, gerbiga ega.

Nazorat uchun savollar:

1. Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi nima?
2. Quyi ma'muriy-hududiy tuzilmalarga qaysilar kiradi?
4. Qishloq tuzish tartibi qanday amalga oshiriladi?
5. Qoraqalpog'iston respublikasida tuman tuzish tartibi qanday?

Adabiyotlar

1. Karimov i.a. O'zbekiston xxi asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – t.: «o'zbekiston», 1997.

2. Boboev x.b., saidov a.x. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini o'rganish. – t., 2001.

MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING FAOLIYATI VA VAKOLATLARI

1. Oliy majlis o'zbekiston respublikasining oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organi.

O'zbekiston o'z davlatchiligini rivojlantirish yo'lidan sobitqadamlik bilan bormoqda. Bu jarayon xxi asrda yanada sermazmun bo'ldi. Davlat boshqaruvi tizimidagi insonparvarlik,

demokratik o'zgarishlar, hokimiyat taqsimlanishidagi asosiy faoliyat ko'rsatuvchi oliy vakillik organi oliy majlis yanada mukammal ishlovchi tizimga aylantirildi.

Oliy majlis dastlab bir palatali parlament sifatida tashkil etilgan edi. O'z faoliyati davomida oliy majlis ijtimoiy muammolarni echish sohalarida salmoqli tajribaga ega bo'ldi. Shu bilan birga, respublikada o'z yechimini kutayotgan masalalarni umumxalq muhokamasiga qo'yish masalasi vujudga keldi.

O'zbekiston respublikasi prezidenti islom karimov 2000 yil 25-26 may kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq oliy majlisning ikkinchi sessiyasida o'zbekiston parlamenti – oliy majlisni doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali tizimga o'tkazish to'g'risidagi g'oyani ilgari surdi. Natijada, 2002 yil 27 yanvar kuni ikki palatali parlamentni tuzish bo'yicha o'tkazilgan referendumda xalqimiz bu tashabbusni qo'llab-quvvatladi.

Ikkinchi chaqiriq o'zbekiston respublikasi oliy majlisi tomonidan 2002 yil 4 aprelda qabul kilingan «referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonun mamlakatimizda ikki palatali parlament tuzish uchun asos bo'ldi. Unga va o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasiga ko'ra, oliy majlis qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi oliy vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Oliy majlis vakolat muddati besh yil bo'lgan ikki palatadan – qonunchilik palatasi (quyi palata) va senatdan (yuqori palata) iborat.

Xalqaro miqyosda qonun chiqaruvchi organ *parlament* deb yuritiladi. «parlament» iborasi frantsuzchada «gapirmoq» so'zini bildirib, fikr bildirish, muhokama yuritish degan ma'noni anglatadi. Ingliz tilida «parlament» va «qonun chiqaruvchi majlis» iboralari aynan bir ma'noda ishlatiladi. Parlament kengashiladigan, maslahatlashiladigan, masalalar bahs-munozara hamda muzokara yo'li bilan muhokama etiladigan muassasadir.

Parlament, odatda, saylab qo'yiladigan xalq (turli siyosiy partiyalar, ijtimoiy kuchlar) vakillaridan iborat tarzda tarkib topadi. Bu erda turli ijtimoiy manfaatlar to'qnashadi. Shu bois parlamentda munozara va tortishuv yo'li bilan fikrlar charxlanadi hamda umumiy kelishuv (konsensus) asosida qaror qabul qilinadi. Parlament, odatda, bir palatali yoki ikki palatali bo'lishi mumkin (kamdan-kam holatlarda parlament uch yoki undan oshi? Palatali bo'lishi mumkin).

Dunyo siyosiy-yuridik xaritasiga e'tibor beradigan bo'lsak, aqsh, rossiya, fransiya, italiya, ispaniya, yaponiya, buyuk britaniya kabi davlatlar ikki palatali parlament vositasida o'z rivojlanishini jadal davom ettirmoqdalar. Xx asrning 60-70 yillarida dunyoda ikki palatali parlamentlar 45 tadan ortiq davlatda faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, xxi asr boshiga kelib, bunday parlamentlarning soni 70 taga etdi.

Parlament Rossiya va Shveytsariyada – Federal majlis, Bolgariyada – Xalq majlisi, Vengriyada – Davlat Majlisi, Slovakiyada – Milliy Kengash, Vetnamda – Milliy Majlis, Ukrainada – Oliy Rada, Niderlandiyada – Bosh Shtatlar, Ispaniyada – Bosh Karteslar, Belorussiyada – Milliy Majlis, Meksikada – Bosh Konoress kabi nomlangan

Parlament davlatning umummilliy vakillik muassasasi bo'lib, avvalo qonun chiqarish funksiyasini bajaradi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat – hokimiyatlar bo'linishi nazariyasiga muvofiq, davlatning o'zaro muvozanatlashtirilgan hokimiyat sha'obchalaridan biri bo'lib, davlat oliy vakillik organi tomonidan qonunlar qabul qilish vakolatining ro'yobga chiqarilishidir. U oliy yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy aktlar – qonunlar chiqarish bo'yicha vakolatlar yig'indisini mujassamlashtiradi hamda ushbu vakolatlarni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Qonun chiqarish – davlatning o'ta muhim funksiyalaridan biri bo'lib, u saylab qo'yiladigan oliy vakillik muassasasi tomonidan


amalgam oshiriladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning asosiy vazifasi xalqning (jamiyatning) irodasini qonun shaklida ifoda etishdir. Shu bilan birga, parlament faqatgina qonun chiqarish faoliyati bilan shug'ullanmay, balki davlatning ichki va tashqi siyosatiga doir muhim masalalarni ham xal qiladi.

Oliy majlis palatalari – qonunchilik vakolati va senat alohida-alohida va bir-biridan mustaqil tarzda faoliyat olib boradi. Ikki palatali parlament tizimida quyidagi ikki prinsip, ya'ni palatalarning tengligi prinsipi, shuningdek yuqori va quyi palata prinsipi qo'llaniladi.

Parlament palatalarining tenglik prinsipi quyidagi holatda ko'zga tashlanadi:

- palatalardagi deputatlar soni deyarli teng bo'ladi;
- palatalar deyarli bir vaqtda o'z faoliyatini boshlaydi;
- bir palatada ko'rib chiqiladigan masala ikkinchi bir palataning kun tartibida ham ko'rib chiqiladi, ya'ni parlament kun tartibi yagona bo'ladi (qonun loyihalarini muhokama qilish va shu kabilar);
- palatalarda qo'shma majlislar tez-tez o'tkazilib turadi;
- ikkala palata manfaatlari bir tilda himoya qilinadi va ularga teng imkoniyatlar beriladi (masalan, parlamentni raisi bo'lmasa, ko'shma majlislarni palatalarning raisi navbatma-navbat olib boradi);
- palatalar doimiy yoki vaqtincha ish olib boruvchi ishchi organlarini yaratishda har ikkala palatadan teng miqdorda vakillar bo'ladi;
- palatalar o'rtasida ixtiloflar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi, ular bir vaqtda o'z faoliyatini yakunlaydilar.

Shunday qilib, palatalarning tengligi prinsipida yaxlit holda ish olib boradi.



MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD HOKIMIYATINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

1. O'zbekiston respublikasida sud tizimi va undagi sudlarning faoliyati.

Sud hokimiyati paydo bo'lishi davlatning vujudga kelishi bilan bevosita bog'liq kechgan. Chunki u ijtimoiy kelishmovchiliklar, nizolar, tajovuzlarga barham berish va adolat o'rnatish uchun xizmat qiladigan hokimiyat tariqasida yuzaga chiqqan. Jamiyatni boshqarish uchun davlatning yuzaga kelishi va unda sud faoliyatiga bo'lgan ehtiyoj ham adolat g'oyalarining ma'sulidir.

Davlatning qachon va qaysi hududda birinchi marta bunyodga kelgani to'g'risida aniq ma'lumotlar bo'lmaganidek, sud tizimi ham dastlab qachon va qaerda shakllanganligi noma'lum. Jamiyatni boshqarishga oid barcha zarur ishlarni dastlabki davrlarda jamoaga sardor, sarkarda bo'lgan, katta obro'-e'tiborli, tajribali shaxslar bevosita o'zlari bajarganlar. Keyinroq esa jamiyat a'zolarining o'rtasida yuz beradigan nizo va to'qnashuvlarni bartaraf

etish, haqlilarni himoyalash, nohaqlarga ta'sir choralari ko'rish vazifalarini alohida hakamlar zimmasiga yuklangan.

davlat boshqaruvining turli sohalari ixtisoslasha borgan sari sud tizimi va huquqni muhofaza qiluvchi maxsus idoralar ham faoliyat yurita boshlagan. Ular qanchalik odilona va


Germaniyaning beshta oliy federal sudining har birida o'rtacha 21 ta sudya faoliyat yuritadi. AQSh oliy sudida 9 ta, Yaponiyada – 15 ta, Hindistonda – 17 ta sudya

13. Fuqaro «m» 1999 yil dekabr oyining 15 kuni yunusobod tumanidagi davlat notarial idorasining notariusi tomonidan tasdiqlangan vasiyatnoma bo'yicha o'zining uy-joyini kichik o'g'li «v» ga rasmiylashtirgan.

«m» 2001 yil avgust oyining 5 kuni esa yangi vasiyatnomani tuzib, unda o'zining «neksiya» engil avtomashinasini nabirasi «sh» ga berish to'g'risida farmoyish bergan. 2003 yilning mart oyi 21 kunida «m» vafot etishi munosabati bilan «v» va «sh» notariusga murojaat qilganda, notarius «m»ga tegishli uy-joyga nisbatan bo'lgan huquq to'g'risida, «sh»ga esa, «neksiya» avtomashinasiga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma bergan. Notariusn xarakatlari asoslimi?

14. Fuqaro «e» vafot etgandan so'ng uning o'g'li «s» va xotini «b» birinchi navbat merosxo'rlar sifatida, notariusga murojaat qilib meros mulkning barchasini ikkovlariga berish haqida merosga bo'lgan huquq guvohnomasini berishni so'raganlar. Notarius kanday qaror qabul qilishi lozim.

15. «p»ning o'g'li «s» vafot etib, uning qizi «k» notariusga murojaat qilib, «p»ning vafotidan keyin undan qolgan meros mulkidan otasi «s»ga tegishli ulush merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berishni so'ragan. Notarius talabni qondiradimi?

16. Meros qoldiruvchi «s» o'zining engil avtomashinasini o'g'li «m»ga, uy-joyini esa, nabirasi «k»ga, qolgan barcha mol-mulkini xotini «b»ga vasiyat qilib qoldirdi. Nabirasi «k» vasiyat bo'yicha meros olishdan voz kechib, merosni qabul qilib olmadi. Bu holda meros qanday bo'linadi?

Oila huquqi

1. Kzus. Nosirova a. Karimov o. Bilan qonuniy nikoxdan o'tish paytida karimovning familiyasiga o'tishga rozilik berdi. Uning istagi qanoatlantirildi. Bir necha kundan keyin nosirova, ayni vaqtda karimova a. Fxdyo organiga kelib, uni kaytadan uzini familiyasiga o'tkazishlarini iltimos qiladi, chunki uning birinchi nikohidan bo'lgan 14 va 16 yoshlik farzandlari onasining yangi familiyaga o'tishga qarshi bo'ldilar.

Fxdyo organi ushbu iltimosni qanoatlantiradimi?

2. Kzus. Shukurov b. Fxdyo organiga uni qonuniy nikohdan aminova s. Bilan o'tkazish uchun fxdyo organiga ariza bilan murojaat qildi. Uning pasportida no'malum sabablara ko'ra uning birinchi nikohi bekor qilinganligi to'g'risida shtamp yuk edi, lekin u o'z arizasida birinchi turmushidan ajraganligini ko'rsatgan edi. Shukurov b. Unda nikohni bekor qilinganligini to'g'risida guvohnoma borligini aytda va u ushbu xujjatni nikohni kayd etish paytida olib kelishini aytdi.

Ushbu xolatda fxdyo organi kandy xarakat qilishi lozim? Kandy shartlarga ko'ra shukurov b. Va aminova s. O'rtalaridagi nikohni kayd etish mumkin?

3. Kazus. Da'vogar murodova x. Nikohni bekor qilish va umumiy mulkini bo'lish to'qrisida javobgar kodirov t.ga nisbatan da'vo bilan murojaat qildi. Javobgar kodirov t. Umumiy mulk ro'yxatida u tomonidan da'vogarga to'yga so'la qilgan stenka va gilam yo'kligini ta'kidladi. Murodova x. Ushbu narsalar u javobgar tomonidan to'yga so'la qilgan bo'lsaxam, uning shaxsiy mulki xisoblanadi deb ko'rsatyapti.

to'yga so'ga qilingan narsalar umuiy mulk bo'lib xisoblanadimi?

sud ushbu nizoni kandy xal etishi kerak?

4. Kazus. Ilxomova p. Uzing voyaga etmagan singlisining bolasini onasi deb e'trof etib, bu xaqda bolaning to'ilganlik guvoxnomasida onasi deb ko'rsatilgan. 5 yil muddat utgandan keyin u fxdyo organiga to'ilganlik guvoxnomasida onasi deb ko'rsatilgan yozuvni o'zgartirishlarini so'rab murojaat qilgan, chunki u turmushga chikib uzining ikkita farzandini to'ib, boshka, o'zi to'magan bolaga onalik qilishni xoxlamagan.

Fxdyo organiga ushbu iltimosnomani qanoatlantiradimi?

5. Kazus. Nabieva m. 3ta farzandina nisbatan onalik huquqidan mahrum etilgan, chunki u bolalarining tarbiyaisi bilan umuman shu'llanmagan, (bolari u bilan yashamasdan buvilari bilan yashaganlar) muntazam ravishda spirtli ichimliklar iste'mol kilgan, xech qaeda ishlamagan, eridan olgan aliment pullarini bolalarga emas, o'ziga sarflagan.

Ushbu misolni yuridik jixatdan tahlil qiling va asoslab bering.

O'zbekiston respublikasi oila kodeksining tegishli moddasini ko'rsating?

6. Kazus. Maksudov r. ajrashgandan keyin 2ta voyaga etmagan bolalariga ijro varakasi asosida maoshining 1/3 qismini to'lab keladi. Ikkinchi ijro varakasi asosida undan 20.000 sum miqdoriga ota-onasini ta'minoti uchun undiriladi. Ikiita ijro varaqasi bo'yicha maksudov r. dan maoshining 50% dan ko'p pul undirilayotgani aniqland iva shu bois u yuridik maslaxatxonaga ushbu masala bo'yicha izoh olishhga murojaat qildi.

Siz maksudov r. ga kandy maslaxat bergan bo'lardingiz?

Jinoyat huquqi

1-masala

b. Ismli shaxs tojikiston respublikasidan o'zbekiston respublikasiga olib kelib sotish maqsadida 800 (sakkiz yuz) gramm. Geroin moddasini olib o'tayotgan vaqtda o'zbekiston respublikasi chegarasida bojxona xizmati xodimlari tomonidan qo'lga olindi.

dastlabki tergovda tergovchi b.ning harakatlarini o'zbekiston respublikasi jinoyat kodeksining 25-moddasi 2-qismi 246-moddasi 2-qismi (giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ko'p miqdorda kontrabanda qilish) va 25-moddasi 273-moddasi 5-qismi (giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni ko'p miqdorda qonunga xilof ravishda sotish) bilan kvalifikatsiya qildi.

Tergovchi b.ning jinoiy qilmishini to'g'ri kvalifikatsiya qildimi? B.ning harakatini o'zbekiston respublikasi jinoyat kodeksi bilan jinoiy javobgarlikka tortish qonuniymi? Yuridik tahlil qiling.

2-masala

Afg'oniston respublikasi fuqarolari bo'lgan qirg'iziston respublikasi va tojikiston respublikasida terroristik harakatlarni sodir etganligi uchun qidiruvda bo'lgan b. V. G. Va d.lar o'zbekiston respublikasida terroristik harakatlarni sodir etishga tayyorgarlik ko'rayotgan vaqtida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ushlanadilar.

Tergovchi ularning harakatlarini o'zbekiston respublikasi jinoyat kodeksining 25-moddasi 1-qismi, 155-moddasi 1-qismi (terrorizm) bilan kvalifikatsiya qildi.

b. V. G. Va d.lar o'zbekiston respublikasi jinoyat kodeksi bilan jinoiy javobgarlikka to'g'ri tortilganmi? Yuridik tahlil qiling.

3-masala

Moskva-toshkent yo'nalishi bo'yicha moskvadan toshkentga kelayotgan poezdda qozog'iston respublikasi xududiga etganda qozog'iston respublikasi fuqarosi bo'lgan j. Va o'zbekiston respublikasi fuqarosi bo'lgan b.lar o'rtasida kelishmovchilik kelib chiqadi va mushtlashib ketishadi. Bu mushtlashuv keyin ham, ya'ni poezd o'zbekiston respublikasiga o'tganidan keyin ham davom etadi va buning natijasida o'zbekiston respublikasi fuqarosi b. Qozog'iston respublikasi fuqarosi bo'lgan j.ga etkazgan og'ir tan jarohati natijasida toshkent shahar kasalxonalaridan birida vafot etadi.

Tergovchi b.ning jinoiy harakatlarini o'zbekiston respublikasi jinoyat kodeksi 104-moddasi 3-qismi "d" bandi (qasddan badanga og'ir shikast etkazish jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lsa) bilan kvalifikatsiya qiladi.

Tergovchi b.ning harakatlarini to'g'ri kvalifikatsiya qildimi?

B.ning jinoiy harakatlari o'zbekiston respublikasi jinoyat kodeksi jinoiy javobgarlikka tortiladimi?

Yuridik tahlil qiling.

5-masala

10.05.1987 yil tug'ilgan b. 10.05. 2000 yil o'tar kechasi soat 24³⁰ da qo'shnisi v.ni uyiga o'g'irlikka kiradi va 3000000 (uch million) so'mlik tilla buyumlarni o'g'irlik chiqib ketayotganda v.ning qari onasi ko'rib qoladi. B. Jinoyatni yashirish maqsadida v.ning onasini o'ldiradi. Tergovchi b.ning harakatlarini o'zbekiston respublikasi jinoyat kodeksining 169-moddasi 4-qismi a) bandi va 97-moddasi 2-qismi v) bandi va 0) bandlari bilan kvalifikatsiya qildi.

Himoyachi tergovchi noto'g'ri kvalifikatsiya qilganligini b.ning sub'ekt yoshiga etmaganligini bildiradi. Siz qanday kvalifikatsiya qilardingiz? B. Jinoyat sodir etganda sub'ekt yoshiga etganmi?

6-masala

Surunkali ruhiy kasallikka chalingan n. Ismli shaxs b. Ismli shaxsni badaniga o'rtacha og'ir tan jarohati etkazadi. Tergovchi n.ning qilmishini o'zbekiston respublikasi jinoyat kodeksining 106-moddasi bilan kvalifikatsiya qildi.

Spe xulosasiga ko'ra n. Jinoyat sodir etish vaqtida surunkali ruhiy kasalligi tufayli o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmagan. Sud n.ni ijtimoiy xafvli qilmish sodir etgan vaqtda aqli noraso degan xulosaga kelib unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash haqida qaror qabul qildi.

Tergovchining harakatlari to'g'rimi?

7-masala

G. Ismli shaxs spirtli ichimlik iste'mol qilib mast holda b. Ismli shaxsni boshiga qattiq jism bilan urib b.ga og'ir tan jarohat etkazadi. Tergovchi g.ning harakatlarini o'zbekiston respublikasi jinoyat kodeksi ning 104-m bilan kvalifikatsiya qiladi.

Himoyachi g.ni jinoyat sodir etgan vaqtda mast holatda bo'lganligini o'zini boshqara olmasligini e'tiborga olib, uni jinoiy javobgarlikdan ozod qilib, tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llashni so'raydi.

Sizningcha tergovchi g.ni harakatlarini to'g'ri kvalifikatsiya qilganmi? Himoyachining fikrlari to'g'rimi?

8-masala

M. Ismli shaxs sh. Bilan janjallashib koladi va sh.ni urmoqchi bo'lganida do'stlari ajratib qo'yishadi. M. Bir necha kundan keyin sh.ni uyini oldida ushlab olib o'sha kungi janjalni eslatib uni uradi va uni badaniga engil shikast etkazadi.

M.ning harakatlarida ayb shaklini aniqlang?

9-masala

T. Ismli shaxs doimiy ravishda turli korxonalarning hujjatlarini qalbakilashtirib,

Fuqarolarga sotish bilan shug'ullanib kelgan. T. Hunar texnika akademik litseyning bilim yurtini sobiq derektori n.dan bilim yurtini bitiruvchilarga beriladigan 4 dona oddiy va 2 dona imtiyozli attestatlarni har birini 40 ming so'mdan jami 240 ming so'mga sotib olib, qalbakilashtirib sotadi.

Tergovchi t. Va n.larga nisbatan o'zbekiston respublikasi jinoyat kodeksining 228-moddasi 2-qismi a) bandlari bilan jinoyat ishi qo'zg'atadi.

T. Va n. Harakatlarida sodir etgan jinoyatning ob'ektini aniqlang.

10. S. Uzining tanish ayoli a. Ni uz uyiga mexmonga taklif kilib, spirtli ichimlik ichgandan sung a.ga zurlik ishlatib, bir paytning uzida xam tabiiy, xam gayritabiiy usulda jinsiy alokada buladi. Javobgarlik masalasi kanday xal kilinishi kerak?

11. 25 yoshli a. Uz uyida birinchi marta 16 yoshga tulumagan 8 ta bolaga magnitafon orkali shaxvoniy-uyatsiz film kasetalarini namoyish kilayotganda ichki ishlar xodimlari tomonidan ushlangan. Javobgarlik masalasi kanday xal kilinishi kerak?

12. Boshlangich gurux tarbiyachisi guruxdan tashkariga chikib ketayotganida bolalardan biri karovatdan sakrab erga yikilish natijasida boshi yorilib ogir tan jaroxati oladi. Tarbiyachiga nisbatan kanday chora kuriladi?

O'zbekiston respublikasi oliy sudi plenumi qarorlaridan foydalanish bo'yicha savollar.

1. Bosqinchilik jinoyatining tushunchasi va uning kvalifikatsiya belgilari. Oliy sud plenumining 1999 yil 30 apreldagi «o'zgalar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarorida hayot uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish va qurol yoki qurol sifatida ishlatiladigan boshqa narsalarni qo'llash deganda qanday holatlar tushunilishi ko'rsatilgan?

2. tovlamachilik jinoyatining tushunchasi. oliy sud plenumining 1999 yil 30 apreldagi «o'zgalar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik yo'li bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarorida tovlamachilikning bosqinchilik va talonchilikdan farqi haqida qanday tushuntirish berilgan?

3. bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatining tushunchasi. oliy sud plenumining 1996 yil 27 fevraldagi «kontrabanda va bojxona qonunlarini buzish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi qarorida bu haqda qanday tushuntirish berilgan?

4. pora berishda vositachilik qilish bilan dallolchilik qilishning farqi nimada? oliy sud plenumining 1999 yil 24 sentyabrdagi «poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarorida pora olish jinoyatining bir guruh mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilishi harakatiga qanday tushuntirish berilgan?

5. voyaga etmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish jinoyati. oliy sud plenumining 2000 yil 15 sentyabrdagi «voyaga etmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarorida voyaga etmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni ko'rishda sudlar nimalarga e'tibor berishi lozimligi ko'rsatilgan?

6. o'zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar deganda qanday jinoyatlarni tushunasiz? jinoiy yo'l bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish jinoyatining

(jkning 171-moddasi) jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish jinoyatidan (jkning 241-moddasi) farqi.

7. qanday harakatlar hokimiyat vakiliga yoki fuqaroviy burchini bajarayotgan shaxsga qarshilik ko'rsatish jinoyati tarkibini tashkil etadi (jkning 219-moddasi)? oliy sud plenumining 2002 yil 14 iyundagi «bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi qarorida shunday harakatlar uchun jk 277-moddasining 3-qismi «g» bandi bilan javobgarlikka tortish uchun nimalar asos bo'lishi haqida tushuncha berilgan?

8. iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar deganda qanday jinoyatlarni tushunasiz? oliy sud plenumining 1998 yil 17 apreldagi «iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida»gi qarorida o'zbekiston respublikasining manfaatlariga zid bitim tuzish deganda mansabdor shaxsning harakatlari, etkazilgan zarar miqdori haqida qanday tushuntirishlar berilgan?

9. savdo va vositachilik bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanish jinoyatining tushunchasi. oliy sud plenumining 1998 yil 17 apreldagi «iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida»gi qarorida shaxsning qanday harakatlari natijasida ushbu jinoyat vujudga kelishi haqida tushuntirish berilgan?

10. savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish jinoyati. oliy sud plenumining 2002 yil 25 oktyabrdagi «tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari haqida»gi qarori bu jinoyatning sub'ekti va qaysi holatda sodir etilgan deb hisoblanishi haqida qanday tushuntirish berilgan mazmunini izohlab bering.

11. soliq va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyati tushunchasi. oliy sud plenumining 2003 yil 6 iyundagi «soliq va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi qonunlarning sudlar tomonidan qo'llanilishi haqida»gi qarorida foyda (daromad)ni qasddan yashirishning qanday belgilari ko'rsatib o'tilgan. sizning fikringizcha ushbu belgilar ro'yxati qat'iyi yoki amaliyotda boshqa holatlar ham uchrashi mumkinmi?

12. giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va boshqa harakatlar qilish, shuningdek ularni qonunga xilof ravishda o'tkazish jinoyati. oliy sud plenumining 1995 yil 27 oktyabrdagi «giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga oid jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi qarorida qanday tushuntirishlar berilgan?

13. oliy sud plenumining 2002 yil 25 oktyabrdagi «tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari haqida»gi qarorida berilgan tushuntirishlar haqida gapirib bering.

14. transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyati tushunchasi. oliy sud plenumining 2000 yil 22 dekabrda «transport harakati yoki undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlarga oid ishlar yuzasidan sud amaliyoti to'g'risida»gi qarorida qanday tushuntirishlar berilgan?

15. bezorilik jinoyatining tushunchasi. oliy sud plenumining 2002 yil 14 iyundagi «bezorilikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi qarorida bezorilik jinoyatining tushunchasi va uning kvalifikatsiya belgilari haqida qanday tushuntirishlar berilgan?

16. kontrabanda jinoyati tushunchasi. oliy sud plenumining 1996 yil 27 fevraldagi «kontrabanda va bojxona qonunlarini buzish to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida»gi qarorida kontrabanda jinoyati bo'yicha qanday tushuntirishlar berilgan?

17. o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish jinoyati tushunchasi. oliy sud plenumining 1998 yil 17 apreldagi «iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida»gi qarorida ushbu jinoyat yuzasidan qanday tushuntirish berilgan.

18. tovlamachilik jinoyatining tushunchasi. oliy sud plenumining 1998 yil 17 apreldagi «iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida»gi qarorida ushbu jinoyat yuzasidan qanday tushuntirish berilgan?

19. firibgarlik jinoyatining tushunchasi. oliy sud plenumining 2009 yil 24 iyundagii «firibgarlikka oid jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarorida ushbu jinoyat yuzasidan qanday tushuntirish berilgan?

20. javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish jinoyati. oliy sud plenumining 2004 yil 24 sentyabrdagi «qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi qarorida ushbu jinoyatni o'ta shafqatsizlik bilan, tamagirlik niyatida, bezorilik oqibatida sodir etish to'g'risida qanday tushuntirishlar berilgan?

ekologiya huquqi

1-masala toshkent shahrida joylashgan farmatsevtika zavodida faoliyat yurituvchi bosh injener a.ning harakatlari yuzasidan qo'zg'atilgan jinoyat ishini ko'rib chiqish jarayonida toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha sudida uning zavod binosida inson salomatligiga uchun zararli bo'lgan havoni ifloslantirishga oid qilmishini atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish qoidasini buzish yoki mehnatni muhofaza qilish qoidasini buzish sifatida baholash yuzasidan savol tug'ildi.

– ushbu ish yuzasidan tushuntirish bering?

– zavod binosi hududidagi atmosfera havosining ifloslanishi qaysi qonunchilik bo'yicha tartibga solinadi?

2-masala

fuqaro a. sirdaryoga borib, baliq ovlash taqiqlangan vaqtda 35 kg baliq ovlab ketayotganda, tabiatni muhofaza qilish inspektori uni to'xtatib, amaldagi qonunchilikni buzganligini aytib, mazkur holat bo'yicha dalolatnoma tuzib, ishni sudga oshirib yubordi.

sudda fuqaro a. unga qo'yilgan ayb noto'g'riligini aytib, quyidagi vajlarni keltirdi, ya'ni unga tabiatni muhofaza qilish organi tomonidan o'zbekiston respublikasi "tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunni buzganligi uchun ayb qo'ygan. lekin fuqaro a. "hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonunni buzganligi aytib o'tib, demak unga qo'yilgan ayb noto'g'ri bo'lib va u mazkur ayib bo'yicha javobgarlikka tortilishi mumkin emasligini aytib o'tdi.

– sizning fikringizcha sud qanday qaror qabul qilishi kerak?

– fuqaro a.ning vajlari haqiqatga qanchalik to'g'ri kelishi yuzasidan fikr bildiring.

3-masala

o'zbekiston respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ushbu qo'mita raisining buyrug'ini o'zbekiston respublikasi adliya vazirligiga ro'yxatga olish uchun yuboradi. biroq, adliya vazirligi ushbu buyruqni umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lmaganligi bois ro'yxatga olishni rad etadi.

– ushbu vaziyatga huquqiy baho bering.

– o'zbekiston respublikasi adliya vazirligi muayyan hujjatni umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lmaganligi bois ro'yxatga olishni rad etishga haqlimi?

– amaldagi qonunchilikka muvofiq, qanday normativ-huquqiy hujjatlar o'zbekiston respublikasi adliya vazirligida ro'yxatga olinishi lozim?

4-masala

fuqaro d. va n.lar buxoro viloyatida joylashgan “akva” baliq xo'jaligi hududi chegaralarida noqonuniy ravishda yovvoyi o'rdaklarni ovlash vaqtida ushbu xo'jalikning qo'riqlash xizmati xodimlari tomonidan qo'lga olindilar.

– ushbu holatda fuqarolar d. va n. harakatlari natijasida davlat mulki yoki yuridik shaxs mulkiga zarar etkazilganligi to'g'risida o'z fikringizni bildiring?

– ferma va baliq xo'jaliklarida chegaralarida joylashgan yovvoyi hayvonlar kimning mulki hisoblanadi?

5-masala

fuqaro g. navoiy viloyati hududidagi aydar-arnasoy ko'llar tizimiga taalluqli suv havzalaridan bir qismini xususiy mulk qilib berilishini so'rab viloyat hokimligiga ariza bilan murojaat qildi.

– fuqaro g.ning arizasi qanoatlantirilishi mumkinmi?

– qanday tabiat ob'ektlari xususiy mulk sifatida berilishi mumkin?

6-masala

fuqaro r. toshkent shahar sobir rahimov tumanlararo fuqarolik sudiga o'zbekiston respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining atrof tabiiy muhit holati to'g'risida ma'lumot taqdim etmaslikda ifodalangan harakatlari ustidan da'vo arizasi taqdim etdi.

sud arizani hududiylik bo'yicha taqdim etilmaganligi bois, tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining toshkent shahridagi tegishli bo'limiga murojaat etish lozimligini ko'rsatib da'vogarning arizasini rad etadi.

– sudning arizani rad etishi qonuniymi?

– da'vogar qaysi qonunchilik hujjatiga asoslanib da'vo qo'zg'atgan?

– ushbu vaziyatda da'vogarga masalani hal etishga ko'mak berishi mumkin bo'lgan qanday huquqiy maslahat berishingiz mumkin?

7-masala

toshkent shahar hokimi o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarorini ikki yil mobaynida ijro etishni to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qildi. hokim o'z qarorini ushbu hujjatning amal qilishi toshkent shahri shaharsozlik qonunchligiga muvofiq, amalga oshirilishi mo'ljallangan qurilish ishlarining to'xtatilishiga sabab bo'lishi bilan asosladi.

– toshkent shahri hokimi bu kabi faqatgina shahar hududida amal qiluvchi harakatlarni sodir etish vakolatiga egami?

– toshkent shahar hokimi ushbu qarorini qaysi qonunchilik hujjatiga asosan qabul qilgan?

– toshkent shahar hokimi qarorini bekor qilish tartibi qanday?

8-masala samarqand shahrida joylashgan sement zavodlaridan birida zavod mehnat jamoasi tomonidan jamoat ekologik nazorati amalga oshirildi hamda zavod sexlaridan birining ishchilar salomatligiga hamda atrof tabiiy muhitga ziyon etkazayotganligi tufayli ishni to'xtatish to'g'risida xulosa berdi. biroq, zavod ma'muriyatida ushbu masala muhokama qilinganda bunday qaror zavod faoliyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanib, jamoat nazorati xulosasi talablari rad etildi.

– mehnat jamoasi jamoat ekologik nazoratini amalga oshirishga haqlimi?

– jamoat ekologik nazorati xulosasining yuridik kuchi qanday baholanadi?

– zavod ma'muriyatining xatti-harakatlari qonuniymi?

9-masala

fuqaro t. o'zbekiston respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga e'tiroznoma yubordi. o'z e'tiroznomasida tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan unga yuklangan vazifani bajarmaganini vaj qildi. chunki uning fikriga ko'ra, o'zbekiston respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi har yilning 15 aprel kuni atrof tabiiy muhit holati to'g'risida milliy ma'ruza chop etish yuklatilgan, ammo tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'ziga yuklatilgan majburiyatni bajarmasdan, shu bilan fuqaro t. ning huquq va manfaatlariga zarar etkazgan, chunki u tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lib, tabiat bilan bog'liq loyihaga 150 000 000 mln. so'm investitsiya kiritgan va atrof tabiiy muhitning holati to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmasdan ancha zarar ko'rgan.

shuning unga etkazilgan zararni qoplashni so'ragan.

– aytinch, fuqaro t. o'z e'tirozini keltirganda qaysi qonun hujjatiga asosan vaj qilgan?

– mazkur masalani huquqiy hal eting va fuqaro t.ga huquqiy maslahat bering?

10-masala

fuqarolar n. va k.lar havaskorlik maqsadida zarafshon daryosida baliq ovlashdi. fuqaro n. 4 kg. sazan, k. esa 7 kg. laqqa baliq ovladi. ushbu holat yuzasidan tabiatni muhofaza qilish xodimlari ularga baliq tutishgani uchun haq to'lashlari lozimligini ta'kidladi.

– tabiatni muhofaza qilish xodimlarining ushbu talabi to'g'rimi?

– havaskorlik maqsadida baliq ovlash uchun haq undiriladimi?

– ushbu vaziyatga tushuntirish bering?

11-masala andijon viloyatidagi "shohjaxon" fermer xo'jaligi rahbariga tuman soliq inspeksiyasi xodimi r. uning er uchastkasi uchun ijara haqini to'lamay kelayotganligini bildiradi. biroq, fermer xo'jaligi rahbari bu borada yagona er solig'i to'layotganligi bois ijara haqi to'lashi kerak emasligini e'tirof etadi.

- ushbu vaziyatga huquqiy baho bering.
- yagona er solig'i to'lovchi ijara haqi (er solig'i) to'lashi lozimmi?
- fermer xo'jaligi er uchastkasidan foydalanganlik uchun qanday to'lov to'laydi?

12-masala

fuqarolar sh. va v. baliqchilik xo'jaligi suv havzasidan havaskorlik yo'li bilan baliq ovladilar. bu holatni ko'rgan baliqliqchilik xo'jaligining qorovuli darhol baliqchilik xo'jaligining boshlig'iga murojaat qildi. baliqchilik xo'jaligi boshlig'i fuqarolar sh. va v.larning noqonuniy baliq ovlaganligi uchun javobgarlikka tortish to'g'risida qaror qabul qildi.

- baliqchilik xo'jaligi boshlig'ining harakatlariga baho bering?
- fuqaro sh.va v larning harakatlariga huquqbuzarlikning alomatlari bormi, agar huquqbuzarlik sodir etilgan bo'lsa, huquqbuzarlikga nisbatan qanday jazo chorasi belgilanishi kerak?

13-masalaquvayt respublikasi fuqarosi al-baxdi varbexiyn, toshkent viloyatining tog'li hududida (o'rmonda) ov qilishga ruxsatnomasi bo'lmay turib, bir kiyikni otib qo'ydi.

- quvayt respublikasi fuqarosi al-baxdi varbexiyn harakatida qonun buzilishi alomatlari mavjudmi?
- agar mavjud bo'lsa bu holda u qanday javobgarlikka tortiladi?
- kiyik go'shti taqdiri qanday kechadi?

14-masalaxalqaro ekologik fond o'zbekiston respublikasiga e'tiroznoma xati yubordi. xatda, xalkaro ekologik monitoring natijalariga ko'ra fond o'zbekiston respublikasini atrof tabiiy muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishlikni va tabiiy resurslarga nisbatan iqtisodiy nazar bilan emas, balki ekologik munosabatda bo'lishlik kerakligini ta'kidlagan.

- xalqaro huquq normalariga tayangan holda masalani eching.

15-masala o'zbekiston respublikasi hududida davlat ro'yxatidan o'tgan xalqaro mintaqaviy ekologik muammolarni o'rganish instituti (yuridik maqamoga ko'ra – nodavlat notijorat tashkilot) sanoatkontexnazorat davlat tashkilotini atrof tabiiy muhit soxasida tegishli darajada davlat boshqaruvini amalga oshira olmaganligi natijasida tabiatga zarar etkazishni oldini olaolmaganligi uchun, o'zbekiston tabiatiga, shu qatorda xalqaro mintaqaviy ekologik muammolarni o'rganish instituti qonun bilan muhofaza etiladigan huquq va manfaatlariga etkazilgan zararni qoplash uchun xalqaro ekologik sudiga bergan.

xalqaro ekologik sud mazkur ishni mazmunan ko'rib chiqishni boshlagan.

- xalqaro huquq normalariga tayangan holda masalani eching.

VI.MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil Ishni Tashkil Etishning Shakli Va Mazmuni

tinglovchilarning mustaqil ishi o'rganilayotgan mavzu yuzasidan ma'lumotlarni axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalangan xolda yig'ish, olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda ishlab chiqish, tahlil qilish va amaliyotda qo'llay olishdan iborat bo'lib,

uning shakllari turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular quyida keltiribtilgan.

tinglovchilarning mustaqil ishiga shuningdek, bitiruv malakaviy ishlarini bajarilishi borasida olib boradigan faoliyati ham kiradi.

mustaqil ishni bajarish natijalari baholanadi. uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar tinglovchilarning mashg'ulotlarda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

1. davlat va huquq nazariyasining kelib chiqishi va rivojlanishi.
2. ma'muriy huquq asoslari
3. fuqarolik huquqi asoslari.
4. iste'molchilarning asosiy huquqlari va ularning himoya qilinishining maqsad va vazifalari.
5. mehnat huquqi asoslari.
6. oila huquqi.
7. jinoiy huquq asoslari
8. tabiatni muxofaza qilish huquqi.
9. xalqaro huquq asoslari o'zbekistonkonstitutsiyasining vujudga kelishiga ta'sir etgan omillar.
10. o'zbekistonda inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jamiyatning iqtisodiy negizlari.
11. jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari.
12. o'zbekiston respublikasining milliy davlat va ma'muriy hududiy tuzilishi.
13. oliy majlis—o'zbekiston respublikasining parlamenti o'zbekiston respublikasi prezidenti—o'zbekiston davlatining boshlig'i.
14. o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining konstitutsiyaviy-huquqiy holati

TEST SAVOLLARI

1. Davlat va huquq nazariyasi fan sifatida nimani o'rganadi?

A) Bu huquq tarixi, davlat tarixi hamda huquq falsafasi qonuniyatlarini nazariy jihatdan o'rganuvchi metodologik fan

V) Bu davlat va siyosat masalalarini xronologik tarzda o'rganuvchi metodologik fan

S) Bu davlat va huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi va hozirgi kundagi faoliyatiga oid eng umumiy qonuniyatlarni nazariy jihatdan umumlashtirgan holda o'rganuvchi fan

D) Bu davlat va huquqning paydo bo'lishi va inqirozga uchrashini tarixiy jihatdan o'rganuvchi yuridik fan

E) Bu huquq va tarix qonuniyatlarini tizimli tarzda o'rganuvchi fundamental fan

2. Davlatning vujudga kelishini o'rganishda qanday yondashuvlar mavjud?

A) barcha javoblar to'g'ri

V) formatсион va sivilizatsion

- S) despotik va avtoritar
- D) formatsion va evristik
- E) siyosiy va iqtisodiy

3.Jamiyatga ta'rif bering?

- A) bu individlarning oddiy birikmasi
- V) Jamiyat - bu davlat uchun xizmat qiluvchi asosiy tashkilot hisoblanadi
- S) bu fuqarolik jamiyatidir
- V) Jamiyat - kishilarning murakkab dinamik tizimi bo'lib, ular guruh, tabaqali va oilaviy munosabatlar orqali bir-biri bilan bog'langan
- E) Jamiyat - bu individlarning oddiy birikmasi bo'lib, turli xil ijtimoiy institutlarini o'zida birlashtiradi

4. Jamiyatning siyosiy tizimi deganda nimani tushunasiz?

- A) huquqni muhofaza qiluvchi organlarning murakkab uyushmasini
- V) siyosiy hokimiyatning amalga oshirishda qatnashayotgan jamoat tashkilotlari majmuini
- S) davlat va siyosiy partiyalar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun foydalanadigan turli tarzdagi huquq va vakolatlarini
- D) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'zaro tartibli majmuasini
- E) davlat, siyosiy partiyalar, jamoat va boshqa tashkilotlarning yig'indisini

5.Demokratik jamiyat nima?

- A) Bunday jamiyatda faqat ishchi va dehqonlarni huquqlari oliy qadriyat sifatida tan olinadi
- V) Bu jamiyatda yirik fabrika va zavod egalari iqtisodiy va huquqiy jihatdan himoya qilinadi
- S) Bunday jamiyatda iqtisodiy jihatdan hukmron shaxslarning manfaatlari oliy qadriyat sifatida tan olinadi
- D) Bu jamiyatda inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida tan olinadi hamda hokimiyat xalq tomonidan amalga oshiriladi
- E) Bu jamiyatda davlat manfaatlari inson manfaatlaridan yuqori turadi

6.Davlatning mohiyatini tushunishda qanday nazariy yondashuvlar mavjud?

- A) Ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va tarixiy
- V) Siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy va evristik
- S) Ijtimoiy, sinfiy va siyosiy - huquqiy
- D) Ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy
- E) Ma'naviy, moddiy, siyosiy va huquqiy

7.Davlat funksiyasiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni ko'rsating?

- A) Bunda davlatning huquq ijodkorligi faoliyati bilan shug'ullanishi tushuniladi

- V) Bu davlat faoliyatining bosh yo‘nalishlari bo‘lib, u jamiyatning vazifasidan kelib chiqadi
- S) jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish usullari
- D) Davlat hokimiyatini shakllantirish shakli hisoblanadi
- E) Bu siyosiy hokimiyatni amalga oshirishning murakkab turi hisoblanadi

8.Davlat boshqaruv shakli sifatida respublikaning turlari ...

- A) halq respublikasi va prezidentlik respublikasi
- V) parlamentar va avtoritar respublika
- S) parlamentar respublika va prezidentlik respublikasi
- D) demokratik respublika va avtoritar respublika
- E) parlamentar respublika va demokratik respublika

9.Prezidentlik respublikasida Prezident kim tomonidan saylanadi?

- A) siyosiy partiyalar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan
- V) parlament tomonidan yashirin ovoz berish yo‘li orqali
- S) qasamyod etilgan sudyalarning hay‘ati tomonidan
- D) umumhalq saylovi asosida
- E) hukumat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri

10. Parlamentar respublikada Prezident kim tomonidan saylanadi?

- A) referendum
- V) barcha javoblar to‘g‘ri
- S) parlament
- D) hukumat
- E) sud hokimiyati

11. Demokratiyaning qanday shakllari mavjud?

- A) Vakillik va bevosita demokratiya
- V) Ijtimoiy demokratiya va siyosiy demokratiya
- S) Siyosiy demokratiya va iqtisodiy demokratiya
- D) Vakillik demokratiyasi va jamoaviy demokratiya
- E) Qonuniy demokratiya va bevosita demokratiya

12. Quyida ko‘rsatib o‘tilgan qaysi birlashmalar davlat mexanizmiga kiradi?

- A) ichki ishlar organlari, ilmiy muassasalar
- V) qonunchilik, ijroiya, huquqni muhofaza qilish organlari
- S) nodavlat va notijorat tashkilotlari
- D) siyosiy partiyalar, qonunchilik organlari

E) sudlov organlari, jamoat birlashmalari

13. Quyidagilardan qaysi biri davlat apparati faoliyatini tashkil etish prinsiplariga kirmaydi?

A) demokratizm prinsipi

V) nazoratchilik prinsipi

S) qonuniylik prinsipi

D) oshkoralik prinsipi

E) hokimiyatni taqsimlanish prinsipi

14. Davlat hokimiyatini qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishi ta'limotini yaratgan mutafakkir kim?

A) Spinoza

V) T.Gobbs

S) Spenser

D) SH.Monteske

E) Konfutsiy

15. Quyidagilardan qaysi biri huquqning asosiy belgilariga kirmaydi?

A) Bajarilishining shartligi

V) Davlat tomonidan ta'minlanganligi

S) Jamoatchilik tomonidan himoya qilinishi

D) Davlat tomonidan o'rnatilganligi

E) Barcha uchun majburiyligi

16. Quyidagilardan qaysi biri huquq prinsiplariga kirmaydi?

A) evristik prinsip

V) qonuniylik prinsipi

S) fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi

D) insonparvarlik prinsipi

E) demokratizm prinsipi

17. Huquqning funksiyasi ko'rsatilmagan variantni aniqlang?

A) gumanistik funksiya

V) tartibga solish funksiyasi

S) mafkuraviy va tarbiyaviy funksiya

D) umummajburiy bo'lmagan funksiya

E) qo'riqlash funksiyasi

18. Huquqni hozirgi zamonda tushunish qanday?

A) davlat tomonidan o'rnatilgan yoki sanksilangan va uning majburlov kuchi bilan ta'minlangan umummajburiy xatti-harakat qoidalari tizimi

V) yuridik normalar bilan tartibga solinuvchi odamlarning real hatti-xarakati, huquqiy munosabatlar tizimi

S) mazmuni jamiyat hayotining iqtisodiy sharoitlari bilan belgilanadigan va hukmron sinflarning qonun darajasiga ko'tarilgan erki ifodasi

D) kishilarning o'z huquq va majburiyatlariga bo'lgan ruhiy munosabati

E) shaxsning g'ayri-qonuniy harakatlarini cheklash usuli

19. Huquq va uning hayotda amalga oshishi to'g'risidagi kishilarning tasavvurlari va hislarini ifodalovchi ijtimoiy ongning bir shakli - bu

A) huquqiy ong

V) ahloqiy ong

C) siyosiy ong

D) estetik ong

E) diniy ong

20. Kim O'zbekiston Respublikasi halqi nomidan ish yuritishga vakolatli?

A) Oliy Majlis va Prezident

V) Konstitutsiyaviy sud

S) Prezident va hukumat

D) Vazirlar Mahkamasi va Oliy Majlis

E) Hukumat va Konstitutsiyaviy sud

21. "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" g'oyasining muallifi:

A) A.Akaev

V) I.Karimov

S) I.Kant

D) G.Grotsiy

E) J.J.Russo

22. Huquqiy davlatni va uning faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?

A) jamiyatning barcha tabaqalarida qonun ustuvorligi

V) ko'ppartiyaviylik asosida davlat organlarini saylanishi

S) shaxs huquqlarining kafolatlanganligi

D) hokimiyat vakolatlarining konstitutsiyaviy taqsimlanganligi

E) barcha javoblar to'g'ri

23. Huquqning asosiy funksiyalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Tartibga soluvchi, qo'riqlovchi, tarbiyaviy
- B) Jazolovchi, qo'riqlovchi, axloqiy
- S) Ma'muriy, jazolovchi, qo'riqlovchi, axloqiy
- D) ichki va tashqi

24. Ma'muriyat so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Tashkillashtirish
- B) Boshqarish
- S) Rahbariyat
- D) Hokimiyat

25. O'zbekiston Respublikasida maxalliy davlat xokimiyati organlarini qayta tashkil etish to'g'risidagi qonun qabul qilingan sana qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) 1993 yil 2 sentyabr
- B) 2002 yil 12 dekabr
- S) 1992 yil 4 yanvar
- D) 1993 yil 6 sentyabr

26. Fuqarolik Kodeksiga asosan O'zbekiston Respublikasida mulk necha shaklga bo'linadi

- A) Xususiy mulk, kopperativ mulk, ommaviy mulk
- B) Davlat mulki, umumiy mulk, birgalikdagi mulk
- S) Xususiy mulk va ommaviy mulk
- D) Kasaba uyushmasi va boshqa jamoat tashkilotlari mulki, davlat mulki, shaxsiy mulk
- E) SHaxsiy mulk va xususiy mulk

27. O'zbekiston Respublikasida FHDYO organlari faoliyati qaysi organ tomonidan tartibga solinadi

- A) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
- B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- S) O'zbekiston Respublikasi IIV
- D) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi
- E) O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi

28. O'zbekiston Respublikasi BMTga qachon qabul qilingan

- A) 1991 yil 1 sentyabr
- B) 1992 yil 2 mart
- S) 1993 yil 2 iyul
- D) 1992 yil 8 dekabr

E) 1992 yil 10 sentyabr

29. Kodeks nima

A) Huquqning biron sohasini tizimga soluvchi qonunlar to'plami

B) Qonun va buyruqlar to'plami

S) Qonunning bir turi

D) MDH davlatlaridagi qonun

E) Jinoyat huquqi sohasidagi qonunlar to'plami

30. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari necha yoshdan boshlab jinoiy javobgarlikka tortiladi.

A) 13 yosh

B) 14 yosh

S) 16 yosh

D) 15 yosh

E) 17 yosh

31. O'zbekiston Respublikasining "Er kodeksi" qachon qabul qilingan.

A) 1992 yil 10 iyun

B) 1998 yil 30 aprel

S) 1997 yil 29 avgust

D) 1996 yil 26 aprel

E) 1998 yil 10 dekabr

32. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi qachon qabul qilingan va qachon kuchga kiritilgan.

A) 1995 yil 10 aprel qabul qilingan, 1995 yil 1 sentyabrdan kuchga kiritilgan

B) 1994 yil 22 sentyabr va 1995 yil 1 yanvar

S) 1994 yil 1 sentyabr va 1995 yil 1 yanvar

D) 1995 yil 1 yanvar va 1995 yil 1 iyun

E) 1994 yil 1 oktyabr va 1995 yil 1 fevral

33. Jinoyatning tarkibi nechta elementdan iborat.

A) Ob'ekt va ob'ektiv tomon

B) Sub'ekt va sub'ektiv tomon

S) Ob'ekt, ob'ektiv tomon, sub'ekt, sub'ektiv tomon

D) Ob'ekt

E) Sub'ekt

34. YUridik javobgarlikning turlari bo'lib:-----

- A) Ma'muriy va jinoiy javobgarliklar hisoblanadi
- B) Ma'muriy, jinoiy va moddiy javobgarliklar hisoblanadi
- S) Ma'muriy, jinoiy, intizomiy va fuqaroviy (moddiy) javobgarliklar
- D) Jinoiy va moddiy javobgarlik
- E) Jinoiy javobgarlik

35. Fuqorolik kodeksiga asosan O'zbekiston Respublikasi mulk necha shaklda bo'ladi.

- A. Huquqiy mulk. kapperativ mulk. ommoviy mulk.
- B. Davlat mulki, umumiy mulk, birgalikdagi mulk.
- S. Xususiy mulk va ommoviy mulk.
- D. Kasaba uyishmasi va boshqa jamoat tashkilotlar mulki, davlat mulki, shaxsiy mulk.

36. Fuqorolarning muomila loyoqati necha yoshdan boshlanadi

- A. 16 yosh
- B. 18 yosh
- S. 14 yosh
- D. 12 yosh

37. Nima uchun ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solish zarur?

- A) Iqtisodiy rivojlanish uchun
- B) Xalqaro aloqalarni tiklash uchun
- V) Atrof-muhitni huquqiy jihatdan muhofazalash uchun
- G) Hokimiyatning bo'linish prinsipini ta'minlash uchun

38. Iqlim o'zgarishi ekologik xavfsizlikka oid qanday muammo hisoblanadi ?

- A) Global
- B) Mintaqaviy
- V) Milliy
- G) Mahalliy

39. Insonning qulay tabiiy muhitda yashash, o'z salomatligini atrof muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish huquqi qaysi qonun bilan mustahkamlangan ?

- A) O'.R. Konstitutsiyasida
- B) O'.R. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunda
- V) O'.R. "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi qonunda
- G) O'.R. "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida" qonunda

40. "Ekologiya" so'zi grekchada nimani anglatadi ?

- A) Organizmlar haqidagi fan

B) Er haqidagi ta'limot

V) Tabiat haqidagi bilim

G) Uy, yashash joyi haqidagi ta'limot

41. Ilk bor fanga «Ekologiya» so'zini olib kirgan?

A) CHarlz Darvin

B) Abu Nasr Forobiy

V) Ernest Gekkel

G) Abu Ali ibn Sino

42. Ekologiya huquqining ob'ekti to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

A) inson, hayvonot dunyosi

B) tabiiy ob'ektlar, tabiiy resurslar, tabiiy komplekslar

V) er va er osti boyliklari

G) muhofaza etiladigan tabiiy hududlar

43. Ekologiya huquqining usullari (metodlari) to'liq ko'rsatilgan javobni aniqlang.

A) fuqarolik-huquqiy va jinoyat-huquqiy

B) ma'muriy-huquqiy va ekologik

V) fuqarolik-huquqiy, ma'muriy-huquqiy va ekologizatsiyalashtirish

G) ekologizatsiyalashtirish va fuqarolik-huquqiy

44. Jinoyatda ishtirokchilik shakllari necha xil?

a) 3

b) 4

v) 5

g) 2

45. Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar necha xil?

a) 3

b) 4

v) 5

g) 6

46. Jinoiy uyushma tashkil qilish jinoyati qanday tarkibli jinoyat hisoblanadi?

a) moddiy

b) formal

v) kesik

g) a,b, v

47. Moddiy tarkibli jinoyatlar ob'ektiv tomonining zaruriy belgilari qaysilar?

- a) Ijtimoiy xavfli qilmish
- b) Ijtimoiy xavfli oqibat
- v) Ijtimoiy xavfli qilmish, ijtimoiy xavfli oqibat, ular o'rtasidagi sababiy bog'lanish
- g) a,b,v

48. Jinoyat ob'ektining turlari

- a) umumiy;
- b) maxsus;
- v) bevosit;
- g) a,b,v

49. O'zbekiston bayrog'i ostida uchuvchi vertolyot ichida O'zbekiston hududidan tashqari neytral hududda jinoyat sodir etildi. Jinoyat qaerda sodir etilgan deb topiladi?

- a) CHet davlatda
- b) O'zbekiston hududida
- v) Neytral hududda
- g) Eng yaqin davlat hududida

50. Latent jinoyatchilik deganda nimani tushunasiz?

- a) Sodir etilgan, lekin turli sabablarga ko'ra tegishli davlat organlari tomonidan ro'yxatga olinmagan jinoyatlar.
- b) Sodir etilgan, ammo javobgarlik muddati o'tib ketgan jinoyatlar
- v) Muayyan bir davrda ijtimoiy xavfli tus olgan jinoyatlar.
- g) Sodir etilgan, lekin isbotlanmagan jinoyatlar.

51. Jinoyat tarkibining tuzilishi qanday?

- a) moddiy;
- b) formal;
- v) kesik;
- g) a,b, v.

52. Moddiy tarkibi jinoyatlar tushunchasi, zaruriy belgilari, turlari

- a) Ijtimoiy xafli xarakat yoki xarakatsizlikdan kelib chiqqan oqibatni yakolligi xafli zarurligi.
- b) Ijtimoiy xafli xarakat yoki xarakatsizlikdan kelib chiqqan jinoyat to'liq emasligi.
- v) Ijtimoiy xafli xarakat yoki xarakatsizlik undan kelib chiqqan ijtimoiy xafli oqibat o'rtasidagi munosabat
- g) Ijtimoiy xafli qilmishlardan kelib chiqqan oqibat bilan kilmish o'rtasidagi sababiy bog'lanish bo'lish zarurligi.

53. Uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar.

- a) Ma'lum davragacha cho'zilgan jinoiy xarakat yoki xarakatsizlik.
- b) Jinoyat sodir etilib ayrim vaqt ichida qidiruvda bulish.
- v) vazifalarni uzoq vaqt davomida bajarmaslik.
- g) O'zoq vaqt ichida ijtimoiy xavfli xarakat yoki xarakatsizlikka sodir etgan shaxs o'zi xarakatini o'z to'xtatishi.

54. Ayb tushunchasi va shakllari?

- a) shaxsni o'zi sodir qilgan ijtimoiy xavfli qilmishiga qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi ruhiy qilmishiga qasd yoki harakatsizlik ruhiy munosabati.
- b) shaxsni jinoyat qonunida ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikni qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir qilishi;
- v) shaxs jinoyat qonunida ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikni qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir qilishi;

55. g) ayb shaxsning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi va uning oqibatlariga qasd yoki ehtiyotsizlikdan bo'lgan ruhiy munosabati.

56. Qanday jinoyatlar murakkab aybli jinoyat deb topiladi?

- a) biri qasddan ikkinchisi ehtiyotsizlikdan qilingan jinoyat
- b) xar ikkalasi qasdda qilingan jinoyatlar
- v) qasddan
- g) qasddan sodir etilgan Jinoyat natijasida ehtiyotsizlikdan boshqa bir oqibat kelib chiqsa

57. Aybsiz xolda zarar etkazish deganda nimani tushunasiz?

- a) SHaxsning o'z qilmishining xavflilik xususiyatini anglaganligi
- b) SHaxsning o'z qilmishning ijtimoiy xavfliligini anglash lozim bo'lganligi
- v) SHaxsning o'z qilmishining ijtimoiy xavfli oqibatiga ko'zi etmaganligi
- g) O'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglamagan, anglashi mumkin va lozim bo'lmagan bo'lsa

58. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rilishiga yoki jinoyat sodir etishga raxbarlik qilgan shaxs...

- a) YOrdamchi
- b) Dalolatchi
- v) Bajaruvchi
- g) Tashkilotchi

59. Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlarni ko'rsating.

1. Kam ahamiyatli qilmishlar; 2. ijtimoiy xavfli sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar etkazish; 3. Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish; 4. Kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakalchilik; 5. Oqibatni bartaraf etish; 6. Jinoyatchining o'limi; 7. Zaruriy mudofaa; 8. Oxirgi zarurat;

- a) 1,2,3,4,5.
- b) 5,6,7,8.

v.1,3,5,7,8.

g) 1,2,3,4,7,8.

60. Jinoiy uyushma tashkil qilish jinoyati qanday tarkibli jinoyat hisoblanadi?

a) moddiy

b formal

v) kesik

g) a va b

61. Moddiy tarkibli jinoyatlar ob'ektiv tomonining zaruriy belgilari qaysilar?

a) Ijtimoiy xavfli qilmish

b) Ijtimoiy xavfli oqibat

v) Ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasida kelib chiqqan sababiy bog'lanish

g) a, b, v.

62. Formal tarkibli jinoyatlarning zaruriy belgisi?

a) Ijtimoiy xavfli qilmish

b Ijtimoiy xavfli oqibat

v) Ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasida kelib chiqqan sababiy bog'lanish

g) a va b

63. Muayyan huquqidan maxrum qilish bu-

a) Faqat asosiy jazo sifatida qo'llaniladi

b Faqat (asosi qo'shimcha jazo sifatida qo'llaniladi

v) a va b

g) to'g'ri javob yo'q

64. Jinoyat qonuni:

a) qilmishning jinoiyligini bekor qilsa, jazoni engillashtirsa yoki boshqacha tarzda shaxsning xolatini engillashtirsa orqaga qaytish kuchiga ega bo'ladi.

b qilmishning jinoiyligini o'rnatga jazoni og'irlashtirsa yoki boshqacha tarzda shaxsning axvolini og'irlashtirsa orqaga qaytish kuchiga ega bo'ladi.

v) hech qanchon orqaga qaytish kuchiga ega emas

g) doim orqaga qaytish kuchiga ega

65. Mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi fuqarolik kodeksining nechanchi bobi va moddasida o'z aksini topgan?

A. 49-bob, 849-861-moddalar

B. 47bob, 849-861-moddalar

V. 49bob, 861-871-moddalar

S. A va V javoblar to'g'ri

66. Mulk ijarasi shartnomasining turlarini sanab bering:

A. Arenda

B. Prokat

V. Tekin

S. A va B javoblar to'g'ri

67. «Emonsipatsiya» tushunchasini sharhlab bering:

A. Muddatdan oldin muomala laYOqatiga ega bo'lish

B. Huquq laYOqati

V. YUridik shaxs

S. Jismoniy shaxs

68. SHartnoma bilan bitimning nima farqi bor?

A. Bitimda majburiyat va huquq bir tomonda bo'ladi

B. SHartnomada Huquqi va majburiyat ikki tomonda bo'ladi va u ikki va ko'p tomonlama tuzuladi

V. Bitim bir tomonlama tuzulishi mumkin

S. Barcha javob to'g'ri

69. **O'zbekiston Respublikasi oila qonunchiligida belgilangan nikoh yoshi:**

A) Erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh

V) Erkaklar uchun 19 yosh, ayollar uchun 18 yosh

S) Erkaklar uchun 17 yosh, ayollar uchun 16 yosh

D) Erkaklar uchun 20 yosh, ayollar uchun 19 yosh

E) qonunda belgilanmagan

70. Nikoh tuzishga monelik qilmaydigan holatni belgilang

A) Nasl -nsab bo'yicha to'g'ri shajara bo'yicha tutashgan qarindosh bo'lsa

V) Loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan bo'lsa

S) Sil kasalligiga chalingan bo'lsa

D) Muomalaga layoqatsiz deb sud tomonidan topilgan bo'lsa

E) Nikoh yoshiga etmagan bo'lsa

71. Er va xotin majburiyatlari qaysi paytdan vujudga keladi:

A) Nikoh yoshiga to'lgandan boshlab

V) FHDYO organalarida nikoh qayd etilgandan boshlab

S) FXDYO organalariga ariza berilgan paytdan boshlab

D) Nikohlanuvchi shaxslar tibbiy ko'rikdan o'tgandan boshlab

E) Bola to'g'ilishidan boshlab

72. Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar umumiy mablag'larga sotib olingan mol- mulklari

A) Birgalikdagi ulushli mol-mulk

V) SHaxsiy mol-mulk

S) Davlat mulki

D) Birgalikdagi umumiy mulki

E) Munitsipal mol-mulk

73. Nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi talablariga nisbatan necha yillik da'vo muddati qo'llaniladi:

A) 6 oylik

V) 1 yillik

S) Da'vo muddati qo'llanilmaydi

D) 5 yillik

E) 3 yillik

74. Nikoh shartnomasi qaysi paytdan kuchga kiradi

A) SHartnomaning asosiy shartlari kelishilganidan so'ng

V) Nikoh shartnomasi notarial tasdiqlanganidan so'ng

S) Nikoh davlat ro'yxatiga olingan paytdan

D) Nikoh shartnomasi imzolanganidan so'ng

E) Nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan

75. Qachon erning nikohdan ajratish to'g'risida talab qo'yishi man etiladi

A) Xotin kasal bo'lsa

V) Xotin xomilador bo'lsa

S) Xotin muomalaga layoqatsiz bo'lsa

D) Xech bir xolda erning bu huquqi man etilmaydi

E) Bola tug'ilganidan keyin 3 yil mobaynida

76. Sud ishni ko'rilishini keyinga qoldirib er-xotin yarashishi uchun

A) 9 oy muhlat beradi

V) 1 yil muhlat beradi

S) 6 oy muhlat beradi

D) 3 yil muhlat beradi

E) 10 oy muhlat beradi

77. Nikohdan sud tartibida ajratilganda nikohning tugatilish vaqi

A) Hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan

V) Ajralish FHDYO organlarida qayd etilgan paytdan boshlab

S) FHDYO organlariga sudning hal qiluv qaroridan ko'chirma yuborilgandan so'ng

D) Sudga ariza berilgandan so'ng

E) Ajralish to'g'risida guvohnoma berilgan paytdan

78. Necha kun ichida sud nikoh tuzilganligi ro'yxatga olingan joydagi FHDYO organiga nikohdan ajratish to'g'risidagi hal qiluv qaroridan ko'chirma yuborishi shart

A) 20 kun ichida

V) 12 kun ichida

S) 7 kun ichida

D) 10 kun ichida

E) 1 oy ichida

79. Haqiqiy emas deb topilgan nikoh qaysi vaqtdan haqiqiy emas deb topiladi:

A) Sudga ariza berilgan paytdan

V) Sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan

S) FHDYO organlariga sudning hal qiluv qaroridan ko'chirma yuborilgan paytdan

D) Nikoh tuzilgan vaqtdan boshlab

E) Nikoh xaqiqiy emasligi to'g'risida guvohnoma berilgan paytdan

80. Bolaning otasi yoki onasi deb yozilgan shaxs shu yozuv to'g'risida necha yil mobaynida sud tartibida e'tiroz bildirishi mumkin:

A) 3 yil mobaynida

V) 1 yil mobaynida

S) 5 yil mobaynida

D) Bola voyaga etgunga qadar

E) Bu talabni qo'ya olmaydi

81. Necha yoshdan boshlab bolaning qonuniy huquq va manfaatlari buzilganda bola mustaqil ravishda sudga murojaat qilish huquqiga ega

A) to'g'ri javob yo'q

V) 14 yoshdan

S) 16 yoshdan

D) Voyaga etgan paytdan boshlab

E) 10 yoshdan

82. Necha yoshga to'lgan bolaning ismi yoki familiyasi o'zgartirishga uning roziligi kerak

A) 16 yoshga

V) 14 yoshga

S) 10 yoshga

D) Voyaga etgan bolaning

E) To'g'ri javob yo'q

83. Nikohdan ajralish FHDYO organlariga ariza beriganidan boshlab kaysi muddatda qayd etiladi

A) 7 kun davomida

V) 1oy davomida

S) 3 oy davomida

D) 10 kun davomida

E) 1 yil davomida

84. Oilaviy munosabatlarning asosiy tamoyillaridan biri bo'lmish, ixtiyoriy tuzilgan nikohda ayol va erkakning maqomini belgilovchi tamoyilini belgilang

A) Ayol va erkakning teng huquqligi

V) Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning teng huquqligi

S) Nikoh ixtiyoriyligi

D) Oilaning, onalik, otalik va bolalikning davlat tomonidan muhofaza qilinishi

E) To'g'ri javob yo'q

85. O'zbekiston Respublikasida oila, onalik, otalik va bolalik davlat kim tomonidan muhofaza qilinadi

A) Sud

V) Halq

S) Prezident

D) Konstitutsiya

E) Davlat

86. Oila to'g'risidagi qonun xujjatlari bilan tartibga solinmagan oila a'zolari o'rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarga nisbatan qanday qonun xujjatlari qo'llaniladi

A) Mehnat qonun xujjatlari

V) Fuqarolik qonun xujjatlari

S) Moliya qonun xujjatlari

D) Soliq qonun xujjatlari

E) Jinoyat qonun xujjatlari

87. Oilaviy huquqlar kim tomonidan himoyalaniadi

A) Nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan

V) Sud tomonidan

S) Vasiylik va xomiylik organlari tomonidan

D) Fuqarolar tomonidan

E) Sud, vasiylik va xomiylik organlari va boshqa davlat organlari tomonidan

88. Nikoh qaerda tuziladi

A) Dliya vazirligi bo'limlarida

V) FHDYO organlarida

S) O'zini o'zi boshqarish organlarida

D) Iniy tashkilotlarda

E) To'g'ri javob yo'q

89. Umumiy qoyida bo'yicha nikoh qachon tuziladi

A) Ariza berilganidan kuni

V) Ariza berilgan keyin 1 oy o'tgach

S) Ariza berilganidan keyin 2 oy o'tgach

D) Ariza berilganidan keyin 3 oy o'tgach

E) Ariza berilganidan keyin 6 oy o'tgach

90. Ko'rsatilgan xollardan qaysi biri ariza berilgan kunining o'zida nikoh tuzishga asos bo'la olmaydi

A) Nikohlanuvchilardan birining oila a'zosining kasalligi

V) Bola tug'ilishi

S) Xomiladorlik

D) Er-xotindan birining hayoti xavf ostida bo'lishi

E) To'g'ri javob yo'q

91. Kimning qaroriga ko'ra nikoh yoshi kamaytirilishi mumkin

A) To'g'ri javob yo'q

V) Sud qaroriga ko'ra

S) FHDYO organining qaroriga ko'ra

D) Vasiylik va xomiylik organining

E) Tuman, shahar xokimining

92. Nikoh yoshi ko'pi bilan qanchaga kamaytirilishi mumkin

- A) 2 yilgacha
- V) 6 oygacha
- S) 1yilgacha
- D) 3 yilgacha
- E) To'g'ri javob yo'q

93. Nikohning tugatuvchi yuridik faktlarni belgilang

A) AJRALISH

- V) Er-xotindan birining vafoti
- S) Er-xotindan birining sud tartibida vafot etgan deb e'lon qilinishi
- D) Er-xotindan birining vafoti, er-xotindan birining sd tartibida vafot etgan deb e'lon qilinishi, ajralish
- E) Er-xotindan birining muomala layoqatini sud tartibida cheklash

94. Ajratish kim tomonidan amalga oshiriladi

- A) Faqat sud tomonidan
- V) FHDYO va sud tomonidan
- S) Faqat FHDYO organi tomonidan
- D) O'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan
- E) To'g'ri javob yo'q

95. Nikohni haqiqiy emas deb topishga asos bo'la olmaydigan xolni belgilang

- A) Nikoh ozodlikdan mahrum qilingan shaxs bilan tuzilgan bo'lsa
- V) Nikoh nikoh yoshiga to'lmagan shaxs bilan tuzilgan bo'lsa
- S) Nikoh tuzishga monelik qiladigan xolatlar mavjud bo'lganda tuzilgan bo'lsa
- D) Majburlab tuzilgan nikoh
- E) Soxta nikoh tuzilgan bo'lsa

96. Nevara bobo va buvisiga nisbatan

- A) YOn shajara bo'yicha qarindosh
- V) Birinchi darajali
- S) Ikkinchi darajali qarindosh
- D) Uchinchi darajali qarindosh
- E) To'g'ri javob yo'q

97. Nikoh tugaganidan so'ng necha kun ichida tug'ilgan bola nikohda tug'ilgan deb xisoblanadi

- A) To'g'ri javob yo'q

V) 270 kun

S) 365 kun

D) 400 kun

E) 300 kun

98. Otalik (onalik) to'g'risida e'tiroz bildirish uchun da'vo muddati

A) 18 yil

V) uch yil

S) 6 oy

D) bir yil

E) To'g'ri javob yo'q

99. Oila huquqi fanining o'ziga xos xususiy tamoyili sifatida belgilanmagan tamoyilni ko'rsating

A) Mulk dahlsizligi

V) Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqligi'

S) Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning tengsh huquqligi

D) Oilaning, onalik, otalik va bolalaikning davlat muhofazasida bo'lishi

E) Nikoh tuzishning ihtiyoriyligi

100. Oilaviy munosabatlarning sub'ektlari-

A) Oilaviy huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan shahslar

V) Er-xotin, ota-ona farzandlar, farzandlikka oluvchilar

S) Jismoniy va yuridik shaxslar

D) Vasiylik va xomiylik organlari

E) Davlat

101. Ko'rsatilgan huquqlarni himoyalash asosiy shakllaridan, vasiylik va xomiylik organlari qaysi bir himoyalash usulini qo'lla olmaydi

A) O'z vakolatalari doirasida ayrim xarakatlarni amalga oshirish uchun ruxsat berish

V) O'z vakolatlari doirasida mustaqil qaror qabul qilish

S) Bola huquqlari buzilganda jinoyat ishini qo'zg'atish

D) Da'vo qilish tartibida aniq talablar bilan sudga murojat qilish

E) Sud muhokamasida ishtiroq etish

296. Oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talabalarga nisbatan da'vo muddatini qo'llashda sud

A) To'g'ri javob yo'q

- V) Ma'muriy javobgarlik to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Kodeksini qo'llaydi
- S) Jinoyat Kodeksini qo'llaydi
- D) Mehnat Kodeksini qo'llaydi
- E) Fuqarolik Kodeksi normalarini qo'llaydi

102. Nikohni davlat tomonidan qayd etilishi

- A) Nikohlanuvchi shaxslarning bevosita ishtiroqida va xomiy ishtiroqida
- V) Faqat nikohlanuvchi shaxslarning bevosita ishtiroqida amalga oshiriladi
- S) Nikohlanuvchi shaxslarning bevosita ishtiroqida va vakil ishtiroqida
- D) Nikohlanuvchi shaxslarning bevosita ishtiroqida va vasiylik va xomiylik organlari ishtiroqida
- E) Nikohlanuvchi shaxslarning birining bevosita ishtiroqida

103. quyida ko'rsatilgan xolatlaridan qaysi bir nikohlanuvchi shaxslar tomonidan nikohni qayd etishda beriladigan arizaning mazmuniga kiritilmaydi

- A) YAshash joyi
- V) Nikohlanuvchilarning tug'ilgan vaqti
- S) Nikohlanuvchilarning yoshi
- D) Kasallik haqida ma'lumot
- E) Nikohlanuvchilarning nikoh qayd etilganidan so'ng familiyasi

104. FHDYO organlari nikohni qayd etish uchun belgilangan bir oylik muddatni qanchaga uzaytira oladilar

- A) Ko'pi bilan 3 oyga
- V) Ko'pi bilan 1 oyga
- S) Ko'pi bilan 7 kunga
- D) Ko'pi bilan 2 oyga
- E) O'zaytira olmaydilar

105. Nikoh tuzish vaqtida er va xotin

- A) O'z familiyasini saqlab qoladilar yoki umumiy er yoki xotinning familiyasidan bir umumiy familiya tanlab oladilar
- V) Oila va farzandlar uchun bir umumiy familiya tanlab oladilar
- S) Har bir nikohlanuvchi o'z familiyasini saqlab qoladi
- D) O'z familiyasini saqlab qoladilar yoki umumiy er yoki xotinning familiyasidan bir umumiy familiya tanlab oladilar, er-xotin o'z familiyalarni qo'shib qo'sh familiya tanlab oladilar
- E) To'g'ri javob yo'q

108. Respublikada demokratiya qanday prinsiplarga asoslanadi?

- A) Umuminsoniy prinsiplarga
- V) Davlat nazorat funksiyasini chegaralab borish prinsipiga
- S) Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirib borish prinsipi
- D) Demokratik markazlashtirish prinsipiga
- E) To'g'ri javob yo'q.

109. Nimalar referendumga qo'yiladi?

- A) Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari
- V) Vakillik organlarini tuzish
- S) Vakillik organlarini tarqatish
- D) Xukumatni tarqatish
- E) To'g'ri javob yo'q.

110. O'zbekiston Respublikasining boshqaruv shakli

- A) Respublika
- V) Parlamentar Respublika
- S) Konstitutsiyaviy monarxiya
- D) Monarxiya
- E) Absolyut monarxiya

111. Qaysi hujjat yuqori kuchga ega

- A) Qonun
- V) Prezident Farmoni
- S) Vazirlar Mahkamasining qarori
- D) Hokimning buyrug'i
- E) Bosh vazir farmoyishi

112. Fuqarolar murojaatlari shakllari qaysilar?

- A) Taklif, ariza va shikoyat
- B) Taklif va shikoyat
- C) Xabar, so'rov
- D) YOzma, og'zaki
- E) da'vo arizasi

113. Mahalliy hokimiyat organlarining konstitutsiyaviy vazifalarini aniqlang?

- A) Hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish
- V) Qishloq xo'jaligi, qurilishga rahbarlik qilish

- S) Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqib xal qilish
- D) Oilani muhofaza qilish
- E) YOllanib ishlayotgan barcha fuqarolarning dam olishini ta'minlash

114. Referendum nima?

- A) Fuqarolarning umumxalq ovozi
- V) Muhim masalalar yuzasidan maslahatlashuv
- S) Umumxalq muhokamasi
- D) Saylovning bir turi
- E) To'g'ri javob yo'q

115. O'zbekistonda milliy-davlat tuzilish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tizimini kim belgilaydi?

- A) O'zbekiston Respublikasi Parlamenti
- V) Respublika Prezidenti
- S) Vazirlar Mahkamasi
- D) Konstitutsiyaviy Sud
- E) Jo'qorg'i Kenges

116. Qonun qachon kuchga kiradi?

- A) E'lon qilingandan so'ng 10 kundan keyin; agarda qonunda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa;
- V) Qabul qilingandan so'ng 10 kun ichida agarda qonunda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa;
- S) Qabul qilingandan so'ng 1 xaftada;
- D) Qabul qilingandan so'ng 1 oy ichida
- E) E'lon qilingandan so'ng 15 kundan keyin

117. Qurolli kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qanday hujjatlar bilan belgilanadi?

- A) Qonun bilan
- V) Vazirlar Mahkamasi qarori bilan
- S) Prezident farmoni bilan
- D) Farmoyish bilan
- E) To'g'ri javob yo'q

118. Respublikada eng oliy qadriyat nima?

- A) Inson, uning hayoti, erkinliklari
- V) Mamlakatning milliy boyligi

- S) Davlat va jamiyat manfaatlar
- D) Xususiy mulk
- E) Davlat manfaati.

119. Prezident qachon va qaerda qasamyod qiladi?

- A) Oliy Majlis palatalari qo'shma yig'ilishida
- V) Vazirlar Mahkamasida
- S) Konstitutsiyaviy Sudda
- D) Prezident devonida
- E) To'g'ri javob yo'q

120. Kimlar saylovda qatnashmaydi?

- A) Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganlar
- V) Davlatga qarshi jinoyat sodir etganlar
- S) Taqiqlangan partiya va harakatlar a'zolari
- D) V) va S)
- E) To'g'ri javob yo'q

121. O'zbekiston xalqi nomidan kim ish olib borishi mumkin?

- A) V) va E)
- V) Parlament
- S) Konstitutsiyaviy sud Raisi
- D) Bosh vazir
- E) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

122. Xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti kim?

- A) O'zbekiston Respublikasi.
- V) Vazirlar Mahkamasi.
- S) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
- D) Senat
- E) Qoraqalpog'iston Respublikasi

123. YAshash huquqi konstitutsiyaning qaysi moddasida aks ettirilgan ?

- A) 24 modda
- V) 21 moddada
- S) 28 moddada
- D) 23 moddada

E) 31 moddada

124.” Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega” jumlası konstitutsiyaning qaysi moddasida aks ettirilgan?

A) 25 moddada

V) 24 moddada

S) 28 moddada

D) 23 moddada

E) 31 moddada

125. SHaxsiy huquqni aniqlang?

A) Aybsizlik prezumpsiyasi.

V) Saylash huquqi

S) Mulkdor bo‘lish huquqi

D) Dam olish huquqi

E) Bilim olish huquqi

126. Turar joy daxlsizligi huquqi – bu

A) SHaxsiy huquq

V) Ijtimoiy huquq

S) Siyosiy huquq

D) Iqtisodiy huquq

E) Tabiiy huquq

127. “Har kim o‘z sha‘ni va obro‘sigı qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniş va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega” jumlası konstitutsiyaning qaysi moddasida qayd etilgan?

A) 27 modda

V) 24 moddada

S) 28 moddada

D) 23 moddada

E) 31 moddada

128. So‘z va e‘tiqod erkinligi - bu

A) SHaxsiy huquq

V) Ijtimoiy huquq

S) Siyosiy huquq

D) Iqtisodiy huquq

E) Tabiiy huquq

129. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi qachon va qaysi hollarda cheklanishi mumkin?

A) faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.

V) Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi cheklanmaydi.

S) Senzura yo'li bilan cheklanadi

D) Oilaviy munosabatlarda cheklanadi

E) To'g'ri javob yo'q.

130. “Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi” jumlasini qaysi moddada qayd etilgan?

A) 31 modda

V) 24 moddada

S) 28 moddada

D) 23 moddada

E) 21 moddada

131. Fuqarolarning murojaati huquqi konstitutsiyamizning qaysi moddasida qayd etilgan?

A) 35 modda

V) 24 moddada

S) 28 moddada

D) 23 moddada

E) 21 moddada

132. “Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli” jumlasini qaysi moddada qayd etilgan?

A) 36 modda

V) 24 moddada

S) 28 moddada

D) 23 moddada

E) 21 moddada

133. Mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqi - bu

A) Ijtimoiy - iqtisodiy huquq

V) SHaxsiy huquq

S) Siyosiy huquq

D) To'g'ri javob yo'q

E) Tabiiy huquq

134. Bilim olish huquqi - bu

A) Ijtimoiy - iqtisodiy huquq

V) SHaxsiy huquq

S) Siyosiy huquq

D) To'g'ri javob yo'q

E) Tabiiy huquq

135. Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi - bu

A) Ijtimoiy - iqtisodiy huquq

V) SHaxsiy huquq

S) Siyosiy huquq

D) To'g'ri javob yo'q

E) Tabiiy huquq

136. Ijtimoiy ta'minot olish huquqi konstitutsiyaning qaysi moddasida aks ettirilgan?

A) 39 modda

V) 24 moddada

S) 28 moddada

D) 23 moddada

E) 21 moddada

137. "Davlat fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi" jumlasini qaysi moddada qayd etilgan?

A) 43 modda

V) 24 moddada

S) 28 moddada

D) 23 moddada

E) 21 moddada

138 Viloyatlar, shaharlar, tumanlarni tashkil etish, tugatish kimning vakolatiga kiradi?

A) Oliy Majlisning

V) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

S) Vazirlar Mahkamasining

D) Konstitutsiyaviy sudning

E) To'g'ri javob yo'q

139. Fuqarolikni o'zgartirish haqida ariza qancha muddatda ko'rib chiqiladi?

- A) Bir yillik muddatda
- V) Bir oylik muddatda
- S) Bir xaftalik muddatda
- D) yarim yillik muddatda
- E) 3 oylik muddatda

140. Jamiyatning iqtisodiy negizini nima tashkil etadi?

- A) Mulkning xilma-xil shakllari
- V) Er osti boyliklari
- S) Xususiy mulk
- D) SHaxsiy mulk
- E) Aralash mulk

141. Kim qonunlarni imzolaydi?

- A) Prezident
- V) Bosh vazir
- S) Spiker
- D) Senat Raisi
- E) Markaziy saylov komissiyasi Raisi.

142. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kim saylanadi?

- A) 25 yoshga to'lgan, oxirgi 5 yilda muqim yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari
- V) O'z manfaatidan davlat manfaatini ustun qo'yuvchilar
- S) Davlat ishlarini va qonunlarini yaxshi biladigan fuqarolar
- D) Fuqaroligi bo'lmagan shaxslar
- E) To'g'ri javob yo'q.

143. Mahalliy hokimiyat organlarining konstitutsiyaviy vazifasini ko'rsating.

A) Fuqarolarning manfaatini yuqori davlat organlarida qo'riqlash

V) Qonuniylik, huquqiy - tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash

S) Jinoyatchilikni oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurash

D) A) va V)

E) To'g'ri javob yo'q.

144. O'zbekiston xalqini kim tashkil etadi?

A) Millatidan qat'iy nazar O'zbekiston fuqarolari, O'zbekistonda doimiy yashayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va chet el fuqarolari.

V) O'zbekistonda tug'ilgan shaxslar

S) Millatidan qat'iy nazar O'zbekiston fuqarolari, chet el fuqarolari.

D) chet eldagi o'zbeklar

E) To'g'ri javob yo'q

145. Kimlar davlatning alohida himoyasida?

A) voyaga etmaganlar, mehnatga layoqatsizlar, yolg'iz qariyalar, nogironlar.

V) davlatning alohida topshirig'ini bajarganlar

S) davlat oldida ko'p xizmat qilganlar

D) chet el fuqarolari

E) fuqaroligi bo'lmagan shaxslar

146. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini rasmiy talqin etish huquqiga ega bo'lgan davlat organini ko'rsating

A) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi

V) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi;

S) O'zbekiston Respublikasining Prezidenti;

D) Senat

E) To'g'ri javob yo'q

147. Oliy Majlisni kim tarqatib yuborish huquqiga ega?

A) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

V) Spiker

S) Konstitutsiyaviy sud

D) Senat Raisi

E) Bosh vazir

148. Kim qonunchilik tashabbusiga ega?

A) Qonunchilik palatasi deputatlari

V) Sudyalar

S) Prokurorlar

D) Xavfsizlik xizmati xodimlari

E) Ombudsman

149. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qachondan boshlab o'z lavozimiga kirishadi?

A) Qasamyod qabul qilgandan

V) Saylangandan so'ng bir oy ichida

S) Saylanganligi e'lon kilinishi bilan

D) Saylangandan so'ng 10 kun ichida

E) Saylov o'tkazilgan kundan

150. Sudyalar kimga bo'ysunadi?

A) Konstitutsiya va qonunga

V) Bosh vazirga

S) Prokuratura organlariga

D) Konstitutsiyaviy sudga

E) Prezidentga

151. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning munosabati nimaga asoslanadi?

A) o'zaro hamkorlikka

V) ishontirish prinsipiga

S) majburlov prinsipiga

D) Bo'ysunish asosida

E) To'g'ri javob yo'q

152. Mahalliy vakillik organlarining tizimini aniqlang?

A) Viloyatlar, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari

V) Viloyatlar, tumanlar, shaharlar, qishloqlar xalq deputatlari Kengashlari

S) Viloyatlar, tumanlar, shaharlar, qishloqlar, ovullar xalq deputatlari Kengashlari

D) Qoraqalpog'iston Respublikasi, tumanlar, shaharlar, qishloqlar, ovullar xalq deputatlari Kengashlari

E) Viloyatlar, tumanlar, ovullar xalq deputatlar Kengashlari

153. Hokimlar qanday hujjatlar qabul qiladi?

A) qarorlar, farmoyishlar

V) Buyruqlar, qarorlar

S) qarorlar, farmonlar

D) Qonun

E) Qonun, buyruq

154. Davlat organlari va masabdor shaxslar kimning oldida mas'uldir?

A) Jamiyat va fuqarolar oldida

V) Millatlar oldida

S) Siyosiy partiyalar oldida

D) Davlat oldida

E) Prezident oldida

155. Respublikada davlat hokimiyatini kim amalga oshiradi?

- A) Vakolatli idoralar
- V) Jamoat birlashmalari
- S) Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari
- D) Prezident devoni
- E) Hokim

156. O'zbekistonda davlat hokimiyati bo'linishining prinsipi?

- A) qonunchilik, ijro, sud hokimiyati
- V) Vakillik, ijro, sud hokimiyati
- S) Mahalliy, markaziy, sud hokimiyati
- D) Markaziy, mahalliy
- E) Vakillik, sud hokimiyati

57. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini kim ta'minlaydi?

- A) Davlat
- V) Malakali advokatlar
- S) Prokurorlar
- D) Sudyalar
- E) IIB xodimlari

158. Mahalliy vakillik organlari qanday hujjatlar qabul qiladi?

- A) qarorlar
- V) Yo'riqnomalar
- S) qonunlar
- D) Buyruqlar
- E) Farmoyishlar

159. Mahalliy vakillik organlarining qonunga zid qarorlarini kim bekor qila oladi?

- A) O'zbekiston Prezidenti
- V) Bosh prokuror
- S) Senat raisi
- D) Spiker
- E) To'g'ri javob yo'q

160. Viloyat, tuman, shahar prokurorlarini kim tayinlaydi?

- A) Bosh prokuror
- V) O'zbekiston Prezidenti

- S) Spiker
- D) Senat Raisi
- E) Bosh vazir

161. Prezidentlikka nomzod kimlar tomonidan ko'rsatiladi?

- A) Siyosiy partiyalar
- V) Mahalliy hokimiyat vakillik organlari
- S) O'zini o'zi boshqarish organlari
- D) Vazirlar Mahkamasi
- E) Konstitutsiyaviy sud

162. Vazirlar Mahkamasi qanday hujjatlar qabul qiladi?

- A) Qaror, farmoyish
- V) Farmon, buyruq.
- S) Murojaatnoma
- D) yo'riqnoma
- E) Qonun

163. Qoraqolpog'iston Respublikasining chegarasi va hududi kimning roziligi bilan o'zgartiriladi?

- A) Qoraqolpog'iston Respublikasining
- V) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining
- S) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
- D) Bosh prokurorning
- E) Senat Raisining

164. Xususiy mulk egasi, qachon mulkdan mahrum qilinadi?

- A) Qonunda nazarda tutilgan holda va tartibda
- V) Davlat manfaatini ko'zlab
- S) Aholi manfaatini ko'zlab
- D) Jamiyat manfaatini ko'zlab
- E) To'g'ri javob yo'q

165. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

- A) 1992 yil 8 dekabrda
- V) 1992 yil 9 dekabrda
- S) 1991 yil 31 avgustda
- D) 1993 yil 14 yanvar

E) 1991 yil 21 avgustda

166. O‘zbekiston SSR ning 1978 yilgi Konstitutsiyasi qachon o‘z kuchini yo‘qotgan?

A) 1992 yil 8 dekabrda

V) 1991 yil 7 dekabrda

S) 1991 yil 31 avgustda

D) 1993 yil 10 avgustda

E) 1990 yil 24 martda

167. Davlat mukofotlari, orden, medallarni kim ta’sis etadi?

A) Oliy Majlis palatalari

V) O‘zbekiston Prezidenti

S) Konstitutsiyaviy sud

D) Vazirlar Mahkamasi

E) Adliya vazirligi

168. Konstitutsiyaga kim o‘zgartirish kirita oladi?

A) Oliy Majlis palatalari

V) O‘zbekiston Prezidenti

S) Konstitutsiyaviy sud

D) Vazirlar Mahkamasi

E) Prezident devoni

169. Kimlar vakillik organlariga saylanishi mumkin emas?

A) Sudyalar, prokurorlar

V) Boshqa millatga mansub O‘zbekiston fuqarolari

S) O‘zbekistonda oxirgi 10 yilda muqim yashaganlar

D) o‘zbekiston fuqarolari

E) To‘g‘ri javob yo‘q.

169. Senat tomonidan rad etilgan qonun qanday tartibda qabul qilinadi?

A) Agar Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining 2/3 qismi qonunni ma’qullasa;

V) Agar kelishuv komissiyasi ikkala palatani murosaga keltirsa;

S) Agar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni yoqlab murojaat qilsa;

D) Spiker shuni xoxlasa.

E) Senat Raisi ma’qul deb topsa



- 1.**agressiya (bosqinchilik)**-bmt ustaviga nomuvofiq ravishda bir davlatning boshqa davlat suvereniteti, xududiy daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi harbiy kuch ishlatish bilan tajavuz qilishi.
- 2.**advokat**-oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va belgilangan tartibda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi lisenziyani olgan o'zbekiston respublikasining fuqarosi o'z rda advokat bo'lishi mumkin.
- 3.**ayb**- javobgarlikka tortishning zaruriy sharti.
- 4.**adliya**-(arab-adolat)-sud muassasalarining butun majmuini, ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatini, shuningdek, sud idorasini bildiruvchi termin.
- 5.**aksept krediti**- banklar tomonidan banklardagi eksport qiluvchilar ko'chirib oladigan o'tkaziluvchi veksellar aksepti shaklida beriladigan kredit, tashqi savdoni bank tomonidan kreditlash shakllaridan biridir.
- 6.**aliment**-voyaga etmagan, shuningdek voyaga etgan mehnatga layoqasiz, yordamga muhtoj shaxslarga ta'minot berish majburiyati
- 7.**aralash huquqlar**-alohida huquqlarning mualliflik huquqidan paydo bo'ladigan, lekin ularga to'liq muvofiq bo'lmagan bir turi.
- 8.**astoydil pushaymon bo'lish**-jinoiy javobgarlikni engillashtiruvchi holatlardan biri.u sudga modda sanksiyasidagi jazo chorasini engillashtirish imkonini beradi.
- 9.**ashyoviy dalillar**-jinoyat yoki jinoyatchi shaxslardan qoladigan moddiy izlar. jinoyat sodir etilishida ishlatiladigan qurollar yoki tajavuz natijasida vujudga kelgan moddiy o'zgarishlar va ularning sodir etilganini bildiruvchi izlar ham ashyoviy dvlil hisoblanadi.
- 10.**aholining ijtimoiy faolligi**-ijtimoiy ongning kishilik jamiyati siyosiy hayotiga tegishli bo'lgan tibiiy ehtiyojini belgilovchi holati.
- 11.**boshqaruv uslubi**- davlat boshqaruv faoliyatining maqsadlariga erishish, vazifalarini bajarish va funksiyalarini amalga oshirish vositasi.
- 12.**boshqa ishga o'tkazish** - mehnat shartnomasi shartlaridan birining o'zgartirilishi.
- 13.**banditizm**-davlat va jamiyat muassasalariga, korxonalar yoki ayrim shaxslarga hujum qilish maqsadida qurolli to'dalar tashkil etish.
- 14.**bezorilik** – o'z jk ning 277-moddasida nazarda tutilgan jamoat tartibiga qarshi jinoyat. u jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensinmaslik, urush-do'pposlash, badanga engil shikast etkazish yoki o'zganing mulkiga shikast etkazish yoxud nobul qilish orqali jiddiy zarar etkazishda namoyon bo'ladi.
- 15.**belli kazusi**-davlatlar o'rtasida urush holatining kelib chiqishi uchun bevosita farmal bahona.
- 16.**bilvosita daromad**-jismoniy shaxs qo'shimcha faoliyati natijasida oladigan daromad.
- 17.**bitim**-fuqarolik huquqida fuqaro va yuridik shaxslarning fuqarolik huquqi va majburiyatlarini o'rnatish, o'zgartirish va tugatishga qaratilgan harakat.
- 18.**bodmeriy shartnoma**-kemaning qarzini to'lash uchun garovni tasdiqlovchi hujjat.

- 19.bonda yuki-boj hali to'lanmagan va bojxona omborida turgan import tovarlar.
- 20.bosh polis-sug'urtachi va sug'urta qiluvchi idora o'rtasida tuziladigan uzoq muddatli shartnoma.
21. vasiylik va homiylik - ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek bunday bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi
- 22.vazirlar mahkamasi-o'z r.ning hukumati, davlatning oliy ijroiya organi.
- 23.vakolat-fuqaroviy huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi shaxsga beriladigan faoliyat doirasi
- 24.valyuta pariteti-davlat qonuni va hukumatlarlararo kelishuv asosida valyuta qiymatlarini belgilash.
- 25.vasiqa-o'zr fuqarolik qonunchiligiga muvofiq, mol-mulkka egalik qilishni tasdiqlovchi dalolatnoma, hujjat.
- 26.vasiyatnoma-qonunda belgilangan tartibda fuqaroning o'ziga tegishli mol-mulkni yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etish xususidagi xoxish-irodasi va bu istakni ifoda ettiruvchi hujjat.
- 27.vaqtincha ushlab turish izolyatorlari-jinoyat sodir qilishda gumon qilinuvchi sifatida ushlab turish uchun mo'ljallangan joy.
- 28.versiya-biror voqea, hodisa yoki faktlar to'g'risida bildirilgan turli fikr, mulohaza, bayonot.
- 29.vindikasion da'vo-mulkdorning o'zganing noqonuniy egalik qilishidan ashyoni talab qilib olish huquqi yoki boshqacha qilib aytganda mulkka egalik qilmayotgan mulkdorning egalik qilayotgan mulkdor bo'lmagandan mol-mulkni qaytirish huquqi da'vosi.
- 30.vositachilik haqi-mijozning vositachiga uning topshirig'i bo'yicha amalga oshirgan operatsiyasi va ko'rsatgan xizmati uchun to'lanadigan haq.
- 31..gipoteza-huquq normasini qo'llash sharti, biron-bir huquqqa ega bo'lish.
- 32.gangster- jinoiy do'q-po'pisa, tovlamachilik, odam o'ldirish va o'g'irlash kabi ishlar bilan shug'ullanuvchi bosqinchilar to'dasining ishtirokchisi.
- 33.garov-fuqarolik huquqida majburiyatlar bajarilishini ta'minlashning asosiy usullaridan biri.
- 34.genosid-milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni ushbu guruh a'zolarini o'ldirish, ularning sog'lig'iga og'ir ziyon etkazish, bolalar tug'ilishiga kuch ishlatib to'sqinlik qilish, bolalarni majburan topshirish, kuch ishlatib ko'chirish yoxud ushbu guruh a'zolarini to'la yoki qisman yo'q qilish.
- 35.guvoh-biror bir jinoyat yoki fuqarolik ishi bo'yicha o'tadigan biror-bir holatni o'z ko'zi bilan ko'rgan shaxs.
- 36.guruhiy nikoh-nikohning qadimiy shakli bo'lib, unga bir frakriya, urug' yoki muayyan ichki guruhning barcha erkaklari xuddi shunday boshqa gurug'ning ayollari bilan nikoh aloqasiga ega bo'lishlari mumkin bo'lgan.
- 37.davlat boshqaruvi-ijtimoiy boshqaruvning asosiy turi.
- 38.davlat xizmati – davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan harakat.
- 39.davlat boshqaruv organlari-ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshiradi.

- 40.deportasiya-jinoiy yoki ma'muriy jazo chorasi sifatida davlatdan majburan chiqarib yuborish.
- 41.davlat bankrotligi-davlatning tashqi va ichki qarzlarini to'lashdan to'liq yoki qisman bosh tortishi: davlat moliyaviy inqirozining eng yorqin shakli.
- 42.davlat dini-tegishli diniy institutning davlat rasmiy tashkiloti tarkibidagi qismi deb tan olinishini bildiradigan konstitutsiyaviy-huquqiy institut.
- 43.davlat siri- harbiy, iqtisodiy va siyosiy xususiyatga ega, alohida davlat ahamiyatiga molik bo'lgan va davlat tomonidan maxsus qo'riqlanadigan ma'lumotlar.
- 44.davlat xizmati- ma'muriy huquqning markaziy institutlaridan biri, davlat organlari vakolatlarining bajarilishini ta'minlash bo'yicha kasbiy faoliyat.
- 45.davlat yurisdiksiyasi-davlat sud va ma'muriy organlarining o'z vakolatlaridan kelib chiqib ishlarni ko'rib chiqish va xal etish huquqi.
- 46.davlat hududi-er sharining muayyan davlat suverenitetida bo'lgan qismi, uning tarkibiga quruqlik bag'ri bilan birga suv havzalari hamda quruqlik va suv havzalarini ustidagi havo kengliklari kiradi.
- 47.dekuver-mulk bahosi va sug'urta summasi o'rtasida sug'urta qilinuvchi shaxs tavakkaliga qoldiriladigan farq.
- 48.dekort-tovar bahosini muddatidan oldin tshlaganlik uchun beriladigan imtiyoz.
- 49.demarsh-bir davlat tashqi aloqa organlarining boshqa davlatga nisbatan favqulodda chiqishi.
- 50.denominasiya-pul muomalasini tartibga solish va milliy valyutaga ko'proq salmoq berish maqsadida mamlakat pul birligini yiriklashtirish.
- 51.ekosid-hayvonot va o'simliklar dunyosini yoppasiga qirib tashlash, atmosfera va suv resurslarini zaharlash, shuningdek, ekologik inqirozlar keltirib chiqaradigan boshqa harakatlarni amalga oshirish.
- 52.ekologik urush- raqibga, uning xududiga ta'sir qilish orqali zarar etkazish. bu bmt tomonidan man qilingan.
- 53.ekologik jamg'armalar-byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari. ular kechiktirib bo'lmaydigan tabiiy muhofaza vazifalarini bajaradilar.
- 54.ekologik ofat zonolari- o'zbekiston respublikasi xududiy uchastkalarida xo'jalik va boshqa faoliyat natijasida faunalar va floralar buzilishi, tabiiy ekologik tizimni vayron qilish natijasida tabiiy muvozanatning buzilishi.
- 55.eksgibisionizm- o'z tanasi a'zolarini qarama-qarshi jinsdagi yoki o'z jinsidagi odamlarga yalong'och qilib ko'rsatish orqali jinsiy qoniqish olish yoki lazzatlanish.
- 56.eksgumasiya-shaxs o'limining sababi yoki o'likning shaxsini aniqlash masadida ko'milgan murdani qayta kavlab olish.
- 57.iyrochi-maishiy xizmat, uy-joy kommunal ta'mirlash, qurilish, transport xizmati va xizmat ko'rsatishning boshqa sohaları bo'yicha iste'molchi uchun ishlar bajaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan korxona, tashkilot, birlashma yoki yakka tartibda faoliyat ko'rasatuvchi tadbirkor.
- 58.iste'molchi –foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs).

59. ishlab chiqaruvchi – iste'molchiga realizasiya qilish uchun tovar ishlab chiqaradigan korxona, tashkilot, muassasa yoki xususiy tadbirkor.
60. indent-agent-chegara ortida vositachilik asosida xorijiy mol etkazib beruvchidan kelib tushadigan tovarlarni sotish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiruvchi agent.
61. indeksasiya-inqirozdan himoya qilish vositasi sifatida kontraktlar va majburiyatlar bo'yicha narxlar indeksi bilan to'lovlar muvoqligi.
62. ish vaqti- mehnat huquqida kalendar vaqtining bir qismi, bu vaqt mobaynida ishchi yoki xizmatchi o'ziga ko'rsatilgan joyda topshirilgan ishini yoki boshqa ish majburiyatlarini bajarishi kerak.
63. ishonch xati-fuqarolik huquqida bir shaxs boshqa shaxsga uchinchi shaxslar oldida uning nomidan ish yuritishi uchun beriladigan yozma vakolat.
64. iqtisodiy josuslik-qonunga xilof ravishda iqtisodiyot, tijorat, ishlab chiqarish sohasidagi ma'lumotlarni o'z manfaatlari uchun olish va foydalanish.
65. iqtisodiy huquqlar-iqtisodiy sohadagi inson faoliyatining yuridik jihatdan belgilovchi huquqlarning majmui.
66. konfederasiya – shartnoma asosida qat'iy muayyan maqsadlar yo'lida birlashishidir.
67. kafil- u yoki bu narsaga kafolat beruvchi davlat, muassasa yoki shaxs.
68. kafolat muddati-fuqarolik huquqida tovar oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sifat talablariga javob berishi, ish va xizmatlar esa-o'zining is'temol xossalarini saqlab qolishi kerak bo'lgan davr.
69. kodifikasiya-normativ-huquqiy aktlarni qayta ishlash yo'li bilan ularning yagonaligiga olib boruvchi proses.
70. kontraktasiya-mahsulot etishtiruvchi bilan davlat yoki bosh xaridor o'rtasida tuziladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarini etkazib berish to'g'risidagi shartnoma.
71. legalizasiya-biron tashkilotning faoliyatini qonuniylashtirish, biron-bir hujjatga, harakatga yuridik kuch berish, legal holatga o'tish. xorijiy davlatlarga beriladigan xujjatning haqiqiylikni tasdiqlash va unga yuridik kuch berish. noqonuniy yo'l bilan topilgan pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkni oshkoralashtirish.
72. lesbiyanlik-ayollarning ayollar bilan jinsiy aloqasi.
73. lisenziya-maxsus vakolatli davlat organi amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra lisenziyalanishi lozim bo'lgan faoliyat turi bilan muayyan muddat davomida shug'ullanish uchun beriladigan ruxsat.
74. lyumpsum-tashilayotgan yukning haqiqiy miqdoridan qat'iy nazar, butun kema uchun akkord ravishda olinadigan kira haqi.
75. ma'muriy-boshkaraman, boshqaruvchi ma'nosini anglatadi.
76. ma'muriy huquq-davlat boshqaruvini tashkil etish tartibi va boshqaruvni amalga oshirish normalarini uz ichiga olgan huquqning aloxida tarmogi.
77. ma'muriy jarayon – ijro hokimiyat organlarining ma'muriy prosessual shaklda amalga oshiriladigan va aniq bir huquqiy masalalarni hal etishga qaratilgan hokimiyat faoliyati.
78. ma'muriy huquqiy norma-davlat tomonidan urnatilgan va bajarishi shart bo'lgan koida.
79. ma'muriy huquqbuzarlik-ma'muriy koidalarning buzilishidir.

80.ma'muriy javobgarlik – ma'muriy huquq normalari bilan tartibga solingan, ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan ma'muriy prosessual tartibda ma'muriy jazoni qo'llashdir.

81.makler-vositachi degan ma'noni anglatadi.

82.mulkiy zarar-jismoniy va yuridik shaxs mulkiga unga ziyon etkazish yoki u bilan birga tuzilgan shartnomani bajarmaslik oqibatida etkazilgan zarar.

83.mehnat shartnomasi - ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi kasbga oid yozma kelishuvdir.

84.mehnatga layoqatlilik-inson salomatligiga bog'liq bo'lgan mehnat faoliyatiga qobillik.

85.mehnatni muhofaza qilish jamg'armalari-mehnatni muhofaza qilishga doir tadbirlarni mablag' bilan ta'minlash manbai bo'lib xizmat qiluvchi.

86. jamiyat- kishilarning murakkab ijtimoiy birlashmasidir.

87.jamoa shartnomasi - bu korxonada ish beruvchi va xodimlar o'rtasidagi mehnat, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni normativ hujjat.

88.jamoa izzasi-mahkumni omma o'rtasida uyaltirish, unga qo'llaniladigan jazoning samarasini oshirish maqsadida jazoni ijro etish usuli.

89.jahon bozori-milliy bozorning jahon darajasiga chiqishi bo'lib, asosan davlatlarning iqtisodiy hamkorligi, munosabatlarida namoyon bo'ladi. unda jahon bahosi o'rnatilgan bo'lib, davlatning bojxona siyosati va holati bilan bog'liq bo'ladi.

90.jahon sudi-ayrim mamlakatlarning quyi sudi tizimi bo'lib, kichik fuqarolik va jinoiy ishlarni ko'radi.

91.jinoiy javobgarlik-yuridik javobgarlik turlaridan biri. jinoyat sodir etishning huquqiy oqibati bo'lib, aybdorga nisbatan jazolash shaklidagi davlat majburlov chorasini qo'llashdan iborat.

92.jamoa pudrati-brigada yoki boshqa jamoa mehnatini tashkil etish va unga haq to'lash shakli. to'lov bajarilgan pirovard natijaga qarab amalga oshiriladi.

93.zarar- fuqarolik huquqida bir shaxsning qonunga hilof harakati yoki harakasizligi tufayli ikkinchi shaxsga etkazgan pul shaklidagi ziyon.

94.zaharlar-sud toksikologiyasida tirik organizmlarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi kimyoviy moddalar.

95.zo'rlik-biror kishining ikkinchi bir kishiga nisbatan zo'rlik qilishi, zo'rlashi, kuch ishlatish yshli bilan zo'rlashi, jabr-zulm qilishi. u insonning daxlsizligini buzib jismoniy va ma'naviy zo'rlash, jabr-zulm qilish shaklida ham bo'lishi mumkin.

96.nikoh shartnomasi-nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohida bo'lgan davrida va er-xotin nikohdan ajratilgan taqdirida ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi

97.nazariya-jamiyat taaqqiyoti qonuniyatlarini mujassamlashtirgan amaliyotning mantiqan ilmiy umumlashtirilishidir.

98.nikoh haqiqiy emas deb topilishi - faqat sud tartibida amalga oshiriladi

99.nikohni qayd etish - nikohlanuvchi shaxslardan birining yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan amalga oshiriladi.

100.narkobiznes-norkotik moddalarni olish va sotish bilan shug'ullanadigan jinoiy uyushma faoliyati.

101.naturalizasiya-xorijiy fuqaroni muayyan davlatni haqiqiy fuqarosi qilib qabul qilish

102.nafaqa-qonunda belgilangan tartibda davlat yoki boshqa bir sub'ektlar tomonidan tayinlanadigan umrbod va doimiy moddiy ta'minot.

103.negator da'vo-mulkdorning mulkiy huquqini uning ashyoga egalik qilishdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan buzishliklardan himoya qilishga yo'naltirilgan. bu da'vo mulkdorga uning mol-mulkidan foydalanishga xalaqit beruvchi to'siqlarni bartaraf qiladi.

104.obrogasiya-eski qonunga qisman o'zgartirishlar kiritish.

105.obstruksiya-shovqin ko'tarish, ishga taalluqli bo'lmagan uzundan uzoq nutq so'zlash orqali yig'ilish, majlis va hokozolarni buzishga qaratilgan, ko'proq parlamentcha e'tiroz turi, kurash uslubi.

106.oversold-ma'lum turdagi mahsulot yoki qimmatli qog'ozlarning bozorda ko'payib ketishi sababli, narxlar keskin tushib ketishi natijasida yuzaga keladigan holat.

107.odat huquqi-ma'lum davlat, joy yoki etnik va ijtimoiy guruhda takroriy qo'llanishi natijasida yuzaga kelgan jamoat munosabatlarini boshqaruvchi yozilmagan axloq qoidalar majmui.

108.respublika – davlatni idora qilish (boshqarish) shakli bo'lib, unda davlatni saylab qo'yilgan kishilar boshqaradi.

109.ratifikasiya-tasdiqlash, biror bir mamlakatning oliy davlat organi tomonidan tasdiqlangan xalqaro shartnoma.

110.reabilitasiya-nohaq qoralangan, ayblanuvchi sifatida javobgarlikka tortilgan yoki aybdor deb hisoblangan, nohaq hukm qilingan shaxsga nisbatan ma'muriy ta'sir chorasi ko'rilishi hisoblanadi.

111.ramburs krediti-savdo operatsiyalarini bank tomonidan qisqa muddatli kreditlash.

112.regress da'vo-qarzdorning aybi bilan uchinchi shaxsga to'langan pulni qaytarish to'g'risidagi qarshi talabnoma.

113. syuzerenitet – frans., bir davlatning ikkinchi davlatga (vasiylik)ga nisbatan ustuvorlik huquqi.

114.sabotaj-ma'lum majburiyatlarni olgan holda bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik.

115.sotuvchi-oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha iste'molchiga tovar realizasiya qiladigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tadbirkor.

116.savdo-tovar ishlab chiqaruvchi va uni iste'mol qiluvchi o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy vositachilik bo'lib, iste'molchilarga qayta sotish maqsadida ishlab chiqaruvchilardan tovarlarni xarid qilish yo'li bilan yoxud tovarlarni iste'molchilarga sotish va keyinchalik ularning pulini ishlab chiqaruvchilarga to'lash yo'li bilan amalga oshiriladi.

117.sanasiya-qarzdor tashkilotlarga davlat yoki boshqa tashkilotlar tomonidan moliyaviy yordam berilishi.

118.satisfaksiya-xalqaro-huquqiy javobgarlik shakllaridan biri bo'lib, huquqbuzar davlat jabrlangan davlatga ko'rgan zararni qoplashga so'z beradi.

119.status-huquq sub'ektlarining huquq va majburiyatlari majmuini ifoda etuvchi, huquq normalari bilan belgilangan holat.

120.sub'ektiv huquq-fuqaroviy tashkilotning o'z manfaatlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan maqsadiga erishish yo'lida amalga oshirishi mumkin bo'lgan hatti-harakatlari qonun orqali ta'minlangan chorasini.

121. tovar – bu ishlab-chiqaruvchi faoliyatining iste'molchiga shartnoma bo'yicha sotish uchun mo'ljallangan mahsulotidir.

122.terrorizm-jamoat havfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyat xalqning tinchligini buzish.

123.tabiatning huquqiy muhofazasi-tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan yuridik normalarda qayd etilgan, inson hayot sharoitini yaxshilashga yo'naltirilgan davlat chora-tadbirlari majmui.

124.tavsifnoma-shaxsning xizmat, jamoat va boshqa faoliyatlaridan guvohlik beruvchi rasmiy hujjat.

124.taksa-tovarga belgilangan aniq narx yoki ish va xizmatlarga to'lanadigan haqning belgilangan hajmi.

125.taloq-shariatda er tomonidan e'lon etilib, nikohning bekor qilinishi.

126.tarif stavkasi-xodim yoki yollanib ishlovchiga bir soat yoki bir kunlik mehnati uchun to'lanadigan ish haqining hajmi.

127.unitar – (lot. uniya – birlik) – yagona. davlatning tuzilish shakli bo'lib, muayyan ma'muriy xududiy bo'linishga ega bo'ladi. biroq bu mustaqil xududlar (tumanlar, viloyatlar, kononlar) davlat suverenitetiga ega bo'lmaydi.

128. uzufruktariy-shaxsiy servitut egasining, ya'ni birovning mulkidan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxs.

129.ultimatum-bir mamlakat hukumatining boshqa mamlakat hukumatiga quyadigan qat'iy va hech qanday baxs va e'tirozlarga yo'l qo'ymaydigan talabi.

130.unitar davlat-davlat va milliy davlat tuzilishining shakli bo'lib, bunda davlat xududi ma'muriy-xududiy birliklarga bo'linadi.

131.ustav-davlat, mulk egasi yoxud jamoat tashkiloti o'rnatgan va tartibga soladigan qoidalar majmui.

132.uyushgan jinoyatchilik-qasddan jinoiy faoliyat bilan shug'ullanadigan va ijtimoiy nazoratdan himoya tizimini yaratuvchi turg'un boshqariladigan jinoiy tuzilmalar.

133. federasiya – (lot. ittifoq, birlashma) – davlatning tuzilish shakli bo'lib, uning asosi – ikki yoki bir necha mustaqil davlatning bitta ittifoq davlatga birlashishidir.

134.fuqarolik - shaxsning aniq bir davlatga siyosiy va huquqiy mansubligi.

135. fuqarolik muomalasi - iqtisodiy muomalaning fuqarolik huquqiy ifodasi.

136. fuqarolik holati dalolatnomalari - fuqarolar hayotidagi, tug'ilish, o'lim, nikoh tuzish, nikohdan ajralish kabi voqea hamda faktlarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanishidir.

137.farzandlikka olish - faqat voyaga etmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarinigina ko'zlab yo'l qo'yiladi.

138. fxdyo - fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish

139.faktoring-savdo-komission operasiyaning mijoz aylanma kapitalini kreditlash bilan uyg'unlashgan turi.

140.federalizm-davlat xududiy tuzilishining ikki shaklidan biri bo'lib, uning murakkab ittifoq xususiyatini taqozo etadi.

- 141.huquq normasi – huquq tizimining birlamchi unsuri bo‘lib, u davlat tomonidan o‘rnatiladigan hokimiyat harakteriga ega bo‘lgan xatti-harakat qoidasidir.
- 142.huquq tarmog‘i-bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar va huquq institutlarining alohida majmui.
143. xususiy mulk huquqi- shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishi.
144. xususiy huquq –umumiy manfaatlarni tartibga soluvchi va muhofaza qiluvchi ommaviy huquqdan farqli o‘laroq xususiy manfaatlarni munosabatlarni ifodalovchi hamda yakka mulkdorlar va birlashmalarni ularning mumkin faoliyatidagi va shaxsiy munosabatlaridagi mustaqilligi va tashabbusiga asoslangan munosabatlarni tartibga soluvchi huquq tarmoqlaridan biridir.
- 145.xalqaro kafolat- xalqaro huquqda xalqaro majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash bilan bog‘liq huquqiy normalar yigindisidir.
- 146.xaker-begona kompyuter tizimlariga kirish va ulardan axborotlar olish, noqonuniy ravishda dasturli mahsulotlar himoyasini buzish va ulardan nusxa ko‘chirish.
- 147.shartnoma intizomi-shartnomalarda belgilangan majburiyatlarni o‘z vaqtida va lozim darajada bajarish.
- 148.shtreykbrexer-ish tashlashda qatnashishdan bosh tortgan yoki ish tashlagan ishchilarning o‘miga ma‘muriyat tomonidan yollangan odam.
- 149.shikaner-insofsiz sotuvchi.
150. yuridik kafolat-fuqarolar va tashkilotlarning sub‘ektiv huquqlarini muhofaza qilishning qonunda belgilangan vositalari.
- 151.yuridik faktlar-qonunda nazarda tutilgan va muayyan huquqiy munosabatlar yuzaga kelishi uchun asos bo‘lgan holatlar.
- 152.yuridizasiya-biron-bir faktlarga, munosabatlarga huquqiy tus berish.
- 153.yuridik javobgarlik-huquqbuzarlik sub‘ektining huquq normalarida nazarda tutilgan noqonuniy oqibatlariga bardosh berish majburiyati.
- 154.yurisprudensiya-huquqshunoslik, yuridik fanlar majmuasi, yuristlarning amaliy faoliyati.
- 155.yuristiksiya-tegishli davlat organlarining huquqiy kelishmovchiliklarni va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni hal etish,ya’ni shaxs yoki boshqa huquq sub’ekti harakatlarini ularning qonuniyligi nuqtai nazaridan baholash.
- 156.yaroqlilik muddati - muayyan davr bo‘lib, bu davrda tovar foydalanishga yaroqli bo‘ladi va u tamom bo‘lgach, tovar odamlar hayoti va sog‘lig‘i uchun havf tug‘dirishi mumkin.
- 157.yarashuv-o‘zaro harbiy holatda bo‘lgan davlatlarning halqaro huquqiy normalar asosida yarashuvi.
- 158.yashash huquqi-insonning eng asosiy ham tabiiy, ham ijtimoiy huquqi.
- 159.o‘zlashtirish-fuqarolik huquqida mol-mulkning boshqa shaxs egaligiga berilishi.
- 160.o‘zboshimchalik bilan qurilish qilish-fuqarolik qonunlariga ko‘ra hech qanday hujjasiz qurilgan turar joy binolari.



MAXSUS ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. “o‘zbekistonning o‘z istiqbol va taraqqiyot yo‘li”. t., “o‘zbekiston” - 1992. b. 26
2. Karimov I.A. . “buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati” \bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2-tom. t. 1996. 96-bet.
3. Karimov I.A. «o‘zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura». t 1. t.: o‘zbekiston. 1996y. 123-bet.
4. Karimov I.A. “o‘zbekiston xxi asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. t., “o‘zbekiston” - 1997.
5. Karimov I.A. . o‘zbekiston xxi asr bo‘sag‘asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. / havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lidan. t. 6. –t.: «o‘zbekiston», 1998, 141-b.
6. Karimov I.A. . o‘zbekiston xxi asrga intilmoqda. t.: o‘zbekiston, 1999. 29-b.
7. Karimov I.A. . «qonunga hurmat, qonunga itoat hayotimiz mezon bo‘lsin» t.: toshkent oqshomi. 2001 y. 10-dekabr.
8. Karimov I.A. . «biz uchun xalqimiz, vatanimiz manfaatidan ulug‘ maqsad yo‘q» t.: xalq so‘zi 2001 y. 7 dekabr.
9. Karimov I.A. . «bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir” xalq so‘zi. 2005 yil 29 yanvar.
10. Karimov I.A. . « inson, uning huquq va erkinliklari hamda manaatlari – eng oliy qadriyat. t. o‘zbekiston. 2005 yil. 10-11 betlar.
11. Karimov I.A. . “inson manfaatlari ustuvorligini ta‘minlash – barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadidir”. t. xalq so‘zi. fevral 2008 yil.
12. Karimov I.A. . vatanimizning bosqichma – bosqich va barqaror rivojlanishini ta‘minlash – bizning oliy maqsadimiz. t. 7 xalq so‘zi. dekabr 2008 yil.
13. Karimov I.A. “jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, o‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari”. t. o‘zbekiston 2009 yil.
14. Karimov I.A. . o‘zbekiston konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo‘lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. t. o‘zbekiston. 2009 yil.
15. “Mamlakatimizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”. – prezident islom karimovning o‘zbekiston respublikasi oliy majlisi qonunchilik palatasi va senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi // xalq so‘zi, 2010 yil 28 yanvar.
16. “Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. – prezident islom karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda o‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi // xalq so‘zi, 2010 yil 30 yanvar.
17. Karimov I.A. asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir. t. o‘zbekiston. 2010 yil.
18. Karimov I.A. . jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko‘tarish sart. – t.: «o‘zbekiston», 2010. – j.18. 264 b.

19. Karimov I.A. mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: o'zbekiston respublikasi oliy majlisi qonunchilik palatasi va senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010 yil 12 noyabr / – toshkent: o'zbekiston, 2010. – 56 b. – b. s.
20. Prezident islom karimovning o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // xalq so'zi, 2010 yil 7 dekabr.
21. Karimov I.A. barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi: 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan o'zr vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2011 yil 21 yanv. – t.: o'zbekiston, 2011. – 48 b.
22. Karimov I.A. . «o'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» – t.: o'zbekiston, 2011.
23. Karimov I.A. ison manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir: o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza / 2012 yil 7 dek./ – toshkent: o'zbekiston, 2013.
24. Karimov I.A. amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir”. t. xalq so'zi. 2013 yil 7 dekabr.
25. Karimov I.A. .*“mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirish – bosh maqsadimizdir”*t. xalq so'zi. 2014 yil 6 - dekabr.
26. Karimov I.A. . “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. t. xalq so'zi. 2015 yil 17 yanvar.

ASOSIY VA QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Davlat va huquq nazariyasi. darslik. x.t.odilqoriev, i.t.tulteev va boshq.; x.t.odilqoriev tahriri ostida. – t.: “sharq”, 2009. – 592 b.
2. Xuquqshunoslik, o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi / o.karimovanning umumiy tahriri ostida. – toshkent: tdiu, 2009. – 141 b.
3. Xuquqshunoslik darslik xayitboev e.r. yokubov j. yangi asr avlodi nashriyoti 2006 yil (lotin yozuvida)
- 4.O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini o'rganish: (lotin yozuvidagi darslik) mualliflar jamoasi, bakalavriatning noyuridik yo'nalishlari uchun. – t.: yangi asr avlodi, 2005.
5. Ikramov r.a. jalilov sh.i., ganieva g.yu., polvonov i.t. o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasini o'rganish. o'quv qo'llanma. – t.: o'zmu, 2012
- 6.O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasiga sharh. mualliflar jamoasi. – t.: o'zbekiston, 2013.

elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.lex.uz>
2. “xalq so'zi” gazetasi – www.info.xs.uz.
3. “ma'rifat” jurnali – www.ma'rifat-inform.
4. “jamiyat va boshqaruv” jurnali – www.rzult.academy.freenet.uz.
5. www.ziyonet.uz.